



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI

SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI

V.Yu.Ahrorov

SOTSIAL PSIXOLOGIYA

Samarqand – 2020 yil

Ahrorov, Voris

Sotsial psixologiya. O'quv qo'llanma: Samarqand davlat universiteti. – Samarqand: SamDU nashri, 2020. – 246 b.

Ushbu o'quv qo'llanma shaxs va jamiyat munosabatlarini tizimli tarzda o'rganuvchi psixologiyaning muhim tarmoqlaridan biri bo'lgan sotsial psixologiya faniga bag'ishlangan. Unda sotsial psixologiyaning predmeti, sotsial psixologik qarashning rivojlanish tarixi, fanning metodologiyasi va metodlari, sotsial psixologiyaning asosiy yo'nalishlari, sotsial psixologiyada shaxs muammosi, muloqot va guruhlar muammosi, olomon psixologiyasi, guruh sharoitida zamonaviy o'qitishning pedagogik va psixologik texnologiyalari, shaxsning sotsializatsiyasi, sotsial ustanovka, boshqaruv muammosi, sotsial psixologiyaning tadbqiqiy sohalari bayon etilgan.

Ushbu o'quv qo'llanmada zamonaviy psixologiyada bugungi kun uchun dolzarb bo'lgan mavzular qamrab olingan. Bu mavzularni yo'ritishda xorij hamda rus psixologiyasi namoyandalarining, shuningdek O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim muassasalarida faoliyat olib borayotgan yetuk professor-o'qituvchilar, jumladan E.G'oziyev, V.Karimova, I.Maxmudov, N.Ismoilova, D.Abdullayeva, B.Sirliyevlarning darslik va o'quv qo'llanmalaridan foydalanilgan.

O'quv qo'llanmadan oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan psixologiya, amaliy psixologiya ta'lim yo'nalishi talabalari, shuningdek, shu sohada faoliyat yuritayotgan o'qituvchilar, ilmiy xodimlar va sotsial psixologiya sohasiga qiziquvchi barcha kitobxonlar foydalanishi mumkin.

Taqrizchilar:

S.M.Musinov – SamDU psixologiya kafedrasi dotsenti

A.I.Saidov – SamDChTI pedagogika va psixologiya kafedrasi dotsenti

Z.E.Abduraxmonova – O'zMU psixologiya kafedrasi dotsenti

ISBN –

KIRISH

Ilm-fan va texnologiyalarning jadal rivojlanishi, global dunyoda raqobatning ortishi sharoitida har bir davlat va jamiyatning bu jarayonda raqobatbardoshligi yoshlarning intellektual rivoji hamda ularning iste'dodi va qobiliyatlarini to'liq amalga oshirishga e'tibor berishga bog'liq bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi prezidenti Sh.M.Mirziyoyev o'zining nutqida "Biz yoshlarga doir davlat siyosatini hech og'ishmasdan, qat'iyat bilan davom ettiramiz. Nafaqat davom ettiramiz, balki bu siyosatni eng ustuvor vazifamiz sifatida bugun zamon talab qilayotgan yuksak darajaga ko'taramiz.

Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz¹", deb ta'kidlagan edi.

Shuning uchun bu masala har doim davlatlarning uzoq muddatli rivojlanishini ta'minlashga qaratilgan barcha strategiyalarda aks ettirilgan. O'zbekiston Respublikasining 2017-2021 yillarda rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishlari bo'yicha Harakatlar strategiyasi ham bu borada istisno bo'lmadi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy majlisining IX sessiyasida davlatimizning Birinchi prezidenti I.A.Karimov oliy ta'limni isloh qilishda va malakali kadrlarni tayyorlashda sotsial psixologiyaning fan sifatida alohida o'rni borligiga jamoatchilik diqqatini qaratgan edi. Darhaqiqat, yetuk kadr bo'lish uchun shaxs nafaqat o'z iqtidori, bilimi va saviyasini oshirishi zarur, balki jamiyatda turlicha sotsial munosabatlar tizimiga tayyor bo'lmog'i, sotsial faoliyatni boshqarishning ilmiy qonuniyatlari va qoidalarini mukammal egallamog'i zarur.

Boshqaruv, marketing va menejment, ta'lim va tarbiya sohalarida, ayniqsa, inson omili va uni boshqarishning psixologik tizimini bilishi – jamiyatda sog'lom insoniy munosabatlarni shakllantirish orqali uni kamol toptirish yo'lidir. Shuning uchun bugungi kunda Birinchi prezidentimiz I.A.Karimov ta'kidlaganidek, sotsial

¹ Sh.Mirziyoyev. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: O'zbekiston, 2016. – B. 14.

psixologiya va umuman, sotsial faoliyat bilan shug'ullanuvchi fanlarning asosiy vazifasi barkamol avlod tarbiyasini ta'minlovchi barcha ma'naviy, ruhiy va insoniy munosabatlar mohiyatini tahlil qilish, ularni boshqarishning eng samarali usullarini hayotga tadbiq etishdir. Bu o'rinda, ayniqsa sotsial tafakkurning, yangicha dunyoqarash va munosabatlarning shakllanishini, insonning o'ziga va o'zgalarga ta'sir etishning mexanizmlarini o'rganish eng dolzarb masalalardandir.

Davrimiz insonni mustaqil fikrli shaxs sifatida har bir soniyada o'ylashga, fikrlashga, mulohaza yuritib, o'zi uchun xulosalar chiqarishga majbur etmoqda. Ya'ni, bu cheksiz olamda biz o'zimizni o'zgalarsiz, o'z manfaatlarimizni o'zgalar manfaatisiz tasavvur qila olmaganimiz uchun ham sotsial psixologiyani bilishga majburmiz. Zero, mustaqil davlatimizning siyosati inson manfaatini himoya qilish, uning uchun munosib turmush tarzini yaratish ekan, bu ishlarni amalga oshirish uchun bo'lg'usi mutaxassis, pedagog-o'qituvchi, ziyoli ijtimoiy borliq qonuniyatlarini bilishi va undan maromida foydalanib, turmush normalariga bo'ysungan holda jamiyatda o'zining munosib o'rnini egallab, fuqarolik burchini ado etishga tayyor bo'lishi darkor. Shu nuqtai nazardan olib qaralganda, talabalar hukmiga havola etilayotgan "Sotsial psixologiya" o'quv qo'llanmasi shaxs va jamiyat munosabatlari qonuniyatlarini tavsiflashga bag'ishlangandir.

I BOB. SOTSIAL PSIXOLOGIYA FAN SIFATIDA

I.1. Sotsial psixologiya fanining predmeti va vazifalari

Insoniyat jamiyati paydo bo'lib, odamlar hamkorlikda mehnat qilish va yashash ehtiyojini sezgan davrdan boshlab ularda sotsial psixologik tafakkur, sotsial ruh paydo bo'lgan. Insoniyatning eng ilg'or vakillari bunday ruh qonuniyatlarini o'rganish, uning sirli tomonlarini sharhlashga urinib kelganlar. Lekin sotsial ruh qanchalik qadimiy bo'lsa, uning sirlarini o'rganuvchi fani sotsial psixologiya shunchalik navqirondir.

Sotsial psixologiya fan sifatida yaratilgan yili rasman 1908-yil hisoblanib, xuddi ana shu yil Londonda ingliz psixologi Uilyam Mak-Dugall (1871-1938) «Sotsial psixologiyaga kirish», Nyu-Yorkda amerikalik sotsiolog Edvard Olsvort Ross (1866-1951) esa «Sotsial psixologiya» darsligini chop etdilar. Bu yilda ham psixologning, ham sotsiologning bir soha bo'yicha kitob yozishlarining o'zi ramziy ma'noga ega bo'lib, bu fanning ikki fan oralig'ida psixologiya va sotsiologiya oralig'ida paydo bo'lganligining yana bir isboti bo'lib xizmat qildi. Ya'ni, sotsial psixologiya ikki turdagi qonuniyatlar sotsial hamda psixik taraqqiyot qonuniyatlari bilan ish olib boradi. Shuning uchun bo'lsa kerak, hozirgi kungacha sotsial psixologiyaning mavzu bahsi va u o'rganadigan sohalar borasida turlicha qarashlar va tortishuvlar mavjud.

Taniqli nemis olimlari Gans fon Gibsh va Manfred Forverglar bu fanning predmetiga quyidagicha ta'rif beradilar: «Odamlar uyushmasi, kooperatsiyalar sotsial psixologik tadqiqotlarning asosidir, uning ob'yekti esa sotsial ta'sir jarayonlari, ularni uyushishga majbur qiladigan shart-sharoitlar hamda motivlar sotsial psixologiya o'rganishi kerak bo'lgan sohalardir».

Rus sotsiologlari German Pavlovich Predvechniy va Yuriy Aleksandrovich Sherkovinlarning 1975-yilda bosilib chiqqan «Sotsial psixologiya» kitobida esa uning predmeti « ... ob'yektiv borliqning va unda ro'y beradigan hodisalarning psixika tomonidan o'ziga xos tarzda in'ikos etilishidir», deb hisoblaniladi. Bu mualliflar sotsial psixologiyaning barcha o'rganish ob'yektlarini sharhlar ekanlar, ko'proq sotsiologik yondashish bilan muammolarni yechishga harakat qilganlar.

Sotsial psixologiyaning mavzu bahsini ta’riflashga psixologik yondashuv Artur Vladimirovich Petrovskiy va Vladislav Viktorovich Shpalinskiylarning «Jamoaning sotsial psixologiyasi» kitobida bayon etilgan. Bu mualliflarning fikricha «Sotsial psixologiya psixologiya fanining shunday tarmog’iki, u turli uyushgan va uyushmagan guruhdagi odamlarning muloqoti, o‘zaro ta’sir va munosabatlaridan kelib chiqadigan psixik hodisalarni o‘rganadi».

Ilmiy sotsial psixologiyaning asoschilaridan bo‘lgan rus faylasufi va psixologi Boris Dmitriyevich Parigin sotsial psixologiyaning predmetiga quyidagicha ta’rif beradi: «Sotsial psixologiyaning predmeti bu – guruhiy, jamoaviy va ommaviy psixologiyaning o‘ziga xos xususiyatlari, ya’ni odamlarning umumiy faoliyatida namoyon bo‘luvchi ularning xulqi, kechinmalari va bir-birlari bilan psixologik muloqot qilish yo‘llaridir».

Hozirgi zamon amerikalik sotsial psixolog olimlardan Devid Myers fanning predmetiga quyidagicha ta’rif beradi: «Sotsial psixologiya bu – odamlarning bir-birlari haqida nimalarni o‘ylashlari, bir-birlariga qanday ta’sir ko‘rsatishlari hamda bir-birlariga qanday munosabatda bo‘lishlarini o‘rganuvchi fandır»¹.

Shuning uchun ham Galina Mixaylovna Andreyeva sotsial psixologiyaning mavzu bahsi haqidagi hozirgi zamon qarashlarini umumlashtirib, bu o‘rinda uch xil yondashish mavjudligini e’tirof etadi (1-jadval):

1-jadval

№	Yondashuv	Mazmuni
1	Sotsiologik	Sotsial psixologiya asosan ommaviy psixologik jarayonlarni xalqlar psixologiyasi, ommaviy marosimlar, udumlar, rasm-rusmlar, modaning inson ongiga singishi, sotsial xulq-atvorda namoyon bo‘lishini o‘rganishi kerak (Yu.A.Sherkovin, G.P.Predvechniy, R.Pento, M.Gravitts va boshqalar).
2	Psixologik	Shaxsning sotsial psixologik xislatlari, uning turli

¹ Майерс Д. Социальная психология, 2010. – 14 С.

		guruhlarda tutgan o'rnini, mavqei, sotsial ustanovkalar va hokazolarni o'rganmog'i lozim (A.V.Petrovskiy, B.F.Parigin, A.G.Asmolov, U.Mak-Dugall va boshqalar).
3	Ham sotsiologik, ham psixologik	Ham ommaviy jarayonlarni, ham shaxsning shu jarayonlardagi xulq-atvorlari motivlarini o'rganishi kerak.

Masalan, Vladimir Nikolayevich Myasishev 1960-yilda nashr etilgan «Shaxs va nevrozlar» kitobida, sotsial psixologiya shaxslararo o'zaro ta'sir jarayonida shaxsda paydo bo'ladigan ruhiy faoliyat xususiyatlarini ham, guruhlarning o'ziga xos psixologiyasini ham, jamiyatda ruy beradigan jarayonlarning psixologik tomonlarini ham bir vaqtda o'rganishni taklif etadi.

Amerika sotsial psixologiyasida ham sotsial psixologiyaning mavzu bahsi borasida uzoq tortishuvlar mavjud bo'lgan. Ularda bu fanning mavzu bahsini sotsiologiya yoki psixologiya fani ichidan qidirish (intradistsiplinar yondashuv) yoki ikkala fan oralig'idan qidirish hollarini kuzatishimiz mumkin. Lekin bu sohadagi tortishuvlar qanchalik bo'lmasin, baribir, G.M.Andreyevaning obrazli iborasiga ko'ra, uning «ota-onasi» sotsiologiya bilan psixologiya ekanligini tan olishi kerak.

Bu boradagi aniq fikrni fransuz olimlari R.Pento va M.Gravitlar ham ta'kidlashgan: «Shu paytgacha shaxs va jamiyat muammolari sohasida ikki xil yondashuv bo'lib kelgan edi: psixologiya inson tabiatini, uning psixikasini, sotsiologiya esa, jamiyat tabiatini, psixikasini o'rganib keldi. Sotsial psixologiya paydo bo'ldiki, u insonning jamiyatda munosabatining psixologik tomonini o'rganmoqda».

Umumiy holda, fanning predmetini *sotsial psixologiya odamlarning jamiyatda birgalikdagi ish faoliyatining natijasida hosil bo'ladigan tasavvurlar, fikrlar, e'tiqodlar, hissiy kechinmalar va xulq-atvorlarni tushuntirib beruvchi fandır*¹ deb ta'rif berishimiz mumkin.

Demak, har bir shaxsning jamiyatda yashashi, uning sotsial normalariga rioya qilgan holda o'ziga o'xshash shaxslar bilan o'rnatadigan murakkab o'zaro

¹ В.Каримова. Ижтимоий психология. – Тошкент: Фан ва технология, 2012. – Б. 8.

munosabatlari va ularning ta'sirida hosil bo'ladigan hodisalarning psixologik tabiatini va qonuniyatlarini tushuntirib berish sotsial psixologiyaning muhim tomonidir. Bundan kelib chiqadigan umumiy ta'riflarga, sotsial psixologiya, sotsial muloqotning murakkab shakl va mexanizmlarini o'rganuvchi fandır.

I.2. Sotsial psixologiyaning hozirgi kundagi mavqei

Jamiyat bu insonlar majmuidir. Uning taraqqiyoti va ma'naviy salohiyati ko'p jihatdan ana shu insonlar o'rtasida yuzaga keladigan o'zaro munosabatlarning tabiatiga, ular amalga oshiradigan murakkab sotsial hamkorlik faoliyatining mazmuniga bog'liq. Har bir inson jamiyatda yashar ekan, u unda o'ziga xos o'rin va mustaqil mavqe egallashga intiladi, binobarin, u o'ziga xos intilish, layoqat va faollik namunalarini namoyish qiladi. Insonlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni hamda har bir shaxsning jamiyatdagi o'rnini va uning turlicha sotsial munosabatlari tabiatini o'rganuvchi qator sotsial fanlar mavjud bo'lib, ularning orasida sotsial psixologiya alohida o'rin egallaydi.

Sotsial psixologiya juda qadimiy va shu bilan birga u o'ta navqiron fandır. Uning qadimiyligi insoniyat tarixi, madaniyati va ma'naviyatining qadimiy ildizlari bilan belgilanadi. Ular aslini olib qaraganda, u yoki bu jamiyatda yashagan kishilar o'rtasidagi, sotsial munosabatlarning va tafakkurning xosilasi bilan e'tirof etilsa, u o'z uslubiyoti, predmeti va fanlar tizimida tutgan o'rnining yangiligi insoniyat taraqqiyotining eng yangi davrida shakllanganligi va rivojiga turtki berganligi bilan tavsiflanadi.

«Yer-u ko'kdagi buyuk o'zgarishlarni sezish, his qilish va ulardan saboq chiqarish, o'rnatish uchun odamzot o'zining yon atrofiga uyg'och nigo, qalb ko'zi bilan qarashi lozim». Respublikamizning Birinchi prezidenti aytgan bu fikrni shaxs va uning psixologiyasi bilan qanday bog'lash mumkin. Bu fikrni mag'zini chaqadigan bo'lsak, uning butun mazmun-mohiyati go'yoki sotsial psixologiya va shaxs psixologiyasiga bog'liqligini ko'rishimiz mumkin. Axir har bir individ tug'ilganidan boshlab to umrining oxiriga qadar haqiqatan ham «yer-u ko'kdagi o'zgarishlarni sezib, his qilib, ulardan saboq chiqarib» yashaydi-ku! Aytish

mumkinki, aynan mana shunday jarayonlarni boshidan kechirgan individgina shaxs bo‘lib shakllanadi va jamiyat hayotiga qo‘shila oladi. Buning uchun undan hamisha «o‘zining yon-atrofiga uyg‘oq nigoh, qalb ko‘zi bilan qarash» talab etiladi. Shundagina u yetuk inson bo‘lib ulg‘ayishi va jamiyat uchun kerakli shaxs bo‘la olishi mumkin¹.

«Biz, faqat o‘zimiz uchungina yashay olmaymiz, – deb yozadi, mashhur romannavis yozuvchi German Melvill, – bizning hayotimiz boshqalarning hayoti bilan bir-biriga minglab rishtalar bilan chambarchas bog‘langandir». Sotsial psixologiya aynan mana shu rishtalarni o‘rganish bilan shug‘ullanuvchi fan hisoblanib, nima uchun jamiyatdagi kishilar bir-birlariga ta’sir o‘tkazishlari, bir-birlari haqida o‘ylashlariga oid ma’lumotlarning ilmiy asoslarini o‘rganadi.

O‘zbekistan Respublikasi Oliy majlisining IX sessiyasida davlatimizning Birinchi prezidenti I.A.Karimov oliy ta’limni isloh qilishda va malakali kadrlarni tayyorlashda sotsial psixologiyaning fan sifatida alohida o‘rni borligiga jamoatchilik diqqatini qaratdi. Darhaqiqat, yetuk kadr bo‘lish uchun shaxs nafaqat o‘z iqtidori, bilimi va saviyasini oshirishi zarur, balki jamiyatda turlicha sotsial munosabatlar tizimiga tayyor bo‘lmog‘i, sotsial faoliyatni boshqarishning ilmiy qonuniyatlari va qoidalarini mukammal egallamog‘i zarur.

Boshqaruv, menejment va marketing, ta’lim va tarbiya sohalarida, ayniqsa, inson omili va uni boshqarishning psixologik tizimini bilishi – jamiyatda sog‘lom insoniy munosabatlarni shakllantirish orqali uni kamol toptirish yo‘lidir. Shuning uchun bugungi kunda I.A.Karimov ta’kidlaganidek, sotsial psixologiya va umuman, sotsial faoliyat bilan shug‘ullanuvchi fanlarning asosiy vazifasi barkamol avlod tarbiyasini ta’minlovchi barcha ma’naviy, ruhiy va insoniy munosabatlar mohiyatini tahlil qilish, ularni boshqarishning eng samarali usullarini hayotga tadbiiq etishdir. Bu o‘rinda, ayniqsa sotsial tafakkurning, yangicha dunyoqarash va munosabatlarning shakllanishini, insonning o‘ziga va o‘zgalarga ta’sir etishning mexanizmlarini o‘rganish eng dolzarb masalalardandir.

¹ N.Ismoilova, D.Abdullayeva. Ijtimoiy psixologiya. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent, 2013. – B. 3.

Tayanch tushunchalar: sotsial psixologik tafakkur, sotsial ruh, jamiyat, psixologik, sotsiologik, odamlar uyushmasi.

Mavzuni o'zlashtirish uchun savollar

1. Sotsial psixologiya fanining rasman mustaqil fan sifatida tan olinishiga nima sabab bo'lgan?
2. Nemis olimlarining sotsial psixologiya fani predmetiga bergan ta'rifini izohlang?
3. Rus sotsiologlarining fan predmetiga bergan ta'rifi?
4. V.N.Myasishev 1960-yilda nashr etilgan «Shaxs va nevrozlar» kitobida fan predmetiga berilgan ta'rifni izohlang?
5. Fransuz olimlarining fan predmetiga bergan ta'rifi?
6. G.Andreyeva sotsial psixologiyani o'rganishda qanday yondashuvlarni nazarda tutgan?
7. Sotsial psixologiyaning bugungi kundagi mavqei?
8. Oliy ta'limni isloh qilishda va malakali kadrlarni tayyorlashda sotsial psixologiyaning fan sifatidagi o'rni xususida Birinchi prezidentimiz I.A.Karimovning fikrlari?

Bilimlarni mustahkamlash uchun test savollari

- 1. Insoniyat jamiyatida qachondan sotsial psixologik tafakkur, sotsial ruh paydo bo'lgan?**
 - A) Insoniyat paydo bo'lganidan boshlab
 - B) Hamkorlikda mehnat qilishdan boshlab
 - C) Odamlar yashash ehtiyojini sezgan davrdan boshlab
 - D) B va C javoblar
- 2. Sotsial psixologiya qachon rasman fan sifatida yaratilgan?**
 - A) 1910-yil
 - B) 1908-yil
 - C) 1909-yil
 - D) 1907-yil

3. 1908-yilda chop etilgan «Sotsial psixologiyaga kirish» darsligi muallifi kim?

A) U. Mak-Dugall

B) E.Ross

C) Z.Freyd

D) G.Gibsh

4. «Odamlar uyushmasi, kooperatsiyalar sotsial psixologik tadqiqotlarning asosidir, uning ob'yekti esa sotsial ta'sir jarayonlari, ularni uyushishga majbur qiladigan shart-sharoitlar hamda motivlar sotsial psixologiya o'rganishi kerak bo'lgan sohalardir». Ushbu fikr muallif(lar)i kim?

A) G.P. Predvechniy va Yu.A.Sherkovin

B) G.Gibsh va M.Forverg

C) E.Ross va G.Gibsh

D) V.Magdugall va E.Ross

5. Qaysi kitobda sotsial psixologiyaning predmeti «... ob'yektiv borliqning va unda ro'y beradigan hodisalarning psixika tomonidan o'ziga xos tarzda in'ikos etilishidir» deyiladi?

A) «Sotsial psixologiya» (E.Ross)

B) «Sotsial psixologiyaga kirish» (V.Magdugall)

C) «Sotsial psixologiya» (G.P. Predvechniy, Yu.A.Sherkovin)

D) «Jamoaning sotsial psixologiyasi» (A.V.Petrovskiy, V.V.Shpalinskiy)

6. Galina Andreyeva fikricha, sotsial psixologiyaning uch xil yondashuvidan biri bo'lgan sotsiologik yondashuv tarafdorlariga kirmaydiganlarni aniqlang.

A) G.P.Predvechniy

B) M.Gravitss

C) R. Pento

D) B.F.Parigin

7. «Shaxs va nevrozlar» kitobi muallifini toping.

A) V.Myasishev

B) A.V.Petrovskiy

C) A.G. Asmolov

D) R.Pento

8. «Shu paytgacha shaxs va jamiyat muammolari sohasida ikki xil yondashuv bo‘lib kelgan edi: psixologiya inson tabiatini, uning psixikasini, sotsiologiya esa, jamiyat tabiatini, psixikasini o‘rganib keldi. Sotsial psixologiya paydo bo‘ldiki, u insonning jamiyatda munosabatining psixologik tomonini o‘rganmoqda».

Yuqoridagi fikrlar kimga tegishli?

A) R.Pento va M.Gravitts

B) A.G.Asmolov va M.Gravitts

C) G.M.Andreeva va R.Pento

D) V.Myasishev va R.Pento

9. «Yer-u ko‘kdagi buyuk o‘zgarishlarni sezish, his qilish va ulardan saboq chiqarish, o‘rnak olish uchun odamzot o‘zining yon-atrofiga uyg‘oq nigoh, qalb ko‘zi bilan qarashi lozim». Ushbu jumlar kimga tegishli?

A) Sh.M.Mirziyoyev

B) I.A.Karimov

C) G.P.Predvechniy

D) V.V.Shpalinskiy

10. Qachon Islom Karimov Oliy ta‘limni isloh qilishda va malakali kadrlarni tayyorlashda sotsial psixologiyaning fan sifatida alohida o‘rni borligiga jamoatchilik diqqatini qaratdi?

A) Oliy Majlisning IX sessiyasida

B) Oliy Majlisning X sessiyasida

C) Oliy Majlisning XI sessiyasida

D) Oliy Majlisning XII sessiyasida

II BOB. SOTSIAL PSIXOLOGIK QARASHLARNING RIVOJLANISH TARIXI

II.1. Antik davr mutafakkirlari ishlarida sotsial psixologik ta'limotlarning rivojlanishi

Sotsial psixologiyaning fan sifatida rivojlanish tarixiga nazar tashlar ekanmiz, uning jamiyatning tarixiy rivojlanishi bilan bog'liq tarzda rivojlanganligining, ilmiy jihatdan esa, falsafiy qarashlar ta'sirida bo'lib, sof sotsial psixologik nazariyalarning juda oz sonli bo'lganligining guvohi bo'lishimiz mumkin.

Insoniyat tarixini o'rganar ekanmiz mutafakkirlar, olimlar, allomalar sotsial psixologik hodisalar bilan juda qiziqqanliklarining guvohi bo'lamiz. Lekin ular bu hodisalarni o'z davri ruhida, o'z nazariy va sotsial qarashlari, hattoki, turli oqimlar orasida tushunishga uringanlar. Shuning uchun ham sotsial psixologiyaning fan sifatida taraqqiyotini o'rganish uchun sotsial psixologik muammolar yoritilgan asar yoki olimning yashagan davri, uning siyosiy qarashlari, jamiyatning taraqqiyot xususiyatlarini ham o'rganish lozim. Ilmiy manbalar sotsial psixologiyaning davlat va huquq nazariyasi, siyosiy iqtisod, etika, falsafa fanlarining rivojlanishi bilan uzviy bog'liqligini ko'rsatadi. Ayniqsa, fan taraqqiyotiga falsafa fani o'zining sezilarli ulushini qo'shgan. Shuning uchun ham amerikalik olim Gordon Uillard Ollport (1897-1967) sotsial psixologik g'oyalarning yaratilishi va rivojlanishi falsafa bilan, uning ko'zga ko'ringan arboblaridan hisoblangan Platon nomi bilan bog'liq, deb yozgan edi.

Platon o'zining «Davlat» va «Qonunlar» deb atalgan dialoglarida shaxsning jamiyat bilan aloqalari masalasiga to'xtalib, jamiyat individga nisbatan o'zgarmas bir birlikki, uning taraqqiyoti jamiyat rivojlanishi qonunlarga buysunadi, degan fikrni himoya qilgan. Unga qarama-qarshi fikrni Aristotel bayon etib, individni barcha sotsial o'zgarishlarning sababchisi, chunki unda bunga imkon beruvchi psixologik tizimlar bor, deb yozadi. Ya'ni, shaxs va jamiyat o'rtasidagi munosabat masalasi Platonda jamiyat foydasiga hal bo'lgan bo'lsa, Aristotelda bu narsa shaxs foydasiga yechilgan. Ulardan keyingi yangi davr faylasuflari Tomas Gobbs, Klod Adrian Galvetsiy, Jon Lokk, Jan Jak Russo, Vilgelm Gegel, Nikollo Makiavelli, Sharq

faylasuflaridan Abu Rayhon Beruniy, Abu Nasr Forobiylar ham barcha asarlarida shaxs va jamiyat qarama-qarshiliklarini ilmiy asosda sharhlashga urindilar, lekin hech qaysisi bu muammoni sotsial psixologik muammo darajasiga ko'tara olmadi.

XIX asrning o'rtalariga kelib, kapitalistik munosabatlarning keskinlashuvi, turli davlatlar bilan iqtisodiy aloqalarning tobora o'sib borishi, turli xalqlarning bir mamlakatdan ikkinchisiga ko'chishi, ya'ni migratsiya munosabati bilan qator sotsial fanlar rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlar paydo bo'ldi. Ayniqsa, tilshunoslik, antropologiya, etnografiya, arxeologiya, huquqshunoslik va boshqa fanlar shakllanib, rivojlandi. Masalan, ingliz olimi etnolog Edvard Teylor (1832-1917) ibtidoiy jamoa tuzumidagi madaniyatni to'liq o'rganib chiqdi, amerikalik etnograf Lyuis Genri Morgan (1818-1881) hindular turmush tarzini tahlil qilib chiqdi, fransuz olimi Lyusyeyn Levi-Bryul' esa ibtidoiy odam tafakkuri xususiyatlarini o'rganar ekanlar, ular u yoki bu etnik, milliy guruhning psixologiyasini, ularga madaniy maishiy muhitning ta'sirini o'rganishga majbur bo'lishdi. Ya'ni ular alohida individ u yoki bu yillar vakili psixologiyasi sotsial jarayonlar bilan nechog'li bog'liq ekanligini nazariy jihatdan isbot qildilar.

Ayni shu davrda psixologiya fani ham ancha oyoqqa turgan mustaqil fanga aylandi. Lekin u atomistik, ya'ni alohida individ psixologiyasinigina o'rganadigan fan bo'lib, u odamlarni o'zaro muloqoti jarayonida ularda ro'y beradigan sirli o'zgarishlarga e'tiborini endi-endi qaratayotgan edi. Ayniqsa, patopsixologiya, pedagogik psixologiya sohalariga individ bilan boshqa individlar munosabati masalasini chetlab o'tish mumkin bo'lmay qoldi.

Lekin sotsial psixologiyani ilmiy manbalari sohasida sotsiologiya fanining xizmatini ko'rsatib o'tmay bo'lmaydi. Sotsiologiyaning asoschilari hisoblangan Ogyust Kont, Gerbert Spenser va boshqalar, jamiyatdagi sotsial hodisalarni o'rganish uchun albatta, o'ziga xos, ayrim psixologik holatlarni o'rganmoq lozim, degan fikrni qat'iy turib isbot qildilar. Ular har bir sotsial voqeada ruhiy hodisalar borligini isbot qilishga urindilar. Masalan, fransuz sotsiologi Gabriel Tard har bir individda «**Sotsial fakt**» boriligini, bu narsa uning miya doirasidagina emas, balki bir qancha miyalar aloqasi tufayli mavjuddir, deb hisoblaydi. Sotsial xulq-atvor modeli, uning fikricha

doimo individlararo munosabatni o'z ichiga olib, bunda bir individ boshqa individga doimo taqlid qiladi, shuning uchun ham shaxsni o'rganish boshqa shaxslarni inkor qilmasligini talab qiladi. Shunday qilib, sotsiologiyada psixologik yo'nalish paydo bo'ldi. Tarddan keyin Lester Frenk Uord, Franklin Genri Giddings va boshqalar sotsiallik qonunlarini jamoa ruhiy holati bilan uzviy ravishda o'rgana boshladilar. Ularning fikricha, sotsial fakt bu sotsial aql, tafakkur bo'lib, u «Jamiyat psixologiyasi» yoki sotsiologiyaning bahs mavzusidir.

Shunday qilib, yuqorida qayd qilingan ilmiy, falsafiy, sotsial manbalar, shart-sharoitlar tufayli sotsial psixologik g'oyalar shakllanib bordi. Bu qarashlar sof psixologiyaga ham o'xshamagan, sotsiologiya doirasidan chiqib ketadigan alohida fan sotsial psixologiyaning paydo bo'lishi uchun katta rolini uynaydi.

II.2. Sotsial psixologiyaning uch nazariy manbai

XIX asrning oxiri XX asr boshlarida fanda uch nazariya paydo bo'ldiki, ular xaqli ravishda sotsial psixologiyani mustaqil ilmiy yo'nalish sifatida shakllanishiga o'zlarining munosib hissalarini qo'shdilar. Bu uch nazariyani birlashtirib turgan shu narsa ediki, ularning har biri mustaqil tarzda shaxs bilan jamiyat munosabatini tushuntirishga harakat qilgan. Bular: xalqlar psixologiyasi, omma psixologiyasi, sotsial xulq-atvorning instinktlari nazariyalaridir.

Xalqlar psixologiyasi sotsial psixologik nazariya sifatida XIX asrning o'rtalarida Germaniyada shakllandi. Undagi asosiy nazariy fikr shundan iborat ediki, ayrim individlardan yuqori turadigan ruh mavjud bo'lib, bu ruh o'zidan ham yuqori turadigan ilohiy yaxlitlikka bo'ysunadi. Bu ilohiy yaxlitlik xalq yoki millatdir. Ayrim individlar ana shu yaxlitliklarning bo'laklari bo'lib, ular shu ruhga bo'ysunadilar. Ya'ni, shaxs bilan jamiyat o'rtasidagi qarama-qarshilik muammosi jamiyat foydasiga hal qilinadi. Xalqlar psixologiyasining tarixiy-mafkuraviy asosi bo'lib Gegel falsafasi va nemis romantizmi xizmat qilgan, deyish mumkin. Chunki Gegendagi «individdan yuqori turuvchi ruh» g'oyasi xalqlar psixologiyasi jonkuyarlari tomonidan to'laligicha qabul qilindi.

«Xalqlar psixologiyasi» iborasi **birinchi** marta faylasuf Morits Latsarus (1824-1903) hamda tilshunos Xeyman Shteyntal (1823-1899) asarlarida ishlatildi. Ular birgalikda chop etgan «Xalqlar psixologiyasi to'g'risida kirish so'zi» kitobida shunday fikrlarni ilgari suradilar: «Tarixni yurgizuvchi asosiy kuch bu xalq yoki shu «yaxlitlikning ruhi» bo'lib, bu ruh san'atda, dinda, tilda, afsonalarda, an'analarda o'z aksini topadi. Individning ongi ushbu yaxlitlikning mahsuli bo'lib, ularning yig'indisi o'z navbatida xalq ongini tashkil etadi. Xalqlar psixologiyasining vazifasi xalq ruhi mohiyatini o'rganish, xalq ruhiyati qonunlarini ochish, xalq psixologiyasiga oid bo'lgan o'ziga xos xususiyatlarning paydo bo'lishi va yo'qotishini tushuntirib berishdir». O'sha kitobda mualliflar shaxs bilan jamiyat munosabati xususida quyidagi mulohazalarni bayon etadilar: «odam o'z mohiyati jihatidan sotsial mavjudot bo'lib, u jamiyat hayoti bilan uzviy bog'liq, chunki u o'ziga o'xshashlarga qarab rivojlanadi, boshqalarga taqlid qilib harakat qiladi va ular ta'qibidan qochadi...». Xalqlar psixologiyasining asoschilari faqat nazariy mulohazalar yuritish bilan cheklanadilar, chunki ularda o'z fikrlarini isbot qilish uchun tadqiqot ishlari yo'q edi.

«Psixologiyaning otasi» hisoblangan Vilgelm Maksimilian Vundt (1832-1920) esa xuddi ana shu tadqiqotga asoslangan ma'lumotlar to'plashga o'z diqqatini qaratdi. U o'zining 1863-yilda bosmadan chiqqan «Inson va hayvon ruhi haqida leksiylalar» va 1900-1920 yillar oralig'ida yozgan o'n tomli «Xalqlar psixologiyasi» asarlarida asosan o'zi to'plagan empirik ma'lumotlar asosida xalqlar psixologiyasiga bag'ishlagan fikrlari tizimini bayon etdi. Uning fan oldidagi xizmati shundan iborat ediki, empirik ma'lumotlar to'plash usullari, to'plangan manbalarni sharhlash borasida bebaho bilimlar to'pladi. Uning fikricha, psixologiya fani ikki qismdan iborat: fiziologik psixologiya va xalqlar psixologiyasi. **Fiziologik psixologiya** inson ruhiyatini o'rganuvchi eksperimental fan bo'lib, oliy psixik jarayonlar tafakkur va nutqdan tashqari barcha narsalar eksperiment usulda tadqiq etish mumkin. Eksperiment usulida o'rganib bo'lmaydigan barcha oliy ruh holatlarini **xalqlar psixologiyasi** o'rganadi, chunki undagi o'rganish usullari o'ziga xosdir u madaniy

mahsullar hisoblangan til, afsonalar, odatlar, san'at asarlari, inson tafakkurining murakkab tomonlarini ochib beradi.

To'g'ri, Vundtning psixologiya fani oldidagi xizmatlari, uning xalqlar psixologiyasiga oid ma'lumotlari hozirgi kungacha ham o'z qimmatini yo'qotgani yo'q. Lekin, uning yagona kamchiligi shu ediki, uning qarashlari idealistik asosda bo'lgan, ya'ni u individ bilan jamiyat o'rtasidagi murakkab dialektik munosabatini idealistik asosda turib hal qilgan va jamiyatning rolini absolyut tushunib, shaxsning tarixini yaratishdagi, sotsial jarayonlardagi faol o'rmini ko'ra bilmagan. Uning izdoshlari rossiyalik Aleksandr Afanasyevich Potebnya, nemis olimi Teodor Geyger va boshqalar ham u yo'l qo'ygan mafkuraviy kamchiliklar oldini ola olmadilar, lekin ular bir fikrda yakdil edilarki, xalqlar psixologiyasi individual psixologiyadan farq qiladi, shuning uchun ham maxsus fan kerakki, u o'ziga xos usullar yordamida shaxs va jamiyat munosabatlari qonunlarini ochib berishi lozim. Xuddi ana shu xulosalar sotsial psixologiyaning fan sifatida shakllanishiga ilmiy asos bo'ldi.

Omma psixologiyasi paydo bo'lishiga tarixiy asos ishchilar sinfining paydo bo'lishi va Yevropada ishchilar harakatining ommaviy tus olishi bo'ldi. Ya'ni, XIX asrning ikkinchi yarmida ishchilar harakati shunday keng tus oldiki, tartibsiz harakatlar darajasiga ko'tarildi. Shuning uchun ham shu harakatlarning qonunlarini bilish, ularni boshqarish usullarini o'ylab topish zarur edi.

Ommaviy hodisalarni o'rganish natijasida 1890-yilda Gabriel Tardning «Taqlid qilish qonunlari» deb atalgan birinchi kitobi chiqdi. Tard Frantsiyada ro'y berayotgan ommaviy hodisalarni shu hodisalarda ishtirok etayotganlarning xulq-atvorlarini taqlid qilish orqali tushuntiradi. Bu harakatlar irratsional (ya'ni aqlning ishtirokisiz) tabiatga ega bo'lib, har bir individ ommaga qo'shilgan zahoti unga taqlid qilishga tayyorlik instinkti ustun bo'lib qoladi. Italiyalik huquqshunos Stsipion Sigele va fransuz olimi Gyustav Lebon ham Tard ishlarini ma'qullab uning nazariyasini faktik materiallar bilan boyitdilar.

1895-yilda bosilib chiqqan Sigelening «Omma psixologiyasi» kitoblarida asosiy g'oya shundan iborat ediki, ommaviy harakatlarda shaxsning o'z xulq-atvorlarini ongli va aql bilan boshqarish qobiliyati yo'qoladi. Bunday hollarda

hissiyotlar ustun keladi, ayniqsa, affekt holatlari, odam o'zi nima qilayotganligini, olomonga nega qo'shilib qolganligini bilmaydi, shuning uchun ham affekt holatida ro'y berayotgan jinoyatga aybni yumshatuvchi holat sabab bo'lgan, deb qarash odatli bo'ladi. Bu qarashlari tufayli Sigele Italiyaning qonuniga maxsus modda kiritishga ham erishdi.

Sotsiolog Gyustav Lebon esa asosan o'z diqqatini ommani elitaga, jamiyatdan yuqori turuvchi tanlangan guruhlariga qarshi qo'yishga qaratadi. U ommaning ayrim hollarida, ayniqsa biror hodisa ro'y berganda «qiziqqonlik» xususiyati ustun turishi haqida yozadi. Uning fikricha, bir qancha odamlarning bir yerda to'planishi ommani hosil qiladi va bu odamlar kim bo'lishidan qat'iy nazar olimmi yoki oddiy insonmi, shu zahotiy oq kuzatuvchanlik va ziyraklikni yo'qotadi. Chunki bu holatda ular holatini instinktlar va hissiyotlar boshqaradi.

Lebon shaxsning omma holatidagi belgilariga to'xtalib quyidagilarni ajratadi:

1. **Shaxsiy sifatlarning yo'qolishi.** Boshqa odamlar ta'sirida individ o'ziga xos sifatlarni yo'qotishi, buning o'rniga impulsiv instinktiv harakatlarni amalga oshirishi mumkin.

2. **Hissiyotlarga o'ta beriluvchanlik.** Ommada aql, tafakkur, hissiyot, instinktlarga o'z o'rnini bo'shatadi. Shuning uchun ham ommaning ta'sirchanligi o'ta oshib ketadi.

3. **Aqliy sifatlarning yo'qolishi.** Ommaning «aqli» uni tashkil etuvchilar aqlidan ancha past bo'ladi. Shuning uchun ham ommaning tazyiqiga uchramaslik uchun har bir kishi aqlan mulohaza yuritishdan bosh tortishi, munozaradan qochishi lozim.

4. **Shaxsiy mas'uliyatning yo'qolishi.** Ommaga qo'shilib qolgan shaxs shunchalik hissiyotlarga berilib ketishi mumkinki, u o'z harakatlarini nazorat qilish, o'z ishiga mas'uliyatni esidan chiqaradi. Yakka holda sodir qila olmaydigan ishini, u ommaga qo'shilib qilib qo'yishi mumkin.

Yuqorida sanab o'tilgan ommaning belgilari Ernesto Grassi tomonidan nemis entsiklopediyasiga ham kiritilgan.

Shunday qilib, omma tartibsiz, u mustaqil ravishda tartib o'rnatish qobiliyatiga ega emas. Shuning uchun ham unga doimo «dohiy» kerak, dohiylar elita tashqaridan kelib omma o'rtasida tartib o'rnatishi mumkin. Bu fikrlarning mafkuraviy ma'nosi tushunarli, chunki omma deganda, ular ishchilar sinfini, dohiylar deganda esa, burjuaziyani nazarda tutishgan. Demak, shaxs va jamiyat ziddiyatlari masalasi omma psixologiyasi nazariyasida **ayrim shaxslar, dohiylar foydasiga hal qilindi**. Lekin bu nazariya, nima uchun ommaviy hodisalarda ommaning o'zidan chiqib qoladigan liderlar, ommaning ba'zan tashqaridan hech kimni tan olmay qolishi masalalariga umuman javob topa olmadi, chunki ularning ham fikrlarida ko'proq idealizmga moyillik sezilib turardi.

Sotsial xulq-atvor instinktlari nazariyasi XX asrning boshida Angliyada shakllandi. Uning asoschisi ingliz psixologi Uilyam Mak-Dugall bo'lib, u o'zining 1908-yilda yozgan «Sotsial psixologiyaga kirish» kitobidagi inson xulq-atvorining motivi yoki uni harakatga keltiruvchi kuch instinklardir deb yozgan. Keyinchalik u instinkt tushunchasi bilan birga layoqat, intilish iboralarini ham ishlata boshladi. Uning fikricha, xulq-atvorni ta'minlovchi narsa tug'ma, psixofiziologik tayyorgarlik holati bo'lib, u nasldan-naslga uzatiladi. Mak-Dugall barcha harakatlarni refleksiv holda tushuntirishga intilib, **refleksiv yoyga** xos bo'lgan barcha qismlar ya'ni efferent qabul qiluvchi, retseptiv bo'lim, afferent (harakat) va markaziy bo'limdan iborat tizim sifatida tasavvur qiladi. Barcha sotsial harakatlar ham ana shunday refleksiv tabiatga egadir, deb uqtiradi u.

Shunga o'xshash fikrlar Edvard Ross («Sotsial psixologiya») va Jeyms Mark Bolduin («Sotsial psixologiya bo'yicha tadqiqotlar») qarashlarida ham rivojlangan. Masalan, Bolduin ikki turli irsiyat haqida tabiiy va sotsial irsiyat haqida yozib, sotsial irsiyat odamlardagi **taqlid** qilish qobiliyati bilan bog'liq, deb yozadi. Jamiyatda yashayotgan odamlar bir birlariga ta'sirlarini o'tkazishga moyildirlarki bu narsa ular o'rtasidagi munosabatlarini boshqarib turadi.

Shunday qilib, bu yo'nalish tarafdorlarining fikricha, barcha ongli harakatlarning boshi ongsizlikdir, ya'ni instinktlar bo'lib, ular asosan hissiyotlarda namoyon bo'ladi. Hissiyot bilan instinktlar bog'liqligini Mak-Dugall juftliklarda

ko'rsatishga harakat qilgan: masalan, kurash instinkti – qo'rquv, g'azab hissi, nasl qoldirish instinkti – rashk, ayollardagi tobelik hissi, o'zlashtirish instinkti – xususiylikka intilish hissi va h.k. Ijtimoiy hodisalarni tushuntirishda tug'ma instinktlar rolining yuqori qo'yganligi uchun bu nazariya ilmiy taraqqiyot bosqichida salbiy o'rin tutdi, deb aytishimiz mumkin. Lekin uning ayrim hodisalar sabablarini tushuntirishga harakat qilishi fan oldiga ulkan vazifalarni qo'ydi. Sotsial psixologiya fan sifatida ana shu muammolarni tadqiq qilishi lozim edi.

Demak, yuqorida to'xtab o'tilgan uchala nazariyaning ahamiyati shundan iborat ediki, ular yangi tug'ilishi lozim bo'lgan, lekin yetarli ilmiy asosi bo'lmagan fan sotsial psixologiyaning tadqiqot mavzuini ochib berdi. Qolaversa, bu uchala yo'nalish ham nazariy qarashlarni isbot qilishda ob'yektiv tekshiruv usuli hisoblangan eksperimentdan foydalanish zaruriyatini ko'rsatdi. Bu narsa yana bir bor maxsus fanning kelajak rejalarini aniqlashga yordam berdi.

II.3. Sotsial psixologiyaning Rossiyada rivojlanishi

Sobiq ittifoq davlatlarida, birinchi navbatda Rossiyada sotsial psixologiya XX asrning 20-yillaridan boshlab rivojlana boshladi. Bu borada rus sotsial psixologiyasining asoschisi deb haqli ravishda Vladimir Mixaylovich Bexterev(1857-1927)ni ko'rsatish mumkin. U o'zining refleksologiya nazariyasi doirasidan shaxs xulq-atvorining motivlarini tushuntirishga uringanlardan biridir. Uning fikricha, barcha ongli va ongsiz jarayonlar tashqi xulq-atvorda, harakatlarda ifodalanadi, shuning uchun ham tashqi harakatlarni, qiliqlarni, nutqni, tovushni o'rganish orqali shaxsning o'zini va bu harakatlarning sabablarini o'rganish mumkin. Bexterevning xatosi shu ediki, u o'z qarashlarida sosiologiyani biologiya bilan, psixologiyani esa fiziologiya bilan aralashtirib yubordi, shu orqali shaxs va jamiyat taraqqiyotining universal qonunlarini topmoqchi bo'ldi.

Bexterevdan keyingi olimlar, Yu.Vasilevning «biologik sotsiologiyasi» ham, M.A.Reysnerning «ommaviy psixologiyasi» ham, L.N.Voytolovskiyning «jamoat psixologiyasi» ham reflekslar qonunini mexanik tarzda sotsial psixologik jarayonlarni tushuntirishga ko'chirish bo'ldi, desak xato bo'lmaydi.

20-30 yillarda bolalar va o'smirlar sotsial psixologik taraqqiyotini o'rganishga qaratilgan ikki yo'nalish paydo bo'ldiki, ular ham qator kamchiliklardan holi bo'la olmaydilar. Masalan, biologik yoki biogenetik nazariya tarafdorlari shaxsning shakllanishida irsiy va biologik nasliy omillar yetakchi rol o'ynaydi, deb hisoblashsa (E.Arkin, I.Aryamov va boshqalar), sotsiologik yoki sotsiogenetik nazariyotchilar bu borada sotsial muhit rolini nihoyatda ortiq ekanligini himoya qilib chiqdilar (S.Molojaviy, A.Zalkind va boshqalar).

30-yillarda A.S.Makarenko, A.Zalujniy, L.S.Vigotskiy, N.K.Krupskaya va boshqa qator olimlar o'z nazariy qarashlarini marksizm bilan bevosita bog'lab, jamoa va shaxs nazariyasini yaratdilar. Ular shaxsning shakllanishida sotsial muhitning, jamoaning rolini, ta'lim-tarbiyaning ahamiyatini isbotlashga urindilar. Lekin, 40-60 yillar sotsial psixologiya taraqqiyotida nisbatan sokinlik davri bo'ldi. Chunki psixologiya sohasida olib borilgan tadqiqotlar ichida sotsial psixologik tadqiqotlar yo'q hisob edi. Bu fan Rossiyada va boshqa Sobiq ittifoqdosh davlatlarda 70-yillardan keyin keskin rivojlana boshladi.

Bunda Moskvalik va Leningradlik (hozirgi Sankt-Peterburg) olimlar maktabi katta rol o'ynadi. Agar Moskva shahrida asosan sotsial psixologiya bo'yicha fundamental nazariy tadqiqotlar ko'plab o'tkazilib, unda hozirgi zamon sotsial psixologik tadqiqotlarning empirik qonunlari asoslari ishlab chiqilgan bo'lsa, Sankt-Peterburgda ko'proq tadbqiqiy ilmiy tadqiqot ishlar olib borildiki, ular birgalikda minglab yosh sotsial psixologlar avlodini tarbiyalab yetishtirdilar. Ular esa hayotimizga ilg'or fikrlar va dadil tadqiqotlar bilan kirib kelib, hozirgi kun fanini dunyo miqyosida misli ko'rilmagan darajaga ko'tardilar. Lekin, shuni alohida ta'kidlash o'rinliki, Rossiyada sotsial psixologiyaning rivojlanishida chet el, ayniqsa Amerika Qo'shma Shtatlari psixologiyasining ta'siri ancha sezilarlidir.

II.4. O'zbekistonda sotsial psixologik tadqiqotlarning o'rni va istiqbollari

Sotsial psixologiyaning fan sifatida yurtimizda rivojlanish tarixiga e'tibor beradigan bo'lsak, shuni ta'kidlash lozimki, u oxirgi bir necha o'n yilliklar mobaynida shakllanmoqda, xolos. Lekin tarixdan, umuman psixologiyaning

O‘zbekiston hududida shakllanishi tahlil qilinsa, uning diniy, falsafiy oqimlar va qarashlar tizimida o‘ziga xos tarzda shakllanib kelganini ko‘rish mumkin. Masalan, eramizning V asrlarida rivoj topgan monizm (asoschisi Mani) yoki mazdakizm (asoschisi Mazdak) va boshqalar o‘z diniy qarashlari tizimida sotsial munosabatlar, sotsial adolat va shaxsning o‘ziga xosligi kabi g‘oyalarni keng tashviqot qilganlar.

Lekin tarix bizga shundan darak beradiki, yaxlit, sistematik sotsial psixologik qarashlar tizimi umuman bo‘lmagan. Sotsial psixologik tadqiqotlarning o‘tmishdagi va hozirgi kundagi holati M.Otajonovning qator ilmiy maqola va risolalarida bayon etilgan. Uning oxirgi yillarda o‘tkazgan ilmiy tadqiqoti natijalariga ko‘ra, sotsial psixologiya fan sifatida muhimlik shajarasida ikkinchi o‘rinni egallaydi, ya’ni Respublikamiz hududida ilmiy ijod qilayotgan olimlardan 43 foizining fikricha, sotsial psixologiya va ana shu fanning muammolari eng istiqbolli va yechilishi zarur, dolzarbdir. Shuni alohida ta’kidlash lozimki, O‘zbekistonda o‘tkazilayotgan sotsial psixologik tadqiqotlar asosan oilada va oilaviy munosabatlarga bag‘ishlangan.

Chunonchi, birinchi sotsial psixologik tadqiqot ham 70-yillarning oxirida 80-yillarning boshida I.Yoqubov tomonidan o‘tkazilgan bo‘lib, u oilaviy munosabatlarning barqarorligi va er-xotin sotsial rollarining muvofiqligini ta’minlovchi sotsial psixologik omillarni o‘rganadi. Tadqiqot natijasida shu narsa aniqlandiki, oila a’zolarining rollar borasidagi muvofiq o‘zaro munosabatlari oilaviy hamjihatlikning muhim shartidir. Oilaviy majorolar esa, asosan hozirgi zamon o‘zbek ayolining sotsial mehnat bilan bandligi hamda oilaviy munosabatlarda eskilik sarqitlarining saqlanib qolganligidadir.

G‘.B.Shoumarov va E.A.Morshinalarning (1986) tadqiqotlarida esa oilada bolalarning tarbiyasiga bevosita ta’sir ko‘rsatadigan sotsial psixologik omillar o‘rganildi, chunonchi, unda o‘ziga xos milliy va an’anaviy o‘zaro munosabat xususiyatlarining o‘rni belgilanadi.

Oilaviy munosabatlar psixologiyasi xususida o‘tkazilgan muhim tadqiqotlardan biri N.Sog‘inovning o‘zbek oilasiga xos bo‘lgan nikoh va oila munosabatlari – nikohdan qoniqish, nikoh motivlari, oila qurishning o‘zbeklarga xos bo‘lgan yosh xususiyatlari, yosh o‘zbek oilalaridagi psixologik mojarolar va ajralishlarning

sabablarini sistematik tarzda o'rgangan ilmiy ishidir. Bu tadqiqotda ilgari hech o'rganilmagan ilmiy ma'lumotlar to'plandiki, ularga ko'ra, o'zbek oilasining qurilishiga sabab bo'ladigan asosiy motiv bu birinchi o'rinda «Farzandli bo'lish», ikkinchi o'rinda «Jamoatchilikning gap so'ziga qolmaslik», uchinchi o'rinda «Ota-ona va qavmi-qarindoshlarning istaklarini bajo etish» va hokazolar aniqlandi. N.Sog'inovning to'plagan ma'lumotlari yosh oilalar, mojaroli oilalar va yoshlar tarbiyasi bilan mashg'ul bo'lganlar uchun muhim ilmiy yo'l-yo'riqdir.

O'zbekistonda mustaqillikni qo'lga kiritgach, olib borilgan sotsial psixologik tadqiqotlar asosan sotsial tasavvurlar konsepsiyasi doirasida amalga oshirildi (V.Karimova, K.Rahimova, Z.Nishonova, M.Umarova, L.Karimova va h.k.lar). Tadqiqotlarda sotsial vaziyatlarga bog'liq psixologik fenomenlar o'rganilganda ayni shu yo'nalishning istiqbolli ekanligini, shaxs va jamiyat o'rtasidagi murakkab va serqirrali munosabatlarning sotsial xulqda namoyon bo'lishi mexanizmini tushuntirishda sotsial tasavvurlar konsepsiyasi nazariy-metodologik asos ekanligini isbotladi.

Tayanch tushunchalar: shaxs, jamiyat, xalqlar psixologiyasi, omma psixologiyasi, sotsial xulq-atvor instinktlari, taqlid, refleksiv yoy, muhit, oila, sotsial tasavvurlar

Mavzuni o'zlashtirish uchun savollar

1. Platon o'zining «Davlat» va «Qonunlar» dialoglarida shaxsning jamiyat bilan aloqalari masalasiga to'xtalib qanday fikr bildirgan?
2. Aristotelning shaxsning jamiyat bilan aloqalari masalasidagi fikrlari?
3. XIX asrning o'rtalariga kelib, bir qator sotsial fanlarning rivojlanishiga sabab nima bo'ldi?
4. Sotsial psixologiyaning ilmiy manbalari sohasida sotsiologiya fanining xizmati qanday?
5. Gabriel Tard «Sotsial fakt» deganda nimani nazarda tutdi?
6. Xalqlar psixologiyasi nazariyasining mohiyatini tushuntiring.
7. Omma psixologiyasi nazariyasining mohiyatini izohlang.
8. Sotsial xulq-atvor instinktlari nazariyasidagi asosiy g'oyani tushuntiring.

9. Rossiyada sotsial psixologik tadqiqotlarning rivojlanishi qanday kechgan?

10. O'zbekistonda sotsial psixologik tadqiqotlarning rivojlanishiga hissa qo'shgan olimlar haqida fikr bildiring.

Bilimlarni mustahkamlash uchun test savollari

1. Amerikalik olim G.Ollport sotsial psixologik g'oyalarning yaratilishi va rivojlanishi qaysi faylasuf nomi bilan bog'liq, deya ta'kidlaydi?

A) Aristotel

B) Platon

C) Suqrot

D) Demokrit

2. Platon o'zining qaysi dialogida shaxsning jamiyat bilan aloqalari masalasiga to'xtalib, jamiyat individga nisbatan o'zgarmas bir birlikki, uning taraqqiyoti jamiyat rivojlanishi qonunlarga bo'ysunadi, degan fikrni ilgari surgan?

A) «Davlat» va «Qonunlar»

B) «Davlat» va «Jamiyat»

C) «Jamiyat» va «Qonunlar»

D) «Qonunlar» va «Hokimiyat»

3. Platonga qarshi fikrni bayon etib, individni barcha sotsial o'zgarishlarning sababchisi, deb kim aytadi?

A) Aristotel

B) Suqrot

C) Demokrit

D) Aflotun

4. Sharq faylasuflaridan kimlar barcha asarlarida shaxs va jamiyat qarama-qarshiliklarini ilmiy asosda sharhlashga uringanlar?

A) Farg'oniy va Beruniy

B) Ibn Sino va Forobiy

C) Beruniy va Forobiy

D) Ibn Sino va Beruniy

5. XIX asr o'rtalariga kelib qator sotsial fanlar rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlar paydo bo'lganligiga sabab bo'lmagan omil qaysi?

- A) Kapitalistik munosabatlarning keskinlashuvi
- B) Turli davlatlar bilan iqtisodiy aloqalarning tobora o'sib borishi
- C) Migratsiya
- D) To'g'ri javob yo'q

6. XIX asrda yashagan qaysi ingliz olimi ibtidoiy jamoa tuzumidagi madaniyatni to'liq o'rganib chiqqan?

- A) L. Morgan
- B) E. Teylor
- C) Levi-Bryul'
- D) J. Lokk

7. XIX asrda psixologiyaning qaysi sohalariga individ bilan boshqa individlar munosabati masalasini chetlab o'tish mumkin bo'lmay qoldi?

- A) Atomistik psixologiya
- B) Sotsial psixologiya
- C) Patopsixologiya, pedagogik psixologiya
- D) Individ psixologiyasi

8. Jamiyatdagi sotsial hodisalarni o'rganish uchun, albatta, o'ziga xos, ayrim psixologik holatlarni o'rganish lozim, degan fikrni kimlarga tegishli?

- A) Gabriel Tard
- B) Ogyust Kont, Gerbert Spenser
- C) L. Morgan, Levi-Bryul'
- D) E. Teylor

9. Har bir individda «Sotsial fakt» bor degan fikrni kim ilgari surgan?

- A) Ogyust Kont
- B) Gerbert Spenser
- C) L. Morgan
- D) Gabriel Tard

10. Kimlarning fikricha, sotsial fakt bu sotsial aql, tafakkur hisoblanadi?

- A) Gerbert Spenser, Ogyust Kont
- B) Gabriel Tard, Gyustav Lebon
- C) L.Uord, F.Giddings
- D) Gobbs, Russo

III BOB. SOTSIAL PSIXOLOGIYA METODOLOGIYASI VA METODLARI

III.1. Sotsial psixologik tadqiqotlar metodologiyasi tushunchasi

Har qanday fan boshqa fanlardan faqatgina mavzu bahsi yoki paydo bo'lish tarixi bilangina emas, balki faktik ma'lumotlar to'plash, u yoki bu g'oyani isbotlash uchun ishlatiladigan uslublari bilan ajralib turadi. Uslublar mukammalligi aslida nazariy taraqqiyotni, fan taraqqiyotini belgilovchi asosiy omildir.

Hozirgi zamon fanlarining taraqqiyoti shu bilan o'ziga xoski, ularda metodologik muammolarga qiziqish ancha yuqoridir. Buning bir qancha sabablari mavjud bo'lib, ular avvalo jamiyatda ro'y berayotgan keskin o'zgarishlarning sabablaridan biri hisoblangan fan-texnika taraqqiyoti maqsadlari bilan fan maqsadalarining uyg'unlashuvi, amaliyotning fan oldiga qo'yayotgan talablari darajasining tobora ortib borayotganligi, tadqiqot qilish vositalarining murakkablashib borayotganligi va nihoyat har bir fanda ro'y berayotgan o'z tadqiqot printsiplari va tekshirish usullarini qayta ko'rib chiqishga intilishning yaqqol namoyon bo'layotganligidir.

Sotsial psixologiya to'g'risida gapiriladigan bo'lsa, shuni alohida ta'kidlash lozimki, avvalo jamiyatning bu fan oldiga qo'yayotgan talablari o'ziga xos bo'lib, bu talablarga javob berish uchun uning tekshirish uslublari u darajada mukammal emasligidadir. Chunki shu davrgacha sotsial psixologiyada kuzatilgan narsa shu bo'ldiki, bu yerda nazariy ishlar tadbqiqiy ishlardan ancha ko'pdir. Shuning uchun ham, G.M.Andreyeva sotsial psixologiyaning metodologik muammolariga to'xtalar ekan, uning bu boradagi intilishlari, vazifalari ko'pligini ta'kidlaydi. Metodologik muammolarga qiziqish, deb yozadi u, sotsial psixologiyaning kuchsizligi emas, balki uning yetilish davriga kirganligining belgisidir.

«Metodologiya» tushunchasining ilmiy mohiyati nimada? Bu tushunchani turli nazariy qarashlardagi olimlar va turli tilda turlicha sharhlaydilar va tushunadilar. Masalan. Amerikalik psixologlar metodologiya deganda, *tadqiqot jarayonida ishlatiladigan barcha tadqiqot uslublari va texnik jarayonlarini tushunadilar*. Lekin «metodologiya» tushunchasi aslida uslublar yig'indisidan kengroq tushunchadir. Hozirgi zamon Yevropa mamlakatlaridagi olimlar, xususan, rus olimlari fandagi metodologiya deganda, ushbu fan falsafiy asoslari va nazariy qonuniyatlaridan kelib chiqadigan bilimlar bilan tekshirishning konkret usullari majmuasini tushunadilar. Ya'ni, «metodologiya» tushunchasi «konkret metodlar» yoki texnik usullar tushunchalaridan kengroqdir.

Sotsial psixologik tadqiqotlarning metodologik muammolariga quyidagilar kiradi: **Birinchidan**, empirik ma'lumotlar muammosi, ya'ni ko'p turdagi ma'lumotlarni sotsial psixologik ma'lumotlar sifatida qabul qilish mumkin. Chunki, bixevioristlar *bunday ma'lumotlar sifatida ko'z bilan ko'rib qayd qiladiganlar xulq-atvor shakllarini qabul qilishsa, kognitiv psixologiya vakillari faqat ongga taalluqli bo'lgan belgilarini tushunadilar*. Demak, har qanday tadqiqotchi ish boshlamay turib, avvalo nimani empirik birlik qilib olishini aniq tasavvur qilishi va uning nazariy jihatlari to'g'risida tasavvurga ega bo'lishi kerak. Bundan tashqari, tadqiqot birligi aniqlangan taqdirda, qanday hajmdagi birliklar tadqiqotchini qanoatlantirishi masalasi ham muhimdir. Masalan, sotsial psixologiya bo'yicha sof eksperimental ish qilinganda, ilgari sinalgan usul yordamida cheklangan miqdordagi kishilar yoki guruhda tadqiqot o'tkazish mumkin bu eksperimental ma'lumotlar deyiladi. Lekin, ba'zan tadqiqotchi ko'p sonli tekshiruvchilar bilan ish ko'radiki, bunda turli guruhlarni o'zaro taqqoslash bilan ma'lumotlarning to'g'ri yoki noto'g'riligi aniqlanadi. Bunday tadqiqotlar korrelyatsion tadqiqotlar deb ataladi.

Ikkinchi metodik muammo bu u yoki bu sotsial psixologik nazariya asosida qonuniyatlar yaratish va ilmiy taxminlar qilish muammosi. Ilmiy tadqiqot boshlashdan oldin tadqiqotchi ma'lum taxminlar yuritadi, lekin bu taxminlarning aniq chiqishi o'sha muammo bo'yicha pishiq, puxta nazariyaning bor ekanligiga bevosita bog'liq. Shuning uchun ham ko'pincha fan sohasiga endigina qadam qo'ygan yosh

olim yoki tadqiqotchi gipotezalar, taxminlar bayon etishga qiynaladi, chunki sotsial psixologiyada ayniyatlar ayrim, alohida tadqiqotlardan umumiy xulosa olish orqali o'tkazilmaydi.

Uchinchi muammo bu sotsial psixologik muammolarning sifati masalasi, ya'ni qanday ma'lumotni sifatli, ishonarli deb atash mumkinligi masalasidir.

Sotsial psixologik ma'lumotlarning ishonchliligi.

Sifat haqida gap ketganda, tadqiqotchining tadqiqot ob'yektini qanchalik to'g'ri tanlangani hamda to'plagan ma'lumotlarining ishonchliligini qanday usullar bilan tekshirganligi nazarda tutiladi.

Ba'zan tadqiqotchi tekshiruvchilarni taxminan, tartibsiz tarzda tanlaydi. Bu narsa uning reprezentativlik qonunini buzganligi belgisidir. Yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan yana bir kamchilik bu o'sha o'rganish ob'yektining hajmi yoki soni xususida. Chunki amaliyotda ko'pincha tekshiriluvchi qanchalik ko'p bo'lsa, ma'lumot shunchalik ishonchli bo'ladi, degan noto'g'ri fikr mavjud. Agar tadqiqotchi ish boshlashidan oldin, ayni maqsadlarini, vazifalarini, tadqiqotning nazariy asosini yaxshi bilgan holda to'g'ri ilmiy taxminlar, gipotezalar ilgari surilgan bo'lsa, u kichikroq guruhda o'tkazgan eksperimentlarning ma'lumotiga ham ishonishi mumkin (masalan, hozirgi moddaga munosabatni talabalarning bir qancha akademik guruhida o'rganish mumkin).

Lekin tadqiqot uslubini, metodlarini to'g'ri tanlashda pilotaj-sinov tadqiqoti o'tkazishning ahamiyati kattadir. Unda o'sha gipotezalarning qanchalik asoslilikini ham, metodikaning aynan maqsadga muvofiqqligini ham, tekshiriluvchilar ob'yektining to'g'ri tanlanganligini ham ma'lumotlarning turg'unligi, ishonchliligini ham tekshirib olish mumkin. Bundan tashqari, shu bosqichda tadqiqotchi eksperiment yoki anketa o'tkazish uchun qulay vaziyat va vaqtni belgilash, o'z yordamchilarining ishga qanchalik yaroqliliklarini ham sinab olish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Lekin asosiy tadqiqot o'tkazilgandan so'ng tekshiruvchi to'plagan ma'lumotlarning asosligi (validlilik), ya'ni tanlangan uslubining aynan shu sifatlarni tekshirishga qaratilganligini, ularning turg'unligini, ya'ni har qanday sharoitda ham shu metod yordamida va shu sharoitda ayni shu xildagi ma'lumot to'plashini va

ma'lumotlarning aniqligini, ya'ni tanlangan uslub maqsadga muvofiqligini isbotlab berishi kerak.

Nihoyat, ma'lumotlarning sifati tadqiqotchining o'z ishlari bo'yicha tuzgan hisobotiga ham bog'liq. Sotsial psixologik tadqiqot haqidagi hisobot quyidagi bo'limlarni o'z ichiga oladi:

1. Kirish qismi, bu yerda tadqiqotni o'tkazishdan ko'zlangan maqsad, unga sabab bo'lgan shart-sharoitlar hamda uni kimlar o'tkazganligi yoziladi.

2. Dastur qismi, bu yerda foydanilgan adabiyotlar, tadqiqotning maqsad va vazifalari, ilmiy taxmin gipotezalar beriladi.

3. Tadqiqot ob'yekti va uslublar empirik tadqiqot ob'yektining xususiyatlari, tanlangan metodlar, sinov bosqichida to'plangan ma'lumotlar, ularning ishonchliligi qanday usullarda tekshirilganligi yoziladi.

4. Gipotezalardan keltirib chiqariladi, ularning qanchalik isbotlanganligi kichik jadvallar yoki grafiklarda ko'rsatiladi.

5. Xulosa va tavsiyalar ular tadqiqotning mantig'idan chiqariladi.

6. Yakuniy, barcha qilingan ishlar bo'yicha yakun yasalib, kelajak uchun rejalar belgilanadi.

7. Ilova. Bu qismda ishlatilgan uslublar, texnik vositalar bayon etilib, kompyuter dasturlari, statistika ma'lumotlari, katta jadvallar va shunga o'xshash tadqiqotga taalluqli hujjatlar ilova qilinadi.

Yuqorida bayon etilgan barcha metodologik ishlarga qarashli tadbirlarning sifati va saviyasi tadqiqotchining qanchalik ilmiy savodxon ekanligini belgilovchi ko'rsatkichlar hisoblanadi va u o'tkazgan ilmiy tadqiqot ishining bahosini belgilaydi.

III.2. Sotsial psixologiyaning asosiy metodlari. Kuzatish metodi

Sotsial psixologiyada qo'llanilgan metodlar psixologiyaning boshqa tarmoqlarida ishlatiladigan metodlari nomi bilan hamda maqsadlarga ko'ra farq qilmasada, sotsial psixologik tadqiqotdagi uslublar o'ziga xos xususiyatlarga hamda ko'rinishlarga ega. Bu o'ziga xoslik avvalo tadqiqot qamrab oladigan sotsial kontekstdan, uning xilma-xil ko'rinishlarida shaxs va guruhlar psixologiyasidan kelib

chiqadi. Metodologik muammolarda aytib o‘tilganidek, sotsial psixologik tadqiqotda nimani o‘rganish qancha vaqt mobaynida o‘rganish kabi muhim muammolar hal etilgandan keyingina tekshirish vositasi va uslublari aniqlanadi.

Masalan, umumiy psixologiyada kuzatish metodini oladigan bo‘lsak, u sotsial psixologiyada o‘ziga xos sotsial sharoitlarda o‘ziga xos vaziyatlarda va ma’lum guruhlarda ishlatiladi. Bunda tadqiqotchi eng avvalo nimani kuzataman, qanday yo‘l bilan kuzataman, kuzatuv birligi qilib nimani olaman, kuzatuvni qancha vaqt mobaynida davom ettiraman degan qator savollarga javob topgandan keyingina ilmiy tadqiqotini boshlaydi. Demak, kuzatish metodi yordamida aniq ishlab chiqilgan reja asosida kuzatuvchining qiziqtirgan u yoki bu sotsial xulq-atvor shakllari qayd etiladi. Bu uslub qo‘llanilganda tadqiqotchi bir qancha qoidalarga rioya qilishi lozim. Chunonchi, kuzatish maqsadining aniq bo‘lishi va uning ilmiy maqsadlarga mos kelishi, kuzatish shaklini tanlash va kuzatish natijalarini qayd etish usullarini ishlab chiqish, ma’lum reja sxema asosida muttasil kuzatuv olib borish, olingan natijalarning asoslilik va ishonchliligini boshqa usullar yordamida tekshirib ko‘rish.

Kuzatuvchining tadqiqot mobaynida tutgan mavqeiga ko‘ra kuzatish har xil bo‘ladi. Masalan, ba’zi hollarda kuzatuvchi kuzatish ob’yekti bo‘lmish odamlar guruhi bilan birga yashab, ularga qo‘shilib ish tutib, tabiiy sharoitlarda ma’lumot to‘playdi. Bunday kuzatish turi «Birgalikdagi kuzatuv» deb ataladi. Bunday kuzatishning klassik misoliga amerikalik sotsial psixolog U.Uaytning o‘smirlar psixologiyasi, ular guruhidagi sotsial psixologik hodisalarni o‘rganishga qaratilgan mashhur tadqiqotini kiritish mumkin. Rus tadqiqotchilaridan Alimaskin ham tarbiyasi og‘ir o‘smirlar xulq-atvorining sotsial motivlarini o‘rganish maqsadida ular bilan uzoq vaqt mobaynida bo‘lib, ma’lumot to‘plagan. U kuzatishlari oqibatida 92% tarbiyasi og‘ir bolalarning o‘z sinfida va oilasida yaqin kishilari bo‘lmaganligini aniqlagan.

Boshqa hollarda esa kuzatuvchi o‘z ob’yektini chetdan kuzatadi, shuning uchun ham bunday kuzatuv turi «chetdan kuzatuv» yoki «ob’yektiv kuzatish» deb ataladi. Bu usul xuddi umumiy psixologiyada bo‘lgani kabi tashqi xulq-atvorini qayd qilish natijasida ma’lumot to‘plashga asoslanadi. Bunday yo‘l bilan ilmiy faktlarni

isbot qilish qiyin, lekin baribir, u ham sotsial psixologiyada yordamchi usul sifatida ishlatiladi. Oxirgi paytlarda ob'yektiv kuzatishning «muhim vaziyatlarni qayd etish» formasi keng qo'llanilmoqda. Bu usulning mohiyati shundan iboratki, unda alohida shaxs yoki odamlar guruhi kutilmagan, tasodifiy vaziyatga solinib, ularning shu vaziyatga munosabati, undan chiqish yo'llari, ziddiyatlarga munosabati, qiyin holatda o'zini qanday tutishi kuzatiladi. Masalan, tabiiy sharoitlarda ham o'quvchilar guruhlarida turli munozarali o'yinlar sharoitini yaratish yo'li bilan har bir shaxsning sotsial psixologik sifatlarini kuzatib, qayd etish mumkin.

Bizning fikrimizcha sotsial psixologik treninglar sharoitida har bir shaxsning xulq-atvorini kuzatish muhim ma'lumotlar to'plashga yordam beradi, chunki bunda kuzatish metodiga xos bo'lgan eng qimmatli narsa sharoitning tabiiyligi saqlanib qolinadi.

III.3. Hujjatlarni o'rganish metodi

Hujjatlarni o'rganish metodi sotsiologiya fanidan kirib kelgan. Bu metodning qator afzalliklari bor. Ulardan muhimlari shundan iboratki, u faoliyatning mahsulini tekshirishga imkon beradi hamda to'plangan ma'lumotlarning ishonchliligi, matematik qayta ishlash imkoniyatining borligi bilan ajralib turadi. Hujjat deganda og'zaki (so'zlangan nutq matnlari, suhbatlarning yozib olgan qismlari, bevosita muloqot) yoki yozma (rasmiy hujjatlar, gazetalar, jurnallardagi maqolalar, xatlar, siyosiy yoki badiiy adabiyot materiallari) holda tavsiya etilgan ma'lumotlar nazarda tutiladi. Ana shu materiallarni ma'naviy jihatdan ham sifat, ham miqdoriy analiz qilish usuli sotsial psixologiyada **kontent analiz** deb ataladi.

Kontent analizning ilmiy mohiyati shuki, uning yordamida biror matnda ma'lum fikr, g'oya yoki tushunchalarning necha marta qaytarilishi qayd etiladi, ya'ni ma'lum mazmun miqdor ko'rinishiga keltiriladi. Bu metodning asoschilari amerikalik sotsiologlar Garold Duayt Lassuell va Bernard Berelsonlar bo'lib, ular bu usulni birinchi marta ikkinchi jahon urushi yillarida bir siyosiy gazetaning mazmunini, g'oyaviy yo'nalishini aniqlash maqsadida qo'llagan edilar. Ular «Haqiqiy amerikalik» nomli gazetaning kundalik chiqishlarini kontent analiz qilib, ularni

fashistik yo‘nalishdagi gazeta ekanligini isbot qilishgan va uning chiqishini ta’qiqlashga erishgan edilar.

Kontent analizni qo‘llashda tadqiqotchi oldida turgan asosiy muammo bu tekshiruv birliklari kategoriyalarini aniqlashdir. Chunki, bunday birliklar tadqiqotning maqsadi va tadqiqotchining e’tiqodi va dunyoqarashiga ko‘ra har xil bo‘lishi mumkin. Masalan, o‘sha kontent analizning asoschilari Lassuell va Berelsonlar bunday birlik ramziy birlik yoki simvollar bo‘lishi mumkin, deb hisoblashgan bo‘lsalar, boshqa amerikalik tadqiqotchi Leo Lyovental’ bunday birlik yaxlit mavzu bo‘lishi kerak, deb hisoblaydi. Rus sotsiologlari va tadqiqotchilari esa Sotsial g‘oya yoki ahamiyatli mavzu bo‘lishi kerak, degan fikrga to‘xtalishgan. Aslida, ma’naviy birliklar kontent analizda ilmiy tahmin va tadqiqotchining metodologik asoslari bilan belgilanishi kerak.

Shuning uchun ham ko‘pgina tadqiqotlarni umumlashtirib, analiz uchun birliklar quyidagilar bo‘lishi mumkin deb hisoblaymiz:

a) alohida iboralar yoki so‘zlarda bildirilgan tushunchalar (masalan, demokratiya, faollik, tashabbus, hamkorlik va hokazo).

b) yaxlit abzatslar, matnlar, maqolalarda ko‘tarilgan mavzular (masalan, millatlararo munosabatlar mavzusi, insonlardagi milliy qadriyatlar mavzusi va hokazo)

v) tarixiy allomalar, siyosatshunoslar, taniqli shaxslarning nomlari;

g) sotsial hodisa, rasmiy hujjat, biror aniq fakt, asar (masalan, oilaviy mojarolar, O‘zbekiston Konstitutsiyasi muhokamasi, yangi yozilgan asarga o‘quvchilarning munosabati va shunga o‘xshash).

Yaxshi o‘tkazilgan kontent analiz – aslida sotsial psixologik tadqiqotlarda juda muhim ahamiyatga ega. Lekin olingan ma’lumotlarning ishonchliligi shu borada ilgari ishlagan shaxslar-ekspertlar bahosi, ayni shu faktni tekshirish uchun boshqa metodlarni ham qo‘llash va ma’lumotlarni solishtirish hamda ayni ob’yektni ayni vaziyatda qayta tahlil qilish yo‘llari bilan erishiladi. To‘plangan miqdoriy ma’lumotlar matematik statistika metodlari yordamida qayta ishlovdan o‘tkazilmog‘i lozim. Kontent analiz tadqiqotchidan kattagina uquvni talab qiladi, chunki bir

tomondan u yoki bu matnni tushunish mahoratining bo'lishi, ikkinchidan, tadqiqot so'ngida qo'lga kiritilgan miqdoriy natijalarni yana qayta sifat shakliga keltirish va tushuntirib berish lozim.

III.4. Anketa metodi

Anketa metodi hammaga tanish bo'lgan usullardan biri. Lekin ko'pincha anketani o'tkazgan odam uning tuzilishi qanchalik qiyinligini yoki olingan ma'lumotlarni qayta ishlab, sharhlash qiyinligini tasavvur qilmaydi. Anketaga kiritilgan savollarga ko'ra anketa ochiq yoki yopiq turlarga bo'linadi.

Ochiq anketa respondentdan o'z fikrini bilganicha bayon etishni talab qiladi, yopiq shakldagi anketa savollarning esa javoblari berilgan bo'lib, tekshiriluvchi o'ziga ma'qul bo'lgan, o'zining qarashlari, fikrlari bilan mos bo'lgan javobni belgilab beradi. Ochiq savollarning kamchiligi respondentlarning har doim ham qo'yilgan vazifaga yetarli darajada mas'uliyat bilan qaramaganligi hamda yozilgan javoblarni statistik ishlov berishdagi qiyinchiliklar bo'lsa, yopiq anketadan respondentga tekshiriluvchi tomonidan o'z fikriga ergashtirishga o'xshash holat yoki har doim ham hamma savolning barcha javob variantlarini topib bo'lmasligidir. Shunday holatlarda respondent yo umuman javob bermasligi yoki tavakkal bir variantni belgilab berishi mumkin.

Shuning uchun ham oxirgi paytda yarim yopiq savollardan iborat anketa tuzilmoqdaki, ularda javob variantlardan tashqari, yana qo'shimcha fikr bildirish uchun qo'shimcha qatorlar qoldiriladi.

Anketaga kiritilgan savollar to'g'ridan-to'g'ri berilishi mumkin. Masalan, «... xususida Sizning fikringiz?», «... ekanligini bilasizmi?», «... Sizga ma'qulmi?» va shunga o'xshash. Lekin savollar bilvosita berilsa ham yaxshi qabul qilinadi. Masalan, «Ba'zi odamlar ... deb hisoblaydilar. Sizchi?» yoki oilaviy daromad qiziqtirgan sharoitda to'g'ridan-to'g'ri «Daromadingiz qancha?» demasdan, uy-ro'zg'or buyumlari ro'yxati va boshqa pul bilan bog'liq narsalarning bor-yo'qligini so'rash yo'li bilan ham o'rganish mumkin.

Ko'pgina tadqiqotlarda tekshiruvchilarga «proyektiv» savollar ham beriladi. Bunda shaxsga bir qancha hayotiy vaziyatlar, u yoki bu xulq-atvor shakllari taklif qilinib, ular ichidan o'ziga ma'qul, u ma'qullashi mumkin bo'lganini tanlash topshirig'i beriladi. Vladimir Aleksandrovich Yadov shunday hollarda munosabatning kuchini ham aniqlash mumkin, deb hisoblaydi. Masalan, ba'zi odamlar «Mening fikrimga to'g'ri kelmaydigan narsani gapirishsa, men hattoki ularni eshitishni ham xohlamayman», deydilar. Sizning fikringiz qanday?

1. Ularga to'laligicha qo'shilaman.
2. Ularga qo'shilaman.
3. Qo'shilaman, faqat butunlay emas.
4. Ularga qo'shilolmayman.
5. Ularga tamoman qo'shila olmayman.

Odatdagi anketa tuzilishi jihatdan uch qismga bo'linadi:

1. Kirish qismi yoki «respondentga murojaat» deb ataladi, bu qismda odatda tadqiqot o'tkazayotgan tashkilot nomi, oddiy tilda tadqiqot maqsadlari va ularning qanday foydasi borligi, tekshiruvchining shaxsiy ishtiroki nima berishi, olingan ma'lumotlarning umumlashtirilgan holda ishlatilishi (anonimlik), anketani to'ldirish yo'llari va boshqalar yoziladi. Instruksiya murojaatning qanchalik yaxshi yozilganligi bevosita tekshiriluvchining ishga bo'lgan munosabatiga bog'liqdir.

2. Asosiy qism. Bunga savollar kiritiladi, lekin savollar tartibiga ham e'tibor berish kerak, chunki boshidan qiyin savollar berilsa, bu narsa respondentni cho'chitib qo'yishi, hattoki, to'ldirmasdan, anketani qaytarib berishiga majbur qilishi ham mumkin. Shuning uchun boshida yengil, xolis savollar berib, tekshiriluvchini qiziqtirib olib, keyin qiyinroq, psixologik savollarga o'tish, oxirida yana «neytralroq» savollar berish maqsadga muvofiq.

3. Yakuniy qism respondentning shaxsiy sifatidagi ob'yektiv ma'lumotlarni olishga qaratilgan bo'lib, unda shaxsning jinsi, yoshi, oilaviy ahvoli, kasb-kori va boshqalar so'raladi.

Anketalar tarqatilish uslubiga ko'ra, qo'l bilan tarqatiladigan, pochta orqali yuboriladigan, gazeta yoki jurnallar orqali to'ldiriladigan formalarga bo'linadi.

To'plangan ma'lumotlarga, odatda, statistik qayta ishlov beriladi yoki ular kompyuterlar yordamida analiz qilinadi.

III.5. Sotsial psixologik testlar

Testlar psixologiyadan kirib kelgan usuldir, bu qisqa sinov usuli bo'lib, ular yordamida u yoki bu sotsial psixologik hodisa qisqa muddat ichida bir texnik usul – testda tekshiriladi. Testlar 20-30-yillarda paydo bo'lgan bo'lib, ular hayotga, amaliyotga shunchalik chuqur kirib keldiki, hattoki maxsus soha psixometrika paydo bo'ldi. Testlarni qo'llashning qulaylik tomoni bir test yordamida bir ob'yektning u yoki bu xususiyatini bir necha marta, takror-takror sinab ko'rish, bu testni faqat qanday turdagi ob'yektda sinalgan bo'lsa, shunga o'xshash ob'yektlardagina qo'llash mumkin. Qolaversa, bunda olingan ma'lumotlar nisbiy xarakterga ega bo'ladi. Lekin shunday bo'lishiga qaramay, testlar ayniqsa hozirgi kunlarda hayotimizga keng kirib keldi. Shaxs xususiyatlarini tekshiruvchi testlardan tashqari, shaxsning muloqot sistemasidagi o'rnini, undagi muloqot malakalarining bor-yo'qligini sinovchi, shaxs aqliy sifatlarini tekshiruvchi testlar keng qo'llanilmoqda.

Lekin shuni esdan chiqarmaslik kerakki, testni tuzish, uni ob'yektlarda sinovdan o'tkazish, hattoki, tayyor testni moslashtirish yuksak bilimlarni, malakani, olimlik odobini talab qiladigan ishdir. Masalan, ingliz olimi **Kettel** shaxs sifatlarini sinovchi testini ishlab chiqish uchun odamdagi 4,5 mingga yaqin sifatarni o'rganishdan boshlagan edi. Ana shulardan ekspertlar yordamida 171 juft dixotomik sifatarni ajratdi (masalan, kamtar-maqtanchoq, bosiq-tez va shunga o'xshash). Nihoyat, ular ichidan eng ishonchlilari tanlab olindiki, oxir-oqibat 21 xil shaxs xususiyatlaridan iborat sifatlar kompleksi tanlandi va shular asosida mashhur Kettel testi paydo bo'ldi. Uning yordamida asosan shaxsdagi introversiya, ekstroversiya, faollik, reallik, ziyraklik darajasi va boshqalar sinaladigan bo'ldi.

Testlar xususida yana shuni aytish mumkinki, har bir testning o'z «kaliti» bo'ladi va bu kalitning egasiga maxsus litsenziyalar, ya'ni kelishuviga ko'ra ishonchli shaxslargagina sotish, berish huquqi bo'ladi. «Kalitsiz» esa maxsus testlarni hech kimga ishlata olmaydi. Endi maxsus sharoitlarga moslashtirilishi kerak bo'lgan

testlarga kelsak, masalan, o'sha Kettel testi yoki Ayzenkning testlarini bizning O'zbekiston sharoitida ishlatish kerak bo'lib qolsa, demak, uni tarjima qilgan va uni amaliyotda qo'llagan kishida professional huquq va moslashtirish uchun kamida 2-3 ming kishilik ob'yekt, ya'ni odamlar kerak. Shundagina bu metod moslashtirilgan va to'plangan ma'lumotlar ishonchli hisoblanadi.

III.6. Sotsial psixologik eksperiment

Sotsial psixologik eksperiment bu sotsial hodisalarni o'rganish maqsadida tekshiruvchi bilan tekshiriluvchi o'rtasidagi maqsadga qaratilgan muloqotdir. Bunday muloqotning bo'lishi uchun eksperimentator, ya'ni tekshiruvchi maxsus sharoit yaratadi va ana shu sharoitda aniq reja asosida faktlar to'playdi. Umumiy psixologiyada bo'lgani kabi, sotsial psixologiyada ham tabiiy va laboratoriya eksperimenti turlari farqlanadi. Tabiiy eksperimentga misol qilib, rus pedagogi Anton Semyonovich Makarenkoning jamoaning shakllanishi va uni uyushtirish borasida olib borgan tadqiqotlarini olish mumkin. Amerikalik psixolog Muzafer Sherif esa guruhlararo munosabatlarga taalluqli fenomenlarni tabiiy sharoitlarda maxsus reja asosida tekshirib o'rgangan. Uning asosiy maqsadi vaqtinchalik tuzilgan jamoa yozgi ta'til lagerlarida ziddiyatlarning paydo bo'lishidagi psixologik sabablarni o'rganishdan iborat edi.

Laboratoriya eksperimenti odatda maxsus sharoitlarda, maxsus xonalarda, kerakli asbob-uskunalar yordamida o'tkaziladi. Birinchi marta laboratoriya sharoitida sotsial psixologik tadqiqotni rus olimi Bexterev o'tkazgan edi. U maxsus asboblarda yordamida idrokning aniqligini, xotiraning sifatini, kuzatuvchanlik xususiyatlarini yakka holda va guruh sharoitida solishtirib o'rgandi hamda guruhning borligi har bir guruh a'zosi psixik jarayonlariga bevosita ta'sir etishini isbot qildi.

Laboratoriya eksperimenti keyinchalik B.G.Anan'yev, E.S.Kuz'min, V.S.Merlin, V.N.Myasishev, L.I.Umanskiy va boshqalar tomonidan yanada takomillashtirildi va sotsial psixologiyada apparatura uslubi keng qo'llanila boshlandi. Masalan. F.D.Gorbov va M.A.Novikovlar tomonidan gomeostat, L.I.Umanskiy tomonidan yaratilgan guruh uchun integratorlar paydo bo'ldi va

amliyotda bir guruh hodisalarni tekshirishda keng ishlatila boshlandi. Masalan guruhiy gomeostat guruhni tashkil etuvchilar o'rtasida harakatlardagi moslikning bor-yo'qligini tekshiradi. Bu moslamaning mohiyati shuki, guruh a'zolari yumaloq stol atrofida o'tiradilar, har bir qatnashuvchi ro'parasida tablo va o'zi xohlagan tomonga burishi mumkin bo'lgan strelka bo'lib, tekshiruvchi har birining harakatini kuzatib turadi.

Lekin ularga topshiriq quyidagicha beriladi: «Siz strelkani shunday buringki, sizning harakatingiz boshqalarnikiga mos bo'lsin, aks holda, sizning beparvoligingiz tufayli butun guruh jazo oladi». Agar guruhda hamjihatlik, bir-birini tushunish bo'lsa, ular o'zaro kelishib olib, xatolarni minimal qiladigan bo'lib qoladilar, shu jihatdan turli guruhlar turlicha xulq-atvor namoyon qilishi, bunda guruhning muloqot tajribasi, guruh peshqadamining qobiliyatlari yetakchi rol o'ynashi eksperimental tarzda isbot qilinadi.

III.7. Proyektiv metodlar

Bu usullar test usullarining bir ko'rinishi bo'lib, unda tekshiriluvchiga aniq tizim yoki ko'rinishga ega bo'lmagan, noaniq narsalar tavsiya etiladi va ularni sharhlash topshirig'i beriladi. Ya'ni, tekshiriluvchiga turlicha talqin qilish mumkin bo'lgan rasmlar, tugatilmagan hikoyalar, biror aniq ko'rinishga ega bo'lmagan buyumlar, yog'ochlar berilishi mumkin, ularga qarab tekshiriluvchi o'zining hissiy dunyosi, qiziqishlari, dunyoqarashi nuqtai nazaridan baho berishi mumkin.

Proyektiv usullarga mashhur «Rorshaxning siyoh dog'lari» testini kiritish mumkin (1921). Bu dog'lar ikki tomonlama simmetrik shaklda berilgan 10 xil dog'lardan iborat bo'lib, har bir dog' har xil bo'yoqli fonda ko'rsatiladi. Tekshiriluvchidan har bir dog'ning nimani eslatayotganligini aytish so'raladi. Uning og'zidan chiqqan so'zlar, assotsiasiyalarga qarab (ularni kontent analiz qilib), shaxs xususiyatlari haqida xulosa qilinadi.



Yana bir proyektiv usul bu S.Rozentsveygning **rasmi assotsiasiyalar** usulidir. Bunda hayotda tez-tez uchrab turadigan ziddiyatli vaziyatlarni aks ettirgan rasmlar tekshiriluvchiga tavsiya qilinadi. Bu rasmlarda bir tomonda turgan personajlar nimalarnidir gapirayotgan holda



gavdalantiriladi, unga qarshi tomondagi shaxs esa hali javob qaytarib ulgurmagan, tekshiruvchi tekshiriluvchidan tez, qisqa muddat ichida bo'sh kataklarda berilishi mumkin bo'lgan javobni yozishni so'raydi. Berilgan javoblarga qarab shaxsning yo'nalishi, uning ziddiyatlarga munosabati, agressiya, jaholat hissining xususiyatlari, bu hisning kimlarga qaratilganligi va shunga o'xshash muhim faktlar to'planadi.

«**Tugatilmagan hikoyalar**» ham guruhdagi va yakka shaxslarning qarashlari, ulardagi psixologik yo'nalishlarni o'rganishda ancha qo'l keladigan usuldir. Ularda shaxsning o'ziga, atrofdagilarga, jamoaga munosabatlari aniqlanadi. «Mening hayotiy intilishlarim...», «Mening kayfiyatimning buzilishiga sabab, odatda....» va shunga o'xshash hikoyalarning davomi yozilib, tugatilishi taklif etiladi.

Shunday qilib, sotsial psixologiya hozirgi kunda juda ko'p metodlarga ega, biz tanishib chiqqan metodlar ularning asosiylari, bir qismi, xolos. Har bir tadqiqotchi o'z tadqiqot ob'yektining xususiyatlari, tadqiqot maqsadi va mazmuniga qarab kerakli uslubni tanlaydi. Shuning uchun ham metodlar to'plami bilan to'laligicha tanishish uchun maxsus adabiyotlar bilan ham tanishib chiqish lozim.

Tayanch tushunchalar: metodologiya, metod, kuzatish, hujjatlarni o'rganish, kontent-analiz, anketa, eksperiment, test, proyektiv metod

Mavzuni o'zlashtirish uchun savollar

1. Metodologiya deganda nimani tushundingiz?
2. Metodologiya tushunchasiga AQSh va Yevropa olimlarining ta'rifini izohlang.
3. Metodologik muammolar haqida fikrlaringiz.

4. Sotsial psixologiya va umumiy psixologiyadagi metodlarning bir-biridan farqini izohlang.
5. Kuzatish metodining mohiyatini tushuntiring.
6. Hujjatlarni o'rganish metodi haqida fikrlaringizni bayon qiling.
7. Kontent-analiz usulining mohiyati nimada?
8. Anketa metodining mohiyatini izohlab bering.
9. Sotsial psixologik eksperiment va test metodlarini tushuntirib bering.
10. Proyektiv metodning maqsadi nimalarga qaratilgan?

Bilimlarni mustahkamlash uchun test savollari

1. Metodologik muammolarga qiziqish sotsial psixologiyaning kuchsizligi emas, balki uning yetilish davriga kirganligining belgisidir, deb kim yozadi?

- A) G.Andreyeva
- B) M.Latsarus
- C) M.Otajonov
- D) V.Vundt

2. Kim metodologiyani tadqiqot jarayonida ishlatiladigan barcha tadqiqot uslublari va texnik jarayonlar deya tushunadi?

- A) Yevropalik psixologlar
- B) Osiyolik psixologlar
- C) Rus psixologlari
- D) Amerikalik psixologlar

3. B.G.Anan'yev, E.S.Kuz'min, V.S. Merlin V.N.Myasishev, L.I.Umanskiylar tomonidan takomillashtirilgan eksperiment?

- A) Laboratoriya eksperimenti
- B) Tabiiy eksperiment
- C) Apparatura
- D) Sotsial psixologik eksperiment

4. «Rorshaxning siyoh dog'lari» testi qaysi metodga misol bo'ladi?

- A) Anketa metodi

- B) Hujjatlarni o'rganish metodi
- C) Proyektiv metod
- D) Kuzatish metodi

5. S.Rozentsveygning rasmlı assotsiasiyalar usuli qaysi metodga kiradi?

- A) Anketa metodi
- B) Hujjatlarni o'rganish metodi
- C) Proyektiv metod
- D) Kuzatish metodi

6. Hujjatlarni o'rganish metodi qaysi fandan sotsial psixologiya faniga kirib kelgan?

- A) Falsafa
- B) Kibernetika
- C) Sotsiologiya
- D) Pedagogika

7. Hujjat deganda qanday ma'lumotlar nazarda tutiladi?

- A) Yozma
- B) Og'zaki
- C) Yozma va og'zaki
- D) Ma'ruza va nutq

8. Kontent analiz asoschilari to'g'ri ko'rsatilgan qatorni toping

- A) G.D.Lassuell va B.Berelson
- B) I.Pavlov, V.Bexterev
- C) G.Xaymen, T.Sarbin
- D) K.Yung, E.Fromm

9. Anketa metodining tuzilishi necha qismdan iborat?

- A) 2
- B) 3
- C) 5
- D) 4

10. Sotsial psixologik testlar nechinchi yillarda kirib kelgan?

A) 1910-1920 yillar

B) 1920-1930 yillar

C) 1930-1940 yillar

D) 1925-1935 yillar

IV BOB. SOTSIAL PSIXOLOGIYANING ASOSIY YO‘NALISHLARI

IV.1. Sotsial psixologiyaning eksperimental fan sifatida rivojlanishi

XX asr shu bilan xarakterli ediki, u turli fanlar oldiga konkret topshiriqlar qo‘ya boshladi. Bundan tashqari, juda ko‘p fanlarda ob‘yektiv eksperimental usul bilan ilmiy faktlar to‘plash yo‘lga qo‘yildi. Psixologiya fani ham bundan istisno emas edi. Sof psixologlar individ psixologiyasini eksperimental o‘rganar ekanlar, ularning boshqa individlar ta’sirida bo‘lishi faktini inkor qila olmas edilar.

Sotsial psixologiya taraqqiyotining eksperimental davri 1945-yildan so‘ng boshlandi. Hisob rasman Valter Myode (Yevropa) va Floyd Ollport (AQSh) tomonidan yaratilgan dasturdan boshlangan. Dasturda sotsial psixologiyani eksperimental fanga aylantirishga bo‘lgan asosiy talablar o‘z aksini topgan. Bu vaqtda AQShda iqtisodning kapitalistik shakli barq urib rivojlanishi, amaliy tadqiqotlarning faol rivojlanishi kuzatilayotgan edi. Mazkur tadqiqotlarning ahamiyati sodir bo‘lgan iqtisodiy krizislar fonida yanada orta bordi. Eski tavsifiy sotsial psixologiya yuzaga kelgan yangi vazifalarni hal qilishga ojizlik qila boshladi. Natijada 1936 yilda AQShda «Ijtimoiy muammolarni psixologik tadqiq etish jamiyati» tashkil topdi.

Ko‘pchilik amaliy tadqiqotlar birinchi marotaba **funksionalizm** doirasida paydo bo‘ldi. Funktsionalizm tarafdorlari (D.Dyui, D.Endjell, G.Kerr va b.) odamlar va ular mansub bo‘lgan guruhlarini sotsial adaptasiya nuqtai nazaridan turib o‘rganishardi. Tadqiqotchilar psixik jarayonlarning ichki jihatiga emas, balki sotsial funksiyalariga o‘z diqqatlarini qaratishdi. Ilmiy tadqiqotning asosiy ob‘yektini qilib kichik guruh tanlandi. Bunga hamma joylarda faqatgina kichik guruhlarda qo‘llash mumkin bo‘lgan eksperimental metodikalarning yoyilishi sabab bo‘ldi. Bu hol avvalo AQShda sotsial psixologiyaning bir yoqlama rivojlanishiga olib keldi, chunki sotsial psixologiyaning nazariy muammolarini o‘rganishga bo‘lgan qiziqish yo‘qolib borayotgan edi. Nazariyadan bunday «begonalashuv» shunga olib keldiki, sotsial psixologiya o‘zining eksperimental davrida nihoyatda qarama-qarshiliklar asosida rivojlana bordi.

Bu davrda **ijobiy** deb hisoblash mumkin bo'lgan hol, bu kichik guruhlar sohasida ko'p sonli izlanishlarning olib borilishi, klassik darajadagi metodikalarning ishlab chiqilganligi, amaliy tadqiqotlar sohasida katta tajribaning to'planganligi edi. **Salbiy** tomon – ommaviy jarayonlarning psixologik jihatlarini tahlil etishni rad etish edi. Mazkur jarayonlarni juda sodda tahlil etishni tanqid ostiga olishdan so'ng, ulardan butunlay voz kechib qo'ya qolishdi. Natijada laboratoriya eksperimentlarida olingan natijalar jamiyatdagi real muammolar haqidagi bilimlar o'rnini egallay boshladi.

1950-yildan boshlab nazariy bilimlarga bo'lgan qiziqish qayta tug'ila boshladi.

Tadqiqotchilar (G.M. Andreyeva, N.N.Bogomolova, L.A.Petrovskaya, P.N.Shixerev) 1960-yillarda mavjud bo'lgan to'rtta asosiy nazariy maktablarni ajratib ko'rsatishadi. Bular: **bixeviorizm, psixoanaliz, kognitivizm, interaksionizm**. Bularning birinchi uchasi psixologik fikrlashning sotsial-psixologik variantlarini, to'rtinchisi – interaksionizm esa – sotsiologik tomonini o'zida aks ettiradi.

IV.2. Sotsial psixologiyada bixeviorizm

Bixeviorizm – inglizcha «**xulq-atvor**» degan ma'noni bildiradi.

Bixeviorizm – xulq psixologiyasi bo'lib, u inson va hayvonlar xulq-atvori qonuniyatlari muammolarini o'rganish bilan shug'ullanadi. Bunday ta'rif I.P.Pavlov, V.M.Bexterev, D.Uotson, E.Tolmen, B.Skinner, K.Xallar tomonidan berilgan. Xulq-atvor stimul-reaksiya formulasi asosida o'rganilgan. Reaksiya bu – tashqi stimulga beriladigan javob, uning vositasida individning tashqi muhitga moslashuvi ro'y beradi. Inson xulq-atvori qonuniyatlari tashqi stimul qonuniyatlaridan keltirib chiqariladi.

Bixeviorizm yo'nalishlari doirasida o'tkazilgan sotsial psixologik tadqiqotlar avvalo amerikalik olimlar K.Xall va V.Skinnerlar nomi bilan bog'liq. Ular va ularning izdoshlari hisoblangan N.Miller, D.Dollard, Dj.Tibo, G.Kelli **diada** - ikki kishi o'rtasidagi munosabatlarning xilma xil eksperimental ko'rinishlarini tadqiq qilib, ularda matematik o'yin nazariyasi elementlarini qo'lladilar. Diada sharoitida laboratoriyalarda o'tkazilgan tadqiqotlarda asosan mustahkamlash g'oyasini isbot

qilishga urinildi. Klassik bixeviorizmdan farqli o'laroq sotsial psixologik bixevioristlar hayvonlar o'rniga laboratoriyaga naqd pulga odamlarni taklif eta boshladilar, shuning uchun ham ularning g'oyasida biologizm va mexanizm tarzda ilgari hayvonlarda to'plangan dalillar modelini insonlarda qo'llash hollari kuzatildi.

IV.3. Sotsial psixologiyada psixoanaliz

Psixoanaliz – XIX asr oxiri XX asr boshlarida avstriyalik nevrolog Zigmund Freyd tomonidan ishlab chiqilgan. Bu nazariyaga ko'ra, shaxs uch qism: **Id, Ego va Superegodan** iborat insonning ichki, psixologik hosilasidir. Id – bu anglanmaganlik, bunga biologik ichki sezgilar va insonning hayvonlar bilan umumiy bo'lgan organik ehtiyojlari kiradi.

Zigmund Freyd jinsiy ehtiyojlar va tahdidlilikni, Alfred Adler – hokimiyatga intilishni, Karen Xorni – turli-tuman komplekslarni, Erik Fromm – odamning ozodlikka yoki uni cheklashga intilishini ajratib ko'rsatadilar. Bu – shaxsning o'zini anglashi, ya'ni Ego. Superegoga inson qadriyatlarini, uning hayotiy maqsadlari, ideallari kiradi. Shaxsning bu uch tarkibiy qismlari, odatda, uyg'unlik holatida bo'lmaydi, ular o'rtasida nevrozlarga, inson ruhiyati va xulq-atvoridagi nuqsonlarga sabab bo'luvchi nizolar yuzaga keladi.

Sotsial-psixologik nazariyalarning mazkur yo'nalish doirasida tizimga keltirish E.Fromm va Dj.Sallivan nomlari bilan bog'liq. Sotsial psixologiyaning ba'zi bir muammolari K.Yung, A.Adler tadqiqotlarida rivojlantirildi.

Psixoanaliz doirasida yechishga qaratilgan **ikkita** sotsial-psixologik muammoni keltirish mumkin: inson va jamiyat o'rtasidagi konflikt, insonning sotsial cheklovlar bilan to'qnashuvida namoyon bo'lishi va shaxsning sotsial faollik manbalari.

Bu oqim ta'sirida T-guruhlar (trening guruhi) o'tkazish amaliyoti, ya'ni odamlarning bir-biriga ta'sir ko'rsatish mexanizmlaridan foydalanish paydo bo'ldi.

Psixoanaliz yangi psixologik yo'nalish – **gumanistik psixologiyaning** kelib chiqishiga turtki bo'ldi (A.Maslou, K.Rodjers).

IV.4. Sotsial psixologiyada kognitivizm

Kognitivizm K.Levin nazariyasi asosida paydo bo'lgan psixologik yo'nalish bo'lib, undagi o'rganish ob'yekti munosabatlar tizimidagi kishilar, ularning bilish jarayonlari, ong tizimiga taalluqli bo'lgan kognitiv holatlar bo'ldi. Kognitiv maktab vakillari (J.Piaje, U.Nayser, J.Bruner, R.Atkinson va b.) inson bilimlarining shakllanish usullari; sensor axborotning hosil bo'lishi, bilish jarayonlari tuzulmaviy bloklarining vujudga kelishi va rivojlanishi, inson bilimi va xulq-atvorining xotirada bilim hosil bo'lishidagi roli, intellektual funksiyalarning rivojlanishi, verbal va obrazli komponentlarning xotira va fikrlash jarayonlaridagi nisbatini o'rganishdi. Ular inson aksariyat hayotiy vaziyatlarda fikrlash xususiyatlariga asoslangan holda qaror qabul qiladi degan xulosaga kelishdi.

Kognitivizm doirasida shunday mukammal nazariya yaratildiki, ular hozirgi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q.

Kognitiv sotsial psixologiyada kognitiv muvofiqlik nazariyasi muhim o'rin egallaydi. Unda insonni motivatsiyalovchi omil sifatida muvofiqlikni izlashga bo'lgan ehtiyoj va uning muvozanatlashgan kognitiv tuzulmasi olib qaraladi. Mazkur nazariyalarga Frits Xaydarning muvozanatlashtirilgan tizimlar nazariyasi, Teodor Nyukomning kommunikativ aktlar nazariyasi, Leon Festingerning kognitiv dissonanslar nazariyasi va boshqalar kiradi. Ulardagi asosiy g'oya shundan iboratki, shaxs o'ziga o'xshagan shaxslar bilan muloqotga kirishar ekan, doimo munosabatlarda ruhiy mutanosiblik, tenglik bo'lishiga, shu tufayli ziddiyatlardan chiqishiga harakat qiladi. **Maqsad** - turli sotsial sharoitlarda shaxs xulq-atvorining psixologik sabablarini tushuntirish va ziddiyatlarning oldini olish yo'l-yuriqlarini ishlab chiqishdan iborat.

G.Andreyeva fikricha, kognitivizm sotsial ong psixologiyasi kabi insonning sotsial hodisalarni anglash muammosini tadqiq etuvchi yo'nalishning kelib chiqishiga turtki bo'ldi.

IV.5. Sotsial psixologiyada interaksionizm

Interaksionizm kelib chiqishi bo'yicha – sotsiologik nazariya bo'lib, Gerbart Midning simvolik (belgili) interaksionizmiga asoslangan. G.Mid insonlarning sotsial faoliyat va muloqot jarayonidagi o'zaro hamkorligini tadqiq etgan. **Asosiy g'oya** – shaxs doimo sotsial va u jamiyatdan tashqarida shakllanishi mumkin emas. Shaxsning rivojlanishi belgilar tizimini o'zlashtirish orqali qaraladi. Bu bilan inson va hayvonot dunyosi orasidagi farq qiyoslanadi. Kommunikatsiya deganda esa simvollar almashinuvi nazarda tutilib, ushbu jarayonda yagona mohiyat va fikrga kelinadi. Bosh belgi tizimi **til** hisoblanadi.

Simvolik (belgili) kommunikatsiya – bu inson psixikasining ibtidosi hisoblanadi. Mazkur yo'nalish bo'yicha Gerbert Xaymen, Robert Mertonning referent guruh muammosi o'rganilgan. Unda shaxs rivojlanishi strukturasi va dinamikasi, Teodor Sarbinning rollar nazariyasi, sotsial o'zaro hamkorlikning mikrojarayonlari, sotsial faoliyat muhiti o'rganilgan.

Shaxs bir tomondan, avtonom tizim tarzida mustaqil impulsiv xulq-atvor sifatida namoyon bo'lsa, ikkinchi tomondan esa, tobe sotsial tizim bo'lib, atrofdagilar kutgan xulq-atvorda namoyon bo'ladi. Shaxsdagi faollik ibtidosi nafaqat shaxsni, balki jamiyatni ham o'zgartirishga qodirdir.

IV.6. Sotsial psixologiyada sotsiometriya

Sotsiometriya (lot. societas – jamiyat va metriya) – sotsial psixologiya sohasi hisoblanadi. Ijtimoiy turmushdagi kichik guruh a'zolari o'rtasidagi bevosita emotsional munosabatlarni o'rganish va ularning darajalarini o'lchashda qo'llaniladi. Sotsiometriya guruh a'zolarining bir-biri bilan o'zaro sub'yektiv munosabatlarini, individlarning guruhdagi mavqei, kim yetakchilik qila olishi mumkinligi masalalarini eksperimental yo'l bilan tadqiq qiladi.

Sotsiometriyaga amerikalik sotsiolog Yakob Levi Moreno (1892-1974) asos solgan. **Uning metodiga ko'ra**, muayyan guruhdagi har xil xususiyatli shaxslarning o'zaro munosabatlarini aniqlash uchun qaysi faoliyatda kim bilan birga qatnashishi so'raladi. Olingan ma'lumotlar matritsa, grafik, sxema, jadval shaklida ifodalanadi.

Ulardagi miqdor ko'rsatkichlari guruhdagi kishilarning shaxslararo munosabatlari to'g'risida tasavvur hosil qiladi. Bu ma'lumotlar guruhiy munosabatlarning tashqi ko'rinishini aks ettiradi, xolos.

Hozirgi davrda sotsiometriyaning modifikatsiyalari ishlab chiqilgan (Ya.L.Kolominskiy, I.P.Volkov). Sotsiometriyaning bu turi test savollari yordamida bolalar jamoasidagi shaxslararo munosabatlar haqida to'laroq axborot to'plash imkonini beradi.

Sotsiometriyaning nazariy va amaliy natijalari mehnat jamoalarining sotsial rivojlanishini boshqarishda, tarbiyaviy ishda va h.k.da keng qo'llaniladi.


IV.7. Sotsial psixologiyada transakt tahlil

Transakt analiz ikki tilidan olingan bo'lib, **lotincha «transactio»** – **kelishuv** va **grekcha «analysis»** – **tahlil** degan ma'nolarni anglatadi. Uning asoschisi amerikalik psixolog va psixiatr Erik Lennard Bern hisoblanadi. E.Bern ildizi psixoanalizga taqaluvchi taniqli kontseptsiyani yaratdi.

Biroq E.Bern kontseptsiyasi shaxsning o'zi va boshqalar bilan munosabatini dasturlovchi xulq-atvor kognitiv sxemalarini aniqlash va belgilashga urg'u qiluvchi **ham psixodinamik, ham bixeviorial yondashuvlar**, g'oyalar va tushunchalarni o'zida mujassam etgan.

Zamonaviy transakt tahlil – shaxs nazariyasini, kommunikatsiyalar nazariyasini, bolalar rivojlanish nazariyasini o'z ichiga oladi. Amaliyotda u alohida odamlar bilan ishlashdan tashqari er-xotin, oilalar va turli guruhlarni korrektsiyalash tizimini tashkil etadi.

Bern bo'yicha shaxs tuzilishi(strukturasi) uch «Men» yoki «Ego-holatlar»ning mavjudligi bilan xarakterlanadi: «Ota yoki ona», «Farzand», «Katta».



«Ota yoki ona» – shartlar, talab va ta’qiqlarning interiorizatsiyalashgan ratsional me’yorlari bilan namoyon bo’luvchi «Ego-holat». «Ota yoki ona» – bu bolalikda ota-onadan yoki boshqa obro’li shaxslardan olingan ma’lumot bo’lib, o’z ichiga xulq-atvor qoidalarini, sotsial me’yorlarni, u yoki bu vaziyatda amalga oshirish mumkin bo’lgan va mumkin bo’lmagan me’yor va ta’qiqlardir. Ota-ona ta’siri ikki yo’nalishda amalga oshadi: birinchisi, «Mendek qil» shiori ostida olib boriluvchi bevosita yoki to’g’ridan-to’g’ri ta’sir, ikkinchisi, «Mendek emas, men aytganimdek qil» shiori bilan amalga oshiriluvchi bilvosita ta’sir. «Ota yoki ona» nazorat qiluvchi (ta’qiqlar, sanktsiyalar) yoki g’amxo’rlik qiluvchi (maslahat, qo’llab-quvvatlash) bo’lishi mumkin. «Ota yoki ona»ga «Mumkin», «Majbur», «Hech qachon», «Demak, eslab qol», «Qanday bema’nilik», «Bechora» kabi direktiv jumlar xos.

«**Farzand**» – odamdagi mazkur emotiv asos ikki shaklda namoyon bo’ladi. «Tabiiy bola» – bolaga xos bo’lgan barcha impulslar: ishonuvchilik, bevositalik, to’g’rilik, qiziquvchanlikni o’z ichiga oladi; bular odamga munosabatlardagi o’ziga xos maftunkorlik va iliqlilikni baxsh etadi. Shu bilan birga u injiq, tez hafa bo’ladi, egotsentrik, o’jar va agressivdir. «Adaptatsiyalangan bola» – ota-ona umid va talablariga mos keluvchi xulq-atvorni nazarda tutadi. «Adaptatsiyalangan bola»ga yuqori konformlik, o’ziga ishonchsizlik, uyatchanlik, tortinchoqlik xos». «Adaptatsiyalangan bola» qatoriga ota-onasiga qarshi chiquvchi «qo’zg’alonchi» bolalar ham mansub. «Farzand»ga «Men xohlayman», «Men qo’rqaman», «Men yomon ko’raman», «Meni ishim yo’q» kabi jumlar xos.

«**Katta (ulg’aygan) «Men - holati»** – odamning o’z tajribasiga tayangan holda borliqni ob’yektiv baholash va shu asosda mustaqil, vaziyatga mos keluvchi qarorlar qabul qilish qobiliyati xos. Ulg’ayganlik holati butun hayot davomida rivojlanish imkoniyatiga ega. «Katta»ning lug’ati reallikga bo’lgan beasos mulohazalardan holi ravishda qurilgan bo’lib, ob’yektiv va sub’yektiv reallikni ob’yektiv ravishda o’lchash, baholash va ifoda eta olish imkonini beruvchi tushunchalardan iborat. «Kattalik, ulg’ayganlik» holati ustun odamlar ob’yektiv ratsional bo’lib, eng muvofiq adaptiv xulq-atvorni amalga oshirish imkoniyatiga egalar. Agar «Ulg’ayganlik» holati muhrlangan bo’lib, faoliyat ko’rsatmasa, bunday odam o’tmishda yashaydi, u

o'zgaruvchan dunyoni anglay olmaydi. «Farzand» va «Ota-ona» hayot kontseptsiyasi bo'lsa, «Farzand» his-tuyg'ular asosidagi hayot kontseptsiyasidir, «Ulg'ayganlik» esa ma'lumot yig'ish va uni tahlil etishga qaratilgan tafakkur asosidagi hayot kontseptsiyasidir.

Bernda «Katta» - «Ota-ona» va «Farzand» orasidagi qozi rolini o'ynaydi. U «Ota-ona» va «Farzand»da yozilgan ma'lumotni tahlil etgan holda mazkur vaziyatda qanday xulq-atvor muvofiqligini, qaysi stereotiplardan voz kechib, qaysilarini qoldirish kerakligini tanlaydi. Shu sababli korrektsiya doimiy «Ulg'aygan, katta» xulq-atvorni shakllantirishga qaratilgan bo'lib, uning maqsadi «Doimo katta (bo'ladi)».

TRANSAKT TAHLIL QUYIDAGILARNI O'Z ICHIGA OLADI:

Tizimli tahlil – shaxs tizimi tahlili	Transaksiyalar analizi – odamlar orasidagi verbal va noverbal o'zaro ta'sir (munosabat)lar
Yutuqqa – xohlagan natijaga olib keluvchi yashirin transaksiyalar, psixologik o'yinlar analizi	Inson o'zi xohlamagan holda rioya qiluvchi ssenariy, individual hayotiy ssenariy analiz (skript - analiz)

IV.8. Sotsial psixologiyada ekzistentsial psixologiya

Ushbu terapevtik yo'nalish asoschilari Rollo Mey va Irvin Yalom hisoblanadi. Bu nazariya dinamik xarakterda bo'lib, unda terapiya mijozning universal ekzistensial notinchligiga qarama-qarshi ravishda olib boriladi.

Bu terapevtik yo'nalishning asosiy mohiyati «inson sub'yektivligi uning hayotiy tajribasi natijasidir» degan fikrga tayanadi. Bu yo'nalishning asosiy vazifasi – insonga hayotning fundamental savollariga javob topishga ko'maklashishdan iborat.

Djeyms Byudjental ekzistensial yondashuvning nazariyotchisi sifatida quyidagi fikrlarni bildiradi:

1. Inson qismlarning birlashmasi emas, balki yaxlitlikdir;
2. Shaxs – odam sifatida shaxsiy insoniy muammolarni mujassam etadi;
3. Inson anglashga va aqlan biror xatti-harakatni amalga oshirishga qodirdir;
4. Inson doimo tanlash imkoniyatiga ega;

5. Inson xulq-atvori doimo intensionaldir, ya'ni sababga ega va u doimo ongli ravishda qaror qabul qila oladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda ekzistensial terapiyaning asosiy negizini quyidagilar deb hisoblash mumkin:

A. Psixoterapevtik jarayonda to'liq ishtirok etishni ta'minlash. Bunda mijoz bu jarayonga qiziqishi, chuqur kirishishi, o'zi va o'z hayotiga e'tiborli bo'lishi lozim. Shunda sub'yektivlikning chuqur mohiyati namoyon bo'ladi.

B. Mijozni o'ziga nisbatan mavjud bo'lgan chuqur qiziqishlariga yo'naltirish. Ba'zan bunday qiziqish susaygan bo'lib, shu tufayli mijoz terapiyaga muhtojlik sezadi.

V. Mijozning o'z qiziqishini izohlashi sub'ektiv kechinmalarga diqqatining qaratilishida muammoni hal etish imkoniyatini kengaytiradi. Bu jarayonda o'ziga to'liq e'tibor qaratiladi, ayniqsa, tana sezgilari, emotsiyalar, fikrlar alohida e'tiborga olinadi.

G. Qarshilikning paydo bo'lish ehtimoli. Bu vaziyat inson «Men va tashqi olam» tuzilmasini shakllantirgani tufayli o'z ichki imkoniyatlariga kirib borishining chegaralanganligida aks etadi.

D. Ekzistensial psixoterapiya jarayoni «Men va tashqi olam» tizimini, idrokning shaxsiy tuzilmasini o'zgartiruvchi ichki o'zini-o'zi anglash jarayonidan tashkil topadi;

E. Psixoterapiyaning samarasi shaxs hayotiy hislarining kengaygani va yashash qobiliyatining oshganligida aks etadi.

Yuqorida aytib o'tilgan nazariya va oqimlar hozirgi kunda ham sotsial psixologiyaning rivojlanishiga o'z hissalarini qo'shib kelmoqdalar. Rus sotsial psixologiyasi va sobiq Ittifoq tizimida bo'lgan mamlakatlardagi sotsial psixologik qarashlar rivojlanishida ham chet el, xususan amerikalik olimlarning ulushlari kattadir.

Tayanch tushunchalar: funksionalizm, kognitivizm, psixoanaliz, bixeviorizm, interaksionizm, tranzakt tahlil, sotsiometriya, ekzistensial psixologiya.

Mavzuni o'zlashtirish uchun savollar

1. Qachondan boshlab sotsial psixologiya faniga eksperimental fan sifatida qarala boshlandi?
2. Sotsial psixologiya fanining eksperimental fanga aylanishiga kimlar katta hissa qo'shgan?
3. Funktsionalizm yo'nalishining asosiy g'oyasini izohlab bering.
4. Sotsial psixologiyaning asosiy yo'nalishlari haqida nimalarni bilib oldingiz?
5. Kognitivizm yo'nalishining asosiy mohiyati nimadan iborat?
6. Bixevioristlar qanday tadqiqotlarni o'tkazib kelishgan?
7. Psixoanaliz yo'nalishining asosiy g'oyasi haqida fikr yuriting.
8. Transakt tahlil yo'nalishi haqida tushunchangizni bayon etib bering

Bilimlarni mustahkamlash uchun test savollari

- 1. Sotsial psixologiya taraqqiyotining eksperimental davri qachondan boshlandi?**
 - A) 1945-yil
 - B) 1946-yil
 - C) 1947-yil
 - D) 1948-yil
- 2. AQSHda qachon «Ijtimoiy muammolarni psixologik tadqiq etish jamiyati» tashkil topdi?**
 - A) 1936-yil
 - B) 1931-yil
 - C) 1932-yil
 - D) 1934-yil
- 3. D.Dyui, D.Endjell, G.Kerr qaysi qarash tarafdorlari bo'lgan?**
 - A) Funktsionalizm
 - B) Transakt tahlil
 - C) Kognitivizm
 - D) Psixoanaliz

4. Qaysi nazariy maktab psixologik fikrlashning sotsiologik tomonini o‘zida aks ettiradi?

- A) Bixeviorizm
- B) Psixoanaliz
- C) Kognitivizm
- D) Interaksionizm

5. Qaysi psixologiya turi inson va hayvonlar xulq-atvori qonuniyatlari muammolarini o‘rganish bilan shug‘ullanadi?

- A) Bixeviorizm
- B) Psixoanaliz
- C) Kognitivizm
- D) Interaksionizm

6. Bixeviorizm namoyandalarini belgilang.

- A) Z.Freyd, A.Adler, K.Xorni
- B) I.Pavlov, V.Bexterev, D.Uotson
- C) E.Tolmen, B. Skinner, K.Xallar
- D) B va C javoblar to‘g‘ri

7. «Anglanmaganlik, bu biologic ichki sezgilar va insonning hayvonlar bilan umumiy bo‘lgan organic ehtiyojlaridan iborat». Ushbu ta’rif nima haqida?

- A) Superego
- B) Id
- C) Ego
- D) Jinsiy ehtiyojlar

8. Psixoanalizning qaysi tarafdori hokimiyatga intilishni ajratib ko‘rsatadi?

- A) Z.Freyd
- B) A.Adler
- C) K.Xorni
- D) E.Fromm

9. Shaxsning qaysi qismi inson qadriyatlarini, uning hayotiy maqsadlari, ideallaridan tashkil topgan?

- A) Id
- B) Ego
- C) Superego
- D) To'g'ri javob yo'q

10. Qaysi nazariya yangi psixologik yo'nalish – gumanistik psixologiyaning kelib chiqishiga turtki bo'ldi?

- A) Bixeviorizm
- B) Kognitivizm
- C) Psixoanaliz
- D) Interaksionizm

11. Qaysi psixologik yo'nalish o'rganish ob'yekti munosabatlar tizimidagi kishilar, ularning bilish jarayonlari, ong tizimiga taalluqli bo'lgan kognitiv holatlar sanaladi?

- A) Psixoanaliz
- B) Kognitivizm
- C) Bixeviorizm
- D) Interaksionizm

12. Qaysi nazariya shaxs doimo sotsial va jamiyatdan tashqarida shakllanishi mumkin emas degan g'oyani ilgari suradi?

- A) Psixoanaliz
- B) Interaksionizm
- C) Kognitivizm
- D) Bixeviorizm

13. Sotsiometriyaga kim asos slogan?

- A) Yakob Levi Moreno
- B) R. Atkinson
- C) Ya. L. Kolominskiy
- D) Erik Lennard Bern

14. Qaysi nazariya amaliyotda alohida odamlar bilan ishlashdan tashqari er-xotin, oilalar, turli guruhlarni korrektsiyalash tizimini tashkil etadi?

- A) Psixodinamika
- B) Bixeviorizm
- C) Zamonaviy transakt tahlil
- D) Psixoanaliz

15. Ekzistentsial psixologiya asoschilari kimlar?

- A) R.Mey, I.Yalom
- B) I.Pavlov, V.Bexterev
- C) G.Xaymen, T.Sarbin
- D) K.Yung, E.Fromm

V BOB. SOTSIAL PSIXOLOGIYADA SHAXS MUAMMOSI

V.1. Shaxs – sotsial ta'sirlar mahsuli sifatida

«Shaxs» tushunchasi psixologiyada eng ko'p qo'llaniladigan tushunchalar sirasiga kiradi. Psixologiya o'rganadigan barcha fenomenlar aynan shu tushuncha atrofida qayd etiladi. Inson ruhiy olami qonuniyatlari bilan qiziqqan har qanday olim yoki tadqiqotchi ham shaxsning sotsialligi va aynan jamiyat bilan bo'lgan aloqasi masalasini chetlab o'tolmagan.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, «Homo sapiens» – «aqli zot» tushunchasini o'zida ifoda etuvchi jonzotning paydo bo'lganiga tahminan 40 ming yildan oshibdi. Bu davrda olimlarning e'tirof etishlaricha, 16 ming avlod almashgan emish.

Charlz Darvin ta'biri bilan aytganda, tabiiy tanlanish jarayonida yer yuzida saqlanib qolgan minglab millat va elatlarning keyingi davrdagi taraqqiyoti ko'proq biologik omillardan ko'ra, sotsial omillar ta'sirida ro'y bermoqda. Shuning uchun ham har bir individni yoki shaxsni o'rganish masalasi uning bevosita sotsial muhiti va uning sotsial normalari doirasida o'rganishni taqozo etadi.

Sotsial muhit – bu insonning aniq maqsadlar va rejalar asosida faoliyat ko'rsatadigan dunyosidir. Mazmunan har bir insonning shu sotsial olam bilan aloqasi uning insoniyat tajribasi, madaniyati va qabul qilingan, tan olingan sotsial xulq normalari doirasidagi harakatlarida namoyon bo'ladi. Psixologiya ilmining namoyondalari bo'lmish olimlarning butun bir avlodi ana shu shaxs va jamiyat aloqalari tizimida insonning tub mohiyatini anglash, uning rivojlanishi va kamol topishi qonuniyatlarini izlaganlar.

Abu Nasr Forobiy, Ibn Sino, Beruniy, A.Navoiy kabi ko'plab Sharq allomalari ham bu o'zaro bog'liqlikning falsafiy va sotsial sirlarini ochishga o'zlarining eng durdona asarlarini bag'ishlaganlar. Barcha qarashlarda umumiy bo'lgan narsa shu bo'lganki, odamni, uning mohiyatini anglash uchun avvalo uning shu jamiyatda tutgan o'rni va mavqeini bilish zarur. Shaxsni o'rganishning birlamchi mezoni ham shundan kelib chiqqan holda, uning sotsial mavqei, sotsial munosabatlar tizimidagi o'rni bilan belgilanishi kerak.

Lekin, shaxs bilan jamiyat o'rtasidagi o'zaro aloqalar masalasi birdaniga, bir xil yechimga kelinmagan. Bu o'zaro munosabatlar asosan ikki polyar nuqtai nazardan kelib chiqadi.


Nativizm yo'nalishining tarafdorlari insonlardagi barcha xususiyatlarni tug'ma xarakterga ega, deb e'tirof etadilar (Lens, Gruber va boshqalar).

Empirizm tarafdorlarining fikricha, yangi tug'ilgan bola go'yoki «top-toza taxta» (tabula rasa), unga hayot va undagi talablar o'zining qonuniyatlarini yozadi va bola ularga so'zsiz bo'ysunishga majbur. Bu yo'nalishning asoschilaridan biri Djon Lokk bo'lib (1632 – 1704) uning fikricha, tug'ma fikrlar yoki g'oyalalar bo'lishi mumkin emas, ular xohish-tilak va og'riq kabi elementar sezgilarning qayta ishlanishi natijalaridir. Hayotda ana shunga o'xshash turli xil sezgilar va g'oyalarning assotsiatsiyasi ro'y beradi.



Gotfrid Vilgelm Leybnits (1646–1716) Lokka e'tiroz bildirib, hayotda umuman toza, sof doskaning o'zi bo'lmaydi, xattoki, eng yaxshi silliqlangan marmar yuzasida ham sezilarli teshiklar, do'ngliklar yoki tug'ma asoratlar bo'ladiki, ular layoqatlardek, inson taqdirida ma'lum rol o'ynaydi.

Bu ikkala yirik yo'nalish o'rtasidagi tortishuvlarga chek qo'yish maqsadida **Frensis Galton** qator eksperimental tadqiqotlar o'tkazib, har bir individga xos differensial xususiyatlar mavjudligini «egizaklar metodi» yordamida asoslashga harakat qildi.



Galtondan keyingi tadqiqotlarda musiqaga bo'lgan qobiliyatga ona tilining xususiyati ta'sir qilishi aniqlandi: yumshoq-tonal yoki keskir (qo'pol) tonal bo'lmagan tillar. Masalan, keskinroq hisoblangan rus tilida gapiruvchi bolalardagi musiqani idrok qilish yumshoq, tonal tillarda so'zlashuvchi vyetnamliklarning idrokidan ancha past chiqqan.

Lekin yuqoridagi fikrlar va tortishuvlarning kelib chiqish sababi tushunarli bo'lishi kerak: ular insonning asl mohiyatini tushunish va uning xulqini boshqarish ehtiyojlaridan kelib chiqadi. Demak, inson jamiyat a'zosi sifatida uning normalariga bo'ysunadi, uning kutishlariga javob berishga harakat qiladi va o'z xulqini uning talablariga monand qilishga intiladi. Shu nuqtai nazardan kelib chiqib, shaxs fenomeniga ta'rif berish mumkin.

Shaxs – sotsial va shaxslararo munosabatlarning mahsuli, ongli faoliyatning sub'yekti bo'lmish individdir. Shaxsga taalluqli bo'lgan eng muhim tasnif ham uning jamiyatdagi murakkab sotsial munosabatlarga bevosita aloqadorlik, sotsial faoliyatga nisbatan ham ob'yekt, ham sub'yekt bo'lishlikdir.

Shaxsga taalluqli bo'lgan fazilatlardan eng muhimi shuki, u shu tashqi, sotsial ta'sirlarni o'z ongi va idroki bilan qabul qilib (ob'yektni), so'ngra shu ta'sirlarning sub'yekti sifatida faoliyat ko'rsatadi. Oddiy qilib aytganda, inson bolasi ilk yoshlikdanoq «mening hayotim», «bizning dunyo» degan sotsial muhitga tushadi.

Bu muhit o'sha biz bilgan va har kuni his qiladigan siyosat, huquq, axloq olamidir. Bu muhit – kelishuvlar, tortishuvlar, hamkorliklar, an'analar, udumlar, turli xil tillar olami bo'lib, undagi ko'plab qoidalarga ko'pchilik mutloq qo'shiladi, ba'zilar qisman qo'shiladi. Bu shunday qoidalar va normalar olamiki, ularga bo'ysunmaslik jamiyat tomonidan qoralanadi, ta'qiblanadi. Shulardan kelib chiqadigan xulosa shuki, shaxs jamiyatga nisbatan barcha tartib-qoidalarni qabul qiluvchi sub'yekt bo'lsa, *jamiyat – sotsial intizom va tartibning, madaniyatning mufassal ko'rinishidir.*

Shaxs sotsial xulqiga turli tashqi kuchlar ta'sir qiladi: siyosiy, mafkuraviy, iqtisodiy, ma'naviy, axloqiy va boshqalar. Bu ta'sirotlar mohiyatan aslida jamiyat a'zolari bo'lmish shaxslar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning ayrim alohida yo'nalishlarini belgilab beradi.

Shunday qilib, shaxs turli sotsial munosabatlar tizimi ta'sirida bo'ladi va ko'plab sotsial institutlar (oila, mahalla, o'quv maskanlari, mehnat jamoalari, norasmiy tashkilotlar, din, san'at, madaniyat va boshqalar) bilan bog'liq bo'ladi.

Masalan, shaxsdagi turli g'oyalar, fikrlar va mafkura mafkuraviy munosabatlar tizimi ta'sirida shakllanib, ular bevosita oila, bog'cha, maktab va boshqa o'quv va tarbiya muassasalari orqali ongga singdiriladi. Agar bu ta'sir uning e'tiqodi darajasida ko'tarilsa va unda yana yangidan-yangi fikrlar va g'oyalarning paydo bo'lishi va o'sishiga olib kelsa, shaxs taraqqiyoti jarayonida shunday faoliyat sohasini tanlaydiki, u o'z qobiliyatlari, malaka va ko'nikmalarini rivojlantira borib, ziyoli sifatida yoki o'qituvchi, yoki vrach, yoki olim, kashfiyotchi, muhandis bo'lib, elu-yurtiga xizmat qiladi.

Iqtisodiy munosabatlar ham shaxs ongi va uning insoniy xususiyatlari shakllanishida katta rol o'ynaydi. Masalan, bosqichma-bosqich bozor munosabatlariga o'tayotgan O'zbekiston sharoitini oladigan bo'lsak, yangicha iqtisodiy o'zgarishlar, bozor, raqobat, legalizatsiya, liberalizatsiya, ya'ni erkinlashtirish va shunga o'xshash yangiliklar har bir shaxsning moddiy boyliklar va ularga bo'lgan shaxsiy munosabatlarida aks etib, uning iqtisodiy ongi, tafakkuri va iqtisodiy xulqi normalarini belgilaydi.

V.2. Sotsial normalar, sanksiyalar va shaxs

Sotsial norma – shaxs hayotida shunday kategoriyaki, u jamiyatning o'z a'zolari xulq-atvoriga nisbatan ishlab chiqqan va ko'pchilik tomonidan e'tirof etilgan harakatlar talablaridir. Masalan, o'zbeklar uchun biror xonaga kirib kelgan insonning kim bo'lishidan qat'iy nazar, «Assalomu alaykum» deb kelishi – norma; o'quvchining o'qituvchi bergan topshiriqlarni bajarishi lozimligi – norma; xotinning er hurmatini o'rniga qo'yishi, qaynonaga gap qaytarmaslik – norma; avtobusda yoki boshqa jamoat transportida kichikning kattalarga, nogironlarga o'rin bo'shatishi – norma va hokazo. Bu normalarni ayrim alohida odam ishlab chiqmaydi, ular bir kun yoki bir vaziyatda ham ishlab chiqilmaydi. Ularning paydo bo'lishi sotsial tajriba, hayotiy vaziyatlarda ko'pchilik tomonidan e'tirof etilganligi fakti bilan xarakterlanadi, har bir jamiyat, davr, millat va sotsial guruh psixologiyada muhrlanadi.

Sotsial normalarning u yoki bu davrda, u yoki bu toifa vakili bo‘lmish shaxs tomonidan qay darajada bajarilishi yoki unga amal qilinayotganligi sotsial sanksiyalar orqali nazorat qilinadi. *Sotsial sanksiyalar* – normalarning shaxs xulqida namoyon bo‘lishini nazorat qiluvchi jazo va rag‘batlantirish mexanizmlari bo‘lib, ularning borligi tufayli biz har bir alohida vaziyatlarda sotsial xulq normalarini buzmaslikka, jamoatchilikning salbiy fikri ob‘yektiga aylanib qolmaslikka harakat qilamiz. Masalan, yuqoridagi misolda, agar jamoat transportida katta mo‘ysafid kishiga o‘rin bo‘shatishni norma deb qabul qilmagan o‘smirga nisbatan ko‘pchilikning ayblov ko‘zi bilan qarashi, yoki og‘zaki tanbeh berishi, juda kam hollarda o‘zini bebosh tutayotgan o‘smirning qo‘lidan tutib, nima qilish kerakligini o‘rgatib, «ko‘zini moshday qilib ochib qo‘yish» sotsial sanksiyaning hayotdagi bir ko‘rinishidir.

Sotsial sanksiyalarning quyidagi turlari mavjud (2-jadval):

2-jadval

	POZITIV (IJOBIY)	NEGATIV (SALBIY)
RASMIY	Rasmiy-pozitiv sanksiyalar (R+) jamoatchilik oldida shaxsning rasmiy tashkilotlar tomonidan rag‘batlantirilishi – hukumat sovrinlari, davlat medallari, stipendiyalar.	Rasmiy-negativ sanksiya (R-) yuridik qonunlar, hukumat qarorlari, buyruq va farmoyishlarida ko‘rsatilgan jazolashlar – qamoq jazosi, fuqarolik huquqidan mahrum etish, ishdan bo‘shatish, jarima solish, mulkni musodara qilish kabi jazolar.
NORASMIY	Norasmiy-pozitiv sanksiya (N+) rasmiy tashkilotdan chetda bo‘lmagan jamoatchilik oldida rag‘batlantirish: kompliment, olqishlash.	Norasmiy-negativ sanksiyalar (N-) rasmiy bosqich va yo‘l-yo‘riqlar bilan ko‘rib chiqilmagan jazolar: tanbeh, ustidan kulish.

V.3. Sotsial rol tushunchasi va ko‘rinishlari

Shaxsning jamiyatdagi xatti-harakatlarini nazorat qilib turishga yordam beruvchi yana bir mexanizm **sotsial roldir**. Har bir alohida shaxs jamiyat tomonidan ishlab chiqilgan va qabul qilingan sotsial normalar va sanksiyalarni u yoki bu sotsial rollarni bajarishi mobaynida xulqida namoyon etadi.

Sotsial rol jamoatchilik munosabatlari tizimida u yoki bu individ egallovchi ma’lum holatning **fiksatsiyasidir**. Sotsial rol o’zida jamoatchilik munosabatini aks ettiruvchi shaxsning sotsial faoliyati va xulq-atvorining muhim ko‘rinishidir.

Ilk marotaba sotsial rol tushunchasi amerikalik sotsiologlar **Ralf Linton va Djorj Gerbert Mid** tomonidan ilmiy atama sifatida taklif etilgan. *Har bir individ bir emas, bir nechta sotsial rollarni bajaradi. Sotsial rol uni bajaruvchi shaxsning har bir harakati va faoliyatini mayda-chuydasigacha belgilab bermaydi, balki bu shaxs o‘z rolini qanchalik qabul qilganligiga qarab o‘z rolini bekam-u ko‘st bajarishi yoki aksincha bo‘lishi mumkin.*

Sotsial rolning asosiy tavsiflari amerikalik sotsiolog Tolkott Parsons tomonidan ajratib ko‘rsatilgan. Bular masshtab, qabul qilish usuli, emotsionallik, shakllantirish, motivatsiya.

Rolning masshtabi – shaxslararo munosabatlar oralig‘iga bog‘liq. Masalan, er va xotin roli ular munosabatlarining kengligi yoki torligiga bog‘liq.

Rolni qabul qilish – shaxs uchun ushbu rolning qanchalik muhimligiga bog‘liq. Kampir, chol, erkak, ayol kabi rollar shaxsning yoshi va jinsi bilan bog‘liq ravishda egallanadi va uni egallashda hech qanday murakkablik kuzatilmaydi.

Ba’zi rollar esa hayot davomida egallanadi va hatto maxsus choralar orqali egallanadi, bular shaxsning kasbiy faoliyati bilan bog‘liq rollar hisoblanadi.

Sotsial rollar emotsionallik darajasiga ko‘ra ham farqlanadi. Har bir rol uning sub’yekti namoyon qiluvchi emotsionallikni o‘zida aks ettirish imkoniyatiga ega. Ya’ni, sotsial normalar, urf-odatlar, moda ma’lum vaziyatlarda inson emotsional holatini namoyon qilishiga ta’sir qiladi.

Sotsial rolni shakllantirish ayni rolni bajaruvchining shaxslararo munosabatdagi o‘ziga xosligi bilan aniqlanadi. Ba’zi rollar faqat xulq-atvorning

qat'iy reglamenti bilan rasmiy munosabat o'rnatishni talab etsa; ba'zilari – faqat norasmiy; boshqasi esa o'zida rasmiy va norasmiy munosabatlarni uyg'unlashtirishi mumkin.

Masalan, birga ishlaydigan hamkasblar rasmiy munosabatlardan so'ng yaqin munosabatlarda ham bo'lishlari mumkin.

Rollar motivatsiyasi esa shaxsning ehtiyoj va motivlariga bog'liqdir. Turli xil rol o'ziga xos motivatsiya bilan shartlashgandir. Ota-onalik roli bolasiga g'amxo'rlik qilishga yo'naltirilgan bo'lsa, rahbar shu tashkilotning yutug'i uchun qayg'uradi.

Sotsial rollarning turi shaxsning qaysi munosabat va faoliyat turiga taalluqli ekanligiga ko'ra ajratiladi. **Jamoatchilik munosabatlariga ko'ra** sotsial va shaxslararo sotsial rollar mavjud.

Sotsial rollar sotsial maqom, kasb yoki faoliyat turiga bog'liq. Bu shaxsi noaniq bo'lgan standartlashtirilgan rollar uni kim bajarayotganligidan qat'iy nazar shu rolning huquq va majburiyatlari asosiga quriladi. Ijtimoiy demografik rollar: er, xotin, o'g'il, qiz va h.k. kirs, shaxslararo rollarga emotsional darajada boshqariluvchi shaxslararo munosabatlar bilan bog'liq bo'lgan lider, arazlagan shaxs, xafa yoki xursand shaxs kabi rollar kiradi.

Namoyon qilinishiga qarab faol va yashirin rollarga ajratiladi. Faol rol aniq bir vaziyat yoki vaqtda bajariladi, yashirin rol esa dolzarb vaqtda namoyon **bo'lmaydi**, lekin ushbu jarayonda u mavjud bo'ladi.

Bundan tashqari taqdirga bitilgan (ayol, yosh bola, o'zbek) va hayot davomida o'zlashtirilgan (ona, rahbar, o'qituvchi) rollarga bo'linadi.

Sotsial rollar borasida ish olib borgan psixologlar Djorj Mid va Tamotsu Shibutanining fikriga ko'ra, sotsial rollar shaxsning aniq bir vaziyatda optimal harakat qilishini ta'minlovchi uzoq vaqt davomida shakllanib kelgan xulq-atvor usullaridir.

Har bir rol o'zining huquq va majburiyatlar to'plamiga egadir. Majburiyat – o'z rolidan kelib chiqib unga yoqadimi yoki yo'qmi qat'iy nazar shaxs bajarishi lozim bo'lgan xulq-atvor va xatti-harakatlar ketma-ketligi.

O‘z roliga mos bo‘lgan majburiyatini bajarar ekan, har bir shaxs boshqalardan talab qilishi mumkin bo‘lgan huquqlarga ham ega. Majburiyatlar hamisha burchlar bilan birgalikda kechadi. Ularning uyg‘unligi sotsial rolning me‘yorida bajarilishini ta‘minlaydi, aksincha holat esa sotsial rolning yaxshi o‘zlashtirilmaganligidan dalolat beradi.

V.4. Sotsial rolning shaxs shakllanishiga ta‘siri

Sotsial rolning shaxs shakllanishiga ta‘siri juda katta. Shaxs o‘zi bajaradigan rollar tufayli boshqalar bilan munosabatga kirishadi. Shaxsning bajaradigan rollari qanchalik ko‘p bo‘lsa, uning hayotga va jamiyatga moslashuvi osonroq kechadi. Yangi rolni zimmasiga olish ham shaxsdan katta mas‘uliyatni talab etishi bilan birga shaxs ruhiyatiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi. Shuning uchun psixoterapiyada shaxs xulqini korreksiya qilishga yordam beruvchi o‘zida psixodrammani qamrab olgan **imagoterapiya** deb nomlanuvchi usul qo‘llaniladi.

Bu usul **Yakob Levi Moreno** tomonidan tavsiya etilgan bo‘lib, unga ko‘ra patsientga yangi – o‘zi istagan, lekin imkoni bo‘lmagan rolni bajarish imkoni beriladi. Bu orqali Moreno nevrozlarni davolagan. Har bir rolni o‘ziga xos bajarilishida shaxsning xarakteri, temperamenti va shaxsiy xususiyatlari ham katta rol o‘ynaydi.

Dmitriy Alekseyevich Leontyevning ta‘kidlashicha, shaxs sotsial rollarni o‘zlashtirish jarayonida ikki aspekt mavjud: texnik va fikriy. Talaba o‘zining talabalik rolini qabul qilar ekan, uning qanday bajarilishiga e‘tibor qaratadi, lekin ba‘zi talabalar bu rolni o‘ziga qabul qilmaydilar va natijada majburiyatlarini to‘liq anglab yetmagan holda bu rolni bajaradilar. Shaxs butun umr yoshi, oilaviy va kasbiy maqomi, shaxslararo munosabatlariga bog‘liq holda yangi rollarni o‘zlashtirib boradi. O‘zlashtirish ba‘zida oson, ba‘zan esa qiyin kechishi mumkin.

Rollardagi nizolar. Ma‘lum bir rolni egallab turgan shaxsdan uning atrofidagi ma‘lum bir guruh kutayotgan kutuvlarni amalga oshirilishi jarayonida sodir bo‘ladigan to‘qnashuv. Ya‘ni shaxs bir vaqtning o‘zida ikki yoki undan ortiq rolni

bajarishga majbur bo'lganda sodir bo'ladigan holat. Rollar nazariyasida ikki xil to'qnashuv yoki nizo turi ajratiladi: **rollararo va rollar ichida** kuzatiladigan nizolar.

Rollararo to'qnashuvga shaxsga bir vaqtning o'zida bir nechta rol bajarish to'g'ri kelganda sodir bo'ladi, chunki bunday vaziyatda u yoki bu rollarning talablarini bajarish uchun ruhan tayyor bo'lmaydi (17 yoshli qiz kelinlik rolini eplashga zo'rg'a ulgurayotganida ona bo'lishi natijasida bu rollarni birvarakayiga bajarishga ruhan javob bera olmaydi) yoki javob berish uchun vaqt va jismoniy imkoniyatlari yetmaydi.

Rollararo nizolarni tushuntirishda amerikalik psixolog *U.G.Gud* o'zining «**Rollardagi nizolar nazariyasi**» asarini chop ettirgan. Bu nazariyasida u rollar to'qnashuvi nizolar natijasida yuzaga keladigan zo'riqishlar haqida fikr bildirib, shu zo'riqishlarni bartaraf etish usullarini tavsiflaydi. Muallifning fikriga ko'ra, zo'riqishlardan qutulish uchun shaxs bajarishi lozim bo'lgan rollardan o'zini birmuncha ozod qilishi kerak.

Buning uchun qaysi rol uning uchun eng muhim ekanligini ajratib olishi, ma'lum bir rolining bajarilmasligiga nisbatan qo'llaniladigan ijobiy yoki salbiy sanksiyalarga e'tibor berishi, biror rolni bajarmasligiga atrofdagilarning reaksiyasini hisobga olishi kerak.

Rollar ichida kuzatiladigan nizolarni tahlil qilish bir rolning egasiga nisbatan turli xil guruhlarda turlicha talablar qo'yilishi natijasida kelib chiqadi. Bu borada M.Komarovskaya tomonidan Amerikadagi kollejlardan birida talabalar bilan o'tkazilgan tadqiqot klassik xarakterga ega. Tadqiqot natijalarining ko'rsatishicha, talaba qizlarga nisbatan ularning ota-onalarining kutuvlari bilan shu kollejdagi talaba yigitlarning kutuvlari orasida farq kuzatilgan. Rollar bilan bog'liq nizolar tez-tez sodir bo'lib turuvchi hodisadir. Bu esa shaxslararo munosabatlarning murakkabligi bilan bog'liq.

Tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, rollardagi nizolar shaxslararo o'zaro ta'sir jarayoniga ham ta'sir ko'rsatadi, shuning uchun sotsial psixologlar rollardagi nizolarni hal etish bilan bog'liq konsepsiyalar ishlab chiqishga harakat qilishmoqda.

Ulardan biri U.Gudning rollardagi zo'riqishlar nazariyasi bo'lsa, aynan shunday yo'nalishni **N. Gross, U. Meysonlarning** ham ishlarida ko'rish mumkin.

Ular bu boradagi omillarni uch guruhga ajratishadi. Birinchisi, rol ijrochisiga nisbatan sub'yektiv munosabatlar bilan bog'liq omillar. Ikkinchi guruhga rolning ijro etilganligi yoki etilmaganligiga qarab sanksiyalarning qo'llanilishi bilan bog'liq omillar. Uchinchi guruhga rol ijrochisining oriyentatsiyasi (yo'nalishi)ni kiritishadi. Bu omillardan qay birini tanlash orqali rollardagi nizoni bartaraf etish rol ijrochisining o'ziga bog'liq.

Hozirgi sotsial-iqtisodiy vaziyat va bozor munosabatlari sharoitidagi raqobat muhiti shaxsdan bir vaqtning o'zida qator qobiliyatlar va malakalarni talab qilmoqdaki, ayniqsa, yoshlar o'zgaruvchan sharoitlarga tezroq moslashish uchun ba'zan bir-biriga zid xislatlarni ham xulqda namoyon qilishga majbur bo'lishmoqda. Masalan, yosh oila boshlig'i, talaba, ota-onalarga moddiy jihatdan qaram bo'lmaslik uchun, bir vaqtning o'zida ham itoatkor, intizomli talaba va o'qishdan keyin esa – chaqqon va uddaburon, tadbirkor, tijoratchilik bilan shug'ullanishga majbur bo'lishi mumkin. Bu holat tabiiy, shaxsdan kuchli iroda, doimiy intiluvchanlik va o'z ustida muttasil ishlashni talab qiladi.

V.5.Sotsial ta'sirlarning shaxs tomonidan anglanishi

Sotsial normalar, sanksiyalar, rollar sotsial mexanizmlar sifatida shaxs xulq-atvorini ma'lum ma'noda boshqarib, muvofiqlashtirib turishga yordam beradi. Lekin insonning komilligi, uning axloq – sotsial normalar doirasidagi maqbul harakati uning o'ziga ham bog'liqdir. Odamning o'z-o'zini anglashi, bilishi va o'z ustida ishlashi avvalo uning diqqati, ongi bevosita o'ziga, o'z ichki imkoniyatlari, qobiliyatlari, hissiy kechinmalariga qaratilishini taqozo etadi. Ya'ni, sotsial xulq – shaxs tomonidan uni o'rab turgan odamlar, ularning xulq-atvorlariga e'tibor berishdan tashqari, o'zining shaxsiy harakatlari va ularning oqibatlarini muntazam tarzda tahlil qilib borish orqali, rollarni muvofiqlashtirishni ham taqozo etadi.

Shaxsning o'zi, o'z xulq-atvori xususiyatlari, jamiyatdagi mavqeini tasavvur qilishidan hosil bo'lgan obraz – «Men» – obrazi deb atalib, uning qanchalik adekvatligi va reallikka yaqinligi shaxs barkamolligining mezonlaridan hisoblanadi.

«Men» – obrazining sotsial psixologik ahamiyati shundaki, u shaxs tarbiyasining va tarbiyalanganligining muhim omillaridan hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan olib qaralganda, tarbiya shaxsning o'zi va o'z sifatleri to'g'risidagi tasavvurlarining shakllanishi jarayonidir, deb ta'rif berish mumkin. *Demak, har bir inson o'zini, o'zligini qanchalik aniq va to'g'ri bilsa, tasavvur qilolsa, uning jamiyat normalariga zid harakat qilish ehtimoli ham shunchalik kam bo'ladi, ya'ni u tarbiyalangan bo'ladi.*

O'z-o'zini anglash, o'zidagi mavjud sifatlarni baholash jarayoni ko'pincha konkret shaxs tomonidan og'ir kechadi, ya'ni, inson tabiati shundayki, u o'zidagi o'sha jamiyat normalariga to'g'ri kelmaydigan, no'maqul sifatlarni anglamaslikka, ularni «yashirishga» harakat qiladi, hattoki, bunday tasavvur va bilimlar ongsizlik sohasiga siqib chiqariladi (avstriyalik olim Z.Freyd nazariyasiga ko'ra). Bu ataylab qilinadigan ish bo'lmay, u har bir shaxsdagi o'z shaxsiyatini o'ziga xos himoya qilish mexanizmidir. Bunday himoya mexanizmi shaxsni ko'pincha turli xil yomon asoratlardan, hissiy kechinmalardan asraydi. Lekin shuni alohida ta'kidlash lozimki, «Men» – obrazining ijobiy yoki salbiyligida yana o'sha shaxsni o'rab turgan tashqi muhit, o'zgarlar va ularning munosabati katta rol o'ynaydi.

Odam o'zgarlarga qarab, go'yoki oynada o'zini ko'rganday tasavvur qiladi. Bu jarayon psixologiyada **refleksiya** deb ataladi. *Uning mohiyati* – aynan o'ziga o'xshash odamlar obrazi orqali o'zi to'g'risidagi obrazni shakllantirish, jonlantirishdir. Refleksiya «Men» – obrazi egasining ongiga taalluqli jarayondir.

Masalan, ko'chada bir tanishingizni uchratib qoldingiz. Siz tinmay unga o'z yutuqlaringiz va mashg'ulotlaringiz haqida gapirmoqdasiz. Lekin gap bilan bo'lib, uning qayergadir shoshayotganligiga e'tibor bermadingiz. Shu narsani siz uning betoqatlik bilan sizni



tinglayotganligidan, hayoli boshqa yerda turganligidan bilib qolasiz va shu orqali

ayni shu paytda «mahmadona, laqmaroq» bo‘lib qolganingizni sezasiz. Keyingi safar shu o‘rtog‘ingiz bilan uchrashganda, oldingi xatoga yo‘l qo‘ymaslik uchun «O‘ртоq, shoshmayapsanmi?» deb so‘rab ham qo‘yasiz. Ana shu ilgarigi refleksiyaning natijasidir. Ya‘ni, suhbatdosh o‘rniga turib, o‘zingizga tashlangan nazar («men unga qanday ko‘rinyapman?») – refleksiya.

Shaxsning o‘zi haqidagi obrazi va o‘z-o‘zini anglashi yosh va jinsiy o‘ziga xoslikka ega. Masalan, o‘ziga nisbatan o‘ta qiziquvchanlik, kim ekanligini bilish va anglashga intilish ayniqsa, o‘smirlik davrida rivojlanadi. Bu davrda paydo bo‘ladigan «kattalik» hissi qizlarda ham, o‘smir yigitchalarda ham nafaqat o‘ziga, balki o‘zgalar bilan bo‘ladigan munosabatlarini ham belgilaydi. Qizlardagi «Men» – obrazining yaxshi va ijobiy bo‘lishi ko‘proq bu obrazning ayollik sifatlarini o‘zida mujassam eta olishi, ayollik hislatlarining o‘zida ayni paytda mavjudligiga bog‘liq bo‘lsa, yigitlardagi obraz ko‘proq jismonan barkamollik mezonlari bilan nechog‘lik uyg‘un ekanligiga bog‘liq bo‘ladi. Shuning uchun ham o‘smirlikda o‘g‘il bolalardagi bo‘yning pastligi, muskullarning zaifligi va shu asosda qurilgan «Men» – obrazi qator salbiy taassurotlarni keltirib chiqaradi.


Qizlarda esa tashqi tarafdin go‘zallikka, kelishganlik, odob va ayollarga xos qator boshqa sifatlarining bor yoki yo‘qligiga bog‘liq holda «Men» obrazi mazmunan idrok qilinadi. Qizlarda ham ortiqcha vazn yoki terisida paydo bo‘lgan ayrim toshmalar yoki shunga o‘xshash fiziologik nuqsonlar kuchli salbiy emotsiyalarga sabab bo‘lsa-da, baribir, chiroyli kiyimlar, taqinchoqlar yoki sochlarning o‘ziga xos turmagi bu nuqsonlarni bosib ketadigan omillar sifatida qaraladi.

V.6. Shaxsning «Men» obrazi

Shaxs sotsial psixologiyada, garchi uning shakllanishiga jinsi, temperamenti, irsiy belgilari kabi biologik tavsiflar ham ma‘lum darajada ta‘sir ko‘rsatsa-da, sotsial fenomen sifatida qaraladi.

Sotsial psixologiya sohasida tadqiqot olib boradigan mutaxassislarning aksariyati o‘z tadqiqotlarining asosiy yadrosi sifatida Gordon Ollport, Salvatore Maddi, Uilyam Jeyms kabi psixologlarning nazariyalariga tayanadi.


Ulardan biri U.Jeymsning shaxs nazariyasida shaxs «Men»i haqidagi fikrlarini to'liq ifodalay olgan, desak bo'ladi. U.Jeyms shaxs «Men»iga xos ikki aspektni ajratib ko'rsatdi: «Men» - anglovchi va «Men» - ob'yekt.



Uilyam Jeyms
1842-1910

«Men» - ob'yekt inson nimaniki «o'zinniki» deb atay olgan barcha narsalar yig'indisidir. Uning ichiga:

- Material «Men» – o'z ichiga shaxsning tana tuzilishi va shaxsan uning o'zigagina tegishli bo'lgan barcha narsalarini oluvchi «Men» bo'lsa;
- Sotsial «Men» – shaxsdagi uning atrofida tan olgan «Men», har bir shaxsni o'zi haqida uning atrofida gilar fikri qiziqtiradi, albatta. Demak, shaxsning atrofida qancha alohida sotsial guruhlar mavjud bo'lsa, uning uchun shuncha sotsial «Men»i mavjud bo'ladi;
- Psixik «Men» – individning sotsial muhitda uning kimligini namoyon qilishiga yordam beruvchi qobiliyat va iqtidorlarining yig'indisi hisoblanadi;
- Haqiqiy yoki axloqiy «Men» – shaxsning o'zini anglashi, o'z-o'ziga baho berishi doirasidan iboratdir. Zamonaviy psixologiyada bunday «Men»ni shaxsning markaziy bo'g'ini sifatida qaraladi va «Men» konsepsiya tushunchasi orqali ifodalanadi.



Charlz Xorton Kuli
1864-1929

Sotsiolog olimlardan biri Charlz Kuli «Shaxs oynasi» tushunchasini ishlatgan bo'lib, bu orqali shaxs atrofida odamlarning unga nisbatan berayotgan bahosi va fikriga aynan oynaga qaraganday qaraydi, degan fikrni asoslagan.

Uning fikricha, har qanday shaxs o'ziga nisbatan atrofida gilar berayotgan bahosi va fikrini qabul qilar ekan, o'zini oynaga solgandek bo'ladi. Bu fikrni keyinchalik Djorj Gerbert Mid va Garri Stek Sallivanlar ham rivojlantirgan.

Dj.G.Midning fikricha, shaxsning o'zini anglashi uning sotsial munosabatlarining hosilasi bo'lib, bu jarayonda u o'ziga tashqi tomondan, go'yoki ob'yektga qaragandek qarashni o'rganadi. Shuni alohida qayd etish kerakki, bunda

atrofdagi butun bir sotsial guruh yoki jamoa a'zolarining fikri – jamoaviy ustanovka sifatida rol o'ynaydi.

Aynan shu holat tufayli biz o'zimizni boshqalar qanday ko'rsa o'shanday ko'rishga o'rganamiz, o'zimizga boshqalar ko'zi bilan qarashga o'rganamiz. Lekin o'sha jamoadan aynan kimningdir fikri nima uchundir bizga ko'proq ta'sir ko'rsatadi, degan savol barchani qiziqtiradi. Bu savolga javob aynan jamoa a'zolarining barchasi ham biz haqimizda bir xilda fikr yuritmasligi va bizga bir xilda baho beravermasliklari bilan bog'liqdir.

Bundan tashqari atrofdagilarning fikrini inobatga olishimizda qanday omillar rol o'ynaydi, degan savol ham muhimdir. Dastlabki omil sifatida fikrlarni qabul qiluvchining yoshi muhim rol o'ynaydi. Masalan, bolalar uchun ota-onasi, o'qituvchisining fikri muhimdir. Katta yoshdagilar uchun esa oila a'zolaridan biri, do'sti, hamkasbi kabilar ta'sir ko'rsatuvchi shaxs bo'lishi mumkin.

Bu borada jins xususiyati ham o'ziga xos ahamiyatga ega. Amerikalik Jon Xoelter, amerikalik o'smir-o'quvchilar bilan tadqiqot o'tkazib, shuni aniqlaganki, o'smir qizlar o'zining o'g'il bola tengdoshlarining fikrlarini ko'proq inobatga olar ekan, o'smir o'g'il bolalar esa o'z ota-onalarining fikrlarini ko'proq inobatga olishi aniqlangan.

Shaxs «Men»i va o'zini anglashida boshqalarning ta'siri katta, lekin buning o'ziga xos muammoli jihati ham mavjuddir.

Karl Yungning ta'kidlashicha, shaxs psixikasi tuzilishida himoya qismi mavjud va u Persona deb ataladi. Ana shu Persona shaxsning haqiqiy «Men»i va Yolg'on «Men»i o'rtasida muammolarni keltirib chiqaradi.

K.Yungning fikricha, Persona, o'ziga xos niqobga ega bo'lib, shaxs jamoatchilik bilan munosabatlarda o'zining haqiqiy «Men»ini yashirish maqsadida shu niqobni taqib oladi. Buning natijasida shaxs o'zining asl basharasini har doim ham va barcha sotsial guruhlar oldida ham namoyon etavermaydi, natijada uning aslida qandayligini atrofidagilar bila olmaydi.

K.Yungning tahmin qilishicha, Persona – bu jamiyat va shaxs o'rtasidagi hamkorlikdir. Uning maqsadi – shaxsning haqiqiy «Men»ini yashirgan holda

boshqalarda yaxshi taassurot uyg'otishdan iboratdir. Ko'pincha shaxs o'zining asl holati bilan Personani chalkashtirib yuboradi. Bunday holda «Men» ham Persona bilan aralashib ketadi, shaxs esa sotsial muhit oldida rol o'ynovchi yolg'onchi mavjudodga aylanib qoladi. Boshqacha qilib aytganda, shaxs o'zini o'z niqobidagi holati bilan chalkashtirib yuboradi.

K.G.Yung bunday holat individning o'z-o'zini anglashiga xavf solishini ko'rsatib beradi. Dastlab K.Yung, undan keyin esa uning izdoshi Ester Xarding shaxsning atrofida uning niqobdagi holatiga qarab bergan bahosini qabul qilishi natijasida o'z «Men»ining haqiqiy mohiyatini to'liq anglay olmasligi bilan bog'liq vaziyatlarni ham keltirib o'tishgan. Bunday holatda shaxsning «Men» – konsepsiyasi va Personasi bir-biriga mos tushadi. Bunday bo'lishi shaxs uchun har doim ham istalgan holat bo'lavermaydi. Shu bois bunga yo'l qo'ymaslik uchun shaxs faqat atrofida uning fikri va bahosiga suyanibgina qolmasdan, o'zi ham o'zini tahlil qilish, o'z kamchiliklarini tan olish orqali o'zini anglashga va o'zining haqiqiy «Men»ini, «Men» konsepsiyasini rivojlantirishga harakat qilishi lozim.

V.7. «Men» – obrazi va o'zini-o'zi baholash

«Men» – obrazi asosida ham bir shaxsda o'z-o'ziga nisbatan baholar tizimi shakllanadiki, bu tizim ham obrazga mos tarzda har xil bo'lishi mumkin. **O'z-o'ziga nisbatan baho** turli sifatlar va shaxsning orttirilgan tajribasi, shu tajriba asosida yotgan yutuqlariga bog'liq holda turlicha bo'lishi mumkin. Ya'ni, ayni biror ish, yutuq yuzasidan ortib ketsa, boshqasi ta'sirida – aksincha, pastlab ketishi mumkin. Bu baho aslida shaxsga boshqalarning real munosabatlariga bog'liq bo'lsa-da, aslida u shaxs ongi tizimidagi mezonlarga, ya'ni, uning o'zi sub'yektiv tarzda shu munosabatlarni qanchalik **qadrlashiga** bog'liq tarzda shakllanadi. Masalan, maktabda bir fan o'qituvchisining bolaga nisbatan ijobiy munosabati, doimiy maqtovlari uning o'z-o'ziga bahosini oshirsa, boshqa bir o'qituvchining salbiy munosabati ham bu bahoni pastlatmasligi mumkin. Ya'ni, bu baho ko'proq shaxsning o'ziga bog'liq bo'lib, u sub'yektiv xarakterga egadir.

O‘z-o‘ziga baho nafaqat haqiqatga yaqin (adekvat), to‘g‘ri bo‘lishi, balki u o‘ta past yoki yuqori ham bo‘lishi mumkin.

O‘z-o‘ziga bahoning past bo‘lishi ko‘pincha atrofdagilarning shaxsga nisbatan qo‘yayotgan talablarining o‘ta ortiqligi, ularni uddalay olmaslik, turli xil e‘tirozlarning doimiy tarzda bildirilishi, ishda, o‘qishda va muomala jarayonidagi muvaffaqiyatsizliklar oqibatida hosil bo‘lishi mumkin. Bunday o‘smir yoki katta odam ham, doimo tushkunlik holatiga tushib qolishi, atrofdagilardan chetroqda yurishga harakat qilishi, o‘zining kuchi va qobiliyatlariga ishonchsizlik kayfiyatida bo‘lishi bilan ajralib turadi va bora-bora shaxsda qator salbiy sifatlar va xatti-harakatlarning paydo bo‘lishiga olib keladi. Hattoki, bunday holat suisidal harakatlar, ya‘ni o‘z joniga qasd qilish, real borlig‘idan «qochishga» intilish psixologiyasini ham keltirib chiqarishi mumkin.

O‘zi-o‘ziga bahoning o‘ta yuqori bo‘lishi ham shaxs xulq-atvoriga yaxshi ta‘sir ko‘rsatmaydi. Chunki, u ham shaxs yutuqlari yoki undagi sifatlarning boshqalar tomonidan sun‘iy tarzda bo‘rttirilishi, noo‘rin maqtovlar, turli qiyinchiliklarni chetlab o‘tishga intilish tufayli shakllanadi. Ana shunday sharoitda paydo bo‘ladigan psixologik holat «noadekvatlik affekti» deb atalib, uning oqibatida shaxs hattoki, mag‘lubiyatga uchraganda yoki o‘zida nochorlik, uquvsizliklarni sezganda ham buning sababini o‘zgalarda deb biladi va shunga o‘zini ishontiradi ham (masalan, «xalaqit berdi-da», «falonchi bo‘lmaganida» kabi bahonalar ko‘payadi). Ya‘ni, nimaiki bo‘lmasin, aybdor o‘zi emas, atrofdagilar, sharoit, taqdir aybdor. Bundaylar haqida bora-bora odamlar «oyog‘i yerdan uzilgan», «manmansiragan», «dimog‘dor» kabi sifatlar bilan gapira boshlaydilar. Demak, o‘z-o‘ziga baho realistik, adekvat, to‘g‘ri bo‘lishi kerak.

Realistik baho shaxsni o‘rab turganlar – ota-ona, yaqin qarindoshlar, pedagog va murabbiylar, qo‘ni-qo‘shni va yaqinlarning o‘rinli va asosli baholari, real samimiy munosabatlari mahsuli bo‘lib, shaxs ushbu munosabatlarni ilk yoshligidanoq holis qabul qilishga, o‘z vaqtida kerak bo‘lsa to‘g‘rilashga o‘rgatilgan bo‘ladi. Bunda shaxs uchun etalon, ibratli hisoblangan insonlar guruhi – **referent** guruhning roli katta bo‘ladi. Chunki biz kundalik hayotda hammaning fikri va bahosiga quloq

solavermaymiz, biz uchun shunday insonlar mavjudki, ularning hattoki, oddiygina tanbehlari, maslahatlari, hattoki, maqtab turib bergan tanbehlari ham katta ahamiyatga ega. Bunday referent guruh real mavjud bo'lishi (masalan, ota-ona, o'qituvchi, ustoz, yaqin do'stlar), yoki noreal, xayoliy (kitob qahramonlari, sevimli aktyorlar, ideal) bo'lishi mumkin. Shuning uchun yoshlar tarbiyasida yoki real jamoadagi odamlarga maqsadga muvofiq ta'sir yoki tazyiq ko'rsatish kerak bo'lsa, ularning etalon, referent guruhini aniqlash katta tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'ladi.

Shunday qilib, o'z-o'ziga baho sof sotsial hodisa bo'lib, uning mazmuni va mohiyati shaxsni o'rab turgan jamiyat normalariga, shu jamiyatda qabul qilingan va e'zozlanadigan qadriyatlarga bog'liq bo'ladi. Keng ma'nodagi yirik sotsial jamoalar etalon rolini o'ynashi oqibatida shakllanadigan o'z-o'ziga baho – o'z-o'zini baholashning yuksak darajasi hisoblanadi. Masalan, mustaqillik sharoitida mamlakatimiz yoshlari ongiga milliy qadriyatlarimiz, vatanparvarlik, adolat va mustaqillik mafkurasiga sadoqat hislarining tarbiyalanishi, tabiiy, har bir yosh avlodda o'zligini anglash, o'zi mansub bo'lgan xalq va millat ma'naviyatini qadrlash hislarini tarbiyalamoqda. Bu esa, o'sha yuksak o'z-o'zini anglashning poydevori va muhim shakllantiruvchi mexanizmidir.

Demak, o'z-o'zini baholash – o'z-o'zini tarbiyalashning muhim mezonidir. O'z-o'zini tarbiyalash omillari va mexanizmlariga esa, quyidagilar kiradi:

- o'z-o'zi bilan muloqot (o'zini konkret tarbiya ob'yekti sifatida idrok etish va o'zi bilan muloqotni tashkil etish sifatida);
- o'z-o'zini ishontirish (o'z imkoniyatlari, kuchi va irodasiga ishonish orqali ijobiy xulq normalariga bo'ysundirish);
- o'z-o'ziga buyruq berish (tig'iz va ekstremal holatlarda o'zini qo'lga olish va maqbul yo'lga o'zini chorlay olish sifati);
- o'z-o'ziga ta'sir yoki autosuggestiya (sotsial normalardan kelib chiqqan holda o'zida ma'qul ustanovkalarni shakllantirish);
- ichki intizom – o'z-o'zini boshqarishning muhim mezoni, har doim har yerda o'zining barcha harakatlarini muntazam ravishda korreksiya qilish va boshqarish uchun zarur sifat.

Yuqoridagi o‘z-o‘zini boshqarish mexanizmlari orasida psixologik nuqtai nazardan o‘z-o‘zi bilan amalga oshiriladigan **ichki dialog** alohida o‘rin tutadi. **O‘z-o‘zi bilan dialog** – oddiy til bilan aytganda, o‘zi bilan o‘zi gaplashishdir. Aslida bu qobiliyat bizning boshqalar bilan amalga oshiradigan tashqi dialoglarimiz asosida rivojlanadi, lekin aynan ichki dialog muhim regulyativ rol o‘ynaydi. Yevgeniy Aleksandrovich Klimov bunday dialogning bosqichlarini ko‘rsatib o‘tadi. 3-jadvalda shaxs ichki dialogining bosqichlari va har bir bosqichga xos bo‘lgan belgilar keltirilgan.

3-jadval

Ichki dialogning shakllanganlik darajasi	Bosqichlari	Ichki dialogning darajaviy belgilari (autokommunikasiya)
Oliy daraja	6-bosqich	Shaxsiy mazmundagi dialog (o‘zidagi shaxsiy sifatlarni muhokama qilish, shaxsiy mulohaza)
	5-bosqich	Hodisa va narsalarga bog‘liq bo‘lgan sifatlarning xususidagi ichki dialog
O‘rta daraja	4-bosqich	Shaxsiy sifatlarning muhokamasiga qaratilgan savollar, o‘ziga talablar
	3-bosqich	Boshqalarning baholari ta‘siridagi ichki mulohazalar, shaxsiy ahamiyat kasb etgan o‘zgarish fikrlari asosida ichki dialog
Quyi daraja	2-bosqich	Shaxsiy sifatlarga aloqador bo‘lmagan o‘zgarish fikrlari asosidagi dialog (hodisa va narsalarga aloqador fikrlar)
	1-bosqich	Kimdir nima haqidadir gapirishi mumkin bo‘lgan holatlar yuzasidan tasavvurlar, lekin aniq fikr yoki munosabat yo‘q. Autokommunikasiyaga hojat yo‘q.

Demak, shaxsning qanday sifatlarga ega ekanligi, undagi baholarning ob'yektivligiga bog'liq tarzda o'z-o'zi bilan muloqotga kirishib, jadvaldagiga muvofiq shaxs o'zini nazorat qila oladi. Shuning uchun ham hayotda shunday kishilar uchraydiki, katta majlisda ishi tanqidga uchrasa ham, o'ziga holis baho berib, kerakli to'g'ri xulosalar chiqara oladi, shunday odamlar ham borki, arzimagan xatolik uchun o'z «ich-etini yeb tashlaydi». Bu o'sha ichki dialogning har kimda har xil ekanligidan darak beruvchi faktlardir.

Tayanch tushunchalar: sotsial norma, sanksiya, rol, rolning masshtabi, rolni qabul qilish, emotsionallik, rolni shakllantirish, rollar motivatsiyasi, faol va yashirin rollar, imagoterapiya, texnik va fikriy, “Men” obrazi, refleksiya, haqiqiy “Men”, yolg'on “Men”, Persona, referent.

Mavzuni o'zlashtirish uchun savollar

1. Sotsial norma deganda nimani tushundingiz?
2. Sotsial sanksiyalar qanday holatlarda ishlatiladi?
3. Ilk marotaba sotsial rol tushunchasini kimlar kiritgan, ularning ta'rifi?
4. Namoyon qilinishiga qarab faol va yashirin rollarni tushuntirib bering.
5. Rollardagi nizolar haqida olimlarning fikrlarini bayon qiling.
6. T.Parsons bo'yicha sotsial rolning asosiy tavsiflari
7. Refleksiya tushunchasiga izoh bering.
8. “Men” obrazi deganda nimani tushundingiz?
9. O'z-o'zini anglashda yosh va jinsiy o'ziga xoslik haqida fikr bildiring.
10. Persona tushunchasi haqida fikringizni bayon qiling.
11. O'z-o'ziga bahoning mohiyatini tushuntiring.
12. O'z-o'zini tarbiyalash omillari va mexanizmlariga nimalar kiradi?

Bilimlarni mustahkamlash uchun test savollari

1. Shaxs tarbiyasining va tarbiyalanganligining muhim omillaridan hisoblanuvchi obraz?

- A) Men
- B) Individ
- C) Jamoa
- D) Rol

2. Kimning nazariyasiga ko'ra, o'z-o'zini anglash, o'zidagi mavjud sifatlarni baholash jarayoni ko'pincha konkret shaxs tomonidan og'ir kechadi, ya'ni inson tabiati shundayki, u o'zidagi o'sha jamiyat normalariga to'g'ri kelmaydigan, noma'qul sifatlarni anglamaslikka, ularni «yashirishga» harakat qiladi, hattoki, bunday tasavvur va bilimlar ongsizlik sohasiga siqib chiqariladi?

- A) Leybnits
- B) Darwin
- C) Z. Freyd
- D) E. Fromm

3. Qaysi jarayonning mohiyati aynan o'ziga o'xshash odamlar obrazi orqali o'zi to'g'risidagi obrazni shakllantirish, jonlantirish hisoblanadi?

- A) Men
- B) Refleksiya
- C) Identifikatsiya
- D) O'z-o'ziga baho

4. Qanday holat ko'pincha atrofdagilarning shaxsga nisbatan qo'yayotgan talablarining o'ta ortiqligi, ularni uddalay olmaslik, turli xil e'tirozlarning doimiy tarzda bildirilishi, ishda, o'qishda va muomala jarayonidagi muvaffaqiyatsizliklar oqibatida hosil bo'lishi mumkin?

- A) Refleksiya
- B) Stress
- C) O'ziga o'zining past baho berishi
- D) O'ziga o'zining o'ta yuqori baho berishi

5. Qanday sharoitda «noadekvatlik affekti» paydo bo‘ladi?

- A) Yutuqlarning boshqalar tomonidan sun’iy tarzda bo‘rttirilishi
- B) Noo‘rin maqtovlar
- C) Turli qiyinchiliklarni chetlab o‘tishga intilish
- D) Hamma javob to‘g‘ri

6. Qaysi jarayon ota-ona, yaqin qarindoshlar, pedagog va murabbiylar, qo‘ni-qo‘shni va yaqinlarning o‘rinli va asosli baholari, real samimiy munosabatlari mahsuli hisoblanadi?

- A) O‘z-o‘ziga past baho berish
- B) Realistik baho
- C) O‘z-o‘ziga o‘ta yuqori baho berish
- D) O‘z-o‘zi bilan muloqot

7. Shaxs uchun etalon, ibratli hisoblangan insonlar guruhi nima deb ataladi?

- A) Referent guruh
- B) Realistik guruh
- C) Ideal guruh
- D) Oliy guruh

8. Sotsial normalardan kelib chiqqan holda o‘zida ma’qul ustanovkalarni shakllantirish nima deb ataladi?

- A) O‘z-o‘zi bilan muloqot
- B) O‘z-o‘zini ishontirish
- C) Autosuggestiya
- D) Ichki intizom

9. Ichki dialogning uch darajasini kim ko‘rsatib bergan?

- A) Ye.Klimov
- B) G.Leybnits
- C) F.Galton
- D) Dj.Lokk

10. Shaxs meniga xos 2 aspektni, ya’ni “Men” – anglovchi va “Men” – ob’yektni ajratib ko‘rsatgan olim kim?

- A) Charlz Kuli
- B) Gerbert Mid
- C) Karl Yung
- D) Uilyam Jeyms

11. Kim Lokka e'tiroz bildirib, hayotda umuman toza, sof doskaning o'zi bo'lmaydi, hattoki, eng yaxshi silliqlangan marmar yuzasida ham sezilarli teshiklar, do'ngliklar yoki tug'ma asoratlar bo'ladiki, ular layoqatlardek, inson taqdirida ma'lum rol o'ynaydi, deya fikr bildirgan?

- A) Leybnits
- B) Galton
- C) Darvin
- D) Lens

12. Jamoatchilik oldida shaxsning rasmiy tashkilotlar tomonidan rag'batlantirilishi – hukumat sovrinlari, davlat medallari, stipendiyalar. Bu qanday sanksiyaga kiradi?

- A) Rasmiy pozitiv
- B) Rasmiy negativ
- C) Norasmiy pozitiv
- D) Norasmiy negativ

13. Yuridik qonunlar, hukumat qarorlari, buyruq va farmoyishlarida ko'rsatilgan jazolashlar – qamoq jazosi, fuqarolik huquqidan mahrum etish, ishdan bo'shatish, jarima solish, mulkni musodara qilish kabi jazolar. Bu qanday sanksiyaga kiradi?

- A) Rasmiy pozitiv
- B) Rasmiy negativ
- C) Norasmiy pozitiv
- D) Norasmiy negativ

14. Rasmiy tashkilotdan chetda bo'lmagan jamoatchilik oldida rag'batlantirish: kompliment, olqishlash. Bu qanday sanksiyaga kiradi?

- A) Rasmiy pozitiv

- B) Rasmiy negativ
- C) Norasmiy pozitiv
- D) Norasmiy negativ

15. Rasmiy bosqich va yo‘l-yo‘riqlar bilan ko‘rib chiqilmagan jazolar: tanbeh, ustidan kulish. Bu qanday sanksiyaga kiradi?

- A) Rasmiy pozitiv
- B) Rasmiy negativ
- C) Norasmiy pozitiv
- D) Norasmiy negativ

16.... – shaxsga nisbatan shunday tushunchaki, uning konkret hayotiy vaziyatlardagi huquq va burchlaridan iborat harakatlari majmuini bildiradi.

- A) Rol
- B) Norma
- C) Sanksiya
- D) Status

17. Sotsial rol tushunchasi qaysi olimlar tomonidan ilmiy atama sifatida taklif etilgan?

- A) R.Linton va D.Mid
- B) T.Parsons va T.Shibutani
- C) Dj.Moreno va D.A.Leontev
- D) U.G.Gud va M.Komarovskaya

18. T.Parsons fikricha sotsial rolning asosiy tavsiflari nechta?

- A) 2
- B) 5
- C) 6
- D) 4

VI BOB. MULOQOT SOTSIAL VA SHAXSLARARO MUNOSABATLARNING IFODASI SIFATIDA

VI.1. Insoniy munosabatlar psixologiyasi

Shaxs – sotsial munosabatlar mahsuli deyilishining eng asosiy sababi – uning doimo insonlar davrasida, ular bilan o‘zaro ta’sir doirasida bo‘lishini anglatadi. Bu shaxsning eng yetakchi va nufuzli faoliyatlaridan biri muloqot ekanligiga ishora qiladi.

Muloqotning turi va shakllari turlichadir. Masalan, bu faoliyat bevosita «yuzma-yuz» bo‘lishi yoki u yoki bu texnik vositalar (telefon, telegraf va shunga o‘xshash) orqali amalga oshiriladigan; biror professional faoliyat jarayonidagi amaliy yoki do‘stona bo‘lishi; sub’yekt-sub’yekt tipli (dialogik, sheriklik) yoki sub’yekt-ob’yektli (monologik) bo‘lishi mumkin.

Insoniy munosabatlar shunday o‘zaro ta’sir jarayonlariki, unda shaxslararo munosabatlar shakllanadi va namoyon bo‘ladi. Bunday jarayon dastlab odamlar o‘rtasida ro‘y beradigan fikrlar, his-kechinmalar, tashvishu-quvonchlar almashinuvini nazarda tutadi. Odamlar muloqotda bo‘lishgani sari, ular o‘rtasidagi munosabatlar tajribasi ortgani sari ular o‘rtasida umumiylik, o‘xshashlik va uyg‘unlik kabi sifatlar paydo bo‘ladiki, ular bir-birlarini bir qarashda tushunadigan yoki «yarimta jumladan» ham fikr ayon bo‘ladigan bo‘lib qoladi, ayrim hollarda esa ana shunday muloqotning tig‘izligi teskari reaksiyalarni – bir-biridan charchash, gapiradigan gapning qolmasligi kabi vaziyatni keltirib chiqaradi. Masalan, oila muhiti va undagi munosabatlar ana shunday tig‘iz munosabatlarga kiradi. Faqat bunday tig‘izlik oilaning barcha a’zolari o‘rtasida emas, uning ayrim a’zolari o‘rtasida bo‘lishi mumkin (ona-bola, qaynona-kelin va h.k).

O‘zaro munosabatlarga kirishayotgan tomonlar munosabatdan ko‘zlaydigan **asosiy maqsadlari – o‘zaro til topishish, bir-birini tushunishdir**. Bu jarayonning murakkabligi, kerak bo‘lsa, «**jozibasi**», betakrorligi shundaki, o‘zaro bir xil til topishish yoki tomonlarning aynan bir xil o‘ylashlari va gapirishlari mumkin emas. Agar ana shunday vaziyatni tasavvur qiladigan bo‘lsak, bunday muloqot eng

samarasiz, eng beta'sir bo'lgan bo'lar edi. Masalan, tasavvur qiling, uzoq vaqt ko'rishmay qolgan do'stingizni ko'rib qoldingiz. Siz undan hol-ahvol so'radingiz, lekin u tashabbusni sizga berib, nimaiki demang, sizni ma'qullab, gapingizni qaytarib turibdi. Bunday muloqot juda bemaza bo'lgan va siz ikkinchi marta o'sha odam bilan iloji boricha rasman salom-alikni bajo keltirib o'tib ketavergan bo'lardingiz. Ya'ni, muloqot faoliyati shunday shart-sharoitki, unda har bir shaxsning individualligi, betakrorligi, bilimlar va tasavvurlarning xilma-xilligi namoyon bo'ladi va shunisi bilan u insoniyatni asrlar davomida o'ziga jalb etadi.

Har qanday faoliyatdan zerikish, charchash mumkin, faqat odam muloqotdan, ayniqsa, uning norasmiy samimiy, bevosita shaklidan charchamaydi, yaxshi suhbatdoshlar doimo ma'naviy jihatdan rag'batlantiriladilar.

XXI asrda odamning eng tabiiy bo'lgan muloqotga ehtiyoji, uning sirlaridan xabardor bo'lish va o'zgalarga samarali ta'sir eta olishga bo'lgan intilishi yanada oshdi va buning qator sabablari bor.

Birinchidan, industrial jamiyatdan axborotlar jamiyatiga o'tib bormoqdamiz. Axborotlarning ko'pligi aynan inson manfaatiga aloqador ma'lumotlarni saralash, u bilan to'g'ri munosabatda bo'lishni taqozo etdi. Axborot XXI asrda eng nodir kapitalga aylanadi va bu o'z navbatida insonlarga zarur axborotlar uzatilishi tezligi va tempini o'zgartiradi.

Ikkinchidan, turli kasb-faoliyat sohasida ishlayotgan odamlar guruhining ko'payishi, ular o'rtasida munosabatlar va aloqaning dolzarbligini axborotlar tig'iz sharoitda oddiygina muloqotni emas, balki professional, bilimdonlik asosidagi muloqotni talab qiladi. Umuman, XXI asrning korporatsiyalar asri bo'ladi, deb bashorat qilayotgan iqtisodchilar ham bu korporatsiya insonlarning o'zaro til topishlariga qaratilgan malakalarning rivojlangan, mukammal bo'lishi haqida gapirmoqdalar. Undan tashqari, bu kabi korporativ aloqa ko'p hollarda bevosita yuzma-yuz emas, balki zamonaviy texnik vositalar – uyali aloqa, fakslar, elektron pochta, Internet kabilar yordamida aniq va lo'nda fikrlarni uzatishni nazarda tutadi. Bu ham o'ziga xos muloqot malakalarining ataylab shakllantirilishini taqozo etadi.

Uchinchidan, oxirgi paytlarda shunday kasb-hunarlar soni ortdiki, ular sotsionomik guruh kasblar deb atalib, ularda «odam-odam» dialogi faoliyatning samarasini belgilaydi. Masalan, pedagogik faoliyat, boshqaruv tizimi, turli xil xizmatlar (servis), marketing va boshqalar shular jumlasidandir. Bunday sharoitlarda odamlarning ataylab muloqot bilimdonligining oshirilishi mehnat mahsulini belgilaydi.

Shuning uchun ham muloqot, uning tabiati, texnikasi va strategiyasi, muloqotga o'rgatish (sotsial psixologik trening) masalalari bilan shug'ullanuvchi fanlarning ham jamiyatdagi o'rni va salohiyati keskin oshdi.

VI.2. Shaxslararo muomalaning shaxs taraqqiyotidagi o'rni

Aslida har bir insonning sotsial tajribasi, uning insoniy qiyofasi, fazilatlari, hattoki, nuqsonlari ham muloqot jarayonlarining mahsulidir. Jamiyatdan ajralgan, muloqotda bo'lish imkoniyatidan mahrum bo'lgan odam o'zida individ sifatlarini saqlab qolishi mumkin, lekin u shaxs bo'lolmaydi. Shuning uchun muloqotning shaxs taraqqiyotidagi ahamiyatini tasavvur qilish uchun uning funksiyalarini tahlil qilamiz.

Har qanday muloqotning eng elementar funksiyasi – suhbatdoshlarning o'zaro bir-birini tushunishlarini ta'minlashdir. Bu o'zbeklarda samimiy salom-alik, ochiq yuz bilan kutib olishdan boshlanadi. O'zbek xalqining eng nodir va buyuk hislatlaridan biri ham shuki, uyiga birov kirib kelsa, albatta ochiq yuz bilan kutib oladi, ko'rishadi, so'rashadi, xol-ahvol so'raydi. Shunisi xarakterliki, ta'ziyaga borgan chog'da ham ana shunday samimiyatli qabulni his qilamiz. Bu kabi birlamchi kontakt usullari boshqa millat va xalqlarda ham bor, ya'ni bu jihat milliy o'ziga xoslikka ega.

Uning ikkinchi muhim funksiyasi sotsial tajribaga asos solishdir. Odam bolasi faqat odamlar davrasida sotsiiallashadi, o'ziga zarur insoniy xususiyatlarni shakllantiradi. Odam bolasining yirtqich hayvonlar tomonidan o'g'rilanib ketilishi, so'ng ma'lum muddatdan keyin yana odamlar orasida paydo bo'lishi faktlari shuni ko'rsatganki, «**MAUGLILAR**» biologik mavjudot sifatida rivojlanaveradi, lekin

sotsiallasuvda ortda qolib ketadi. Bundan tashqari, bunday holat boladagi bilish qobiliyatlarini ham cheklashi ko‘plab psixologik eksperimentlarda o‘z isbotini topdi.

Muloqotning yana bir muhim vazifasi – u odamni u yoki bu faoliyatga hozirlaydi, ruhlantiradi. Odamlar guruhidan uzoqlashgan, ular nazaridan qolgan odamning qo‘li ishga ham bormaydi, borsa ham jamiyatga emas, balki faqat o‘zigagina manfaat keltiradigan ishlarni qilishi mumkin. Masalan, ko‘plab tadqiqotlarda **izolyatsiya**, ya‘ni odamni yolg‘izlatib qo‘yishning uning ruhiyatiga ta‘siri o‘rganilgan. Masalan, uzoq vaqt termokamerada bo‘lgan odamda idrok, tafakkur, xotira, hissiy holatlarning buzilishi qayd etilgan. Lekin ataylab emas, taqdir taqozosi bilan yolg‘izlikka mahkum etilgan odamlarning maqsadli faoliyatlar bilan o‘zlarini band etishlari u qadar katta salbiy o‘zgarishlarga olib kelmasligini ham olimlar o‘rganishgan.

Lekin baribir har qanday yolg‘izlik va muloqotning yetishmasligi odamda muvozanatsizlik, hissiyotga beriluvchanlik, hadiksirash, havotirlanish, o‘ziga ishonchsizlik, qayg‘u, tashvish hislarini keltirib chiqaradi. Shunisi qiziqki, yolg‘izlikka mahkum bo‘lganlar ma‘lum vaqt o‘tgach ovoz chiqarib gapira boshlasharkan. Bu avval biror ko‘rgan yoki his qilayotgan narsasi xususidagi gaplar bo‘lsa, keyinchalik nimagadir qarab gapiraverish ehtiyoji paydo bo‘lar ekan. Masalan, Mishel Sifr degan olim ilmiy maqsadlarini amalga oshirish uchun 63 kun g‘or ichida yashagan ekan. Uning keyinchalik yozishicha, bir necha kun o‘tgach, u turgan yerda bir o‘rgimchakni ushlab oladi va u bilan dialog boshlanadi. «Biz, deb yozadi u, shu hayotsiz g‘or ichidagi tanho tirik mavjudotlar edik. Men o‘rgimchak bilan gaplasha boshladim, uning taqdiri uchun qayg‘ura boshladim».

Professor E.G‘.G‘oziyev o‘zining “Sotsial psixologiya” nomli darsligida muloqotning genezisi haqida fikr yuritarkan, muloqotning shaxs taraqqiyotidagi o‘rni juda katta ahamiyatga ega ekanligini e‘tirof etib, quyidagi misolni keltiradi: “Parmalik Salimben qo‘lyozmalarida XIII asrdagi Pruss imperatori Fridrix II haqida rivoyatlar saqlanib qolgan. U nihoyatda insoniyatning dastlabki tili qanaqaligiga, ma‘no-mohiyati bilan juda qiziqqan. Fridrix II, agar bolalarga yangi til (bizning nutqimiz) o‘rgatilmasa, ular insoniyatning eng qadimgi tilida gapirib yuboradilar, deb

hisoblagan. Qirol o'zining mazkur farazining tasdig'ini tekshirish maqsadida saroy atrofidagi qishloqlarda tug'ilgan barcha go'daklarni o'z inshootgohiga joylashtirgan. Bu bolalarda barcha narsa muhayyo edi: to'yimli sut va oziq-ovqatlar, kiyim-kechak, o'sha davr uchun nihoyatda kamyob hisoblangan isitish sistemasi, xullas, yashash uchun ideal sharoitlar yaratilgan. Biroq ular faqat bir narsadan mahrum edilar: bu ham bo'lsa muloqotdan. Xizmatkorlarning bolalar bilan gaplashishi tamoman ta'qiqlangan. Go'daklarga inson tovushini eshitishga imkon bermaslik uchun ularga saroyning eng tinch va odamlardan holi qanotidan makon berganlar. Shunday qilib, bolalar bir og'iz so'z ham, inson ovozini ham eshitishga, mehr ko'rishga muvaffaq bo'lmaganlar. Tajribada ishtirok etgan bolalarning hech qaysisi 4 yildan ortiq umr ko'rmagan, ularning barchasi halok bo'lgan. Aslida esa bolalarga faqat bir narsa, ya'ni muloqot yetishmagan edi"¹.

Shaxsning muloqotga bo'lgan ehtiyojining to'la qondirilishi uning ish faoliyatiga ham ta'sir ko'rsatadi. Odamlar, ularning borligi, shu muhitda o'zaro gaplashish imkoniyatining mavjudligi fakti ko'pincha odamni ishlash qobiliyatini ham oshirarkan, ayniqsa, gaplashib o'tirib qilinadigan ishlar, birgalikda yonma-yon turib bajariladigan operasialarda odamlar o'z oldida turgan hamkasbiga qarab ko'proq, tezroq ishlashga kuch va qo'shimcha iroda topadi. To'g'ri, bu hamkorlikda o'sha yonidagi odam unga yoqsa, ular o'rtasida o'zaro simpatiya hissi bo'lsa, unda odam ishga «bayramga kelganday» keladigan bo'lib qoladi. Shuning uchun ham amerikalik sotsiolog hamda psixolog Yakob Levi Moreno asrimiz boshidayoq ana shu omilning unumdorlikka bevosita ta'sirini o'rganib, sotsiometrik texnologiya, ya'ni so'rovnoma asosida bir-birini yoqtirgan va bir-birini inkor qiluvchilarni aniqlagan va sotsiometriya metodikasiga asos solgan edi.

Shunday qilib, muloqot odamlarning jamiyatda o'zaro hamkorlikdagi faoliyatlarining ichki psixologik mexanizmini tashkil etadi. Qolaversa, hozirgi yangi demokratik munosabatlar sharoitida turli ishlab chiqarish qarorlarini yakka tartibda emas, balki kollegial – birgalikda chiqarish ehtiyoji paydo bo'lganligini hisobga

¹ G'oziyev E.G'. Sotsial psixologiya. – Toshkent., 2012. – B. 244-245.

olsak, odamlarning muomala madaniyati va muloqot texnikasi mehnat unumdorligi va samaradorlikning muhim omillaridandir.

VI.3. Insoniy muomala va muloqotning psixologik vositalari

Odamlar bir-birlari bilan muomalaga kirishar ekan, ularning asosiy ko‘zlagan maqsadlaridan biri – o‘zaro bir-birlariga ta‘sir ko‘rsatish, ya‘ni fikr-g‘oyalariga ko‘ndirish, harakatga chorlash, ustanovkalarni o‘zgartirish va yaxshi taassurot qoldirishdir. **Psixologik ta‘sir** – bu turli vositalar yordamida insonlarning fikrlari, hissiyotlari va xatti-harakatlariga ta‘sir ko‘rsata olishdir.

Sotsial psixologiyada psixologik ta‘sirning asosan uch vositasi farqlanadi.

Verbal ta‘sir – bu so‘z va nutqimiz orqali ko‘rsatadigan ta‘sirimizdir. Bunday asosiy vositalar so‘zlardir. Ma‘lumki, nutq – bu so‘zlashuv, o‘zaro muomala jarayoni bo‘lib, uning vositasi – so‘zlar hisoblanadi. Monologik nutqda ham, dialogik nutqda ham odam o‘zidagi barcha so‘zlar zahirasidan foydalanib, eng ta‘sirchan so‘zlarni topib, sherigiga ta‘sir ko‘rsatishni xohlaydi.

Paralingvistik ta‘sir – bu nutqning atrofidagi nutqni bezovchi, uni kuchaytiruvchi yoki susaytiruvchi omillar. Bunga nutqning baland yoki past tovushda ifodalanayotganligi, artikulyasiya, tovushlar, to‘xtashlar, duduqlanish, yo‘tal, til bilan amalga oshiriladigan harakatlar, nidolar kiradi. Shunga qarab, masalan, do‘stimiz bizga biror narsani va‘da berayotgan bo‘lsa, biz uning qay darajada samimiyligini bilib olamiz. Kuyib-pishib, ochiq yuz va dadil ovoz bilan «Albatta bajaraman!», desa ishonamiz, albatta.

Noverbal ta‘sirning ma‘nosi «nutqsiz»dir. Bunga suhbatdoshlarning fazoda bir-birlariga nisbatan tutgan o‘rinlari, holatlari (yaqin, uzoq, intim), qiliqlari, mimika, pantomimika, qarashlar, bir-birini bevosita his qilishlar, tashqi qiyofa, undan chiqayotgan turli signallar (shovqin, hidlar) kiradi. Ularning barchasi muloqot jarayonini yanada kuchaytirib, suhbatdoshlarning bir-birlarini yaxshiroq bilib olishlariga yordam beradi. Masalan, agar uchrashuvning dastlabki daqiqalarida o‘rtog‘ingiz sizga qaramay, atrofga alanglab, «Ko‘rganimdan biram xursandman», desa, ishonasizmi?

Muloqot jarayonidagi xarakterli narsa shundaki, suhbatdoshlar bir-birlariga ta'sir ko'rsatmoqchi bo'lishganda, dastavval nima deyish, qanday so'zlar vositasida ta'sir etishni o'ylar ekan. Aslida esa, o'sha so'zlar va ular atrofidagi harakatlar muhim rol o'ynarkan. Masalan, mashhur amerikalik olim Albert Megrabyan formulasiga ko'ra, birinchi marta ko'rishib turgan suhbatdoshlardagi taassurotlarning ijobiy bo'lishiga gapirgan gaplari 7%, paralingvistik omillar 38%, va noverbal harakatlar 55% gacha ta'sir qilarkan. Keyinchalik bu munosabat o'zgarishi mumkin albatta, lekin xalq ichida yurgan bir maqol to'g'ri: «Ust-boshga qarab kutib olishadi, aqlga qarab kuzatishadi».

Muloqotning qanday kechishi va kimning ko'proq ta'sirga ega bo'lishi sheriklarning rollariga ham bog'liq. **Ta'sirning tashabbuskori** – bu shunday sherikki, unda ataylab ta'sir ko'rsatish maqsadi bo'ladi va u bu maqsadni amalga oshirish uchun barcha yuqorida ta'kidlangan vositalardan foydalanadi. Agar boshliq ishi tushib, biror xodimni xonasiga taklif etsa, u o'rnidan turib kutib oladi, iltifot ko'rsatadi, hol-ahvolni ham quyuqroq so'raydi va so'ngra gapning asosiy qismiga o'tadi.

Ta'sirning adresati – ta'sir yo'naltirilgan shaxs. Lekin tashabbuskorning suhbatga tayyorgarligi yaxshi bo'lmasa, yoki adresat tajribaliroq sherik bo'lsa, u tashabbusni o'z qo'liga olishi va ta'sir kuchini qayta egasiga qaytarishi mumkin bo'ladi.

VI.4. Muloqot va uni o'rganish muammolari

Oxirgi yillarda «professionalizm» tushunchasi tez-tez ishlatiladigan bo'lib qoldi. Chunki jamiyatda tub islohotlarni amalga oshirish, mehnat unumdorligini «inson omili»ni takomillashtirish hisobiga oshirish davr talabi bo'lib qoldi. Ayniqsa, odamlarni boshqarish sohasidagi professionalizmga katta e'tibor qaratilmoqda. Juda ko'pchilik mutaxassislar barcha bajaradigan funksiyalari orasida odamlar bilan til topishish, ularga ta'sir ko'rsatish, ular faoliyatini to'g'ri tashkil qilish va boshqarish eng murakkablaridan ekanligini e'tirof etmoqdalar. Odamlar bilan normal munosabatlarni o'rnata olmaslik, ayniqsa, biznes sohasida amaliy sheriklarning

holatlari, kutishlarini aniqlay olmaslik, o'z nuqtai nazariga o'zgalarni professional tarzda ko'ndira olmaslik, «birov»ni, uning ichki kechinmalari va o'ziga bo'lgan munosabatini aniq tasavvur qila olmaslik amaliy psixologiyada *kommunikativ uquvsizlik*, yoki *diskommunikasiya* holatini keltirib chiqaradi. Bunda odamlar oddiy til bilan aytganda, bir-birlarini tushunolmay qoladilar, shuning oqibatida pishib turgan loyiha yoki yaxshi reja amalga oshmasligi, bir necha oylarga cho'zilib ketishi mumkin.

Shuning uchun ham hozirgi zamon sotsial psixologiyasining tadbiqiy yo'nalishida, boshqaruv psixologiyasida katta yoshli odamlarni kommunikativ bilimdonlikka o'rgatish, ularda zarur kommunikativ malakalarni hosil qilishga katta ahamiyat berilmoqda. Har bir korxonada, xususiy firma yoki davlat muassasasini boshqaruvchi menedjer, rahbar tayyorlash muammosi ana shu rahbarlarni, boshqaruvchilarni psixologik jihatdan odamlar bilan ishlashga o'rgatish muammosini chetlab o'tolmaydi. Umuman, hozirgi davrda har qanday mutaxassis – vrach, muhandis, o'qituvchi, iqtisodchi, agronom, quruvchi, jurnalist, madaniyatshunos yoki boshqalar ham kommunikativ malakalarga ega bo'lmaguncha, bozor munosabatlari sharoitida tezda jamoaga kirishib, ko'pchilik bilan til topishib, o'z professional mahoratini ko'rsata olmaydi. Har bir ziyoli inson boshqalar bilan hamkorlik qilish mahorati va san'atiga ega bo'lishi kerak.

Bu vazifa odamlarni muomala va muloqot etikasiga o'rgatishni har qachongidan ham dolzarb qilib qo'yimoqda. To'g'ri, muloqotga kirishish – sotsiallasuv jarayonida barcha sifatlardan oldinroq shakllanadigan qobiliyatlardan, u tabiiy va hayotiy narsa. Bola tili juda yaxshi chiqib ulgurmay, atrofidaqilar bilan aktiv muloqotga kirisha boshlaydi. Lekin masalaning paradoksal tomoni ham shundaki, yillar o'tgan sari ongli, aqlli odam har bir gapini o'ylab gapiradigan, har bir qadamini o'ylab bosadigan bo'lib qoladi, bu uning jamiyatdagi mavqeini belgilovchi vositadir. Bu muloqotga kirishishga ruhan tayyorlanishning ahamiyatini ham odam anglashini taqozo etadi. Shunday qilib, ana shu eng tabiiy va bir qarashda oddiy inson faoliyati shu qadar murakkab va serqirradi, uning mexanizmlarini o'rganish,

guruhlarda to'g'ri munosabatlarni tashkil etish va odamlarni samarali muloqotga o'rgatish muammosi bugungi sotsial psixologiyaning muhim masalalaridandir.

Ma'lumki, gaplashayotgan odamlar biri gapiradi, ikkinchisi tinglaydi, eshitadi. Muloqotning samaradorligi ana shu ikki qirraning qanchalik o'zaro mosligi, bir-birini to'ldirishiga bog'liq ekan. Noto'g'ri tasavvurlardan biri shuki, odamni muomala yoki muloqotga o'rgatganda, uni faqat gapirishga, mantiqan asoslangan so'zlardan foydalanib, ta'sirchan gapirishga o'rgatishadi. Uning ikkinchi tomoni – tinglash qobiliyatiga deyarli e'tibor berilmaydi. Mashhur amerikalik notiq, psixolog Deyl Karnegi «Yaxshi suhbatdosh – yaxshi gapirishni biladigan emas, balki yaxshi tinglashni biladigan suhbatdoshdir» deganda aynan shu qobiliyatlarning insonlarda rivojlangan bo'lishini nazarda tutgan edi.

Mutaxassislarining aniqlashlaricha, ishlayotgan odamlar vaqtining 45%i tinglash jarayoniga ketar ekan, odamlar bilan doimiy muloqotda bo'ladiganlar 35 – 40% oylik maoshlarini odamlarni «tinglaganlari» uchun olarkanlar. Bundan shunday xulosa kelib chiqadiki, kommunikasiyaning eng qiyin sohalaridan hisoblangan tinglash qobiliyati odamga ko'proq foyda keltirarkan.

Shuning uchun bo'lsa kerak, nemis faylasufi Artur Shopengauer «Odamlarni o'zingiz to'g'ringizda yaxshi fikrga ega bo'lishlarini xohlasangiz, ularni tinglang» deb yozgan ekan. Darhaqiqat, agar siz kuyunib gapirsangizu, suhbatdoshingiz sizni tinglamasa, boshqa narsa bilan ovora bo'laversa, undan ranjiysiz, nafaqat ranjiysiz, balki u bilan aloqani ham uzasiz. O'qituvchi gapirayotgan paytda uni tinglamaslik odobsizlikning eng keng tarqalgan ko'rinishi deb baholanishini bilasizmi?

Nima uchun biz ko'pincha yaxshi gapiruvchi, so'zlovchi bo'la olamiz-u, yaxshi tinglovchi bo'la olmaymiz? Psixologlarning fikricha, asosiy xalaqit beruvchi narsa – bu bizning o'z fikr-o'ylarimiz va xohishlarimiz og'ushida bo'lib qolishimizdir. Shuning uchun ham ba'zan rasman sherigimizni tinglayotganday bo'lamiz, lekin aslida xayolimiz boshqa yerda bo'ladi. Tinglashning ham xuddi gapirishga o'xshash texnikasi, usullari mavjud. Ularning turi ham ko'p, lekin asosan biz kundalik hayotda uning ikki usulini qo'llaymiz: *so'zma-so'z qaytarish* va

boshqacha talqin etish. Birinchisi, suhbatdosh soʻzlarining bir qismini yoki yaxliticha qaytarish orqali, sherikni qoʻllab-quvvatlashni bildiradi.

Ikkinchi usul esa – sherigimiz soʻzlarini tinglab, undagi asosiy gʻoyani muxtasar, oʻzimizning talqinimizda ifoda etish. Ikkala usul ham sherik uchun muhim, chunki u sizning tinglayotganingizni, hattoki, undagi gʻoyalarga qarshi emasligingizni bildiradi. Bundan tashqari, biz yaxshi tinglayotgan boʻlib, «Yoʻgʻ-e?», «Nahotki?», «Qara-ya?», «Yasha!» luqmalari bilan ham suhbatdoshimizni gapirishga, yanayam oʻz fikrlarini oydinlashtirishga chaqirib turamiz.

Demak, aslida bizdagi gapirayotgan shaxs yetakchi, u suhbatning mutloq hokimi, degan tasavvur unchalik toʻgʻri emas. Yaxshi tinglashda ham shunday kuch borki, u suhbatdoshni Sizga juda yaqinlashtiradi, ishonchni tugʻdiradi. Chunki muloqot jarayonidagi eng qimmatli narsa – bu axborotning oʻzi. Tinglayotgan odam maʼnili, yaxshi dialogdan faqat yaxshi, foydali maʼlumot oladi. Gapirgan esa aksincha, oʻzidagi borini berib, gapirmaydigan suhbatdoshdan «teskari aloqani» olib ulgurmay, hech narsasiz qolishi ham mumkin. Shuning uchun muloqotga oʻrgatishning muhim yoʻnalishlaridan biri – odamlarni faol tinglashga, bunda barcha paralingvistik va noverbal omillardan oʻrinli foydalanishga oʻrgatishdir.

Professional tinglash texnikasiga quyidagilar kiradi:

Aktiv holat. Bu – agar kreslo yoki divan kabi mebel boʻlsa, unga bemalol yastanib yoki yotib olmaslik, suhbatdoshning yuzidan tashqari joylariga qaramaslik, mimika, bosh chayqash kabi harakatlar bilan uning har bir soʻziga qiziqayotganligingizni bildirishni nazarda tutadi;

Suhbatdoshga samimiy qiziqish bildirish. Bu nafaqat suhbatdoshni oʻziga jalb qilib, balki keyin navbat kelganda oʻzining har bir soʻziga uni ham koʻndirishning samarali yoʻlidir.

Oʻychan jimlik. Bu suhbatdosh gapirayotgan paytda yuzda masʼuliyat bilan tinglayotganday tasavvur qoldirish orqali oʻzingizning suhbatdan manfaatdorligingizni bildirish yoʻli.

Agar biz suhbatdoshimizni yaxshi, diqqat bilan tinglasak, bu bilan biz unda oʻz-oʻziga hurmatni ham tarbiyalaymiz. Demak, tinglash jarayoni koʻpchilik tasavvur

qilgani kabi unchalik passiv jarayon emas ekan. Uning muloqotning samarali bo'lishidagi ahamiyati nihoyatda katta. Chunki tinglash qobiliyati gapiruvchini ilhomlantiradi, uni ruhlantiradi, yangi fikrlar, g'oyalarning shakllanishiga sharoit yaratadi. Shuning uchun ma'ruzachi professorning har bir chiqishi va ma'ruzasi agar talabalar tomonidan diqqat bilan tinglansa, bu pedagogik muloqotdan ikkala tomon ham teng yutadi.

Amaliy muloqot treningi – IPTning bir ko'rinishi bo'lib, u yoki bu professional faoliyatni amalga oshirish jarayonida zarur bo'ladigan kommunikativ malaka, ko'nikma va bilimlarni hosil qilishga qaratilgan tadbiridir. Guruh va jamoalarda muloqot treningi vositasida muzokaralar olib borish, ish yuzasidan hamkorlik qilish yo'l-yo'riqlarini birgalikda topish, katta auditoriya oldida so'zlashga o'rgatish, majlislar o'tkazish, janjalli, konfliktli holatlarda o'zini to'g'ri tutish malakalari hosil qilinadi. Bunday asosiy narsa – trening qatnashchilari ongiga birovlarni tushunish, o'zini o'zga o'rniga qo'ya olish, boshqalar manfaatlar bilan o'zini uyq'unlashtira olish g'oyasini singdirishdir. Treninglar mobaynida *guruhiy munozaralar, rolli o'yinlarning* eng optimal variantlari sinab, mashq qilinadi.

VI.5. Muloqotning psixologik tizimi

Hamkorlikdagi faoliyatda zaruriyat tufayli inson boshqa kishilar bilan birlashishi, ular bilan munosabatga kirishishi, aloqa o'rnatishi, o'zaro tushunishga erishishi va kerakli axborotni olishi, shunga mos javobni berishi kerak. Bunda muloqot faoliyatning bir tomoni, uning axborot aspekti – kommunikatsiya sifatida namoyon bo'ladi. Biroq predmet yasash bilan birga inson o'zi yasagan predmetda o'zini «*translyatsiya*» qiladi, ya'ni o'zini boshqalarda davom ettiradi. Hosil qilingan predmet (qurilgan bino, yozilgan qatorlar, o'tqazilgan daraxt) bir tomonidan faoliyat predmeti, ikkinchi tomondan inson o'zini ko'rsatadigan vositadir. Chunki bu boshqa kishilar uchun hosil qilingan. Shunday qilib, faoliyat muloqotning bir qismi, uning tomoni; muloqot faoliyatning bir qismi va tomonidir. Lekin muloqot va faoliyat barcha hollarda yaxlit (buzilmas) birlikni tashkil etadi.

Til muomala vositasidir. Til muomalaga kirishuvchilar o'rtasidagi kommunikatsiyani ta'minlaydi, chunki uni axborot beruvchi ham, uni qabul qiluvchi ham birday tushunadi. Boshqa kishiga axborot beruvchi (kommunikator) va uni qabul qiluvchi (retsipiyent) muloqot jarayonida bir xil tildan foydalanishi kerak, aks holda bir-birini to'g'ri tushunolmaydi. Axborot almashishda bola onasiga savollar beradi va ular unga javob beradilar, bu javoblardan bola o'z faoliyatida keyinchalik foydalanadigan umumiy bilimlarning faqat ozgina qismini oladi. Umumiy bilimlarning bu ozginagina qismini bola til shaklida, til yordamida so'z belgilari tizimida hosil qila oladi. Maktabda ham xuddi shunday bo'ladi, o'quvchi olam haqida barcha bilimlarni o'qituvchining tushuntirishidan yoki darslikdan, ya'ni til yordamida o'zlashtiradi. Bu yerda til o'zining muhim vazifalaridan birini bajaradigan, ya'ni yashash vositasi sotsial-tarixiy tajribani berish va o'zlashtirish vositasi tarzida namoyon bo'ladi.

Ikkinchidan, har bir alohida odamning ish-harakati va faoliyatini ko'pincha sotsial qiymatga ega bo'lmagan o'zga kishilarning bevosita tajribalari belgilaydi. Masalan, men oshxona tomon yo'l olaman. Yo'lda o'rtog'im uchrab menga: «*oshxona yopilgan*», deydi. Shu paytda bu xabar mening faoliyatimni ma'lum bir tarzda boshqaradi: men qayrilib, boshqa oshxona tomon jo'nayman. Bu yerda til o'zining boshqa muhim vazifasi bilan, ya'ni vosita yoki kommunikatsiya usuli yoki odamning xatti-harakatlarini boshqaruvchi bir vosita sifatida namoyon bo'ladi. Har qanday kommunikatsiya, har qanday munosabat suhbatdoshiga ta'sir qilishdan iboratdir.

Uchinchidan, har bir alohida odamning ish-harakatlari va faoliyatlarini har bir ayrim kishilarning shaxsiy tajribasi belgilaydi. Odamning «*shaxsiy*» tajribasi, o'z individual tajribasi, boshqa kishilarning tajribalari va sotsial tajribaning o'ziga xos aralashmasidan iborat. Odam hayvondan farqli o'laroq, o'z harakatlarini rejalashtira oladi. Bunday rejalashtirishning va umumiy fikriy masalalarni hal qilishning asosiy quroli tildir. Bu yerda biz tilning uchinchi vazifasi aqliy faoliyatning (idrok, xotira tafakkur, xayol) quroli sifatidagi vazifasiga to'qnash keldik. So'z belgilar tizimi sifatida tildan nutq faoliyatida foydalaniladi.

O'rtog'ining boshiga tushgan kulfatdan xabar topib, unga hamdardlik bildirayotgan suhbatdoshi nutqsiz kommunikatsiya belgilarini ishlatadi: yuzlarini g'amgin tutadi, past ohangda, qo'llarini yuziga yo peshonasiga qo'ygan va boshini chayqagan holda chuqur xo'rsinib gapiradi va h.k.

Muloqot murakkab jarayon bo'lganligi uchun ham ayrim olingan muloqot shaklini tahlil qilganimizda, unda juda xilma-xil ko'rinishlar, jabhalar va qismlar borligini aniqlashimiz mumkin. G.M.Andreyeva muloqotning quyidagi tuzilishini taklif etadi:

1. Muloqotning kommunikativ tomoni (ya'ni, muloqotga kirishuvchilar o'rtasidagi ma'lumot va axborotlar almashinuvi jarayoni)
2. Muloqotning interaktiv tomoni (ya'ni, muloqotga kirishuvchi tomonlarning bir-birlarining sotsial xulq-atvoriga ta'sir ko'rsatish jarayoni)
3. Muloqotning persepsiv tomoni (ya'ni, muloqotga kirishuvchi tomonlarning bir-birlarini idrok etishlari va tushunishlari bilan bog'liq bo'lgan murakkab psixologik jarayon)

VI.6. Muloqotning kommunikativ tomoni

Muloqotning kommunikativ tomoni deyilganda, uning shaxslararo axborotlar, bilimlar, g'oyalar, fikrlar almashinuvi jarayoni sifatidagi vazifalari nazarda tutiladi. Bu jarayonning asosiy vositasi bo'lib **til** xizmat qiladi. Ma'lumki, aloqa vositasi sifatida nutqning asosan ikki turi farqlanadi: **yozma va og'zaki nutq**.

Og'zaki nutqning o'zi dialogik va monologik turlarga bo'linadi. Dialogik nutqning mazmuni, uning xarakteri, davomiyligi muloqotga kirishgan shaxslarning shaxsiy qarashlariga, qiziqishlariga, bir-birlariga bo'lgan munosabatlariga, maqsadlariga bevosita bog'liq bo'ladi. Shuning uchun ham o'qituvchi bilan o'quvchining, siyosiy rahbarlarning, diplomatlarning, ko'chada uchrashib qolgan dugonalarning, sevishgan ikki yoshning dialogik suhbatlari bir-biridan farq qiladi.

Monologik nutq esa bir kishining boshqa kishiga yoki kishilar guruhiga nisbatan murojaati bo'lib, uning psixologik tuzilishi, fikrlarning mantiqan tugal bo'lishi, gapirayotgan paytda grammatik qonun-qoidalarga rioya qilish kerakligi kabi

shartlari mavjud. Masalan, ma'ruzaga tayyorlanayotgan talaba tayyorgarlik paytidan boshlab, ma'ruza qilib bo'lgunga qadar, qator ichki ruhiy kechinmalarni boshdan kechiradi, unga ko'p kuch va vaqt sarflaydi. Dialogik nutqqa nisbatan bu nutq turi murakkabroq hisoblanadi.

Odamlar muloqot jarayonida so'zlardan tashqari turli xil harakatlardan, qiliqlardan, holatlardan, kulgu, ohanglar va boshqalardan ham foydalanadilar (ya'ni psixologik ta'sir vositalaridan). Ular muloqot jarayonini yanada kuchaytirib, uni to'ldiradi, ba'zan esa nutqli muloqotning o'rnini bosadi.

Buyuk rus yozuvchisi Lev Tolstoy odamlarda 97 xil kulgu turi hamda 85 xil ko'z qarashlar turi borligini kuzatgan. G.M.Andreyevaning yozishicha, odam yuz ifodalari, nigohlarining 20.000 ga yaqin ko'rinishi bor. Ayniqsa, birinchi bor uchrashganda ko'zlar to'qnashuvi, nigohlarning roli keyingi muloqotning taqdiriga kuchli ta'sir ko'rsatishi aniqlangan. Bularning barchasi muloqotning hissiy tomondan boy, mazmundor bo'lishini ta'minlab, odamlarning bir-birlarini tushunishlariga yordam beradi.

Muloqotning noverbal vositalarining milliy xususiyati borligini alohida ta'kidlash lozim. Bundan tashqari, noverbal muloqotda suhbatdoshlarning fazoviy joylashuvlari ham katta ahamiyatga ega. Masalan, o'zbek xalqining muloqot jarayoni boy, o'zaro munosabatlarining bevosita xarakteri unda shunday vositalarning ko'proq ishlatilishi bilan bog'liq. Bolalarning o'z yig'isi bilan onasiga o'z his-kechinmalari hamda xohishlarini bildirishlari ham bolalarning yosh xususiyatlariga bog'liq. Boshqa millatlar madaniyatiga nazar tashlanadigan bo'lsa, ularda ham ba'zi bir muloqot vositalarining turli millatlarda turli maqsadlarda ishlatilishining guvohi bo'lish mumkin. Bolgarlar agar biron narsa bo'yicha fikrni tasdiqlamoqchi bo'lishsa, boshlarini u yoq-bu yoqqa chayqashar, inkor qilishmoqchi bo'lsa-chi, aksincha, bosh siltashar ekan. Ma'lumki, o'zbeklar, ruslar va bir qator boshqa millatlarda buning aksi, "yo'q" deyish yoki norozilikni bildirish uchun bosh sarak-sarak qilinadi.

Noverbal muloqotda suhbatdoshlarning fazoviy joylashuvlari ham katta ahamiyatga ega. Masalan, ayollar ko'proq hissiyotlarga boy bo'lganliklari sababli, suhbatlashayotganlarida bir-birlariga yaqin turib gaplashadilar, erkaklar o'rtasida esa

doimo fazoviy masofa bo'ladi. Olimlarning aniqlashlaricha, bolalarni odatdagiday orqama-ketin o'tqazib o'qitgandan ko'ra, ularni yuzma-yuz o'tqazib davra qilib o'qitgan ma'qul ekan, chunki bunday sharoitda o'quvchilarda ham javobgarlik hissi yuqoriroq bo'lar ekan hamda emotsiyalar almashinishgani uchun ham guruhdagi psixologik vaziyat ijobiy bo'lib, bolalarning predmetga va bir-birlariga munosabatlari ancha yaxshi bo'lar ekan.

Demak, ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etishda muloqotning barcha vositalariga, ayniqsa, nutqqa e'tibor berish kerak. Bolalarni ilk yoshlik chog'laridanoq nutq madaniyatiga o'rgatish, nutqini o'stirish choralarini ko'rish kerak. Pedagog esa, shunday nutq madaniyatiga ega bo'lishi kerakki, u avvalo uning faoliyatini to'g'ri tashkil etishni ta'minlasin, qolaversa, bolalarda nutqning o'sishiga imkoniyat bersin.

VI.7. Muloqotning interarktiv tomoni

Muloqotning interarktiv tomoni deyilganda, kishilarning muloqot jarayonida birgalikdagi faoliyatda bir-birlariga amaliy jihatdan bevosita ta'sir etishlari tushuniladi. Shu tufayli odamlar hamkorlikda ishlash, bir-birlariga yordam berish, bir-birlaridan o'rganish, harakatlar muvofiqligiga erishish kabi qator qobiliyatlarini namoyon qilishlari mumkin. Shu tufayli o'qituvchi bola shaxsiga maqsadga yo'nalgan holda ta'sir ko'rsatishi mumkin. Aslini olganda, har qanday muloqot, agar u bema'ni, maqsadsiz, quruq gaplardan iborat bo'lmasa, doimo muloqotga kirishuvchilarning xulq-atvorlarini, ularning ustanovkalarini o'zgartirish imkoniyatiga ega.

Jamiyat miqyosida oladigan bo'lsak, odamlarning turli sharoitlarda o'zlarini tutishlari, xulq-atvorlarining boshqarilishi ma'lum psixologik qonuniyatlarga bog'liqligini ko'rish mumkin. Bunga sabab jamiyatda qabul qilingan turli normalar, qonun-qoidalardir. Chunki, o'zaro muloqot va o'zaro ta'sir jarayonlarida shunday xatti-harakatlar obrazlari kishilar ongiga singib boradiki, ularni har bir kishi norma sifatida qabul qiladi. Masalan, o'smir bola, umuman yoshlar jamoat joylarida kattalarga o'rin bo'shatib berishlari kerakligi ham xulq-atvorning bir normasi. Shu

normaga amal qilish yoki qilmaslik ijtimoiy nazorat tizimi orqali boshqariladi. Ya'ni, yuqoridagi sharoitda agar o'smir bola avtobusda qariyaga joy bo'shatmasa, jamoatchilik o'sha zahoti uni ijtimoiy tartibga chaqiradi.

Demak, har bir shaxs turli sharoitlarda turlicha rollarni bajaradi, bu rollarning qanday bajarilayotganligi, odamlarning kutishlariga mos kelishligi ijtimoiy nazorat tizimi orqali kuzatib turiladi. Shuning uchun ham muloqotga kirishgan kishilar doimo o'z xulq-atvorlarini, qolaversa, o'zgalarning xulq-atvorini nazorat qilib, harakatlarda bir-birlariga moslashadilar. Lekin gohida shaxsdagi rollarning ko'p bo'lishi rollarning ziddiyatiga olib kelishi mumkin. Masalan, maktab o'qituvchisining o'zi o'qitayotgan sinfda farzandi bo'lsa, dars paytida shunday ziddiyatni boshdan kechirishi mumkin, ya'ni bir vaqtning o'zida ham ota yoki ona, ham o'qituvchi rolini bajarishga majbur bo'ladi. Yoki xulqi yomon o'quvchining uyiga kelgan o'qituvchi bir vaqtning o'zida ham o'qituvchi, ham mehmon rollari o'rtasida qiynaladi.

Turli rollarni bajarayotgan shaxslarning o'zaro muloqotlari kutishlar tizimi orqali boshqariladi. Masalan, xohlaydimi yoki xohlamaydimi, o'qituvchidan ma'lum harakatlarni kutishadiki, ular o'qituvchi roliga zid bo'lmasligi kerak. O'z rollariga mos harakat qilgan, doimo me'yor mezonida ish tutgan kishining harakatlari odobli harakatlar deb ataladi. Masalan, o'qituvchining odobi, o'z kasbini ustasi ekanligi, bolalar qalbini tushuna olishi, ularning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olgan holda ish tutishi uning odobga ega ekanligining belgisidir. Odobsiz odam esa buning aksidir.

Demak, o'zaro muloqot jarayonida bir odam ikkinchi odamga psixologik ta'sir ko'rsatadi. Bu ta'sir ikkala tomondan ham anglanishi yoki anglanmasligi mumkin. Ya'ni, ba'zan biz nima uchun bir shaxsning bizga naqadar kuchli ta'sirga ega ekanligini, boshqa biri esa, aksincha, hech qanday ta'sir kuchiga ega emasligini tushunib yetmaymiz. Bu esa pedagogikada muhim muammodir. Har bir pedagogning o'z ta'sir uslublari va ta'sir kuchi bo'ladi. O'qituvchi shaxsining bolalarga ta'siri quyidagi eksperimentda juda yaqqol kuzatilgan. Boshlang'ich sinf o'quvchilariga anchagina o'yinchoqlar berib, shularning ichida faqat bittasiga, qizil yog'och o'yinchoqqa tegmaslik aytilgan. Bolalar yolg'iz qoldirilib, harakatlari pinxona

kuzatilgan. Juda ko'p bolalar ta'qiqlangan o'yinchoqqa baribir tegishgan. Eksperimentning ikkinchi seriyasida esa endi barcha o'yinchoqqa tegish mumkin-u, faqat qizil qutichaning qopqog'ini ochish mumkin emas, deb aytilgan. Shu quticha tepasiga esa shu bolalarning o'qituvchisi surati ilib qo'yilgan. Bu seriyada birinchisiga qaraganda "ta'qiqni buzuvchilar" soni keskin kamaygan. Demak, bu narsa o'qituvchi shaxsining bola harakatlariga ta'sirini yaqqol isbotlab turibdi.

Shaxslararo ta'sir haqida gap ketganda, o'qituvchi obro'yining roli haqida ham aytish lozim. Chunki, obro'li odam doimo o'sha obro' qozongan guruhida o'z mavqeiga va ta'siriga ega bo'ladi. Shaxs obro'yi uning boshqa shaxslarga irodaviy va emotsional ta'sir ko'rsata olish qobiliyatidir. Ma'lumki, obro' amal yoki hayotiy tajriba bilangina orttirilmay, uning haqiqiy asosi – shaxsning odamlar bilan to'g'ri munosabati, undagi odamiylik xislatlarining, boshqa ijobiy xislatlarining uyg'unlashuvidadir. Psixologik obro' – ta'sir ko'rsatishning eng muhim mezonidir.

VI.8. Muloqotning perseptiv tomoni

Muloqotning perseptiv tomoni kishining kishi tomonidan idrok qilish, tushunish va unga baho berishdir. Boshqa kishilarni tushunib olish bilan kishi suhbatdosh bilan bo'ladigan faoliyat, aloqa istiqbolini aniqroq belgilab oladi.

Muloqot ishtirokchilari o'z ongida bir-birlarining ichki dunyosini qayta tiklashga, his-tuyg'ularini, xulq-atvorining sabablarini fahmlab yetishga harakat qiladi. Shaxsga boshqa odamlarning faqat tashqi qiyofasi, ularning fe'l-atvori va xatti-harakatlari, ular qo'llanadigan kommunikativ vositalargina bevosita in'om etilgan va ana shu ma'lumotlarga tayangan holda o'zi bilan muloqotga kirishgan odamlarning kimligini tushunib yetish, ularning qobiliyatlari, niyatlari kabilar haqida xulosa chiqara olish uchun muayyan ishni bajarishiga to'g'ri keladi.

Taniqli psixolog Sergey Leonidovich Rubinshteyn shunday deb yozgan edi: «Kundalik hayotda odamlar bilan muloqotga kirishar ekanmiz, biz ularning xulq-atvoriga qarab mo'ljal olamiz. Negaki, biz ularning tashqi ma'lumotlari mohiyatini go'yo «o'qib», ya'ni «mag'zini chaqib» chiqamiz, shu yo'sinda matnning ichki psixologik jihati mavjud bo'lgan mazmunini aniqlaymiz». Bunday o'qish naridan

beri tez yuz beradi, chunki atrofdagilar bilan muloqot jarayonida bizda muayyan darajada ularning fe'l-atvoriga nisbatan avtomatik tarzda amal qiladigan psixologik ichki ma'no hosil bo'ladi.

Muloqotning perseptiv jihati – bu kishining kishi tomonidan idrok etilishi, tushunilishi va baholanishi demakdir.

Muloqot jarayonida kamida ikki kishi ishtirok etadi. Kishining qiyofasi, xatti-harakati asosida suhbatdosh haqida tasavvur hosil qilinadi. Bir-birini idrok qilishda quyidagi mexanizmlar g'oyat muhimdir:

- a) identifikasiya;
- b) refleksiya;
- g) stereotipizasiya

Identifikasiya so'zining ma'nosi lotinchadan olingan bo'lib, «tenglashtirish», «aynan o'xshatish», bir kishining ikkinchi kishini uning ta'rifini sub'yektning o'z ta'rifiga anglanilgan yoki anglanilmagan tarzda o'xshatilishi orqali tushunish usulidir. Odamlar o'zaro birgalikda harakat qilish vaziyatlarida boshqa kishini o'zining o'rniga qo'yib ko'rishga uringan holda uning ichki holati, niyatlari, o'y-fikrlari, mayllari va his-tuyg'ulari haqida tahmin qiladilar.

Refleksiya – (lotincha aks ettirish) – o'z fikr va kechinmalarini tahlil qilib mulohaza yuritish, ya'ni muloqotga kirishuvchining suhbatdosh uni qanday idrok etayotganligini anglash. Muloqot jarayonida suhbatdoshning pozitsiyasidan, holatidan turib, o'zini tasavvur qilish, ya'ni *refleksiya, boshqa odamning idrokiga taalluqli bo'lib o'ziga birovning ko'zi bilan qarashga intilishdir*. Chunki, busiz odam muloqot jarayonida o'zini aniq bilmasligi, noto'g'ri muloqot formalarini tanlashi mumkin.

Stereotipizatsiya – odamlar ongida muloqotlar mobaynida shakllanib o'rnashib qolgan, ko'nikib qolingan obrazlardan shablon sifatida foydalanish hollaridir. Ijtimoiy stereotiplar har bir shaxsda u yoki bu guruhli kishilar haqida shakllangan obrazlardir. Aleksey Aleksandrovich Bodalev va uning shogirdlari bunday stereotiplar ba'zan muloqotni to'g'ri yo'nalganligini ta'minlasa, boshqa hollarda esa undagi xatoliklarning sababi bo'lishi mumkinligini kuzatishgan. Idrok va

tushunish borasidagi bunday xatoliklar **kauzal atributsiya** (lotinchasiga “kauza” – sabab, “atributsio” – bermoq, qo‘shib bermoq ma’nosini bildiradi) deb ataladi. Masalan, o‘qituvchi bilan hamsuhbat bo‘lib qolgan odamda suhbat boshidayoq “hozir odob-axloqdan dars berishni boshlamasmikan” degan shubha paydo bo‘lishi mumkin. Bu ham stereotip. Bundan tashqari, odamlar birinchi marta ko‘rgan odam to‘g‘risida tasavvurga ega bo‘lish maqsadida uning tashqi qiyofasi bilan xarakteri o‘rtasida bog‘liqliklar o‘rnatishga harakat qilarkan, shunday bog‘liqliklarni aniqlash maqsadida A.A.Bodalev talabalar guruhiga turlicha qiyofali shaxslarning fotosuratlarini ko‘rsatgan. 72 kishidan 9 tasi iyagi katta kishilar kuchli iroda egalari ekanligini, 17 tasi peshonasi keng odamlar aqlli ekanliklarini, 3 kishi sochi qattiq odamlarning qaysarroq, qat’iy ekanliklarini, 5 kishi kichik bo‘yli odamlar hokimiyatga intilgan, boshqalar ustidan buyruq berishga moyil, chiroyli odamlar yo o‘ta o‘ziga bino qo‘ygan yoki nodon bo‘lishligini aytishgan va hokazo.

Tabiiyki, bunday fikrlar mutlaq to‘g‘ri emas, lekin kishilar ongida avloddan-avlodga o‘tib kelayotgan tasavvurlar shunday obrazlarni shakllantirgan. Notanish odam haqida tushunchaning shakllanishida u haqida berilgan birlamchi ma’lumot katta rol o‘ynaydi. Masalan, talabalarning ikki guruhiga bir xil portret ko‘rsatib, birinchi guruhda bu odam yirik olim, ikkinchisida esa, bu – davlat jinoyatchisi deb, unga ikkala holda ham ijtimoiy-psixologik xarakteristika berishlarini so‘ragan.



1-rasm. A.A.Bodalev eksperimentida ko‘rsatilgan portret.

Ko'rsatmalar har xil bo'lganligi sababli berilgan ta'riflar ham har xil bo'lgan. Birinchi guruhdagi talabalar bu odam mehnatkash, mehribon, shafqatli, g'amxo'r, aqlli bo'lsa kerak, deyishgan bo'lsa, ikkinchi guruhdagilar uni – beshafqat, makkor, qat'iyatli deb ta'riflashgan. Birinchi guruhdagilar portretidagi ko'zlarni dono, muloyim deyishgan bo'lsa, boshqalar ularni yovuz, beshafqat deb aytishgan.

Shunday qilib, ijtimoiy persepsiya yoki odamlarning bir-birlarini to'g'ri idrok etish va tushunish jarayoni muloqotning muhim muammolaridan biridir. Bu jarayon psixologik jihatdan murakkab bo'lib, unda muloqotga kirishayotgan tomonlarning har biri alohida ana shu idrokning ham ob'yekti, ham sub'yekti bo'lib faoliyat ko'rsatadilar. Idrokning ob'yekti sifatida shaxs qaralganda, unda hosil bo'ladigan "boshqa odam obrazi"ning barcha sifatlari va qirralari nazarda tutiladi. Bunday obraz paydo bo'lishiga xizmat qiladigan belgilarga: o'sha odamning tashqi qiyofasi, uning kiyinishi, o'zini tutishi, hissiy holati, ovozi, nutqi, qiliqlari, yurishi va hokazolar kiradi. Lekin shularning ichida odamning **yuzi** muloqot mobaynida suhbatdoshga eng ko'p ma'lumot beradigan ob'yektdir. Shuning uchun ham telefonda suhbatlashgandan ko'ra yuzma-yuz suhbatlashish ancha oson va axborotlarga boydir.

Odamlarning bir-birlarini to'g'ri idrok etishlari ularning perseptiv, ya'ni hissiy bilish (idrok, sezish) sohasiga aloqador bo'lsa, bir-birlarini tushunishi ularning tafakkur sohalariga bevosita bog'liq murakkab jarayondir. Boshqa odamni to'g'ri tushungan shaxs uning hissiy holatiga kira olgan hisoblanadi, boshqacha qilib aytganda, unda **empatiya** – birovlarining his kechinmalarini tushuna olish qobiliyati rivojlangan bo'ladi. Yuksak ongli, madaniyatli, "ko'pni ko'rgan" shaxsgina boshqalarni to'g'ri tushunishi, ularning mavqeida tura olishi mumkin.

Aniq va to'g'ri tushunishga taalluqli qonuniyatlarga quyidagilar kiradi:

1. Boshqa odam haqidagi ma'lumotning miqdoriy tomoni. Birinchi bor to'qnashgan odamlarda bir-birlari haqida faqat birlamchi tasavvurgina hosil bo'lishi mumkin. Amerikalik tadqiqotchilar talabalarga boshqa talabalarga baho berish topshirig'ini berishgan. Baholar birinchi to'qnashuv natijasiga ko'ra, bir haftadan keyingi qayta to'qnashuv natijasida va ikki haftadan keyin tekshirilgan. Ma'lum bo'lishicha, eng aniq tasavvur ikki haftalik tanishuvdan keyingina paydo bo'lar ekan.

2.Ma'lumotlarni olish tartibi. Boshqa odam haqida berilgan ma'lumotga asosan unda o'sha odam haqida muayyan fikr hosil qilish oson, lekin uni qayta qurish, o'zgartirish ancha mushkul.

3.Normal intellektning bo'lishi. Intellekt juda yuqori bo'lganda ham, juda past bo'lganda ham boshqa odamni to'g'ri tushunish qiyin.

4.Maxsus tayyorgarlikning bo'lishi. Mutaxassislar 4-kursda o'qiyotgan psixolog talabalar bilan portret chizadigan rassomlarning boshqalarga bergan psixologik baholarini solishtirishlari natijasida rassomlarning baholari ancha aniqroq bo'lib chiqqanining guvohi bo'lishgan.

5.Hissiy holatning ta'siri. Nurrey degan olimning tadqiqotlarida turli emotional holatni boshidan kechirayotgan shaxslarga boshqa odamni baholash topshirig'i berilgan. Bir seriyada tekshiriluvchilarga elektr toki bilan ta'sir etib turib, boshqa odamning rasmini baholashni tavsiya etishganda, baholanayotgan shaxsda johillikka yaqin sifatlar ham borligi aytilgan. Yaxshi emotsional holat boshdan kechirilayotgan seriyada esa o'sha odamda asosan yaxshi sifatlar qayd etilgan.

6.Shaxsning ochiqligi. Kundalik muloqotda ochiq, samimiy odam bilan tund, pisman odam baholari o'rtasida sifat farqlari aniqlangan. Bundan tashqari, odamning muloqot tajribasining boyligi ham uning boshqalar haqidagi tasavvurlarining aniq bo'lishini ta'minlaydi

Demak, yuqoridagi barcha qonuniyatlarni hisobga olgan holda, shaxs tarbiyasi bilan shug'ullanish uni kelgusidagi murakkab va xilma-xil muloqot jarayonlariga psixologik tayyorlaydi. Bunday tayyorgarlik, ayniqsa, bo'lg'usi psixologlar, pedagoglar va rahbarlar uchun muhimki, ular o'z kasblari tufayli turli muloqot vaziyatlariga duch keladilar va har bir vaziyatda ulardan nihoyatda o'tkir dadillik, odob va kishilar psixologiyasini bilgan holda ularni to'g'ri tushunish malakasi talab qilinadi. Bir so'z bilan aytganda, bu muloqotdagi bilimdonlikdir.

Tayanch tushunchalar: muloqot, funksiya, psixologik ta'sir, verbal, paralingvistik, noverbal, kommunikativ, interaktiv, perseptiv, refleksiya, identifikatsiya, stereotipizatsiya, kauzal atributsiya

Mavzuni o'zlashtirish uchun savollar

1. Muloqotning turi va shakllari haqida fikringiz?
2. Muloqotning qanday funksiyalari mavjud?
3. Muloqotda psixologik ta'sir vositalari deganda nimani tushunasiz?
4. Ta'sirning tashabbuskori va adresatini tushuntirib bering.
5. Kommunikativ uquvsizlikning mohiyati?
6. Tinglash texnikasi haqida olimlarning fikrlarini izohlang.
7. Muloqotning psixologik tizimini yoritib bering.
8. Muloqotning perseptiv tomonining mexanizmlarini tushuntirib bering.

Bilimlarni mustahkamlash uchun test savollari

1. Har qanday muloqotning eng elementar funksiyasi nima?

- A) Sotsial tajribaga asos solish
- B) Odamni u yoki bu faoliyatga hozirlash
- C) Ruhlantirish
- D) Suhbatdoshlarning o'zaro bir-birini tushunishlarini ta'minlash

2. So'z va nutq orqali ko'rsatadigan ta'sir nima deb ataladi?

- A) Paralingvistik ta'sir
- B) Noverbal ta'sir
- C) Lingvistik ta'sir
- D) Verbal ta'sir

3. Artikulyatsiya, tovushlar, to'xtashlar, duduqlanish, yo'tal, til bilan amalga oshiriladigan harakatlar, nidolar qaysi ta'sir tarkibiga kiradi?

- A) Paralingvistik ta'sir
- B) Noverbal ta'sir
- C) Lingvistik ta'sir
- D) Verbal ta'sir

4. Odamlar bilan normal munosabatlarni o'rnata olmaslik, ayniqsa, biznes sohasida amaliy sheriklarning holatlari, kutishlarini aniqlay olmaslik, o'z nuqtai nazariga o'zgalarni professional tarzda ko'ndira olmaslik amaliy psixologiyada qanday holatni keltirib chiqaradi?

- A) Kommunikativ uquvsizlik
- B) Depressiya
- C) Diskommunikatsiya
- D) A va C javoblar

5. “Yaxshi suhbatdosh – yaxshi gapirishni biladigan emas, balki yaxshi tinglashni biladigan suhbatdoshdir”. Ushbu fikr kimga tegishli?

- A) E.Fromm
- B) D.Karnegi
- C) G.Andreyeva
- D) Z.Freyd

6. “Odamlarni o‘zingiz to‘g‘ringizda yaxshi fikrga ega bo‘lishlarini xohlasangiz, ularni tinglang” deya kim aytgan?

- A) R.Atkinson
- B) D.Karnegi
- C) A.Shopengauer
- D) Gejel

7. Professional tinglash texnikasiga nimalar kiradi?

- A) Aktiv holat
- B) Suhbatdoshga samimiy qiziqish bildirish
- C) O‘ychan jimlik
- D) Barcha javoblar to‘g‘ri

8. Quyida nimaga ta‘rif berilmoqda? “IPTning bir ko‘rinishi bo‘lib, u yoki bu professional faoliyatni amalga oshirish jarayonida zarur bo‘ladigan kommunikativ malaka, ko‘nikma va bilimlarni hosil qilishga qaratilgan tadbirdir”.

- A) Amaliy muloqot treningi
- B) Professional tinglash texnikasi
- C) Muzokara
- D) Bahs

9. Muloqotning kommunikativ, interaktiv, persepsiv tomonlarini kim taklif etgan?

- A) D.Karnegi
- B) G.Andreyeva
- C) L.Tolstoy
- D) E.Ross

10.Muloqotning shaxslararo axborotlar, bilimlar, g‘oyalar, fikrlar almashinuvi jarayoni sifatidagi vazifalarini nima tashkil etadi?

- A) Kommunikativ tomon
- B) Persepsiv tomon
- C) Interaktiv tomon
- D) To‘g‘ri javob yo‘q

11.Kim odamlarda 97 xil kulgu turi va 85 xil ko‘z qarashlar turi borligini kuzatgan?

- A) G.Andreyeva
- B) A.Shopengauer
- C) L.Tolstoy
- D) D.Karnegi

12.Kishilarning muloqot jarayonida birgalikdagi faoliyatda bir-birlariga amaliy jihatdan bevosita ta’sir etishlari deganda nima tushuniladi?

- A) Kommunikativ tomon
- B) Perseptiv tomon
- C) Noverbal kommunikatsiya
- D) Interaktiv tomon

13.“Kundalik hayotda odamlar bilan muloqotga kirishar ekanmiz, biz ularning xulq-atvoriga qarab mo‘ljal olamiz. Negaki, biz ularning tashqi ma’lumotlari mohiyatini go‘yo “o‘qib”, ya’ni “mag‘zini chaqib” chiqamiz, shu yo‘sinda matnning ichki psixologik jihati mavjud bo‘lgan mazmunini aniqlaymiz” – degan fikrni kim yozgan?

- A) L.Tolstoy

- B) G.Andreyeva
- C) D.Karnegi
- D) S.Rubinshteyn

14. Bir-birini idrok qilishda muhim bo'lgan mexanizmlar sirasiga kirmaydiganini aniqlang.

- A) Identifikatsiya
- B) Refleksiya
- C) Differensiatsiya
- D) Stereotipizatsiya

15. Lotincha “tenglashtirish”, “aynan o'xshatish”, bir kishining ikkinchi kishini uning ta'rifini sub'yektning o'z ta'rifiga anglanilgan yoki anglanilmagan tarzda o'xshatilishi orqali tushunish usuli nima deb ataladi?

- A) Refleksiya
- B) Identifikatsiya
- C) Kauzal atributsiya
- D) Stereotipizatsiya

16. Lotincha “Aks ettirish” ma'nosini bildirib, o'z fikr va kechinmalarini tahlil qilib mulohaza yuritish, ya'ni muloqotga kirishuvchining suhbatdosh uni qanday idrok etayotgaligini anglash nima deb ataladi?

- A) Refleksiya
- B) Identifikatsiya
- C) Kauzal atributsiya
- D) Stereotipizatsiya

17. Lotincha “sabab” va “in'om etaman” so'zlari birikmasidan hosil bo'lgan atama?

- A) Refleksiya
- B) Identifikatsiya
- C) Kauzal atributsiya
- D) Stereotipizatsiya

18. Kishi tomonidan qoldiriladigan umumiy ijobiy taassurot subyektning idrok etish chog'ida berilmagan fazilatlarni ham ijobiy baholashiga sabab bo'lishi qaysi effektning mohiyati hisoblanadi?

- A) Noadekvatlik effekti
- B) Stereotipizatsiya
- C) Refleksiya
- D) Oreol effekti

19. Ma'lum yoki tahminan ma'lum bo'lgan voqealarni tiklash, nisbat berish yo'li bilan xulq normalarini tasniflash va ularning sabablarini izohlash deb nimaga aytiladi?

- A) Refleksiya
- B) Kauzal atributsiya
- C) Identifikatsiya
- D) Stereotipizatsiya

20. Kimning o'tkazgan tajribasiga ko'ra, kishining tashqi qiyofasi va uning xarakteri haqidagi stereotip tasavvurlar ommaviylashib ketganligi tasdiqlandi?

- A) D.Karnegi
- B) A.Bodalev
- C) G.Andreyeva
- D) Z.Freyd

VII BOB. SOTSIAL PSIXOLOGIYADA GURUHLAR MUAMMOSI

VII.1. Sotsial guruhlar psixologiyasi

Har bir shaxs o'z faoliyatini turli guruhlar sharoitida yoki turli guruhlar ta'sirida amalga oshiradi. Chunki, jamiyatdan chetda qolgan yoki insonlar guruhiga umuman qo'shilmaydigan individning o'zi yo'q, kishi jamiyatda yashar ekan, u doimo turli insonlar bilan muloqotda, o'zaro ta'sirda bo'ladi, bu muloqot jarayonlari esa doimo kishilar guruhida ro'y beradi. Shuning uchun ham guruhlar muammosi, uni o'rganish va guruhlarning shakllanishiga oid ilmiy xulosalar chiqarish sotsial psixologiyaning asosiy mavzularidan va muammolaridan biridir.

Psixologik ma'noda guruh bu umumiy belgilar, umumiy faoliyat, muloqot hamda umumiy maqsad asosida birlashgan kishilar uyushmasidir. Demak, olimlar guruhi tashkil topishi uchun albatta qandaydir umumiy maqsad yoki tilaklar, umumiy belgilar bo'lishi shart. Masalan, talabalar guruhi uchun umumiy narsalar ko'p (o'quv faoliyati, bilim olish, yoshlarga xos birliklar (o'spirin yoshlar), ma'lum o'quv yurtida ta'lim olish istagi va hokazo. Ko'chada biror tasodif ro'y berganligi uchun to'plangan kishilar uchun ham umumiy bo'lgan narsa bor bu qiziquvchanlik bo'lib o'tgan hodisaga guvohlik, unga umumiy munosabatdir.

Guruhni alohida shaxslar tashkil etadi, lekin har bir guruh psixologiyasi uni tashkil etuvchi alohida shaxslar psixologiyasidan farq qiladi va o'ziga xos qonuniyatlarga bo'ysunadi. Ayni shu qonuniyatlarni bilish esa turli tipli guruhlarini boshqarish va ana shu guruhlarini tashkil etuvchilarni tarbiyalashning asosiy mezonidir.

Guruhlarning turlari ko'p, shuning uchun ham ularni turli olimlar turlicha klassifikatsiya qiladilar. Bizning nazarimizda, G.M.Andreyevaning «Sotsial psixologiya» darsligidagi klassifikatsiya guruhlarining asosiy turlarini o'z ichiga qamrab olgan. U har qanday kishilar guruhini avvalo **shartli** va **real** guruhlariga bo'ladi. **Real** guruhlar aniq tadqiqot maqsadlarda to'plangan laboratoriya tipidagi hamda **tabiiy** guruhlariga bo'linadi. Konkret faoliyat odamlarning **tabiiy** ehtiyojlari asosida tashkil bo'ladigan bunday **tabiiy** guruhlarining o'zi kishilarning soniga qarab

katta va **kichik** guruhlarga bo‘linadi. Katta guruhlar uni tashkil etuvchilarning maqsadlari, fazoviy joylashishlari, psixologik xususiyatlariga qarab, **uyushgan** va **uyushmagan** turlarga, **kichiklari** esa o‘z navbatida **endi shakllanayotgan diffuz** hamda taraqqiyotning yuksak pog‘onasida ko‘tarila olgan **jamo**a turlariga bo‘linadi. Guruhlarning sotsial psixologiya uchun ayniqsa muhim hisoblangan turlariga ta’rif berish va ularning psixologik qonuniyatlarini o‘rganishni maqsad qilib qo‘ygan holda, bevosita **guruh funksiyalari, parametrlari va strukturasi**ni o‘rganishga o‘tamiz.

VII.2. Guruh funksiyalari

Nima sababdan odamlar guruhlarga birlashadilar va ko‘pincha guruhga a’zoliklarini juda ham qadrlaydilar? Shubhasiz, guruhlar, umuman, jamiyatning va uning har bir a’zosining u yoki bu ehtiyojlarini qondirishni ta’minlaydi. Amerikalik sotsiolog Nil Djozef Smelzer quyidagi guruh funksiyalarini ajratib ko‘rsatadi:

- 1) *ijtimoiylashtiruvchi;*
- 2) *instrumental;*
- 3) *ekspressiv (ifodali);*
- 4) *qo‘llab-quvvatlovchi.*

Ijtimoiylashtirish – bu shaxsni muayyan ijtimoiy muhitga jalb qilish va uning me’yorlari va qadriyatlarini o‘zlashtirish jarayoni. Inson yuqori darajada uyushgan primatlar singari faqat guruhda o‘zini saqlab qolishi va yosh avlodga ta’lim va tarbiya berilishini ta’minlaydi. Guruhda, ayniqsa, oilada, shaxs bir qator zarur ijtimoiy ko‘nikmalarni egallaydi. Bola yashaydigan boshlang‘ich guruhlar uning kengroq ijtimoiy aloqalar tizimiga qo‘shilishi uchun asos yaratadilar. Shaxsning biror bir shaklda ijtimoiylashishi o‘zining butun hayoti davomida amalga oshiriladi. Shunday qilib, shaxs a’zo bo‘lgan turli xil guruhlar, unga ushbu jamiyatning qadriyatlariga muvofiq ravishda ma’lum darajada ta’sir qiladi.

Guruhning instrumental funksiyasi odamlarning birgalikdagi faoliyatini amalga oshirishdir. Ko‘pgina ishlarni yolg‘iz amalga oshirish mumkin emas. Konveyer jamoasi, qutqaruv guruhi, futbol jamoasi, xoreografik ansambl – bularning barchasi

jamiyatda muhim rol o'ynaydigan guruhlar misoldir. Ularni vazifaga yo'naltirilgan guruhlar ham deyishadi. Bunday guruhlarda ishtirok etish, qoida tariqasida, odamga moddiy hayotni ta'minlaydi, unga o'zini namoyon qilish imkoniyatini beradi.

Guruhning ekspressiv funksiyasi odamlarning ma'qullash, hurmat va ishonchga bo'lgan ehtiyojlarini qondirishdir. Ushbu rolni ko'pincha birlamchi va norasmiy guruhlar amalga oshiradi. Shaxs a'zo sifatida, unga psixologik jihatdan yaqin bo'lgan odamlar, ya'ni qarindosh va do'stlar bilan muloqot qilishni yaxshi ko'radi.

Guruhning qo'llab-quvvatlovchi funksiyasi odamlar ular uchun qiyin vaziyatlarda birlashishga moyil bo'lishida namoyon bo'ladi. Ular yoqimsiz his-tuyg'ularni yengillashtirish maqsadida guruhdan psixologik qo'llab-quvvatlashini istaydilar. Bunga yaqqol misol sifatida amerikalik psixolog Stenli Shaxterning tajribasini keltirish mumkin. Birinchidan, universitetlardan birining talabalari bo'lgan respondentlarni ikki guruhga bo'lishadi. Ulardan birinchisining a'zolariga ular elektr tokining nisbatan kuchli zarbalariga duchor bo'lishlari haqida xabar berishadi. Ikkinchi guruh a'zolariga esa ularga juda yengil, qichishadigandek elektr toki urishi kutayotganini aytishadi. Bundan tashqari, barcha talabalarga eksperiment qanday tarzda boshlanishini xohlashlari haqida savol beriladi: yolg'izmi yoki boshqa ishtirokchilar bilan birgami? Birinchi guruh respondentlarining tahminan uchdan ikki qismi boshqalar bilan birga bo'lishni istashlari aniqlangan. Ikkinchi guruhda, aksincha, respondentlarning tahminan uchdan ikki qismi eksperimentning boshlanishini yolg'iz yoki boshqalar bilan birga boshlanishining farqi yo'qligini aytishadi. Shunday qilib, Shaxter biror kishi tahdid soluvchi omilga duch kelganda guruh unga psixologik qo'llab-quvvatlovchi yoki dalda beruvchilik hissini berishi mumkin, deb xulosaga keladi. Xavf oldida odamlar bir-biriga psixologik jihatdan yaqinlashishga moyil bo'ladilar.

Guruhning qo'llab-quvvatlovchi funksiyasi guruh psixoterapiyasi mashg'ulotlarida yaqqolroq namoyon bo'lishi mumkin. Bundan tashqari, ba'zan odam psixologik jihatdan guruhning boshqa a'zolariga shu qadar yaqinlashib qoladiki, uning guruhdan ketishi yoki uni tark etishining (masalan, davolanishning

umumiy yakuniga ko‘ra) boshdan kechirilishi qiyin bo‘lib qoladi. Shuning uchun guruh psixoterapiyasi kursini tugatish uchun maxsus variant – bu guruh tarkibini saqlab qolish va patsiyenlarning shifokorlarsiz ham aloqani davom ettirish hisoblanadi.

VII.3. Guruh parametrlari va strukturasi

Asosiy parametrlar yordamida guruhni ijtimoiy-psixologik jihatdan tahlil qilish mumkin. Ushbu parametrlarning to‘liq kombinatsiyasini ***guruhning o‘ziga xos xususiyatlariga*** va ***guruhdagi odamning pozitsiyasini belgilaydigan tavsiflarga*** bo‘lish mumkin.

Guruhning xususiyatlariga quyidagilar kiradi: guruh kompozitsiyasi (tarkibi), strukturasi (tuzilishi), guruhiy jarayonlar.

Guruh kompozitsiyasi yoki uning tarkibi – bu butun guruhni tahlil qilish nuqtai nazaridan muhim bo‘lgan guruh a‘zolarining xususiyatlari to‘plami.

Guruhning strukturasi (tuzilishi) guruhning alohida a‘zolari tomonidan bajariladigan funksiyalar nuqtai nazaridan, shuningdek, undagi shaxslararo munosabatlar nuqtai nazaridan ko‘rib chiqiladi.

Guruhiy jarayonlarga guruh rivojlanish jarayoni va birlashishi, guruhdagi bosim, qaror qabul qilish jarayoni kabi guruh dinamikasining ko‘rsatkichlari kiradi.

Shaxsning guruh munosabatlari tizimidagi mavqei, avvalo, uning statusi va bajaradigan rollari bilan tavsiflanadi.

Status (yoki mavqe) bu shaxsning guruhdagi o‘rnini va guruhning boshqa a‘zolari uni qanday qabul qilishini belgilaydigan psixologik xususiyatlarning yig‘indisi yoki to‘plami.

Status rollar tizimi orqali amalga oshiriladi, ya‘ni odam guruhdagi mavqeiga muvofiq bajarishi kerak bo‘lgan turli funksiyalar.

Guruh ichidagi tanlanishlar tizimini tavsiflovchi eng muhim xususiyatlar.

Tizimning birinchi tavsifi – bu guruh a‘zolarining sotsiometrik statusi.

Sotsiometriya natijalariga ko‘ra, mavqe guruh a‘zosi tomonidan qabul qilingan tanlanishlar va rad etishlarning yig‘indisi sifatida ko‘rib chiqiladi. Statuslar

ijobiy tanlovlar ulushiga qarab har xil “vazn”ga ega va guruhning barcha a’zolarining mavqelarining umumiyliigi statusli iyerarxiyani belgilaydi, ular quyidagilar bilan ajralib turadi:

a) sotsiometrik “yulduzlar” – iyerarxiyaning yuqori qismida turgan guruhning eng ko‘p tanlangan a’zolari;

b) ijobiy holatlar soni bilan belgilanadigan va ko‘p sonli rad etishlarga ega bo‘lmagan yuqori, o‘rtacha va past mavqeli;

c) ajratilgan – ijobiy ham salbiy ham tanlovga ega bo‘lmagan guruh a’zolari;

g) e’tiborsiz qoldirilgan – ko‘p sonli salbiy va oz miqdordagi ijobiy tanlovlarga ega bo‘lgan guruh a’zolari;

e) rad etilgan – sotsiometriya natijalariga ko‘ra ijobiy tanlovlarga ega bo‘lmagan, biroq faqat salbiy tanlovga ega bo‘lgan guruh a’zolari.

Biroq, sotsiometrik mavqening miqdorini bilish guruhdagi hissiy munosabatlar tizimi to‘g‘risida aniq tasavvurga ega bo‘lish uchun yetarli emas.

Tizimning ikkinchi tavsifi – bu guruh a’zolarining hissiy tanlashining o‘zaro munosabatidir.

Shunday qilib, talaba guruhida faqat bitta ijobiy tanlovga ega bo‘lishi mumkin, ammo agar ushbu tanlov o‘zaro munosabatda bo‘lsa, bu talaba bir nechta guruhdoshlar tomonidan ma’qullanishiga qaraganda guruhda ancha o‘zini ishonchli his qiladi, lekin u boshqalarga, ya’ni unga e’tiborsiz yoki undan ham yomoni, uni rad etayotganlarga e’tiborini qaratadi. Shuningdek, “yulduz” uchun ham nafaqat ko‘plab tanlanishlarga ega bo‘lishi, balki guruhdagi mavqeining barqarorligi va qulay holatini ta’minlash uchun o‘zaro munosabatlar muhim hisoblanadi.

Sotsiometrik tizimning uchinchi tavsifi – shaxslararo tanlanishlar barqaror bo‘lgan guruhlarning mavjudligi.

Bunday mikroguruhlarning mavjudligi yoki mavjud emasligini nafaqat tahlil qilish, balki ular o‘rtasidagi munosabatlarni o‘rganish, ular qanday printsip asosida amalga oshishini tushunish muhimdir. Bu guruhning ajralib qolgan va ajratilgan a’zolari qaysi guruhlarga yo‘naltirilganligi, turli guruhdagi odamlar ushbu guruhlarga qanday munosabatda bo‘lishlari muhimdir. Guruhda paydo bo‘lgan

kichik uyushmalar o‘zlarining ichki tuzilishi va birlashmasida juda farq qilishi mumkin yoki ularning ichida bir-birini rad etadigan a‘zolari bo‘lishi yoki bo‘lmasligi mumkin, bu ham guruhning umumiy xususiyatlari uchun muhimdir.

Tizimning to‘rtinchi tavsifi – bu guruhdagi rad etishlar tizimi.

Sotsiometrik matritsa guruhdagi rad etishlar qanday taqsimlanganligini tushunishga imkon beradi. Masalan, guruhda deyarli butun guruh yoqtirmaydigan “yoqimsizlar” bo‘lishi mumkin, yoki, aksincha, deyarli barchasi rad etilishi mumkin, ammo hech kim imtiyozlardan ustun kelmaydi. Sotsiometrik tuzilma haqida fikr yuritganda guruh a‘zosining sotsiometrik statusi ancha mustahkam ekanligini ta’kidlash kerak. Bu nafaqat ushbu muayyan guruhda qolishga moyildir, balki ko‘pincha bir kishi bilan boshqa guruhga “o‘tadi”. Buning izohi juda oddiy. Mavqe guruh toifasiga kiradi va guruhdan tashqarida bo‘lmasa ham odam doimiy mavqei bilan unga berilgan rollarni o‘ynashga odatlanib qoladi. Boshqalarning so‘zlariga va xatti-harakatlariga odatiy munosabat shakllari xatti-harakatlarda ko‘rinadi. Mimikasi, pozalari va boshqa noverbal reaksiyalari ham ma’lum bir rolga “moslashadi”. Boshqa guruhga o‘tishda kishi odatiy rollarni o‘ynashni davom ettiradi yoki hech bo‘lmaganda uning roli ongsiz xatti-harakatlar elementlari tomonidan beriladi. Guruh a‘zolari taklif qilayotgan tasvirni ko‘radilar va yangi kelgan bilan birga harakatni davom ettiradilar.

VII.4. Kichik guruhlar psixologiyasi muammosi

Kichik guruhlar muammosi sotsial psixologiyada eng yaxshi ishlangan va ko‘plab ilmiy tadqiqotlar o‘tkazilgan ob’yektlardandir. Bu an’ana **Amerikada** o‘tgan asrimiz boshida o‘tkazilgan ko‘plab eksperimental tadqiqotlardan boshlangan bo‘lib, ularda olimlar oldiga qo‘yilgan asosiy muammo shu ediki, individ yakka holda yaxshi ishlaydimi yoki guruhda yaxshiroq samara beradimi, boshqa odamlarning yonida bo‘lishi uning faoliyatiga qanday ta’sir ko‘rsatadi. Shuni ta’kidlash lozimki, bunday sharoitlarda indvidlarning o‘zaro hamkorligi (interaksiya) emas, balki ularning bir vaqtda bir yerda birga bo‘lganligi faktining (koaksiya) ta’siri o‘rganildi. Olingan ma’lumotlar shuni ko‘rsatadiki, boshqalar bilan hamkorlikda bo‘lgan individ

faoliyatining tezligi oshadi, lekin **harakatlar sifati ancha pasayishi** aniqlandi. Bunday ma'lumotlar amerikalik N.Triplett, nemis olimi A.Mayer, rus olimi V.M.Bexterev, yana bir nemis olimi V.Myode va boshqalarning tadqiqotlarida ham qayd etildi.

Bu psixologik hodisa sotsial psixologiyada sotsial **fasilitatsiya** nomini oldi. Uning mohiyati shundan iborat ediki, individning faoliyat mahsullariga uning yonida bo'lgan boshqa individlarning bevosita ta'siri bo'lib, bu ta'sir avvalo, sensor kuchayishlar hamda ish harakatlarning, fikrlashlarning tezligi namoyon bo'ladi. Lekin ayrim eksperimentlarda teskari effekt ham kuzatiladi, ya'ni boshqalar ta'sirida individ reaksiyalarida tormozlanish, faoliyatining susayishi holatlari; bu narsa fanda **ingibitsiya** nomini oldi. Lekin olgan faktlarning qandayligidan qat'iy nazar, olimlar uchun kichik guruhlar asosiy tadqiqot mavzuiga aylanib qoldi va ular natijasida qator qonuniyatlar ochildi.

Birinchi, kichik guruhlarining hajmi uni tashkil etuvchi shaxslar soni xususida shunday fikrga kelindiki, kichik guruh «diada» ikki kishidan tortib, to maktab sharoitida 30-40 kishigacha deb qabul qilindi. Ikki kishilik guruh deyilganda, avvalo oila, yangi shakllangan oila ko'proq nazarda tutiladi, lekin samarali o'zaro ta'sir nazarda tutilganda 7 ± 2 kishi nazarda tutiladi. Bunday guruh turli sotsial psixologik tadqiqotlar uchun ham, sotsial psixologik treninglar o'tkazish uchun ham qulay hisoblanadi.

Ikkinchi, guruhning o'lchami qanchalik katta bo'lsa, uning alohida olingan shaxslar uchun qadrsizlanib borish xavfi kuchayadi. Ya'ni shaxsning ko'pchilikdan iborat guruhdan o'zini tortish va uning normalarini buzishga moyilligi ortib boradi.

Uchinchi, guruhning hajmi kichiklashib borgan sari shaxslararo o'zaro munosabatlar taranglashib boradi. Chunki, shaxslarning bir-birlari oldida mas'uliyatlarining oshishi va yaqindan bilishlari uning o'rtasidagi aloqalarda doim aniqlik bo'lishini talab qiladi. Munosabatlardagi har qanday disbalanslar ochiq holdagi ziddiyatlarni keltirib chiqaradi.

To'rtinchi, agar guruh a'zolarining soni toq bo'lsa, ular o'rtasidagi o'zaro munosabatlar juft bo'lgan holdagidan ancha yaxshi bo'ladi. Shundan bo'lsa kerak,

boshqaruv psixologiyasida odamlarni biror nimaga saylashda va umuman rasmiy tanlovlarda guruhdagi odamlar soni toq qilib olinadi.

Beshinchidan, shaxsning guruh taz'yiqa berilishi va bo'ysunishi ham guruh a'zolarining soniga bog'liq. Guruh soni 4-5 kishi bo'lgunga qadar, uning ta'siri kuchaya boradi. Lekin undan ortib ketgach ta'sirchanlik kamayib boradi. Masalan, kuchada sodir bo'lgan baxtsiz hodisaning guvohlari soni ortib borgan sari, jabrlanganga yordam berishga intilish, mas'uliyat hissi pasayib boradi. Bu qonuniyatlarni bilish, tabiiy guruhlarni boshqarish ishini ancha yengillashtiradi.

VII.5. Kichik guruhlar klassifikatsiyasi

Kundalik hayotda shaxs muloqotda bo'ladigan, vaqtini birgalikda o'tkazadigan kishilar guruhi ham turli xil bo'ladi. Masalan, agar odamlar ko'chada tasodifiy hodisani tomoshabini bo'lib turishgan bo'lsa, ularni psixologiya tilida guruh emas, **agregasiya (olomon)** deb atashadi. Haqiqiy guruh uchun o'sha odamlarning barchasiga aloqador umumiy faoliyat va hamkorlik qilish, bir-birlariga ta'sir ko'rsatish imkoniyati bo'lishi kerak.

Rus olimi Robert Semyonovich Nemov kichik sotsial guruhlarning quyidagi klassifikatsiyasini taklif etgan:



Tarixan kichik guruhlarni rasmiy va norasmiy turlarga bo'lish qabul qilingan. Bunday bo'linishni amerikalik olim E.Meyo taklif etgan edi. Uning fikricha, rasmiy

guruh har bir a'zolarining rasmiy rollarga ega ekanligi, ular mavqeining va guruhda tutgan o'rnining aniqligi bilan xarakterlanadi. Bu guruhlardagi munosabatlar asosan «vertikal» tarzda ro'y berib, guruhning bir yoki bir necha a'zosida «hokimiyat» bo'lganligi uchun ham, ular boshqalarni boshqarish, ularga buyruq, rasmiy ko'rsatmalar berish huquqiga ega bo'ladilar. Rasmiy guruhga misol qilib har qanday birgalikdagi faoliyat maqsadlari asosida shakllangan jamoalarni ishlab chiqarish brigadasi, talabalar guruhi, sinf o'quvchilari, pedagogik jamoa va boshqalarni olish mumkin.

Rasmiy guruhlardan farqli o'laroq, **norasmiy** guruhlar ham mavjud bo'ladiki, ular asosan stixiyali tarzda, aniq maqsadsiz tarkib topadi va ularda a'zolarining aniq mavqelari, rollari oldindan belgilangan bo'lmaydi. Ko'pincha norasmiy guruh rasmiy guruh tarkibida tashkil topadi va ularni boshqarish ham oldindan belgilangan bo'lmay, odamlar ichidan u yoki bu shaxsiy sifatlari tufayli **ajralib chiqqan a'zolar** norasmiy rahbarlik rolini bajarishlari mumkin.

Bundan tashqari, sotsial psixologiyada **referent** guruh tushunchasi ham bor. Bu tushuncha fanga birinchi marta amerikalik tadqiqotchi **G.Xaymen tomonidan 1942 yilda kiritilgan edi**. U o'z tadqiqotlarida shuni isbot qildiki, ma'lum bo'lishicha, guruh a'zolari uchun shu guruh ichida yoki boshqa doiralarda shunday shaxslar mavjud bo'lar ekanki, u o'z xatti-harakatlari, fikrlari va yo'nalishlarida o'sha guruh a'zolariga ergashish, ularni tanqidsiz qabul qilishga moyil hamda tayyor bo'lar ekan. Shunday shaxslar guruhi **referent guruh nomini oldi**.

O'quvchi uchun bunday guruh rolini maktabdagi bir necha o'qituvchilar, otasi yoki onasi, yaqin do'sti yoki qarindoshlaridan kimdir o'ynashi mumkin. Shunisi xarakterliki, shaxs doimo shu guruhga ergashadi, uni qadrlaydi, u bilan muloqotda bo'lishga intiladi. Rus psixologlari bu guruhni odatda shaxs uchun mavjud haqiqiy guruh (a'zolik guruhi) tarkibidagi yoki unga qarshi bo'lgan guruh sifatida qaraydilar. Nima bo'lganda ham ana shunday guruhning mavjudligi shaxs uchun ahamiyatli bo'lib, uning xulq-atvori uchun etalon hisoblanadi.

Amerikalik sotsiologlar referent guruhlarining bir necha turlarini farqlaydilar.

Normativ guruhlar – bu shaxs uchun shunday insonlar guruhiki, ularning normalarini u ma'qullaydi, ularga amal qilishga hamisha tayyor bo'ladi. Bunday guruhlariga birinchi navbatda oilani, diniy yoki milliy uyushmalarni, professional guruhlarini kiritish mumkin.

Qiyoslash guruhlari – bu shunday guruhki, shaxs o'sha guruhga kirishni, uning ma'qullashiga muhtoj bo'lmaydi, lekin o'z harakatlarini yo'lga solishda unga asoslanadi va korreksiya qiladi.

Negativ guruhlar – shundayki, shaxs ularning xatti-harakatlaridan ataylab voz kechadi, chunki ular shaxsiy qarashlardan mutloq farq qiladi. Masalan, ikki qo'shni bir-biri bilan murosalar kelishmasa, hattoki, devorlarini oqlashda ham biri tanlagan rangni ikkinchisi tanlamaydi. Biri «oq» desa, ikkinchisi – aksincha, «qora» deb turaveradi.

VII.6. Kichik guruhlardagi dinamik jarayonlar

Ma'lumki, guruhda to'plangan kishilar o'rtasida doimiy muloqot va munosabatlar mavjud bo'ladiki, ularning mazmuni va yo'nalishiga ko'ra, o'ziga xos sotsial psixologik muhit shakllanadi. Bu muhit guruhning taraqqiyotini ham, undagi turli jarayonlarni ham belgilaydi. Guruhning dinamik jarayonlari deganda avvalo uning shakllanish jarayoni, liderlik va guruhda turli qarorlarni qabul qilish jarayoni, guruhning har bir shaxsga ta'siri kabilar tushuniladi. Guruhning shakllanishi uning paydo bo'lishi haqida gapiradigan bo'lsak, avvalo shuni ta'kidlash lozimki, **guruh jamiyat ehtiyojlari va sotsial talablar asosida paydo bo'ladi**. Masalan, sinf jamoasi doimo bolalarning tug'ilishi, rivojlanishi va ularning maktablarda ta'lim olishlari kerakligi uchun, talabalar guruhi ham shunga o'xshash oliy ma'lumotlar olishlari kerak bo'lganligi uchun paydo bo'ladi va hokazo. Lekin bu masalaning sotsial tomoni. Uning sof psixologik tomoni ham borki, u odamlarning nima uchun jamoalarda ishlashi, odamlar ichida bo'lishi bilan bog'liq. Chunki har bir normal insonda muloqotga bo'lgan ehtiyoj hamda turli hayotiy vaziyatlarda o'zini sotsial himoyada sezish ehtiyoji borki, bu narsa turli kichik jamoalarda ularning bo'lishini

taqozo qiladi. Lekin guruhda a'zo bo'lish bilan birgalikda har bir individ qator guruhij jarayonlarning guvohi bo'ladi.

Birinchiidan guruh o'z a'zolariga ma'lum tarzda psixologik ta'sir ko'rsatadi. Bu hodisa psixologiyada **konformizm** deb ataladi (o'zbek tilida «moslashish» ma'nosini bildiradi). Bu hodisaning mohiyati shundan iboratki, u individning guruhda qabul qilinadigan normalar, fikrlar, xulq-atvor standartlarini qanchalik qabul qilish yoki qabul qilmasligi bilan bog'liq. Guruh fikrini qanchalik tez qabul qilish uning ta'siriga berilish **individ bilan guruhning ziddiyatlarini oldini olishi mumkin**. Shuning uchun ham individ ana shunday xatti-harakat qilishga intiladi. Lekin ana shunday guruh fikriga, harakatiga qo'shilish turli shakllarda bo'lishi mumkin: **tashqi konformillilik** individ guruh fikriga nomigagina qo'shiladi, aslida ruhan u guruhga qarshi turadi, **ichki konformillilik** individ guruh fikriga to'laligicha qo'shiladi va ruhan qabul qiladi. Ana shunday hollarda individ bilan boshqalar o'rtasida **ziddiyat** yoki **konfliktlar** paydo bo'lmaydi. Bu o'rinda yana bir tushuncha ham bor, u ham bo'lsa «**negativizm**» tushunchasidir, bu individning har qanday sharoitda ham **guruh fikriga qarshi** turishi va **o'zicha mustaqil fikr, mavqeini** namoyon qilishidir. Bu tabiiy individ uchun noqulay lekin, mustaqil fikr, odil harakatlar doimo hurmat qilinadigan jamoalarda negativizm hodisasi **yomon illat sifatida qabul qilinmaydi**.

Guruhlardagi yana bir jarayon bu guruhning **uyushqoqligi muammosidir**. Guruh a'zolarining bir-birlarini yaxshi bilishlari, bir-birlarining dunyoqarashlari, hayotiy printsiplari, qadriyatlarini yaxshi tasavvur qilishlari bunday uyushqoqlikning birinchi omilidir. Ikkinchi va asosiy omil bu o'sha guruhni birlashtirib turgan faoliyat maqsadlarini, uning yo'nalishi va mazmunini bilishdagi g'oyaviy birlikdir. Umuman, eksperimental tadqiqotlarda qayd etilgan guruhga oid fikrlardagi umumiy uyushqoqlikga ijobiy zamin hisoblanadi.

Guruhlardagi liderlik va umumiy qarorlarga kelish ham dinamik jarayonlarga kiradi, lekin bu masalalarni boshqarish psixologiyasi masalalari doirasida keyingi mavzuda o'rganamiz.

VII.7. Guruh o'Ichamlari va uning tizimi

Guruhlar ulardagi odamlar soniga ko'ra *katta va kichik guruhlarga* bo'linadi. Psixologiyada ko'proq kichik guruhlar o'rganiladi. Uni necha kishi tashkil etishi, necha kishi hamkorlikdagi faolityati ko'proq samara berishi masalasi amaliy ahamiyatga egadir. Ko'pchilik olimlar guruhning boshlang'ich nuqtasi sifatida miqdor jihatdan **ikki kishini** – *diadani* tan olishadi. Polyak olimi Yan Shepanskiy bunga qo'shilmasa-da (uning fikricha kamida uch kishi – triadadan boshlanadi), har qalay diada o'ziga xos uyushma sifatida tan olingan. Masalan, yangi oila qurib, birga yashayotgan kishilar, sevishganlar, ikki do'st – o'ziga xos kichik guruh. Har qanday kichik guruhga xos sifat shuki, uning a'zolari bir-birlari bilan bevosita muloqotga kirishish, «yuzma-yuz» bo'lish imkoniyatga ega bo'ladi. Har bir kishi uchun shu guruh juda ahamiyatli bo'lib, uning normalariga o'zi xohlab-xohlamay bo'ysuna boshlaydi. Kichik guruhning chegarasi masalasi ham ko'p muhokama qilinadi.

G.M.Andreyeva bu chegarani 12-15 kishi deb hisoblasa, amerikalik Moreno o'z vaqtida bu chegarani 30-40 kishigacha surgan edi. Lekin, uning yuqori chegarasi necha kishi bo'lishidan qat'iy nazar, o'zaro bevosita muloqot imkoniyatini berishi va har bir a'zo bir-biriga ta'sir ko'rsata olishi kerak.

Hari bir o'ziga xos psixologik tizimga ham ega. Uni tashkil etuvchi elementlar nisbatan barqaror bo'lib, ular guruh a'zolari xulq-atvorini muvofiqlashtirib turadi. Avvalo guruhning *maqsadini* ajratish kerak. **Maqsad** – odamlarni jamoa mehnati atrofida uyushtirib, birlashtiruvchi psixologik elementdir. Masalan, barcha talabalarning maqsadi – o'qish, professional malaka orttirib, mutaxassis bo'lib yetishish.

Guruhning *avtonomligi darajasi* ham ma'lum ahamiyatga ega omil, chunki har bir a'zo umumiy maqsad asosida birlashgan bo'lsa ham, ularning har birining o'z burch va vazifalari bor va shu nuqtai nazardan har bir odam o'z imkoniyatlarini o'zicha ishga solib, o'zaro munosabatlarga sabab bo'ladi.

Guruhning psixologik tizimga ta'sir etuvchi omillarga yana ularning jinsiy, yosh jihatdan, ma'lumoti va malakasi nuqtai nazaridan farq qiluvchi va uyg'unlikni tashkil etuvchi omillar ham kiradi.

Guruhning *uyushganligi* ham dinamik ko'rsatgichlardan bo'lib, shu nuqtai nazardan har bir guruh bir-biridan farq qiladi. Masalan, odamlar hamkorlikda bajarayotgan ishning qiziqarli va hamma uchun manfaatli ekanligi, guruh normalarining a'zolar tomonidan umuman olganda qabul qilinishi, qadriyatlar tizimini tasavvur qilishdagi fikrlar mosligi uyushqoqlikning mezonlaridir.

Guruhning tizimi yana uning katta-kichikligiga ham bog'liq. Masalan, 5-10 kishidan iborat guruhdagi munosabatlar yaxshiroq, uyg'unroq va faoliyat samaraliroq hisoblanadi. Chunki bunday guruhlarda norasmiy muloqot uchun ma'qul sharoit mavjud bo'ladi. Bunday guruhlarda «**guruhbozlik**» degan illat ham bo'lmaydi. Guruhning hajmi ortib borgan sari ularda rasmiyatchilik, rasmiy yuzaki munosabatlar ko'payadi va bu odamlar o'rtasidagi insoniy munosabatlarda o'z aksini topadi.

VII.8. Jamoalarda psixologik o'zaro moslik

Guruh hayoti va undagi a'zolarining o'zlarini yaxshi his qilishlari ko'p jihatdan ularning hamkorlikda ishlay olishlari va bir-birlariga ijobiy munosabatda bo'la olishlariga bog'liq. Bu hodisani tushuntirish uchun psixologiyada psixologik moslik tushunchasi mavjud. *Psixologik moslik deganda*, guruh a'zolari sifatleri va qarashlarining aynanligi emas, balki ular ayrim sifatlarining mos kelishi, qolganlarining kerak bo'lsa, tafovut qilishi nazarda tutiladi.

Moslikning mezon sifatida Nikolay Nikolayevich Obozov quyidagilarni ajratadi:

- a) faoliyat natijalari;
- b) a'zolarining sarflagan kuch-energiyalari;
- d) faoliyatdan qoniqish.

Ikki xil o'zaro moslik farqlanadi: psixofiziologik va sotsial psixologik. Birinchi holatda faoliyat jarayonida odamlarning bir xil va mos tarzda harakat qila olishlari, reaksiyalar mosligi, ish ritmi va tempidagi uyg'unliklar nazarda tutilsa, ikkinchisida sotsial xulqdagi moslik – ustanovkalar birligi, ehtiyoj va qiziqishlar, qarashlardagi monandlik, yo'nalishlar birligi nazarda tutiladi. Birinchi xil moslik ko'proq konveyer usulida ishlanadigan sanoat korxonalarida xodimlarida samarali bo'lsa, bu oliygoh

o'qituvchilari, ijodiy kasb egalarida iloji yo'q va bo'lishi mumkin emas, ularda ko'proq sotsial psixologik moslikning ahamiyati kattadir.

O'tkazilgan tadqiqotlar psixologik moslikning ko'plab qirralari bo'lishi mumkinligini isbot qildi. Asosan shuni unutmash kerakki, qaysi faoliyat va uning maqsadi odamlarni birlashtirgan bo'lsa, o'sha maqsadni idrok qilish va birgalikda anglash istagida uyg'unlikning bo'lishi katta tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'ladi.

Guruhiy qarorlar qabul qilishda o'zaro ta'sir masalasi. Guruhda odamlarning bir-birlarini yoqtirishlari yoki aksincha, inkor qilishlari ko'pincha turli xil qarorlar qabul qilish jarayonida ro'y beradi. Guruhiy qarorlar qabul qilish individual qarorlar qabul qilish jarayonidan tubdan farq qilmaydi. Ikkalasida ham avval muammo aniqlanadi, ma'lumotlar to'planadi, bir nechta takliflar ilgari suriladi va nihoyat, eng ma'quli qabul qilinadi. Lekin guruhda bu jarayon biroz boshqacharoq kechadi va nizolar ko'pincha aynan shu jarayon bilan bog'liq bo'ladi.

Amerikalik psixolog T.Mitchellning fikricha, o'zaro ta'sir guruhiy sharoitida quyidagi omillar vositasida ro'y beradi:

- 1) ayrim a'zolar boshqalariga nisbatan ko'proq gapirishga moyil bo'ladilar;
- 2) yuqoriroq mavqega ega bo'lgan shaxslar qarorlar chiqarish jarayonida ham boshqalarga tazyiq o'tkazishadi;
- 3) guruhda ko'p vaqt o'zaro fikrlardagi kelishmovchiliklarning oldini olishga ketib qoladi;
- 4) guruhda ayrim odamlar ta'sirida asosiy maqsaddan chetlash va maqsadga nomuvofiq qarorlar qabul qilish hollari kuzatiladi;
- 5) barcha a'zolar o'zlari sezmagan holda konformlilikka beriladilar va guruh ta'siriga tushib qoladilar. Shuning uchun ham ba'zan majlisni olib boruvchi rais kun tartibini e'lon qilgan bo'lsa-da, undan chalg'ib ketishi va o'rinsiz qarorlar qabul qilishi mumkin.

Lekin guruhiy qarorlar qabul qilish jarayonining eng katta ijobiy tomoni shundaki, unda ko'plab fikrlar tug'iladi va o'rtaga tashlanadi. Bu fikrlar shunday sharoit yaratadiki, oxir-oqibat alohida individual fikrlardan biroz bo'lsa-da, farq qiladigan original yangi fikr paydo bo'ladi. Shuning uchun ham rahbarlik san'ati

ko'pchilik fikriga tayangan holda oxirida eng ma'qul qarorga kela olishdir. Lekin salbiy tomoni shundaki, guruhiy muzokara va qarorlar qabul qilish jarayoni ba'zi a'zolarida loqaydlik («Menga nima, ular gapirishyapti-ku» kabi), tashabbussizlik («Baribir meniki qabul qilinmaydi, gapirib nima qildim?» kabi) illatlarini ham paydo qilishi mumkin. Bu o'sha muhitda ayrim odamlar fikri doimo qo'llab-quvvatlangan, ayrim odamlarga e'tibor, imtiyoz berilgan sharoitlarda rahbarning aybi bilan ro'y beradi.

Xoffman o'z eksperimentlarida guruhiy qarorlar qabul qilishga guruhning tarkibi ta'sir qilishi mumkinligini isbot qilgan. Uning fikricha, yaxshi, sifatli, ijobiy fikrlar va qarorlar guruh tarkibi har xil (geterogen tarkib) bo'lgan sharoitlarda uning tarkibi bir xil (gomogen) bo'lgandan ancha ko'p va sifatli bo'ladi. Gomogen guruhlarda (masalan, tahminan bir xil o'zlashtiradigan talabalar guruhi) qarorlar qabul qilish mobaynida konfliktlarning kam bo'lishi va qarorlar tezda qabul qilinishi aniqlangan.

Har qaday qarorlar qabul qilish jarayoni psixologik jihatdan *tavakkalchilikka* asoslanishi ham isbotlangan. Lekin tavakkalchilik darajasi guruh sharoitida individual holatdagidan ancha past bo'lar ekan. O'rtacha guruh a'zosining bu o'rindagi fikri: «Tavakkal shu gapni aytaychi, noma'qul bo'lsa, guruh borku, ular ma'qullashganku?». Demak, guruh sharoitida qabul qilingan har qanday qaror mohiyatan sotsial xarakterli bo'lib, uning to'g'ri va foydali, natijali bo'lishida rahbarning roli katta bo'ladi.

VII.9. Guruhdagi psixologik muhit va uni o'rganish

Guruh va jamoalar to'g'risida gap ketganda, ko'pincha uning «ma'naviy muhiti», «psixologik muhiti» degan iboralar ishlatiladi. Chunki bu narsa o'sha yerdagi ishning yaxshiligi, faoliyatning samarasi bilan bog'lanadi. *Sotsial psixologik muhit deganda, biz o'sha guruhning a'zolari fikrlari, hissiyotlari, dunyoqarashi, ustanovkalar va o'zaro munosabatlaridan iborat bo'lgan emotsional-intellektual holatni tushunamiz.* Bu o'rindagi asosiy omil – bu a'zolarining o'zaro munosabatlaridir. Ma'lumki, o'zaro munosabatlar ish yuzasidan, faoliyat maqsadlari

va mazmuni bilan hamda bevosita bir-birlarini yoqtirish-yoqtirmaslikka asoslangan insoniy emotsional hissiyotlar ko‘rinishida bo‘lishi mumkin. Professional faoliyatni bajarish jarayonida tabiiy birinchi tipli munosabatlar ustuvor bo‘lib, ikkinchilarining xarakteri birinchisidan kelib chiqadi. Do‘stlar to‘plangan davradagi muhit esa aksincha, bevosita simpatiyalarga tayanadi.

Sotsial psixologiyada ana shunday psixologik muhitni eksperimental tarzda o‘rganishga katta e‘tibor beriladi. Eng keng tarqalgan usullardan biri **sotsiometriya** bo‘lib, uning asoschisi amerikalik olim Yakob Levi Moreno hisoblanadi. Sotsiometriya lotincha «so cietas» – jamiyat, va «metreo» – o‘lchayman so‘zlaridan olingan bo‘lib, guruhdagi shaxslararo munosabatlarni o‘lchashga qaratilgan texnikadir. Nazariy sotsiometriya uning muallifi fikricha, jamiyatdagi barcha nizolar, muammolarni yechishning usullaridan biri – insonlar o‘rtasidagi munosabatlarni o‘rganish va shunga ko‘ra, jamiyatda o‘zgarishlarni amalga oshirish kerak, degan g‘oyaga asoslanadi. Amalda esa har bir jamoalarda maxsus sotsiometrik so‘rovlar o‘tkaziladi va uning natijalari tashkiliy jarayonlarda inobatga olinadi.

Lekin oxirgi paytlarda sotsiometriyaga nazar o‘zgargan, uning yuzlab modifikasiyalari, turlari ishlab chiqildi. Ahamiyatlisi shuki, uni haqiqatdan ham guruhdagi ma‘naviy-psixologik muhitga ta‘sir etuvchi emotsional munosabatlarni aniqlashda mutaxassis tomonidan ishlatish mumkin. Bunda har bir guruh a‘zosi tanlov sharoitiga solinadi, ya‘ni u, u yoki bu sharoitda, vaziyatda yoki faoliyatni bajarishda o‘ziga yoqqan (yoqmagan ham) sherigini guruhdoshlari orasidan tanlashi kerak. Masalan, maktab o‘quvchilariga «Kim bilan birga dars tayyorlashni xohlarding?», «Kim bilan maktab yer uchastkasidagi xasharda yonma-yon turib ishlashni istarding?», mehnat jamoalarida esa «Boshliq tomonidan berilgan muhim topshiriqni ikki kishi bajarishi kerak bo‘lsa, sheriklikka kimni olgan bo‘lardingiz?», talabalarda «Xorijga o‘qishga yuborishsa, guruhdoshlaringdan kimlar senga sherik bo‘lishini istaysan?» kabi savollar bilan murojaat qilinadi. So‘rov anonim bo‘lib, har bir ishtirokchi 3-5 tagacha tanlash huquqiga ega bo‘ladi. Natijalar jadvalga solinib, qayta ishlanadi va hattoki, grafik tarzida chiziladi. Quyida mehnat jamoasida qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan sotsiometrik testdan biri havola etilgan.

Test uchun quyidagi savollarni taklif etish mumkin:

1. Guruhingizdagi odamlar orasidan bevosita doimo u bilan ishlashni xohlagan uch kishining nomini yozing:

1. _____

2. _____

3. _____

2. Siz bilan birga ishlaydigan hamkasblaringizdan kimlar bilan birga bo'sh vaqtingizni o'tkazishni xohlaringiz (uch kishi)

1. _____

2. _____

3. _____

3. Hamkasblaringizdan o'z ishini zo'r mahorat bilan bajaradigan uch kishining nomini yozing:

1. _____

2. _____

3. _____

Metodika guruhdagi odamlar bir-birlarini yaxshi bilgan taqdirdagina o'tkaziladi. Ma'lumotlarni qayta ishlash har bir xodimning to'plagan tanlovlarini sanash va tahlil qilishga asoslanadi. Ular asosida guruhdagi liderni va liderlik stilini aniqlash mumkin.

Sotsiometriya korxonada kadrlar zahirasi shakllantirish, har bir xodimning reytingini aniqlash orqali ularda liderlik sifatlarining borligini o'rganishga imkon beradi. Bu metodni psixolog o'tkazgani ma'quldir.

VII.10. Katta guruhlar psixologiyasi

Katta guruhlar kishilarning shunday birlashmalariki, undagi odamlar soni avvalo ko'pchilikni tashkil etib, ma'lum sinfiy, ilmiy, irqiy, professional belgilar ularning shu guruhga mansubligini ta'minlaydi. Katta guruhlarni tashkil etuvchilar ko'p sonli bo'lganligi va ular xulq-atvorini belgilovchi mexanizmlarning o'ziga xosligi tufayli bo'lsa kerak, sotsial psixologiyada olimlar ko'pincha kichik guruhlarda

ish olib borishini afzal ko'radilar. Lekin katta kishilar uyushmasining psixologiyasini bilish juda katta tarbiyaviy va siyosiy-mafkuraviy ahamiyatga ega. **Bu sohadagi tadqiqotlarning kamligi bir tomondan**, aytib o'tilganidek, ko'pchilikni qamrab olishda qiyinchiliklar bo'lsa, **ikkinchi tomondan**, katta guruhlar psixologiyasini o'rganishga qaratilgan metodik ishlar zahirasining kamligidir. Masalan, ishchilar yoki ziyolilar sinfi psixologiyasi o'rganilishi kerak, deylik. Avvalo o'sha ishchilarning soni ko'p, qolaversa, ishchilarning o'zi turli ishlab chiqarish sharoitlarida ishlayotgan, turli iqlim sharoitlarida yashayotgan, turli millatga mansub kishilardir. Ularning barchasini qamrab oladigan yagona ishonchli metodikani topish masalasi tadqiqotchi oldiga juda jiddiy muammolarni qo'yadi.

Shuning uchun ham har bir katta guruhga taalluqli bo'lgan asosiy yetakchi sifatni topish va shu asosda uning psixologiyasini o'rganish hozircha sotsial psixologiyadagi asosiy metodologik yo'llanma bo'lib kelmoqda. Qolaversa katta guruhlar jamiyatning tarixiy taraqqiyoti mobaynida shakllangan guruhlar bo'lgani uchun ham har qanday guruhni o'rganishdan oldin, xoh bu **sinflar** bo'lsin, xoh **millatlar** yoki **xalqlar psixologiyasi** bo'lsin, uning **hayot tarzi**, unga xos bo'lgan **odatlar, udumdar, an'analar** o'rganiladi. Sotsial psixologik ma'noda, hayot tarzini o'rganish deganda, u yoki bu guruhga taalluqli bo'lgan kishilar o'rtasida amalga oshiriladigan muloqot tiplari, o'zaro munosabatlarda ustun bo'lgan psixologik omillar, qiziqishlar, qadriyatlar, ehtiyojlar va boshqalar nazarda tutiladi. Ana shularning umumiyliigi tufayli har bir shaxsda, ya'ni u yoki bu katta guruhga mansub bo'lgan shaxsda tipik hislatlar shakllanadi.

Masalan, 90-yillarning yoshlariga xos bo'lgan tipik sifatlar ana shu yoshlar o'rtasida keng tarqalgan **urf-odatlar, moda, so'zlashish** xususiyatlari, **qadriyatlar, qiziqishlar** va hokazolar tufayli shakllanadi. Shuning uchun ham 20 yoshli kishining psixologiyasini to'liq ravishda o'rganish uchun undagi bilish jarayonlarining o'ziga xosligi, shaxsi, xarakteri va individual psixologik xususiyatlaridan tashqari, yana unga o'xshash yoshlarda ustun bo'lgan psixologik hislatlarining qanchalik namoyon bo'lishini, u mansub bo'lgan va asosan vaqtini o'tkazadigan guruhlar psixologiyasini, milliy sifatlarini ham nazarda tutish va ularni o'rganish zarur.

VII.11. Etnik guruhlar psixologiyasi

Sotsial psixologiyada katta guruhlar ichida **etnik guruhlar** psixologiyasi, ya'ni **etnopsixologiya** bo'yicha ko'proq tadqiqotlar o'tkazildi. Ayniqsa, hozirgi davrda har bir davlatlar alohida, mustaqil davlat mavqeini olgan, lekin boshqa tomondan qaraganda, hamdo'stlik mamlakatlari ittifoqi sharoitida millatlar o'rtasida muttasil aloqalar mavjudligidan kelib chiqib, milliy psixologiya masalalari kun tartibida avvalgidan ham muhim masala sifatida qo'yilmoqda. Shuning uchun ham katta guruhlar ichida milliy guruhlariga ko'proq e'tibor berishni lozim topdik, bunday e'tiborning yana bir boisi O'zbekistonda bu sohada ayrim tadqiqotlarning o'tkazilganligi, lekin ular ko'p hollarda milliy psixologiya darajasiga olib chiqilmaganligidadir.

Milliy psixologiya nima va uni qanday qilib o'rganish mumkin? Bu hozirda, ya'ni mustaqil O'zbekiston sharoitida ko'pgina tadqiqotchilarni qiziqtirayotgan masaladir. Chunki, davr etnopsixologiyadan shunday empirik ma'lumotlar kutmoqdaki, u faqatgina milliy ongga taalluqli bo'lgan hozirgi va o'tmishdagi holatni emas, balki **millatning ertangi kunini**, uning ongi qaysi tomonga o'zgarishini, millatlararo sodir bo'ladigan jarayonlarni bashorat qilmog'i lozim. Buning uchun esa unga kuchli etnopsixologik nazariya va ishonchli metodlar kerak. O'zbekiston olimlari oxirgi paytlarda masalaning xuddi ana shu tomoniga katta e'tibor bermoqdalar. Chunki sobiq ittifoq sharoitining o'zi ana shunday kuchli nazariyaning bo'lishi uchun anchagina to'g'anoq bo'lgan. Empirik tadqiqotlar esa, avval ta'kidlaganidek, tor guruhlar doirasidan, avvalo, **oilalar doirasidan** chiqmagan edi.

Etnopsixologiya bu psixologiyaning shunday tarmog'iki, u ayrim olingan millatlar psixologiyasidan tashqari, turli xalqlar psixologiyasini, kichik milliy guruhlarini ham o'rganadi. Ma'lumki, bu boradagi birinchi ilmiy tadqiqotlarni **Vilgelm Vundt boshlab bergan edi**. Uning tadqiqotlaridagi «**xalq**» tushunchasi aslida **etnik uyushma** ma'nosida tushuntirilgan edi. Uning fikricha, etnik guruhlar psixologiyasini o'rganish uchun ularning **tilini, odatlarini** va ana shu xalqlarda keng tarqalgan **afsonalar** va **boshqa ong tizimlarini** o'rganish kerak. Shunisi diqqatga sazovorki, Vundtdan keyingi davrda o'tkazilgan muhim tadqiqotlardan biri bizning

o'lkamizda o'tkazilgan bo'lib, uni psixolog **Aleksandr Romanovich Luriya** amalga oshirgan edi. Bu eksperimental tadqiqot bo'lib uni o'tkazishdan asosiy maqsad **Lev Semyonovich Vigotskiyning madaniy tarixiy yondashuv g'oyasini tekshirish edi**. Luriya boshchiligidagi olimlar guruhi revolyutsiya g'alaba qozongan O'zbekiston sharoitida turmush tarzining o'zgarishi bilan o'zbek xalqi psixologiyasining ham o'zgarganligini isbot qildilar.

Asosiy maqsad bilish jarayonlarining o'zgarganligini isbot qilish bo'lsa ham tadqiqotchilar o'z-o'zini anglash va o'z xulq-atvorini analiz qilish borasida ham **uyda o'tiradigan ayollar**, endigina savod olish maqsadida savodxonlik kurslarida o'qiyotgan ayollar hamda pedagogika bilim yurtlarida ta'lim olayotgan qizlar o'rtasidagi farq bor yo'qligini tekshirishdir. Tadqiqot asosan **o'z-o'zini analiz qilish metodi** yordamida o'tkazilgan bo'lib, ayollarga turli savollar orqali o'z shaxsiga xos xususiyatlarni, o'zidagi yetakchi sifatlarni aniqlash va ba'zi psixologik holatlarga baho berish topshirig'i berildi. Lekin javoblarning sifati, to'liqligi ayollarning bilim saviyasiga va sotsial aloqalar tizimida tutgan o'rniga bog'liq bo'lib chiqdi. Uyda o'tirgan ayollar ko'p hollarda qo'yilgan savolni ham anglamasliklari ma'lum bo'ldi. Luriya shu narsaga iqror bo'ldiki, o'zbeklardagi ong asosan boshqa odamlar fikriga bog'liq ekanligi, tobelik psixologiyasi ko'pligini aniqladi. Masalan, ayollarga o'zidagi yomon sifatlarni aytish topshirig'i berilganda, ular yomon qo'shnilarni ko'rsatishar va umuman o'z-o'zini baholashdan ko'ra boshqalarni baholash, ularga sifat xarakteristikalari berish ancha yengil tuyuladi.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, A.R.Luriyaning asosiy maqsadi milliy psixologik xususiyatlarni o'rganishda tarixiy tayanish lozimligini isbotlash hamda milliy psixologiyaning hayot tarziga, shaxsning jamiyatda kishilar munosabatlari tizimida tutgan o'rniga bevosita bog'liqligini isbot qilish edi. Lekin tadqiqotning ahamiyati shunda ediki, unda birinchi marta milliy psixologiyani o'rganishga yordam beruvchi metodlar va metodologik prinsiplar sanab ko'rildi. To'g'ri, bu tadqiqotda to'plangan ma'lumotlar va ilmiy xulosalar bilan bugungi kunda kelishib bo'lmaydi. Qolaversa, bu konsepsiyaning o'zi necha bor qayta ishlovni talab qildi, lekin milliy psixologiya bo'yicha o'tkazilgan kross tadqiqot sifatida uning ahamiyati kattadir.

Qo'llangan piktogramma «so'z portretlarini», o'z-o'zini analiz qilish metodlarini hozirgi zamonaviy tadqiqotlarda ham faqat yangicha metodologik prinsiplarda qo'llash mumkin.

Oxirgi yillarda chet el va sobiq ittifoq olimlarining tadqiqotlarini umumlashtirib, etnopsixologik ishlarga yagona ilmiy yondashuvni topish harakatlari sezilmoqda. Bu sohada mashhur rus etnografi va psixologi Yu.Bromley olib borgan ishlar, uning laboratoriyasida to'plangan ma'lumotlar misol bo'lishi mumkin. Yulian Vladimirovich Bromley etnik guruhlar psixologiyasida **ikki** tomonni farq qiladi:

1. Psixik asos – etnik xarakter, temperament milliy an'analar va odatlardan iborat barqaror qism.

2. Hissiyot sohasi etnik yoki milliy his kechinmalarini o'z ichiga olgan dinamik qism.

Lekin tadqiqotchilar nima uchundir, milliy psixologiya masalalari bilan shug'ullanishganda, milliy qirralar yoki sifatlarni aniqlash bilan shug'ullanadilar, u yoki bu millatlargagina xos bo'lgan qirralarni topishga urinadilar, lekin fan-texnika rivojlangan, millatlar uyg'unligi, millatlarning doimiy o'zaro hamkorligi va muloqoti sharoitida, aralash nikohlar keng tarqalgan sharoitda faqat u yoki bu millatga xos bo'lgan qirralar haqida gapirish juda qiyin. Masalan, o'zbeklar o'rtasida o'tkazilgan kichik tadqiqot natijasida shu narsa ma'lum bo'ldiki, go'yoki mehmondo'stlik, kamtarlik, samimiylik kabi ijobiy sifatlar o'zbek xalqigagina xos emish. To'g'ri, bu sifatlar albatta o'zbeklarda bor. Lekin aynan shu sifatlar boshqa millatlar vakillarida yo'q deyishga haqqimiz yo'q.

Xuddi har bir shaxs ongida turlicha stereotiplar ya'ni o'rnashib qolgan obrazlar bo'lganidek, har bir oila, yaqin oshna og'aynilar va o'ziga o'xshash shaxslar bilan muloqot jarayonida u yoki bu millat vakilida ham o'z millatiga xos bo'lgan sifatlar haqida stereotiplar paydo bo'lib, ular ongida o'rnashib boradi. Bunday stereotiplar o'z millatiga va boshqa xalqlarga nisbatan bo'lib, boshqalar haqidagi tasavvurlar ancha sodda, yuzaki, mazmunan tor bo'ladi. Shunday tasavvurlar asosida boshqa millatlarga nisbatan yoqtirish (simpatiya) yoki yoqtirmaslik (antipatiya) va befarqlik munosabatlari shakllanadi. O'z millati haqidagi tasavvur va stereotiplar esa milliy

«etnotsentrizm» hissini shakllantiradiki, shu his tufayli shu milliy guruh vakillarida boshqa millatlarga nisbatan irratsional munosabatlar paydo bo'lishi, bu esa milliy adovatlarni keltirib chiqarishi mumkin. Bu borada, sotsial psixologlar va mafkurachilar oldida turgan muammolardan biri millat vakillarida milliy g'ururning qay darajada bo'lishini aniqlash muammosi turadi. Chunki ko'pincha milliy g'urur tufayli ayrim shaxslarda boshqa millatlarni mensimaslik, ulardagi g'urur yoki milliy hislarni tan olmaslik hollari kuzatilmoqda.

Umuman, milliy adovatlar asosida yotgan etnotsentrizm va milliy g'ururning salbiy ko'rinishlari boshqa millatlarning tarixini, ularning an'analarini, tili va hokazolarini bilmaslikdan kelib chiqadi. Milliy psixologiya bo'yicha o'tkazilishi lozim bo'lgan tadqiqotlarning maqsadlaridan biri ham boshqa millatlar psixologiyasini bilib, uni boshqa millatlarga yetkazish tufayli, har bir millat vakiliga hurmat-izzat hissini kuchaytirishdir. Chunki, o'zini hurmat qilmagan odam boshqani hurmat qilmaydi. Fan jamiyatga shunday etnografik va etnopsixologik ma'lumotlar majmuini yaratib berishi lozimki, undagi ma'lumotlar asosida katta guruh hisoblangan millatlar psixologiyasini ham boshqarish mumkin bo'lsin.

Tayanch tushunchalar: shartli, real, katta, kichik, uyushgan, uyushmagan, funksiya, parametr, struktura, maqsad, faoliyat, muloqot, diada, konformizm, referent, normativ, qiyosiy, negativ, agregatsiya, avtonomlik, uyushganlik, o'zaro moslik, etnik, etnotsentrizm,.

Mavzuni o'zlashtirish uchun savollar

1. Guruhlarning turlarini izohlab bering.
2. G.Andreyeva guruhlarni qanday klassifikatsiyasini talqin etgan?
3. Guruh bo'lishi uchun qanday talablarga javob berishi kerak?
4. Sotsial psixologiyada qaysi guruhlar bo'yicha ko'proq tadqiqot ishlari olib borilgan?
5. Guruhlardagi dinamik jarayonlarga nimalar kiradi?
6. Fasilitatsiya va ingibitsiya tushunchalariga izoh bering.
7. Konformizm deganda nimani tushunasiz?

8. Har bir shaxning fe'l-atvoriga nimalar ta'sir ko'rsatadi?
9. Referent guruh haqida gapirib bering.
10. R.S.Nemov qanday kichik sotsial guruhlarning klassifikatsiyasini taklif etgan?
11. Guruh o'lchamlari va uning tizimi haqida fikr yuriting.
12. Kichik guruhning chegarasi masalasida olimlarning fikrlarini bayon qiling.
13. Psixologik moslik deganda nimani tushundingiz?
14. Guruhiy qarorlar qabul qilishda o'zaro ta'sir masalasini tushuntirib bering.
15. Katta guruhlarni tadqiq qilish bo'yicha ishlarning ozligiga sabab nima?

Bilimlarni mustahkamlash uchun test savollari

1. Kimning kitobidagi klassifikatsiya guruhlarning asosiy turlari haqida ma'lumotlar berilgan?

- A) Andreyeva
- B) Karnegi
- C) Freyd
- D) Nurrey

2. Andreyeva har qanday kishilar guruhini qanday guruhlarga ajratadi?

- A) Katta va kichik
- B) Real va tabiiy
- C) Shartli va real
- D) Shartli va tabiiy

3. Qaysi guruh o'z ichida endi shakllanayotgan diffuz va taraqqiyotning yuksak pog'onasiga ko'tarila olgan jamoa turlariga bo'linadi?

- A) Uyushgan
- B) Uyushmagan
- C) Katta
- D) Kichik

4. Qanday guruhlardagi odamlar soni avvalo ko‘pchilikni tashkil etib, ma’lum sinfiy, ilmiy, irqiy, professional belgilar ularning shu guruhga mansubligini ta’minlaydi?

- A) Katta
- B) Kichik
- C) Real
- D) Uyushgan

5. Sotsial psixologiyada katta guruhlar ichida qaysi yo‘nalish bo‘yicha nisbatan ko‘proq tadqiqotlar o‘tkaziladi?

- A) Shaxs psixologiyasi
- B) Omma psixologiyasi
- C) Sinflar psixologiyasi
- D) Etnik guruhlar psixologiyasi

6. L.S.Vigotskiyning madaniy tarixiy yondashuv g‘oyasini tekshirish maqsadida birinchi bo‘lib kim tadqiqot o‘tkazgan?

- A) V.Vundt
- B) A.Luriya
- C) G.Andreyeva
- D) Nurrey

7. Kimning tadqiqotidan asosiy maqsad milliy psixologik xususiyatlarni o‘rganishda tarixiy tayanish lozimligini isbotlash hamda milliy psixologiyaning hayot tarziga, shaxsning jamiyatda kishilar munosabatlari tizimida tutgan o‘rniga bevosita bog‘liqligini isbot qilish edi?

- A) V.Vundt
- B) A.Luriya
- C) G.Andreyeva
- D) Nurrey

8. Kim etnik guruhlar psixologiyasida psixik asos va dinamik qismni farq qiladi?

- A) Vundt

- B) Luriya
- C) Vigotskiy
- D) Bromley

9. Qaysi guruhlarni o'rgangan olimlar oldiga qo'yilgan asosiy muammo individ yakka holda yoki guruhda yaxshi ishlashi, boshqalarning uning ishiga ta'siri haqidagi savollarga javob topish edi?

- A) Katta
- B) Kichik
- C) Uyushgan
- D) Real

10. Boshqalar bilan hamkorlikda bo'lgan individ faoliyatining tezligi oshishi va harakatlari sifati pasayishi haqida kimning tadqiqotlarida qayd etilmagan?

- A) Triplett
- B) Mayer
- C) Bexterev
- D) Luriya

11. Yaqin muhitning ta'siri nima deb ataladi?

- A) Mikro bosqichdagi ta'sir
- B) Makro bosqichdagi ta'sir
- C) Ma'naviy ta'sir
- D) To'g'ri javob yo'q.

12. Ma'lum sotsial faoliyat maqsadlari asosida to'plangan, muloqot ehtiyojlari qondiriladigan insonlar uyushmasi – bu...

- A) Omma
- B) Xalq
- C) Jamoa
- D) Guruh

13. Amerikalik sotsiologlar referent guruhlarning bir necha turlarini farqlaydilar. Ushbu guruhga kirmaydigan turni toping.

- A) Normativ

- B) Qiyoslash
- C) Negativ
- D) Pozitiv

14. ... – shunday guruhki, shaxs o‘sha guruhga kirishni, uning ma’qullashiga muhtoj bo‘lmaydi, lekin o‘z harakatlarini yo‘lga solishda unga asoslanadi va korreksiya qiladi.

- A) Normativ
- B) Qiyoslash
- C) Negativ
- D) To‘g‘ri javob yo‘q

15. Agar odamlar ko‘chada tasodifiy hodisaning tomoshabini bo‘lib turishgan bo‘lsa, ular psixologiya tilida nima deb ataladi?

- A) Xalq
- B) Agregatsiya
- C) Olomon
- D) B va C javoblar

16. Qaysi olim hamkorlikning darajasi mezoniga ko‘ra guruhlarni birlamchi va ikkilamchi turlarga bo‘lib o‘rganishni taklif etadi?

- A) R.S.Nemov
- B) Ch.Kuli
- C) Ya.Shepanskiy
- D) To‘g‘ri javob yo‘q.

17. Guruhning boshlang‘ich nuqtasi sifatida miqdor jihatdan olinadigan ikki kishi nima deb ataladi?

- A) Diada
- B) Dublikat
- C) Oila
- D) Ota-ona

18. Guruh a'zolari sifatleri va qarashlarining aynanligi emas, balki ular ayrim sifatlarining mos kelishi, qolganlarining kerak bo'lsa, tafovut qilishi deganda nima tushuniladi?

- A) Guruhbozlik
- B) Psixologik moslik
- C) Komformizm
- D) Uyushganlik

19. Moslikning mezoni sifatida kim faoliyat natijalari, a'zolarning sarflagan kuch-energiyalari, faoliyatdan qoniqishni keltiradi?

- A) R.S.Nemov
- B) Ch.Kuli
- C) N.Obozov
- D) G.Andreyeva

20. Guruhiy qarorlar qabul qilishda o'zaro ta'sirni kim o'rgangan?

- A) N.Obozov
- B) Ch.Kuli
- C) Nemov
- D) T.Mitchell

VIII BOB. OLOMON PSIXOLOGIYASI

VIII.1. Olomonning umumiy tavsifi. Uning ruhiy birdamlik qonuni

Olomon deganda oddiy ma'noda millati, kasbi, jinsi va to'planish sabablaridan qat'iy nazar bir joyga yig'ilgan individlar tushuniladi. Psixologik nuqtai nazardan qaraganda esa, bu so'zning ma'nosi umuman boshqacha. Ma'lum sharoitlarda – va faqat aynan shu sharoitlarda – odamlar yig'ini umuman yangi xulq-atvor qirralarini namoyon qiladi. Olomonning xulq-atvori olomondagi alohida olingan har bir individning xulq-atvoridan o'zgachadir. Fikrlovchi shaxs yo'qolib ketadi, olomonning ichidagi odamlarning hissiyotlari va g'oyalari bitta yo'nalishga kiradi.

Jamoa joni(ruhi) paydo bo'ladi. Albatta bu jonning umri qisqa, lekin juda ham aniq xarakterga ega. Bunday xaloyiqni uyushgan olomon deb atash mumkin. Bu olomon yagona ruhga bo'ysunadi. Hech qanday ikkilanishlarsiz aytish mumkinki, bir joyga to'planib qolgan alohida ko'p individlar uyushgan olomon fe'lini namoyon qilmaydi: buning uchun qandaydir **ruhlantiruvchi ta'sir** kerak. **Fikrlovchi shaxsning yo'qolib ketishi va odamlarning his va fikrlari bir aniq yo'nalishga kirishi** olomoni xarakterlovchi bosh qirrasidir.



Alohida-alohida, bir-birini tanimaydigan minglab individlar ma'lum bir vaqtda ma'lum sabablarga ko'ra, aytaylik **milliy bayram** sababiga ko'ra yig'ilib, ruhlangan olomon kayfiyatini namoyish qilishi mumkin. Bu odamlar olomon fe'lini ko'rsatishi uchun qandaydir ta'sir va tasodif yetarlidir. Ba'zan yuzlab odamlar bir joyga to'planib, sharoit bo'lmaganligi sababli olomon bo'lolmaganligi holda, ba'zan oltita odamdan ham bir ruhdagi olomon paydo bo'lishi mumkin. Boshqa tomondan, ma'lum ta'sirlarning ostida ba'zan butun xalq, olomon so'zining ma'nosini tushunmay turib, o'zi olomonga aylanishi mumkin.



Gyustav Lebonning aytishicha, odam olomon tarkibida o'ziga xosligini yo'qotadi, psixik ustanovka shaklidagi har bir odamda turlicha rivojlangan sotsial ong, sotsial qadriyatlar, normalar va axloqiy cheklashlar o'chadi. Ongsiz poydevor, har bir odamda uning irqidan, millatidan, jinsidan, yoshidan qat'iy nazar bir xil mazmunga ega bo'lgan hayvoniy mayllar to'plami, ong osti ochiladi, harakatga keladi. Eng asosiysi, har bir olomon ishtirokchisining ongsizlik sohasi yagona bir strukturaga birlashadi.

Buning natijasida, **birinchidan** ko'pchilik orasida ekanligi tufayli odam o'zida yengib bo'lmaz qudrat hissini tuyadi, odamni alohida holatda jilovlab turadigan mas'uliyat kuchi o'chadi.

Ikkinchidan olomon tarkibida yuqumlilik shu qadar yuqori bo'ladiki u har bir olomon ishtirokchisiga gipnotik ta'sir ko'rsatadi, har bir harakat, hissiyot shu qadar kuchli yuqadiki, odam osongina o'z shaxsiy manfaatlarini olomon uchun qurbon qiladi.

Uchinchidan olomon tarkibida odamning ta'sirga beriluvchanligi ortadi, ikkinchi shart yuqumlilik esa ta'sirga beriluvchanlikning ortishi tufayli paydo bo'ladi.

Bir so'z bilan aytganda, olomon tarkibida ongli shaxs yo'qoladi, ongsiz individ ustunlik qila boshlaydi, ta'sirga beriluvchanlik oqibatida butun olomonning fikri va hissiyoti bitta yo'nalishga birlashadi, har qanday yuqtirilgan g'oyani beto'xtov amalga oshirish tendensiyasi paydo bo'ladi. Odam o'z-o'ziga ega bo'lmay qoladi, u irodasiz avtomatga aylanadi.

Olomon psixologiyasining yana bir xususiyati shuki, olomon uchun mantiq mantiqsizlikdan iborat. Uning uchun shubha ham, ishonchsizlik ham yo'qoladi. Har qanday obraz assotsiativ – har bir odamda bir-biriga bog'liq ravishda paydo bo'ladi, har qanday shubha ishonchga aylanadi, har qanday antipatiya – salbiy hissiyot, nafrat tug'diradi.



Olomonning mantiqsizligi, ishonuvchanligi uning kuchli avtoritetga, alohida obro'li shaxsga bo'ysunuvchanligiga sabab bo'ladi. Olomon kuchnigina hurmat qiladi, o'z qahramonidan qudratni, hatto kuch ishlatishni talab qiladi. Bu yerda go'yoki

inson psixikasiga xos bo'lgan ikki qarama-qarshi (ambivalent) hissiyot – mazoxizm (azoblanish) va sadizm (azoblash, shafqatsizlik) baravar uyg'onadi. Olomon o'zi shafqatsiz, lekin ayni paytda u o'ziga egalik qilishlarini, uni boshqarishlarini xohlaydi.

O'zining qoloqligi tufayli olomon har qanday yangilikdan nafratlanadi va har qanday an'anaga bo'yin egadi. Olomonga ta'sir ko'rsatishni xohlagan odam o'z fikrlarining mantiqiyiligini o'ylamasligi, o'z fikrini yorqin ranglar, ehtiroslar bilan ifodalashi va har doim bitta fikrni takrorlashiga to'g'ri keladi. Aqlga emas ehtirosga murojaat qilish, ilohiyot pardasiga o'ralgan g'ayritabiiylik olomoni tiz cho'kishga majbur qiladi.

Uilyam Mak-Dugallning ta'kidlashicha, olomon psixologiyasining eng hayron qolarli belgisi uning affektivligi, qahr g'azabining junbushga kelishidir. Qonuniyatga ko'ra g'azablangan odamni kuzatib turgan odamda ham o'z-o'zidan o'xshash holat vujudga keladi va induksiya qonuniga ko'ra individdan individga o'tgan sayin g'azab hissi kuchayib boraveradi. Olomon affekti (g'azabi) shu darajaga yetadiki, u hech qanday sotsial norma, jilovlovchi omilni nazar-pisand qilmay qo'yadi. Olomonning har bir a'zosi boshqalarga taqlid qilishga, ularga jo'rovoz bo'lib hayqirishga harakat qilaveradi.

Mak-Dugallning fikricha olomon g'azabining ortib borishiga yuqumlilik va taqlidchanlikdan tashqari yana olomonning alohida har bir odamda cheksiz qudrat va bartaraf qilib bo'lmaydigan xavf taassurotini uyg'otishi ham sabab bo'ladi. Ana shu qonuniyatlarni yaxshi bilgan terrorizm nazariyotchi va amaliyotchilari shafqatsiz terroristik aktlarni amalga oshirishda olomondan ustalik bilan foydalanmoqdalar, do'ppi tor kelib, maqsad amalga oshmay qolsa olomoni o'z maqsadlari yo'lida qurbon qilib, tinch aholiga o'q uzishdi, deb ko'z yoshi to'kishga ham zamin tayyorlab qo'yishmoqda.

VIII.2. «Olomon» tushunchasi va uning turlari

«Olomon» atamasi sotsial psixologiyaga XIX asrning oxiri va XX asrning boshida yuz bergan ommaning qudratli inqilobiy ko'tarilishi davrida kirib keldi.

O‘z tabiatiga ko‘ra olomon harakatdagi, shuningdek, *tajovuzkor*, *qutqarilayotgan*, *manfaatparast*, *ekstatik* (masalan, pir, aytaylik mashhur jaz muxlislarining diniy mutaassibliyi (fanatikligi) yoki aqlsizligi tufayli yuzaga keladigan olomon) turlarga bo‘linadi. Mazkur tasnifning muallifi psixolog Yu.A.Sherkovin ta’kidlaganidek, bunday ajratish shartlidir. Olomonning bir turi ayni vaqtda boshqasining jihatlariga ega bo‘lishi va yangi turiga aylanishi mumkin¹.

Sobiq Ittifoq sotsial psixologlari (B.F.Porshnev, B.D.Parigin, Yu.A.Sherkovin, N.F.Fedenko va boshqalar)ning ilmiy ishlarini tahlil qilish asosida olomonning bir qator psixologik xususiyatlarini ko‘rsatish mumkin.

Olomonning eng muhim farqli jihati uni tashkil etuvchi odamlar tarkibining tasodifiy xususiyatlaridir. Bu, albatta, olomonning yuzaga kelishi sotsial hodisalarning sabab-oqibatlarini doirasidan chetga chiqishini bildirmaydi. Olomonning dastlabki o‘zagi oqilona mulohazalar ta’sirida shakllanishi va o‘z oldiga juda aniq maqsadlar qo‘yishi mumkin. Biroq o‘zakning bundan keyingi rivojlanishi shiddat bilan va o‘z-o‘zidan yuz beradi. Olomon bungacha bir-birini mutlaqo tanimagan, umumiy tomonlariga ega bo‘lmagan odamlarni o‘z ichiga olib, o‘sib boradi.

Bunga ishonch hosil qilish uchun spirtli ichimlik iste’mol qilgan va bezorilik qilayotgan o‘smirlar olomoniga murojaat etishning o‘zi yetarli. Bunday olomon tarkibida uni jipslashtirish bo‘yicha faol harakat qiluvchi va sekin-asta uning xatti-harakatini yo‘naltiruvchi *boshlovchilar* ajralib turadi. Bular jamiyatda o‘rnatilgan axloq qoidalarini tan olmaydigan, axloqi buzilgan odamlardir. O‘z qadriyatlarini olomon harakatlarining yo‘nalishi bilan *birday ko‘ruvchi* olomon ishtirokchilari ulardan ajralib turadi. Masalan, ba’zan olomonning tajovuzkor harakatlari qaratilgan ob’yektdan alamzada bo‘lib yurgan odamlar ham guruhiy tartibbuzarliklarga tortiladilar. Ular boshlovchi emas, ammo olomonning ta’sir doirasida qolib, unda faol ishtirok etadilar. Olomon ichida unga faqat o‘z «bebosh fe’lini» ko‘rsatib qo‘yish, o‘zining shafqatsizlikdan huzur qiladigan impulsini chiqarish imkoniyati paydo bo‘lgani tufayligina olomonga qo‘shilgan *tajovuzkor* shaxslar ayniqsa katta xavf

¹ Социальная психология: Краткий очерк / Под общ. ред. Г. П. Предвечного и Ю. А. Шерковина. – М., 1995. – С. 289–290.

tugʻdiradi. Odatda, ular eng ogʻir harakatlarni sodir etadilar.

Guruhiy tartibbuzarlik ishtirokchilari orasida *adashganlari* ham mavjud. Chunki ular vaziyatni xato, adolat prinsipini notoʻgʻri tushunganligi tufayli olomonga kirib qoladilar. Bunday insonning xulqini baholashda uning obʻyektiv oqibatlarini va subʻyektiv jihatlarini farqlash zarur. Obʻyektiv jihatdan u guruhiy tartibbuzarlik ishtirokchisi boʻlib qoladi, subʻyektiv jihatdan esa u oʻzini jamiyatga qarshi unsur deb hisoblamaydi.

Olomonga, shuningdek *obivatellar* (tasodifiy qoʻshilib qolganlar) ham kiradi. Ular katta faollik koʻrsatmaydilar, ularni sport sharhlovchilari aytganlaridek, hayajonga soluvchi tomosha sifatidagi tartibbuzarlik oʻziga jalb qiladi. Bu tomosha goʻyoki ularning bir xil va zerikarli, bemaʼni tirikchiligiga qandaydir yangilik kiritadi. Guruhiy tartibbuzarliklarda umumiy kayfiyatga beriluvchan, stixiyali hodisalar hukmiga oʻzini qarshiliksiz berib yuboradigan oʻta *taʼsirchan* odamlar ham ishtirok etadilar. Nihoyat, olomonga tashqaridan (ichki pozitsiyasi nuqtai nazaridan) kuzatib turadigan, voqealarning borishiga aralashmaydigan oddiygina *tekin tomoshabinlar* ham kiradi. Biroq ularning hozir boʻlishi ommaviylikni oshiradi, olomon stixiyasining odamlar xatti-harakatiga taʼsirini kuchaytiradi.

Demak, yuqorida taʼkidlanganidek, olomonning tasodifiy tarkibi – uning oʻziga xos psixologik xususiyatlaridan biri boʻlib, buni guruhiy tartibbuzarliklarga qarshi kurash choralarini koʻrishda inobatga olmaslik mumkin emas.

Olomonning keyingi xususiyati odamlar *xatti-harakatining bir xilligini belgilovchi* sotsial-psixologik hodisalarning oʻziga xosligida namoyon boʻladi. Maʼlumki, jamoada bir xildagi xatti-harakat ongli ravishda qoʻyilgan va barcha eʼtirof etgan hamda ijobiy sotsial ahamiyatga ega boʻlgan qadriyatlarning umumiyligi bilan taʼminlanadi. Olomon esa asosan odamlarning bunday umumiylikni norozilik obʻyektiga qarshi qoʻyish evaziga yaratiladi. B.F.Porshnev taʼkidlaganidek, olomonni uning «qarshiligi», «ularga» qarshiligi umumiylikka aylantiradi.

Olomonning keyingi xususiyati – bu *hissiy rezonans* deb atash mumkin boʻlgan oʻziga xos sotsial psixologik hodisaning amal qilishi sanaladi. Guruhiy tartibbuzarlikda ishtirok etuvchi odamlar nafaqat oddiygina bir-biri bilan yonma-yon

keladi, balki atrofdagilarni qo'zg'atadilar va o'zlari ham ulardan ta'sirlanadilar. Bir kishining olgan qo'zg'alishi, boshqasining idrok etish ob'yektiga aylanib, uning qo'zg'alishini yanada kuchaytiradi va bu hol ong tomonidan nazorat qilinishi qiyin bo'lgan hissiy portlashgacha borishi mumkin.

Olomon sodir bo'lgan voqea va hodisaga qarab, *quyidagi turlarga* bo'linadi:

1) *to'satdan yuzaga kelgan olomon;*

2) *ekspressiv olomon;*

3) *konvensial olomon;*

4) *harakatdagi olomon.*

To'satdan yuzaga kelgan olomon birdan to'planadi, voqea-hodisaning mohiyatini tushunishni xohlaydi.

Ekspressiv olomonga to'y-hasham, xudoyi va janozalardagi olomon, xalq kiradi.

Konvensial olomonga ommaviy sport tadbirlari, masalan, futbol uchrashuvlariga yig'ilgan odamlar kiradi. Ushbu toifadagi olomonning o'ziga xosligi shundaki, ko'p hollarda ularning axloqi ma'lum qolipdan chiqib ketadi. Bu ularning baqiriqlari, qayg'urishlari, quvonganlarida ko'rinadi.

Harakatdagi olomon ko'pincha qo'zg'olonchi-ashaddiy olomon deb ataladi. Chunki olomon qo'zg'olon orqali o'z niyatini amalga oshiradi. Ashaddiy olomon hamma yoqni buzadi, sindiradi, o't yoqadi, bu bilan olomonning o'zi ham vahimaga tushadi. Bunga Donbasdagi shaxtyorlar harakatini, Bryansk va Brestdagi o'qituvchilar harakatini misol qilishimiz mumkin.

Olomon ham o'z tarkibiga ega, masalan:

1) adashib qo'shilib qolgan shaxslar;

2) ashaddiy harakatdagi tajovuzkor (fanatik) shaxslar;

3) olomon harakatini qo'llab-quvvatlaydigan shaxslar;

4) boshlovchilar (ya'ni, o't yoquvchilar).

Adashib qo'shilib qolgan shaxslar, ya'ni bunda ayrim shaxslar o'zlari bilmagan holda shu oqimga qo'shilib ketadilar va olomoni to'ldiradi.

Olomon tarkibidagi eng qo'rqinchli shaxslar *ashaddiy harakatdagi tajovuzkor (fanatik)* shaxslar bo'lib, ular o'z axloqini ko'z-ko'z qiladilar.

Olomon harakatini qo'llab-quvvatlaydigan shaxslarning olomon tarkibida bevosita ishtiroki deyarli kamdan kam hollarda bo'ladi.

Boshlovchilar (ya'ni, o't yoquvchilar) olomonning axloqiy xatti-harakatini izdan chiqaradi va bir yo'nalishga qaratadi. Bunday shaxslar o'zlari hech qanday ishni amalga oshirmaydi, ishni boshlab keyin olomon orasidan qochadilar.

VIII.3. Olomoni harakatga keltiruvchi psixologik mexanizmlar

Olomon shakllanishining ilk belgilaridan guruhiiy tartibbuzarlikkacha bir qancha bosqichlar bosib o'tiladi.

Bahonaning *yuzaga kelishini* guruhiiy tartibbuzarliklarning boshlanishi deb hisoblash mumkin. Odamlarning e'tiborini tortgan va ular noto'g'ri talqin etgan har qanday voqea yoki fakt ana shunday bahona bo'lishi mumkin. Tadqiqotlarning ko'rsatishicha, bahonalar nihoyatda xilma-xil bo'lishi mumkin.

Bahonalarning kelib chiqishida mish-mish gaplarning ham ta'siri katta bo'ladi. Mish-mish gaplar o'zi mohiyatiga ko'ra ma'lum ma'noda tasdiqlangan yoki hech kim tomonidan tasdiqlanmagan xabar (ma'lum ma'noda) vazifasini bajaradi, shuning uchun ham ba'zi shaxslar hayotida va jamiyatda ma'lum bir sotsial psixologik muammolarni yuzaga keltiradi. Natijada jamiyatni, insonlar turmush tarzini o'zgartirib yuborish xususiyatiga ega.

Shu nuqtai nazardan mish-mishlar sotsial psixologik xususiyatga ega bo'lib, jamoatchilik ongiga salbiy ta'sir ko'rsatadi va jamiyatga zid bo'lgan ommaviy tartibbuzarliklarni keltirib chiqaradi. Bu esa ichki ishlar idoralari xodimlari faoliyatini yanada murakkablashtiradi.

Ko'p hollarda shaxslarda kerakli ma'lumotlarning yetishmasligi oqibatida mish-mishlarning kelib chiqishi va tarqalishiga sabab bo'ladi. Natijada shaxslarning ma'lum muammo, voqea-hodisaga nisbatan talab, ehtiyoj va qiziqishlari qondirilmaydi. Bu esa, o'z navbatida, xabarlarni tarqatishda ularga emotsional tus beradi, ularni bo'rttirish va boyitishga olib keladi. Mish-mishlar ma'lum maqsad va manfaatlarga qaratilib, sotsial, iqtisodiy, madaniy-maishiy yo'nalishlarda namoyon bo'lib g'arazli niyatlarda tarqatiladi. Mish-mishlarni tarqatuvchi shaxslarning

psixologik xususiyatiga nazar tashlaydigan bo'lsak, ular hamisha xabarlarini ishonchli manbalardan olingan deb aytishadi va odamlarga o'zlarini bilag'on qilib ko'rsatishga harakat qiladilar. Bunday shaxslar odamlardagi hayajonni ko'rib, voqealarga yanada ko'proq emotsional tus berishga intilishadi. Oqibatda, ba'zan mish-mishlarning kuchi haqiqiy axborotdan ham kuchli bo'ladi.

Mish-mishlarni quyidagicha tavsiflash maqsadga muvofiq:

- 1) hodisalarni tasvirlash;
- 2) emotsional ton (tus) berish, izohlash;
- 3) mish-mish gaplarning ta'sir kuchidan foydalanish.

Mish-mishlarning tarqalishi va e'tirozli holatlarning paydo bo'lishiga manfaatli shaxslarning xatti-harakatlari va xabarlari sabab bo'lib, hududdagi operativ vaziyatga ham o'z ta'sirini ko'rsatadi. Demak, mish-mishlar ba'zi shaxslar tomonidan o'ylab topilgan bo'lib, ma'lum bir voqea, hodisalar haqida bir kishi tomonidan ikkinchi bir kishiga yetkaziladigan og'zaki xabardir.

Mish-mishlar o'z mazmun-mohiyatiga ko'ra uch turga bo'linadi:

- 1) umuman haqiqatga to'g'ri kelmaydigan mish-mish gaplar;
- 2) ma'lum ma'noda tasdiqlangan (haqiqat bor) mish-mish gaplar;
- 3) to'liq ma'noda haqiqatga ega bo'lgan mish-mish gaplar.

Umuman, mish-mishlar «mish» qo'shilganligi sababli, o'z xarakteriga ko'ra to'g'ri, aynan haqiqatning o'zini tashkil qilmaydi, bir shaxsdan ikkinchi shaxsga yoki bir guruhdan ikkinchi guruhga o'tishda qandaydir qo'shimcha o'zgarishlar kiritiladi.

Mish-mishlar agressiv (ashaddiy) bo'lishi mumkin (1992-yildagi talabalar shaharchasida bo'lgan voqeani ko'z oldingizga keltiring). Bunday vaziyatda odamlar, ayniqsa kichik-kichik guruhlardagi odamlar hech narsaga ishonmaydi.

Mish-mishlar o'z xususiyatiga ko'ra maxsus tashkil etilishi va birdan yuzaga kelishi mumkin.

Maxsus tashkil etilgan mish-mishlardan ko'zlangan maqsad yashirin motivlar, g'arazli niyatlar bilan amalga oshiriladi.

Mish-mishlar muayyan psixologik sharoitlar mavjud bo'lganda yuzaga keladi. Ushbu sharoitlarni tushunish uchun taniqli olim P.V.Simonov his-hayajonlar

(emotsiyalar) axborot nazariyasiga qiziqish uygʻotadi¹, degan fikrni bayon qilgan.

Ushbu nazariyaga koʻra, vaqtning har bir muayyan daqiqasida dolzarb boʻlgan ehtiyojlarni qanoatlantirish uchun inson aniq harakatlar sodir etishi kerak. Lekin u doimiy ravishda oʻzgarib turuvchi ehtimolli muhitda harakat qilgani bois, qoʻyilgan maqsadga erishish uchun unga ehtiyojlarini qanoatlantiruvchi narsalar va shart-sharoitlar haqidagi axborot kerak boʻladi. Ehtiyoj qanchalik keskin boʻlsa, insonning zarur axborotni izlashga qaratilgan faoliyati ham shunchalik jadal boʻladi. Agar inson xatti-harakati (xulqi)ni tashkil qilish uchun yetarli axborotga ega boʻlsa, his-tuygʻular (emotsiyalar) amalda yuzaga kelmaydi, yuzaga kelsa ham juda sust koʻrinishga ega boʻladi. P.V.Simonovning yozishicha, agar raqibni yengish usullari yaxshi maʼlum boʻlsa va unga qarshi kurashayotganlar ana shu usullarni bilsalar, gʻazabning keragi yoʻq; himoya vositalari mavjud boʻlsa va samaradorligi shubha uygʻotmasa, tashvish va qoʻrquv uchun sabab yoʻq. Inson tasarrufidagi axborotning yetarli emasligi natijasida aniq vaziyatlarda salbiy hissiyotlar yuzaga keladi. Axborotga boʻlgan ehtiyojni qanoatlantirish uchun zarur deb bashorat qilinayotgan hajmdan ortib ketganida insonni ijobiy hissiyotlar chulgʻab oladi.

P.V.Simonov matematik simvollardan foydalanib quyidagi ifodani keltiradi:

$$\mathbf{H}=\mathbf{E}(\mathbf{Z}-\mathbf{M})$$

Bunda **H** – hissiyotlar; **E** – ehtiyojlar; **Z** – ehtiyojni qondirish xulqini tashkil qilish uchun zarur hisoblangan axborot; **M** – mavjud boʻlgan, yaʼni inson tasarrufidagi axborot.

Bizning mavzuga tatbiq etganda mazkur ifodani quyidagicha talqin etish mumkin: agar ehtiyoj nolga teng boʻlsa (masalan, u yoki bu voqea insonni aslo qiziqtirmasa), u holda shaxs axborotga muhtoj boʻlmaydi va bu masalada hissiyotlar yuzaga kelmaydi. Binobarin, mish-mishlar yuzaga kelishi uchun ham asos boʻlmaydi. Ehtiyojni qondirish uchun zarur deb hisoblangan axborot (**Z**) mavjud axborot (**M**)ga teng boʻlganida ham ular yuzaga kelmaydi. Agar muayyan sababga koʻra odamlarning bunday axborot bilan toʻliq taʼminlangan jamoasiga tashqaridan mish-mishlar kirsam, bundan keyin ular tarqalmaydi, balki uning ichida barham topadi.

¹ Симонов П. В. Что такое эмоции? – М., 1966. – С. 57.

«M» nolga teng bo'lganida, ya'ni inson o'z xulqini tashkil qilish va dolzarb ehtiyojini qanoatlantirish uchun zarur bo'lgan hech qanday axborotga ega bo'lmasa, hissiyotlar maksimal ahamiyatga ega bo'ladi, mish-mishlar uchun esa eng qulay zamin yuzaga keladi. Bir tomondan, ehtiyojlarni qondirish uchun harakat qilishdek keskin zarurat, ikkinchi tomondan, buning uchun kerakli har qanday axborotning yo'qligi insonni axborot manbalarini baholashda ularning farqiga yetmaydigan qilib qo'yadi.

Guruhiy tartibbuzarlikning yetilishidagi ikkinchi bosqich dastlabki *xavotirli mish-mishlarning* paydo bo'lishi bilan bog'liq. Tartibbuzarliklarning oldini olish borasidagi faoliyat ushbu bosqichda ancha qiyinlashadi. Odamlar voqega nisbatan muayyan qarashni o'zlashtirgan bo'ladilar va har qanday axborotni o'zlarining yanglishuvlari orqali qabul qiladilar. Vaziyatning yanada murakkablashuviga qarshi kurashning yo'li – bu odamlarni qayta ishontirish, mish-mishlarning yolg'onligini dalillar bilan isbotlashdir. Bu bosqichda voqea yoki fakt manfaatlariga ko'p darajada ta'sir ko'rsatgan odamlarni yakka tartibda qayta ishontirish eng ko'p samara beradi. Bu bosqichda omma oldida mish-mishni rad etish vaziyatni chigallashtirishi, mish-mishlarning yanada ko'proq tarqalishini keltirib chiqarishi mumkin.

Mish-mishlar nafaqat hech qanday rasmiy axborot bo'lmagan sharoitda, balki bunday axborot odamlarning qiziqishlarini qondirmagan, yetarlicha ishonchli bo'lmagan yoki shubhali bo'lgan hollarda ham yuzaga keladi va tarqaladi.

Inson unga kelayotgan axborotni beparvolik bilan qabul qilmaydi. U ushbu axborotni o'z qarashlari va e'tiqodlari, yanglishuvlari va xurofotlari, mayl va xush ko'rmasliklari bilan solishtiradi. Shaxs agar norasmiy yo'llar bilan boshqa xabar olgan bo'lsa, rasmiy axborotga tanqidiy munosabatda bo'ladi. Bunday vaziyatda nafaqat axborot berish, balki qayta ishontirish talab etiladi. Bu esa yanglishayotgan odamning o'zi uchun ham, uni qayta ishontirayotganlar uchun ham juda qiyin bo'ladi.

Psixologiya fanida axborotni odamlar aynan o'z ehtiyojlarini qondirish uchun

tarqatadilar va o'zlashtiradilar deb to'g'ri ta'kidlanadi¹. Ushbu ehtiyojlarni ularning mish-mishlar bilan qondirilishi nuqtai nazari bilan ko'rib chiqamiz.

Utilitar effekt odamlar olingan ma'lumotlardan o'z hayotiy muammolarini hal qilish uchun foydalanishlarida namoyon bo'ladi. Bu rasmiy axborot tarqatilgan, ammo mish-mishlar ham muayyan, lekin o'ziga xos ahamiyatga ega bo'ladigan holatlarda eng yorqin ko'zga tashlanadi. Masalan, Ikkinchi jahon urushi davomida ingliz razvedkasi Gitler Germaniyasining harbiy zavodlari ishini izdan chiqarish uchun portlovchi moddalar ishlab chiqarilayotgan shaharda sartaroshxonada sochi quritilayotgan zavod xodimalaridan birining boshi portlab uzilib ketgani, bu go'yoki atmosferada porox changi haddan tashqari ko'pligidan aholining sochlariga ilashib qolayotgani va sirli portlashning imkoniyatdagi xavfi yuzaga kelishi sababli kelib chiqqani haqida mish-mish tarqatdi. Inglizlarning aytishicha, bunday mish-mish ta'sirida ko'pchilik zavod xodimalari shahardan qochib ketganlar va oqibatda qo'yilgan maqsadga erishilgan.

Obro' samarasi axborot insonning yoki shaxs o'zini mansub deb hisoblayotgan guruhning obro'sini oshirishidan qoniqish hosil qilishida namoyon bo'ladi. Bu hodisa odamlar ichki jihatdan qabul qilgan maqsad va qadriyatlarni tasdiqlovchi axborot (jumladan, mish-mishlar)ni jon deb qabul qilishi va oson o'zlashtirishiga asoslanadi.

Mish-mishlar taraflardan biriga boshqasiga qarshi qo'shimcha dalillar bergan hollarda *pozitsiya (mavqe)ni kuchaytirishi effektini* yuzaga keltiradi. Bu kabi misollar mamlakatga qarshi olib borilayotgan psixologik urushlarda xohlagancha topiladi.

Mish-mishlar darajasida *bilishga bo'lgan qiziqishlarni qanoatlantirish* effekti haddan tashqari qiziquvchan odamlarga xosdir. Bu yerda ham qanoatlanish, albatta, xom-xayol, qiziqishlarning o'zi ham arziyas va axloqiy jihatdan umidsizdir. Shunga qaramay, bu jamoani qo'zg'atuvchi mish-mishlar yuzaga kelishi va tarqalishining psixologik sabablaridan biri hisoblanadi.

Bu hodisaning boshqa tomoni ham mavjud. Agar, masalan, shaharda kunduzi odamlar mavzelardan biri uzra ko'tarilayotgan quyuq tutunni ko'rgan bo'lsalar, nima

¹ Социальная психология: Краткий очерк / Под общ. рад. Г. П. Предвечного и Ю. А. Шерковина. – М., 1995. – С. 192-196.

bo'lganini bilishga intilishning yuzaga kelishi tabiiydir. Agar odamlarning qiziqishi vakolatli organlarning rasmiy axboroti bilan qanoatlantirilmasa, aqlga to'g'ri kelmaydigan mish-mish gaplar yuzaga kelishi muqarrar. Binobarin, odamlarda tushunmaslikdan berilgan savol yuzaga kelsa, bunday savol qanchalik nozik va achchiq bo'lmasin, undan qo'l siltab ketish mumkin emas, aks holda nosog'lom mish-mishlar yuzaga kelishiga sharoit yaratadi.

Mish-mishlardan kelib chiqadigan *hissiy effekt* ijobiy modallikni o'tkir his etish xususiyatiga ega bo'lishi mumkin. Hissiyotlar axboroti nazariyasidan kelib chiqadigan bo'lsak, inson his qilayotgan qoniqish, lazzat mish-mishlardagi xabar (garchi yolg'on, voqelikka mos kelmaydigan, ammo rostga o'xshab ketadigan bo'lsa ham) kutilganidan ortiq axborot berganidagina mavjud bo'ladi. Qandaydir (moddiy yoki ma'naviy) qadriyatlarga ega bo'lishga intilgan hollarda axborotning bunday o'ziga xos ko'pligi zavq, xursandchilikni yuzaga keltiradi. Masalan, amalga oshish ehtimoli juda kamdek tuyulgan azaliy orzu kutilmaganda ushalganini ta'kidlovchi mish-mishning oqibati ana shunday. Ushbu holda hissiy zavqlanishga (razryadkaga) bo'lgan ehtiyoj qanoatlantiriladi, holbuki, albatta, mish-mish bunday maqsadga o'ziga xos tarzda, inson xabarning chin yoki chin emasligini bilmagan baxtli holatda bo'ladigan davr mobaynidagina erishadi.

Uchinchi bosqichni shartli ravishda *aqllarning achishi* deb atash mumkin. Darhol rad qilinmagan mish-mishlar tarqalishda davom etadi, katta o'zgarishlarga uchraydi va odamlarda hozircha «kar» qo'zg'alishni yuzaga keltiradi. Bu bosqich ham, oldingi ikki bosqich ham odamlarning, ya'ni olomonning to'planishidan avval keladi va uni psixologik jihatdan tayyorlaydi.

To'rtinchi bosqich olomonning shakllanishi bilan bog'liq. Dastlab to'plangan odamlar orasida o'ziga xos *sirkulyar reaksiya* boshlanadi, ya'ni bundan keyin bir xildagi xatti-harakatga ruhiy asos yaratuvchi fikr va hissiyotlarning jadal almashinuvi ro'y beradi. So'ngra aylanish jarayoni boshlanadi: hissiy qo'zg'alish kuchayadi, odamlar buning oqibatida zudlik bilan harakatga o'tishga tayyor bo'lib qoladilar. Aylanish jarayonida norozilik ob'yekti aniqlashadi, nafrat obrazi shakllanadi. Nihoyat, odamlarning faollashuvi boshlanadi. Bu jarayonda, masalan, olomon

yetakchisi amalga oshirayotgan qo‘shimcha rag‘batlantirish aylanish jarayonida shakllangan obrazga qarshi qaratilgan impulslarni yuzaga keltiradi¹.

Mish-mish gaplar shaxslar ongiga quyidagicha ta‘sir ko‘rsatadi:

✓ shu muammo bo‘yicha ongda ma‘lum tasavvur yuzaga keladi;

✓ aholi orasida guruh-guruh bo‘lib yurishib, jamiyatdagi mavjud tartibni buzish yuzaga keladi.

Beshinchi bosqich olomonda *g‘ayrisotsial xulqining rivojlanishi*, ya‘ni guruhiy tartibbuzarliklarning o‘zidir. Tartibbuzarlikni boshlovchilar ig‘vosiga uchgan eng tajovuzkor shaxslar boshlab beradilar. So‘ngra, taqlid asosida, olomon yomon namunaga ergashadi, beboshlikni rivojlantiradi.

Ommaviy tartibsizliklarning tashkilotchilari yig‘ilgan olomonning salbiy xulq-atvor mexanizmlaridan ustalik bilan foydalanib, ulardagi tajovuzkorlik instinktlarini qo‘zg‘atadilar. Gap shundaki, mish-mishlar mantiqsizligiga qaramay, aholining muayyan tabaqalari ongi va xatti-harakatiga sezilarli ta‘sir ko‘rsatadi.

Ayrim hollarda, afsuski, mish-mish gaplar xatti-harakatning rasmiy axborotga qaraganda kuchliroq determinanti (omili) bo‘ladi.

Odamlar orasida tarqatiladigan xilma-xil mish-mishlarning barchasini bir qator asoslarga ko‘ra tasniflash mumkin.

Aks ettirilayotgan voqea *adekvatligiga ko‘ra*, mutlaqo ishonchsiz, haqiqatga yaqin unsurlari bo‘lgan ishonchsiz, haqiqatga o‘xshash hamda haqiqatga o‘xshamaydigan elementlari bo‘lgan ishonchli mish-mishlarga ajratiladi.

Mish-mish tarqatuvchining so‘zlaridan aniqlanadigan *pozitsiyalarga ko‘ra* quyidagilar ajratiladi: *istak mish-mish*, bunda xabar amalga oshmagan istak tufayli umidsizlik keltirib chiqarish va binobarin, odamlarni tushkunlikka tushirish maqsadiga ega bo‘ladi; *qo‘rqituvchi mish-mish* – tashvish, qo‘rquv va ishonchsizlik kayfiyati ustunlik qiladigan odamlar orasida eng samarali tur; *tajovuzkor mish-mish* – muayyan shaxslar yoki muayyan odamlar guruhlariga nisbatan adovat (nafrat) urug‘ini sochadi; *ajratuvchi mish-mishlar* – odamlarning o‘zaro munosabatlarida

¹ Социальная психология: Краткий очерк/ Под общ. ред. Г. П. Предвечного и Ю. А. Шерковина. – М., 1995. – С. 291.

nizo-janjal keltirib chiqaradi, ular o'rtasida shubha, ishonchsizlik kabilarni yuzaga keltirib odatdagi sotsial aloqalarni buzadi¹.

Kelib chiqishiga ko'ra tartibsiz ravishda yuzaga keladigan yoki atayin o'ylab topiladigan mish-mishlar bo'ladi. Oraliq turlari ham bo'lishi mumkin. Ba'zan mish-mish o'z-o'zidan yuzaga keladi, ammo muayyan zaminga tushgach, axborotni o'z manfaatlaridan kelib chiqib o'zgartirishga tayyor, uning tarqalishidan manfaatdor shaxslar topiladi. Dastlab mish-mish atayin tarqatilgan, ammo stixiyali ravishda amal qiluvchi sotsial-psixologik mexanizmlarga tushib, ular tufayli ko'p bora kuchaygan hollar ham bo'lishi mumkin. Masalan, dushmanlarning mamlakatimizga qaratilgan radio eshittirishlarida mavjud bo'lgan ba'zi mish-mishlarni siyosiy va axloqiy jihatdan yetarlicha yetuk bo'lmagan odamlar eshitib, o'z harakatlarining oqibatlarini o'ylamay uni yana tarqatgan hollarda ana shunday bo'ladi.

Odamlar ongiga ***ta'sir kuchiga ko'ra*** mish-mishlar quyidagi turlarga bo'linadi: sotsial fikrni *qo'zg'atuvchi*, ammo aniq ko'rinib turgan g'ayrisotsial xulq sohasiga kirmaydigan mish-mishlar; aholining muayyan qismida *g'ayrisotsial xulqni keltirib chiqaradigan* mish-mishlar; odamlar o'rtasidagi *sotsial aloqalarni buzuvchi* va jamoat tartibini guruh bo'lib buzishga (masalan, stadionlardagi tartibsizliklar, tabiiy ofat sharoitidagi sarosimalar va boshqalarga) aylanuvchi mish-mishlar mavjuddir.

Vahima, qo'rquv va sarosimaga solish olomonning asosiy vazifalaridan bo'lib, bunday holatlarda shaxslarning xatti-harakatida o'zini o'zi boshqarish oxirgi o'ringa turishini, javobgarlik hissining yo'qolishini kuzatish mumkin. Vahima, qo'rquv va sarosima asosida mavjud yoki ehtimollik xavfi oldida ojizlik, uni yengib o'tish o'rniga undan qochish fikri paydo bo'ladi. Vahima qo'rquvning psixofiziologik mexanizmi bo'lib, bosh miya po'stlog'ining katta maydonida induksion tormozlanish, anglash faolligining susayishiga olib keladi va tez emotsionallik holatini yuzaga keltiradi. Natijada shaxsda noadekvat fikrlash, illyuzion (noto'g'ri) idrok qilish, kuchli emotsional qo'zg'alish oqibatida xavfni bo'rttirish, kuchli ta'sirchanlik, beriluvchanlik holatlarini kuzatish mumkin.

¹ Социальная психология: Краткий очерк/ Под общ. ред. Г. П. Предвечного и Ю. А. Шерковина. – М., 1995. – С. 168–190.

Vahima, qoʻrquv guruhiy va individual tarzda yuz beradi. Individual tarzda yuz beradigan vahima yoki qoʻrquv harakatlarning noadekvatligida, biror-bir xulosa, qarorga kelish, mavjud xavfdan qochish, undan qutulish uchun xavfsizlik choralarini koʻra olmaslik holatlarida namoyon boʻladi. Ommaviy tartibsizlik holatlaridagi vaziyat yetakchining individual vahima va sarosimaga boʻlgan aks taʼsiri bilan bevosita bogʻliqdir.

Vahima, sarosima, qoʻrquv asosan ikki turga boʻlinadi:

- qaltis vaziyatlarda qoʻrqish natijasida oʻlim xavfini his etish;
- muddatli xavotirlanishdan soʻng kuchli zoʻriqish, asab tizimining buzilishi, diqqatning xavotir predmetiga yoʻnalganligi.

Ichki ishlar idoralari xodimlari vujudga kelishi mumkin boʻlgan bunday salbiy hodisalarning oldini olish maqsadida oldindan profilaktik chora-tadbirlarni qoʻllashlari lozim.

Ommaviy tartibsizliklar davlatga, uning yuritayotgan siyosatiga qarshi mish-mishlar uyushtirish, xalq oʻrtasida tajovuzkorlik holatlarini keltirib chiqarish uchun qoʻllaniladi. Bunday vaziyatlarda ommaning xatti-harakatini tartibga solib boʻlmaydi.

Olomon oʻz xarakteriga koʻra agressiv (ashaddiy) boʻlishi mumkin, ashaddiy mish-mishlar ommaviy tartibbuzarliklarni yuzaga keltiradi. Olomon psixologiyasida meniki va ularniki degan fikr albatta mavjud. Yaʼni, olomon vaziyatni murakkablashtiruvchi va oʻziga xos tezlashtiruvchi generatoridir. Misol sifatida 2014 yili Ukrainada, 2015 yil Misr Arab Respublikasida boʻlgan xalqaro mitinglardagi olomonni keltirish mumkin. Olomon psixologiyasida maʼlum oʻzgarishlar roʻy beradi, bu oʻzgarishlar nimalarda sodir boʻlishini koʻrish mumkin.

Olomon xatti-harakatining yuzaga kelish psixologiyasi quyidagi koʻrinishga ega:

- 1) olomonda koʻrish va eshitish orqali kuchli emotsional holat yuzaga keladi;
- 2) oʻzining xatti-harakatlariga javob berish ular uchun oxirgi oʻringa oʻtadi;
- 3) oʻzida qoʻshimcha kuch va ongida oʻzgarish sezadi.

Olomonning shakllanish bosqichlari:

- 1) sharoitning yuzaga kelishi (sirkulyatsiya);

- 2) miyadagi qaynash;
- 3) dushman obrazining shakllanishi;
- 4) olomonning faollashuvi;
- 5) jamiyatga qarshi harakatning avj olishi.

Sirkulyar, ya'ni aylanma reaksiya olomonning shakllanishiga olib keladi, bunda har xil imkoniyatlar, masalan, faktlar (dalillar), turli xabarlar yaratiladi.

Miyadagi qaynashda odamlar bir-biri bilan faqat xabar almashadi va eng asosiysi ma'lum bir fikrda turishadi. Shuning uchun ham boshqa xabarni (yangi) eshitganda o'zlarini ma'lum ma'noda adashmagan deb hisoblaydilar.

Dushman obrazining shakllanishi shunday holatki, unda olomon faqat salbiy holatlarni tasavvur qilib, o'zi noroziligini bildiradi. Bularning hammasi olomonning harakatini faollashtiradi.

Bunday tasavvurdagi ob'yektlar ommani birlashtiradi va bir butun qiladi. Oxirgi bosqich jamiyatga qarshi xatti-harakatni yuzaga keltirish va olomon faoliyatini faollashtirishdir.

Shu nuqtai nazardan **olomon** psixologik jihatdan kelib chiqishiga ko'ra, maxsus, hech qanday insonlar tomonidan tashkil etilmagan odamlarning xatti-harakatlari yig'indisidir.

Fransuz psixolog olimi Gyustav Lebonning fikricha, «olomon yig'ilganda millati, kasbi, tilidan qat'i nazar, ularda maqsad bitta bo'ladi va ularning ongida to'la fikrlash yo'qoladi, hatto o'lim ham ularga qo'rqinchli emasdek ko'rinadi»¹.

Olomon psixologiyasini bilish ichki ishlar idoralari xodimlari uchun muhim ahamiyatga ega bo'lib, ommaviy tartibsizliklar, namoyishlar, mitinglar kabi salbiy holatlarning oldini olish va jamoat tartibini saqlashda qo'l keladi.

Ommaviy tartibsizliklar, mitinglar va turli namoyishlar uyushmagan bir guruhning salbiy xatti-harakatlari asosida amalga oshiriladi. Olomonga qo'shilgan shaxslar ongida taqlid qilishga kuchli moyillik, tashqi ta'sirlarga beriluvchanlik va sotsial javobgarlik hissining yo'qligini kuzatish mumkin. Shu sababi olomon ayrim g'arazli, ig'vogar shaxslar uchun ob'yektni yo'q qiluvchi qurolga aylanadi.

¹ Ле Бон Гюстав. Психология народов и масс. – М., 2000. – С. 62.

Ommaviy tartibsizliklar – ko‘p miqdordagi odamlar (omma) tomonidan qurol yoki qurol sifatida foydalaniladigan boshqa narsalarni ishlatib yohud ishlatish bilan qo‘rqitib shaxsga nisbatan zo‘rlik ishlatish, qirg‘in solish, o‘t qo‘yish, mulkka shikast yetkazish yoki uni nobud qilish, hokimiyat vakiliga qarshilik ko‘rsatish orqali sodir etgan holda, jamoat joylarida belgilangan tartibni buzish va xavfsizlikka tahdid solish bilan bog‘liq boshqarib bo‘lmaydigan favqulodda harakatlardir.

Guruhiy tartibbuzarliklarga mitinglar va boshqa ommaviy tadbirlar o‘tkazishning belgilangan tartibini guruh bo‘lib buzish, sport musobaqalari va estrada konsertlari namoyishida ashaddiy muxlislar yoki ayrim shaxslarning belgilangan axloq qoidalarini buzishlari, guruhiy bezorilik va boshqa nojo‘ya harakatlarini kiritish mumkin.

Ommaviy tartibsizliklar, odatda, jinoyat tarkibini tashkil qiladi va terrorchilik harakatlari, shaxsni garov sifatida tutqunlikka olish, qirg‘in qilish, ichki ishlar organlari binolariga o‘t qo‘yish, ularni egallab olishga, hokimiyat vakillariga hujum qilish, qurolli qarshilik ko‘rsatishga urinish va boshqa shunga o‘xshash harakatlarda namoyon bo‘lishi mumkin. Mazkur jinoyatlar O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksida qamrab olingan bo‘lib, jinoiy javobgarlikka olib keladi.

Ommaviy tartibsizliklarning sotsial xavfli xususiyatlari bevosita ularning yuz berishi jarayonida ushbu harakatlarning ishtirokchilari tomonidan boshqa bir qator og‘ir jinoyatlarni sodir etish bilan kechishi, fuqarolar hayotiga, sog‘lig‘iga va mulklariga jiddiy xavf solishi hamda boshqa shu kabi bir qator og‘ir oqibatlarni keltirib chiqarishi bilan yuz berishida namoyon bo‘ladi.

Ommaviy tartibsizliklarning eng xavfli tomoni shundaki, ularning o‘z vaqtida oldi olinib bartaraf etilmasa, ular jamiyat hayotiga putur yetkazib, uning inqirozga yuz tutishiga olib keladi.

Guruhiy tartibbuzarlik va ommaviy tartibsizliklarning kelib chiqishida insonning jamoadan tashqaridagi xatti-harakatlari, ya’ni **mish-mish gaplar** va **olomon psixologiya** muhim rol o‘ynaydi.

Guruhiy tartibbuzarlik va ommaviy tartibsizliklarning ob’yektiv sabablari va ularning kelib chiqishiga imkon bergan shart-sharoitlar turli sabablar tufayli yuzaga

kelishi mumkin. Ular orasida asosiylarini quyidagilar tashkil etadi: siyosiy va iqtisodiy beqarorlik, sotsial adolatsizlik va aholi asosiy qismining himoyalanganligi, korrupsiya va uyushgan jinoyatchilikning o'sishi, aholi turli tabaqalarini birlashtira oladigan rasmiy davlat mafkurasi va birlashtiruvchi kuchning yo'qligi.

Individual huquqiy ong darajasida guruhiy tartibbuzarliklar sodir etilishiga imkon beruvchi quyidagi *omillarni* keltirish mumkin: ayrim shaxslarning demokratiyani anarxiya va o'zboshimchalik sifatida tushunishi, qonunlarning talablarini ommaviy pisand qilmaslik, fuqarolar madaniyati va qonunga itoatkorligining past darajasi, jinoiy obro'mandlar va har xil millatchilik ruhidagi ig'vogarlar ta'sir darajasining yuqoriligi, ko'plab g'ayrisotsial elementlarning mavjudligi.

Ta'kidlash joizki, mazkur sabab va shart-sharoitlar o'z-o'zidan har doim ham jamoat tartibini guruh bo'lib buzish yuzaga kelishiga, ayniqsa ommaviy tartibsizliklarga olib kelmaydi.

Jamoat tartibini guruh bo'lib buzishlar va ommaviy tartibsizliklar tashkilotchilari bo'la oladigan norasmiy yetakchilar katta xavf tug'diradi. Ushbu toifaga o'z harakatlari bilan bunday vaziyatlarni keltirib chiqarish, odamlarni birlashtirish va jipslashtirish qobiliyatiga ega bo'lgan, ularni o'z irodasiga bo'ysundira oladigan, ularda ishonch hosil qila oladigan va olomonni junbishga keltira oladigan shaxslar kiradi. Amaliyotning dalolat berishicha, odamlarga ta'sir ko'rsatish «iste'dodiga» ega bo'lgan bunday shaxslarning aksariyati siyosiy faoliyat bilan shug'ullanadilar yoki jinoyatchilar olamiga aloqador bo'ladilar.

Guruh bo'lib huquqbuzarliklar sodir etishning boshqa ishtirokchilari orasida psixologlar dalolatchilar (ig'vogarlar)ni alohida ajratadilar. Bunday shaxslar, olomonning hissiy va ruhiy holatidan foydalanib, o'z maqsadlariga erishish uchun yolg'on xabar va mish-mishlar tarqatish orqali odamlarni yo'ldan ozdirib, g'ayriqonuniy harakatlarga undaydilar.

Ushlangan shaxslar haqidagi ma'lumotlarni tahlil qilish bunday shaxslar toifasiga ko'pincha sobiq jinoyatchilar va ruhan nosog'lom kishilar kirishidan dalolat

beradi.

Ijrochilar yoki janggarilar xavflilik darajasi bo'yicha alohida toifani tashkil qiladi. Bular, odatda, jismonan baquvvat, zarur maxsus tayyorgarlikka ega bo'lgan shaxslardir. Olomon ichida rasman tartibsizliklarning tashkilotchilari va faol ishtirokchilarini qo'llab-quvvatlashda, haqiqiy vaziyatni, nizo kelib chiqishining sabab va baholarini baholashda chindan ham yanglishayotgan fuqarolar ko'pchilikni tashkil qiladi.

Olomon tarkibiga, shuningdek qiziquvchi fuqarolar, yashash joyi betayin shaxslar hamda boshqa g'ayrisotsial unsurlar ham kiradi. Ularning aksariyati mast holda bo'lishlari mumkin.

Jamoat tartibini guruh bo'lib buzishning rivojlanishi va yanada kuchayishida olomonning hosil bo'lish va shakllanish mexanizmi, shuningdek uning ishtirokchilarining xatti-harakatlariga xos xususiyatlar muhim o'rin tutadi. Guruhiy huquqbuzarlikning rivojlanish dinamikasi bir qancha o'zaro bog'liq bosqichlarni qamrab oladi.

Boshlang'ich bosqichga nizoli vaziyat yuzaga kelishining qandaydir bahonasi mavjudligi xosdir. Ba'zan bu muxlislar yoki haybarakallachi mutaassiblarning oddiy guruhiy bezorilik harakatlari bo'ladi.

Bu bir guruh shaxslarning qandaydir yuz bergan voqeadan noroziligida, hokimiyat idoralari, tijorat tuzilmalari, korxonalar va muassasalarning ma'muriyati sotsial-maishiy va iqtisodiy sohada olib borayotgan harakatlariga qarshi e'tirozida namoyon bo'lishi mumkin. Ba'zi hollarda to'planganlarning talabi siyosiy xususiyatga ega bo'lishi mumkin. Nizo qonuniylikning buzilishi yoxud ichki ishlar organlari xodimlarining taktik jihatdan noto'g'ri harakatlari natijasida ham o'z-o'zidan yuzaga kelishi mumkin. Jamoat joyida odamlarning to'planishi faktining o'zi qiziquvchilar va bekorchilar uchun jozibador ta'sirga ega. Voqea janjalli jihati bilan qiziqish uyg'otsa va dolzarb xususiyatga ega bo'lsa, olomon tezda ko'payishi mumkin. Bunday hollarda kimdir ba'zan ig'vogarona xususiyatga ega bo'ladigan uydirma va mish-mishlar tarqata boshlaydi. Ular ta'sirida ishtirokchilar va tomoshabinlarning hissiy hayajoni ortadi, olomonning «ruhiy zararlanishi» deb

ataluvchi hodisa yuz beradi. Olomon ichida tanilmay qolish mumkin bo'lgan sharoitda odamlarda o'z harakatlari uchun mas'uliyat hissi kamayadi, tajovuzkorlik va oddiy sharoitlar uchun xos bo'lmagan qo'rslik paydo bo'ladi.

Olomon ishtirokchilari zo'rlik harakatlariga undovchi targ'ibot va shiorlarni tanqidiy qabul qilmaydilar. Olomon ultimatum talablarni ilgari surib, ularni darhol bajarishni talab qiladi. Agar ushbu bosqichda ichki ishlar organlari faol kompleks va adekvat chora ko'rmasalar, nizo jamoat tartibini guruh bo'lib buzish bosqichidan ommaviy tartibsizliklarga aylanib ketishi mumkin.

Faol bosqich tajovuzkor olomonning talablari rad etilgan taqdirda maqsadga qaratilgan harakatlarga o'tadigan davrni qamrab oladi. Ushbu harakatlar, odatda g'ayriqonuniy va jinoiy xususiyatga ega bo'ladi hamda og'ir oqibatlarini keltirib chiqaradi. Ommaviy tartibsizliklar ishtirokchilari transport va piyodalar harakatini to'sadilar, nizo yuzaga kelgan joyda jamiyat hayotining normal sur'atini izdan chiqaradilar, qo'lga tushgan materialdan to'siq va barrikadalar quradilar. Ular to'siqlar (devor va g'ovlar) hamda aloqa yo'llarini buzishlari, mashinalar va ko'chadagi simyog'ochlarni ag'darishlari mumkin va hokazo. Bunday harakatlar zo'rlik, hokimiyat vakillariga qarshilik ko'rsatish, odamlarni o'ldirish bilan birga kechadi. Bunday vaziyatda har xil jinoiy unsurlar ko'pincha mulkiy jinoyatlar, o'g'riliklar, talonchiliklar, shuningdek odam o'ldirish va o't qo'yish kabi jinoyatlarni sodir etadilar.

So'nggi bosqichda huquqni muhofaza qilish organlarining ommaviy tartibsizliklarga chek qo'yish va ularni bartaraf etishga qaratilgan kompleks harakatlari natijasida olomonning hujumkorligi va faolligi bostiriladi. Ichki ishlar organlari maxsus operatsiya o'tkazadilar. Ommaviy tartibsizliklar tashkilotchilari va ishtirokchilarining jinoiy harakatlari hujjatlashtiriladi, olomon ajratib tashlanadi, aybdorlar javobgarlikka tortiladilar.

Ichki ishlar organlari xodimlarining jamoat tartibini guruh bo'lib buzish yuzaga kelishining dastlabki bosqichida faoliyatning to'g'ri taktikasini tanlashi katta ahamiyatga ega. Bunday huquqbuzarliklardan avval, odamlarning ko'chalar va jamoat joylarida ko'plab to'planishi yuz beradi. Fuqarolarning e'tirozi va

noroziliklari har xil, ko'pincha adolatli sabablar tufayli yuzaga kelgan bo'lishi mumkin. Shu bois yetib kelgan ichki ishlar organlari xodimlari eng avval qaysi sabablarga ko'ra va qaysi toifadagi fuqarolar to'planganligini aniqlashlari zarur. Agar ular to'planishining sababi tasodifiy voqea (yo'l-transport hodisasi, ishlab chiqarishdagi avariya, baxtsiz hodisa) bo'lgan bo'lsa, olomonning e'tiborini tortgan sababni zudlik bilan bartaraf etish zarur. Bu keskinlikning kamayishiga, vaziyatning yumshashiga, to'plangan fuqarolar xavfsizligining ta'minlanishiga yordam beradi. Aks holda ichki ishlar organlarining harakatsizligi fojialarga olib kelishi mumkin.

VIII.4. Olomon tarkibida mutaassib shaxslarni aniqlashda profayling metodining ahamiyati

Olomon tarkibida mutaassib shaxslar katta xavf tug'diradi. Ushbu toifaga o'z harakatlari bilan bunday vaziyatlarni keltirib chiqarish, odamlarni birlashtirish va jipslashtirish qobiliyatiga ega bo'lgan, ularni o'z irodasiga bo'ysundira oladigan, ularda ishonch hosil qila oladigan va olomoni jumbishga keltira oladigan shaxslar kiradi. Ma'lumki, odamlarga ta'sir ko'rsatish «iste'dodiga» ega bo'lgan bunday shaxslarning aksariyati siyosiy faoliyat bilan shug'ullanadilar yoki jinoyatchilar olamiga aloqador bo'ladilar.

Olomon tarkibida mutaassib shaxslarni aniqlash va ular tomonidan sodir etilishi mumkin bo'lgan jinoyatlarning oldini olishda profayling metodining o'rni beqiyos.

Profayling (*inglizcha profile – profil*) yoki profayl metodi – shaxslarni psixologik baholash, kuzatish, ularning xulqidagi o'zgarishlarni tashqi ifoda va xatti-harakatlar asosida tahlil qilish kabi bir necha psixologik usullardan foydalangan holda oldindan bashorat imkonini beradigan shaxs profilini yaratish usulidir.

Hozirgi kunda shaxslarning profilini yaratish asosida ko'plab zo'ravonlik, ko'p takrorlanadigan qotillik jinoyatlarini ochishda keng foydalaniladi. Profayl metodi asoschilari psixolog olimlar P.Ekman, V.Frizen, M.Sukerman va B.De Paulolar hisoblanishadi.

2012 yil Yolg'onni tadqiq qilish bo'yicha Xalqaro Akademiyada Ye.Spiritsa

tomonidan kriminal profayling usuli taqdim etildi. Uning fikricha, **kriminal profayling** tahmin qilinayotgan jinoyatchi shaxs xususiyatlarini tashxislovchi kompleks usullar yordamida psixologik profilining yaratilishi.

Inson xulqi va uning xatti-harakatlarini oldindan bashorat etish uchun alohida qobiliyatga ega bo'lish yoki ko'plab kitoblar o'qish shart emas. Buning uchun insonlarga, ularni xatti-harakatlarini o'rganishga qiziqish bo'lsa bo'ldi. Guruhiy tartibbuzarlik va ommaviy tartibsizliklarda profayling usulidan foydalanishni o'rganishdan asosiy **maqsad** bu jamiyatga zid qarashlari mavjud, jinoiy harakatlarni sodir etishga moyil shaxslarni tezkorlik bilan tanish ko'nikmasini shakllantirishdir. Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi bilim va malakalarni **egallash vazifasi** belgilanadi:

- ✓ vizual (ko'rish va kuzatish asosida) psixologik tashxis yordamida shaxslarni baholash;

- ✓ qaltis, kutilmagan vaziyatlarda hissiy xususiyatlarini boshqarish;

- ✓ olomonga ruhiy ta'sir o'tkazish borasidagi tajribalarini takomillashtirish;

- ✓ jamiyatga zid qarashlari mavjud hamda jinoiy harakatlarga moyil shaxslarni og'zaki (so'zda ifodalangan) sur'ati (portreti) va xulqidagi alohida belgilari asosida tanish;

- ✓ terroristik va ekstremistik tashkilotlar, ularning tashkilotchilari haqida atroflicha to'liq bilimlarni bilish;

- ✓ maxsus elektron texnik moslamalar (akustik va vizual kuzatish moslamalari) yordamida jamoat joylarida yoki ommaviy tadbirlar o'tkaziladigan jamoat joylardagi shaxslarning xatti-harakatlarini o'rganish;

- ✓ jamoat joylarida, ommaviy tadbirlar tashkil etiladigan ob'yektlarda kuzatish (zahira yoki yordamchi kuchlar, faol qarshilik ko'rsatish guruhi va hokazo) uchun qulay joyni tanlash;

- ✓ jamiyatga zid hamda jinoiy harakatlarga moyil shaxslarning xatti-harakatlarini nazorat qilish;

- ✓ xizmat vazifalarni amalga oshirish jarayonida muhim ahamiyatga ega ma'lumotlarni olish va ulardan samarali foydalanish borasida malaka va tajribalarni

shakllantirish.

Yuqorida keltirilgan vazifalarni amalga oshirish uchun xodimlar quyidagi yo'nalishdagi bilimlarga ega bo'lishlari zarur:

- ✓ etnopsixologiya;
- ✓ klinik psixologiya;
- ✓ jamiyat uchun xavfli, jinoiy harakatlarga moyil shaxslarga xos ruhiy omillar;
- ✓ shaxslarning ruhiy xususiyatlari bilan uning tashqi namoyon bo'luvchi (imohora, tana harakatlari, nutq (verbal va noverbal vositalari) jihatlari o'rtasidagi bog'liqlikni ko'ra olish;
- ✓ shubha uyg'otuvchi shaxslar bilan muloqotni to'g'ri shakllantirish;
- ✓ portlovchi moslamalarni topish va ularni aniqlash borasida xizmat itlari va texnik vositalardan samarali foydalanish;
- ✓ kuch va imkoniyatlarini to'g'ri taqsimlash maqsadida, hissiy zo'riqishlarni yengish va ularni boshqarish usullarini egallash;
- ✓ fuqarolar bilan psixologik aloqa o'rnatish, ularni vizual baholash va ruhiy ta'sir o'tkazish, kutilmagan xavf hamda qaltis vaziyatlarda o'z xatti-harakatlarini nazorat qilish;

Yuqorida keltirilgan fikrlardan ko'rinib turibdiki, profayling metodining **asosiy maqsadi** olomon tarkibida shubha uyg'otuvchi shaxslarning xatti-harakatlaridagi mavjud nomuvofiqlikning paydo bo'lish sabablarini aniq belgilashdir.

Bunga shaxsning muayyan ob'yektda qonunga zid xatti-harakatni sodir etishga tayyorgarlik ko'rishi va uni amalga oshirishga aloqadorligi ham sabab bo'lishi mumkin. Har qanday vaziyatda yuqorida qayd etilgan holatlar shubhali shaxsni ko'zdan kechirish va hujjatlarni tekshirish jarayonini puxtaroq o'tkazilishi uchun asos bo'ladi.

Profayling quyidagi xususiyatlarga ega:

1) profayling tarkibiga xavf tug'dirish ehtimoli bo'lgan shaxslar xatti-harakatini kuzatish, ularga savollar berish, ekspress psixodiagnostika qilish, ularning xatti-harakatlaridagi normadan og'ishlarni qayd etish hamda ularni o'rganishga qaratilgan boshqa harakatlar kiritiladi;

2) profaylingning mantiqiy sxemasida g'ayriqonuniy aralashish harakatlarini tayyorlash chog'ida xavf tug'dirishi mumkin bo'lgan shaxslarning harakatlari modelini tuzish; bunday harakatlarni tayyorlash belgilarini aniqlash; xavf tug'dirishi mumkin bo'lgan tiplar (profillar) – bunday harakatlarning ehtimol tutilgan ijrochilari tasnifini yaratish; kuzatuv hududidagi har bir shaxsning maqomini rejalashtirilayotgan g'ayriqonuniy aralashuv harakatiga aloqadorligi ehtimolligi nuqtai nazaridan aniqlash; har bir shaxsni muayyan tipga (yoki profilga) kiritish, ya'ni profillash;

3) profaylingni amalga oshirish uchun vizual psixodiagnostika, diagnostik ekspress-suhbat, neyrolingvistik dasturlash metodlari haqida bilimlarga ega bo'lish.

Guruhiy tartibbuzarlik va ommaviy tartibsizliklarda olomon tarkibidan shubha uyg'otuvchi shaxsni aniqlash uchun xodim odamlarning quyidagi jihatlariga e'tibor qaratishi zarur:

- 1) tashqi ko'rinishi va kiyim-boshiga;
- 2) gumon qilinayotgan shaxs yonida olib yurgan buyumlarga;
- 3) yurish-turishi, imo-ishoralariga;
- 4) ovoz xususiyatlari va boshqa noverbal signallariga.

Xodim ehtimol tutilgan shubha uyg'otuvchi shaxsni aniqlash uchun e'tibor berishi lozim bo'lgan belgilarni quyidagi asosiy guruhlarga birlashtirish mumkin:

1) tashqi belgilar (nostandart kiyim-bosh, gavda o'lchamiga mos kelmaydigan kiyim, og'ir qadam tashlash, doimo yonidagi sumkasini tekshirib turish va hokazo);

2) xatti-harakat belgilari (alang-jalang qarash yoki kiprik qoqmay bir nuqtaga tikilish, atrof vaziyatning noadekvatligi, yuz mushaklarining tarangligi, zo'riqqan yoki mexanik harakatlar va hokazo);

3) insonning g'ayriqonuniy harakatlarga tayyorgarlik ko'rish va ularni amalga oshirishdan manfaatdorligini ko'rsatuvchi tashqi belgilar (xatti-harakatning atrofdagi vaziyatga nomuvofiqligi, atrofga alang-jalang qarash, ichki ishlar xodimlari yaqinlashganda xatti-harakatni o'zgartirish, ulardan o'zini tortish va hokazo).

E'tibor qaratish lozim bo'lgan tashqi ko'rinish xususiyatlari:

- ✓ keng bichimli, qoramtir yoki kulrang tUSDagi, gavda o'lchamiga mos

kelmaydigan, g'ijim, bel sohasi keng yoki kun, joy va ob-havo sharoitlariga mos kelmaydigan nostandart kiyim;

✓ bel sohasida shubhali (notabiiy) bo'rtiqlari bo'lgan beo'xshov kiyim, yonida olib yuriladigan va maishiy buyum sifatida niqoblangan ob'yektlar, shubha uyg'otuvchi shaxsning nihoyatda ehtiyotkor munosabatda bo'layotgan ryukzak, sumka, bolalar kajavasi va shu kabilar (narsalarni bag'riga (badaniga) bosib, vaqti-vaqti bilan beixtiyor siypalab qo'yadi);

✓ qo'lida siqib olingan yoki kiyim qatlari orasidan (yenglaridan) ko'rinib qoladigan shnur yoki simlar borligi;

✓ shubha uyg'otuvchi shaxsda ko'zlarining noverbal signallarini atrofdagilardan yashiruvchi qoramtir ko'zoynaklar borligi (bu uning salbiy niyatlaridan dalolat berishi mumkin);

✓ poyafzali nihoyatda toza (dafn marosimiga tayyorgarlik), soqoli qirtishlab olingan, atrofga befarq yoki aksincha, diqqat, xavotir bilan qarayotgan, boshqalardan ajralib turgan, shuningdek, mo'ylovi olingan soqolli (ko'pincha tarashlanmagan) va bosh kiyim (odatda naqsh va gullarsiz do'ppi kiygan) erkak (bular «vahhobiy» lik belgilari);

✓ homiladorlik belgilari bor ayollar, shuningdek, bo'yin va quloqlarni yopib turuvchi ro'mol o'ragan, sidirg'a (bir tusli), ko'pincha suratlarsiz, tizzadan pastga tushgan yoki deyarli yerga tegib turadigan, yenglari uzun ko'ylak (yoki uzun yubka), lozim, tufli kiygan ayol («vahhobiy»lik belgilari);

✓ hatto issiq kunda ham kurtka, plashch yoki palto kiygan va tugmalarini taqib olgan erkak va ayollar.

E'tibor qaratish lozim bo'lgan ***xatti-harakat xususiyatlari:***

1) ko'p terlash, ba'zan so'lak ajralishi, atrofdagi vaziyat va odamlarga kuchli e'tibor berish bilan kechadigan sezilarli darajadagi asossiz qo'zg'alish yoki beo'xshov qarash, qo'l terlashi, qo'l barmoqlarining titrashi, harakatlarning cheklangan bo'lishi;

2) begonalar yaqinlashganda pichirlashga aylanadigan duo o'qish;

3) oldinda huquq-tartibot organlari xodimlari bo'lganda harakat yo'nalishini

o'zgartirish va ularni aylanib o'tishga urinish.

E'tibor berish zarur bo'lgan qo'rquvning o'ziga xos tashqi belgilari:

- ✓ teri oqarishi, terlash, yutinish;
- ✓ nafas olishning qiyinlashishi, tez-tez nafas olish;
- ✓ uyqu arteriyasining pulsasiyasi;
- ✓ ko'z qorachiqklarining kengayishi;
- ✓ ovoz yo'qolishi va jarangining pasayishi;
- ✓ kaftlar tremori, barcha gavda mushaklarining titrashi;
- ✓ qoshlarning ko'tarilishi va birlashishi (chimirilishi);
- ✓ ko'zlarning katta ochilishi va kengayishi;
- ✓ yuz mushaklarining nihoyatda taranglashishi.

Tashqi ko'rinish va xatti-harakatning mazkur belgilarini bir butunlikda ko'rib chiqish, har bir shubhali jihatni inobatga olish zarur.

Shubha uyg'otuvchi shaxs bilan **suhbatlashganda** uning yoshi, jinsi, millati, psixologik tipi, aqliy darajasini inobatga olish lozim. Turli millat va xalqlarning an'ana, urf-odatlarini hurmat qilish, musulmonlar va boshqa din vakillarining e'tiqodlariga ehtirom bilan munosabatda bo'lish kerak. Ko'ngilsiz oqibatlariga yo'l qo'ymaslik uchun iloji boricha nazokat va odob bilan munosabatda bo'lish, aslo bahslashmaslik, ayniqsa diniy yoki milliy mavzudagi munozaralarga kirishmaslik darkor.

Xodimlar **hujjat tekshirayotganlarida** shubha uyg'otuvchi shaxslarning pasport ma'lumotlari (tarjimai holiga oid ma'lumotlar)ni aniqlashtirishlari, ularning kelgan vaqtlari va ko'zlagan maqsadlari, aniq yashash manzillari, tug'ilgan joylari, oilaviy ahvollari, ma'lumoti, mashg'ulotlari bilan qiziqishlari mumkin. Javob olinganida shubha uyg'otuvchi shaxsning noverbal signallari sinchkovlik bilan kuzatiladi, ushbu signallar ularning verbal signallari bilan qiyoslanadi: gumon qilinuvchining imo-ishoralari, holati, mimikasi (jumladan, ko'z, lab ifodalari) uning so'zlariga mos kelish-kelmasligi, nutqiga xos xususiyatlar, teri qoplamasining holati (oqarishi, qizarishi, dog' bilan qoplanishi, ter chiqishi kabilar) tekshiriladi. Savollar «ha» yoki «yo'q» tarzida javob qaytarilmaydigan shaklda beriladi. Shuningdek,

xodimlarning to'g'ri javob avvaldan (hujjatli manbalardan, tezkor axborotdan) ma'lum bo'lgan ayrim savollarni berishlari tavsiya etiladi. Ushbu savollarga yolg'on javob qaytarilishi so'ralayotgan shaxsga nisbatan gumonlarni mustahkamlaydi.

Yuz berayotgan voqealarga inson *neytral* munosabatda bo'lganida, odatda uning boshi tik, nigohlari to'g'ri va tiyrak, ko'zlari suhbatdoshiga qarab turadigan, o'zini tutishi erkin, imo-ishoralari ifodali bo'ladi.

Agar so'ralayotgan shaxsning boshi egik, nigohlari tashqariga yo'nalgan yoki ko'z qiri bilan qaraydigan, qo'llari mudofaa holatida (qovushtirilgan ikki qo'li bilan sumka yoki paketini ushlab olgan) bo'lsa, u holda ushbu noverbal signallar suhbatdoshiga nisbatan uning salbiy hissiyotlaridan va (yoki) stress holatida ekanligidan dalolat beradi.

Quyidagi qo'shimcha signallarga ham e'tibor berish lozim:

1) aldayotganligini ko'rsatuvchi signallar (qo'lning og'iz, burun yoki bo'yin sohasiga tegishi bilan bog'liq ishoralar, ko'z qovoqlarini ishqalash, nigohlarni tashqariga, odatda yerga yoki shiftga qaratish, qo'llarni cho'ntaklarga yashirish yoki ko'krak oldida chalishtirish);

2) tajovuzkorlik va hujumga tayyorlik belgilari (lablar jipslashgan, yuz qizargan, qo'l barmoqlari musht tugilgan, oyoqlar mudofaa holatida, ko'z qorachiqlari toraygan, ko'z qiri bilan yoki to'g'ridan qarash, peshonaning tirishganligi, burun orqali qisqa-qisqa nafas olish va hokazo);

3) xavotir, hayajon, asabiylik, qo'rquv belgilari (qo'l barmoqlarining, ovozning titrashi, nafas olishning tezlashishi, qon tomirlarining bo'rtishi va (yoki) haddan tashqari tez urishi (ayniqsa bo'yin sohasida), lablarni tishlash, qo'lni ko'krak oldida chalishtirish, bir qo'l bilan ikkinchisini quchoqlab olish, ko'krak darajasida (balandligida) biror narsa, masalan, paket, sumka, gullarni ikki qo'llab ushlab olish va hokazo).

Xodim shubha uyg'otuvchi shaxs bilan muloqot jarayonida quyidagilarni inobatga olishi lozim: begona shaxsga xayrixohlik, ziyraklik va hurmat bilan munosabatda bo'lish suhbatdagi psixologik zo'riqishni pasaytiradi va aksincha, oldindan afsona to'qish, toqatsizlik, surbetlik, qo'pollik salbiy, adovatli munosabatni

keltirib chiqaradi.

Shubha uyg'otuvchi shaxs uchun ekstremal vaziyatda ikki variant bo'lishi mumkin:

1) sust, ishonchsiz dalillardan, oldinda paydo bo'lgan va qo'yilgan maqsadlarga erishishga xalal berayotgan «to'siqlardan» kutilmaganda (masalan, shoshayotgani yoki qayergadir kechikayotganini aytib yoki hatto, hech bir izohsiz) qochish. Bu yanada ko'proq shubha uyg'otishi kerak;

2) o'zini nazorat qila olmaslik oqibatida to'satdan tajovuzkor reaksiya ko'rsatish.

Nizoli vaziyat yuzaga kelganida (shubha uyg'otuvchi shaxs nihoyatda tajovuzkor bo'lib, bir daqiqadan so'ng affektiv portlash kelib chiqishi mumkin bo'lganida) nizoni so'ndirishning eng oddiy usuli xodimlar e'tiborini atayin boshqa odamlarga ko'chirishdir. Bunda shubha uyg'otuvchi shaxsdan vaqtini yo'qotgani uchun uzr so'rash, suhbat uchun minnatdorchilik bildirish, biror narsani (masalan, qayergadir tashrif buyurishni) maslahat berish lozim. Bu shubha uyg'otuvchi shaxsning stress holatini pasaytirish, uning hushyorligini kamaytirish va kutmagan paytida uni qo'lga olish (zararsizlantirish) imkonini beradi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib shuni xulosa qilish mumkinki, guruhiy tartibbuzarlik va ommaviy tartibsizliklarda olomon tarkibidan shubha uyg'otuvchi va mutaassib shaxslarni aniqlashda profayling usulidan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

VII.5. Olomoni boshqarishning psixologik usullari

Olomonning g'ayrisotsial harakatlarini oldi olish va ularga chek qo'yish uchun turli shakl va usullardan foydalaniladi. Ular uchun umumiy bo'lgan jihat – olomon xulqining psixologik qonuniyatlarini chuqur bilish va aniq hisobga olish. Masalan, anonimlik hissi olomon ishtirokchilarini ongsiz harakatlarga undashidan quyidagicha foydalanishi mumkin. Olomon ancha katta bo'lganida ovoz kuchaytirgich vositasi orqali uning aniq ishtirokchilariga murojaat etish to'g'ri bo'ladi. Bu hol eng sog'lom fikrlovchilarni o'z harakatlarini anglashga undaydi, ularga o'zini nazorat qilishdek

yo'qotgan hissiyatini qaytarishda va o'z xatti-harakati uchun mas'uliyatni his qilishida yordam beradi.

Ommaviy tartibsizliklar paytida ommani tarqatish uchun uni kichik guruhlariga ajratish, olomondagi ashaddiy ishtirokchilarni topish va ularni jazolash muhim ahamiyat kasb etadi.

Olomondagi jamiyatga qarshi harakatlarning oldini olishda ichki ishlar idoralari xodimlari sotsial psixologiya va uning qonuniyatlarini yaxshi bilishlari, ya'ni sotsial jarayonlar, jamoa va guruhlarining psixologik xususiyatlarini, ularni harakatga keltiruvchi psixologik mexanizmlarni hisobga olishlari muhim ahamiyatga egadir. Bundan tashqari, amaldagi qonunni, jamiyatdagi ma'naviy-ruhiy muhitni o'rganishlari, sotsial psixologik munosabatlar tizimida jamoa va guruhlarining o'rnini bilishlari zarur.

Amaldagi qonunlarga muvofiq, ichki ishlar organlari zimmlariga yuklatilgan vazifalarni odatdagi (kundalik) sharoitlarda ham, alohida sharoitlarda ham bajaradilar. *Jamoat tartibini va xavfsizligini saqlashning alohida sharoitlari* deganda, odamlar hayoti va sog'lig'i, moddiy va madaniy qadriyatlar uchun xavflilik darajasi katta bo'lgan muayyan holatlarda yuzaga keladigan hamda ichki ishlar organlaridan huquqiy va tashkiliy xususiyatga ega maxsus choralar ko'rishni talab qiladigan sharoitlar tushuniladi. Mazkur sharoitlar turli xil favqulodda vaziyatlarning kelib chiqishi bilan bog'liq. Tinchlik vaqtida ularga quyidagilar kiradi: tabiiy ofatlar, epidemiyalar, epizootiyalar, texnogen va ekologik falokatlar, sotsial to'qnashuvlar, shuningdek, katta ommaviy tadbirlar o'tkazilishi va hokazo.

Ommaviy tadbirlarni o'tkazish qonuniyligiga ko'ra miting, yig'ilish, namoyish o'tkazish demokratiyaning bir ko'rinishidir. Demokratik davlat va fuqarolik jamiyatini shakllantirishda fuqarolar o'z sotsial-siyosiy faolliklarini erkin amalga oshirish huquqiga egadirlar. Konstitusiyamizning 33-moddasida fuqarolarning sotsial faolliklari miting, yig'ilish va namoyishlar shaklida amalga oshirilish huquqi e'tirof etilib, qonuniy jihatdan mustahkamlangan.

Hozirgi vaqtda turli xil ommaviy tadbirlar aholining sotsial faolligi va bo'sh vaqtini o'tkazishining keng yoyilgan shakllaridan biri hisoblanadi hamda shaxsning

siyosiy hayot, sport, madaniyat, san'at yutuqlaridan bevosita bahramand bo'lish ehtiyojini qondiradi. Demokratiya sharoitida fuqarolarning konstitusiyaviy huquq va erkinliklarini amalga oshirishlari ko'p jihatdan ularning davlat organlari, siyosiy partiya va harakatlar, shuningdek, turli xil kasaba uyushmalari, sport, madaniyat, diniy va boshqa tashkilotlar o'tkazadigan turli xil ommaviy tadbirlarda faol ishtirok etishlari bilan bog'liq.

Shu o'rinda, ommaviy tadbirlarning turlari va ularni o'tkazish tartibiga to'xtalishdan avval, uning lug'aviy ma'nosiga alohida e'tibor qaratsak. O'zbek tilining izohli lug'atida «ommaviy» so'zining mohiyatiga «ommaga, ko'pchilikka oid; ko'pchilik tomonidan yoki omma orasida bajariladigan ommaviy ish. Ommaviy harakatlar», deb izoh berilgan.

O'zbekiston Respublikasida ommaviy tadbirlar o'tkazilishining huquqiy asosi bo'lgan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003 yil 13 yanvardagi «Ommaviy tadbirlarni o'tkazish qoidalarini tasdiqlash to'g'risida»gi qarorida «ommaviy tadbirlar» tushunchasi berilgan bo'lib, unda «ko'ngilochar, teatr-tomosha, konsert, sport, reklama dasturlari va boshqa dam olish dasturlarini, shuningdek, kamida 100 kishi ishtirokida umumxalq, diniy, professional bayramlarni o'tkazish maqsadida yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan ochiq va yopiq inshootlarda, maydonlarda, binolarda va boshqa joylarda tashkil etiladigan kishilarni to'plash» ommaviy tadbirlar ekanligi ta'kidlangan.

Davlat hokimiyati va boshqaruv organlari, yuridik va jismoniy shaxslar ommaviy tadbirlarni o'tkazish tashkilotchilari bo'lishlari mumkin. Tashkilotchilar, artistlar, sportchilar va dasturda nazarda tutilgan tomoshali chiqishlarni (harakatlarni) bevosita amalga oshiruvchi boshqa shaxslar hamda tomoshabinlar ommaviy tadbirlar qatnashchilari hisoblanadi.

Ommaviy tadbirlarning ikki turi mavjud. *Ruxsat etilgan ommaviy tadbirlar* – ko'ngilochar, teatr-tomosha, konsert, sport, reklama dasturlari va boshqa dam olish dasturlari, umumxalq, diniy, professional bayramlar hamda miting, yig'ilish, namoyishlarni o'tkazish maqsadida yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan ochiq va yopiq inshootlarda, maydonlarda, binolarda va boshqa joylarda tegishli organ va

idoralardan ruxsat olgan holda tashkil etiladigan tadbirlar. *Ruxsat etilmagan ommaviy tadbirlar* – tegishli davlat organlari va idoralardan ruxsat olmasdan tashkil qilinadigan miting, yig‘ilish, namoyish va ko‘cha yurishlari.

Normativ-huquqiy hujjatlarda ommaviy tadbirlarni o‘tkazish fuqarolarning sotsial-siyosiy faolligini ifoda etgani bois, tegishli davlat hokimiyati organlari tomonidan ruxsat etilgan taqdirdagina amalga oshirilishi belgilab qo‘yilgan.

Yuridik adabiyotlarda ruxsat etilgan va ruxsat etilmagan ommaviy tadbirlar deya tasniflangan.

Hududiy belgilariga qarab ommaviy tadbirlar:

- 1) tuman-shahar miqyosida;
- 2) viloyat miqyosida;
- 3) respublika miqyosida;
- 4) xalqaro miqyosdagi ommaviy tadbirga bo‘linadi.

Ommaviy tadbirlarning asosiy turlari quyidagilardan iborat:

miting – fuqarolarning sotsial-siyosiy hayotdagi voqea-hodisalarga, shaxslar yoki tashkilotlarning harakatlari (harakatsizligi)ga nisbatan o‘z munosabatlarini ifoda etish va ommaviy ravishda muhokama qilish maqsadidagi ommaviy yig‘ini;

ko‘cha harakatlari – ko‘chaning qatnov yoki piyodalar yo‘laklarida, chorrahalarida qandaydir masalalarga diqqatni jalb qilish maqsadida odamlar tomonidan tashkil etiladigan ommaviy harakat;

namoyish – harakat jarayonida plakatlar, e‘lonlar va boshqa ko‘rgazmali vositalardan foydalangan holda jamiyat siyosiy kayfiyatining odamlar guruhi tomonidan ommaviy namoyish etilishi;

yig‘ilish – fuqarolar guruhi tomonidan o‘zlarining kayfiyatlari, munosabatlari va qarashlarini ma‘lum joy, hudud, binolarda boshlovchi, boshqaruvchi tomonidan ularga qarshi tomonga ma‘lum qilinishi.

Yuqorida qayd etilgan tadbirlar o‘tkazilayotganda jamoat tartibini saqlash va fuqarolar xavfsizligini ta‘minlash, aholining tinchligi, osoyishtaligini saqlash, fuqarolarning erkinliklari va qonuniy manfaatlarini turli tajovuzlardan himoya qilish asosan ichki ishlar organlarining zimmasidagi vazifalar hisoblanadi.

Ommaviy tadbirlar mazmuni va yo‘nalishiga qarab quyidagi turlarga bo‘lish mumkin:

- ✓ sotsial-siyosiy;
- ✓ ommaviy-madaniy;
- ✓ sport-tomosha;
- ✓ diniy marosimlar.

Ijtimoiy-siyosiy tadbirlarga namoyishlar, mitinglar, yurishlar, siyosiy partiyalar va jamoat tashkilotlarining qurultoylari (syezdlari) turli darajalardagi deputatlar, Respublika Prezidentining saylanishi kabilar kiradi.

Ommaviy tadbirlarning yana bir keng tarqalgan turi **madaniy-ommaviy tadbirlardir**. Ular ko‘rgazmalar, vernisajlar (ko‘rgazmani ochish marosimlari), xalq sayillari, teatrlashtirilgan tomoshalar, festival, yarmarka, konsert kabilardan iborat.

Sport-tomosha tadbirlari an’anaga ko‘ra, respublikamizda aholi ommaviy dam olishning keng yoyilgan shakllaridan biri hisoblanadi. Ular, miqyosi va muhimlik darajasiga ko‘ra, xalqaro, respublika, viloyat, shahar va tuman miqyosidagi tadbirlarga bo‘linadi. Odamlarning ommaviy to‘planishi hamda jamoat tartibining holatiga ko‘rsatadigan ta’sir darajasi bo‘yicha qo‘riqlash uchun eng qiyini futbol, kurash, katta tennis kabi sport o‘yinlarining o‘tkazilishidir. Ushbu ommaviy tadbirlarning o‘ziga xos jihati, futbol matchlarida muayyan toifadagi sport ishqibozlari, turli sport klublariga mansub ashaddiy muxlislarning bo‘lishidir.

Ommaviy – diniy tadbirlar, jumladan, respublikamizdagi har xil diniy bayramlar, odatda, tegishli machitlarda dindorlar va oddiy qiziquvchilar ko‘plab to‘planadigan sharoitda o‘tkaziladi. Hozirgi vaqtda davlat siyosatining dinga munosabati o‘zgargani sababli yangi machitlar qurilmoqda, eskilari tiklanmoqda, dindorlarga ibodat uchun qulay sharoitlar yaratilmoqda. Ular orasida faoliyati g‘ayrisotsial xususiyatga ega bo‘lgan va atrofdagilar uchun xavf tug‘diradigan oqimlar bo‘lganligini ham esdan chiqarmaslik kerak. Ushbu oqimlarga ko‘pchilikka ma’lum bo‘lgan «Vahhobiylar», «Akromiylar», «Hizb ut-tahrir» kabilar kiradi. Ular o‘z saflariga yoshlarni tortadilar, odamlarni yo‘ldan uradilar, ba’zan esa huquqbuzarlik va hatto, jinoyatlar sodir etadilar.

Ommaviy tadbir o'tkazilayotgan ob'yektda va uning atrofida turli xil favqulodda vaziyatlarning kelib chiqishining oldini olish maqsadida ichki ishlar organlari tomonidan profilaktik tadbirlar o'tkazilayotganda quyidagi psixologik bilimlarga ega bo'lishlari maqsadga muvofiq:

✓ jamoat tartibini saqlash va xavfsizlikni ta'minlashga jalb etilgan xodimlarning tezkor vaziyatni doimiy ravishda *kuzatishlari* asosida shubha uyg'otuvchi va jazava holatiga tushib qoluvchi shaxslarni aniqlash;

✓ jamoat tartibining buzilishiga olib keluvchi sabab va sharoitlarni aniqlash va uni bartaraf etish bo'yicha o'z vaqtida ommaviy tadbir ishtirokchilariga psixologik ta'sir choralarini ko'rish;

✓ shubha uyg'otuvchi va jazavaga tushib qoluvchi shaxslarga psixologik ta'sir ko'rsata olish (xodimlar tomonidan doimiy nazoratda ekanligini his qilib turishi);

✓ tezkor xodimlar tomonidan ommaviy tadbir ishtirokchilariga psixologik ta'sir ko'rsatish maqsadida mish-mish gaplardan foydalanish;

✓ ommaviy tadbir ishtirokchilari orasidan shubha uyg'otuvchi shaxslarni olib chiqib ketishda obro'sizlantirish usulidan foydalanish.

Bizga ma'lum bo'ldiki, ommaviy tadbirlar o'tkazilayotganda ommaviy tartibsizliklar vujudga kelishining oldini olish maqsadida ichki ishlar organlari zimmasiga ulkan va mas'uliyatli vazifalar yuklatiladi. Zero, ular yurtimizning tinchligi va barqarorligi, fuqarolarning xavfsizligi hamda jamiyatimizning barqaror hayoti uchun javobgardirlar.

Xulosa qilib shuni aytish joizki, ommaviy tadbirlar o'tkazilayotganda ommaviy tartibsizlik vujudga kelishining oldini olishda ichki ishlar organlari xodimlari tomonidan psixologik bilimlarga ega bo'lish, ayniqsa insonning jamoadan tashqari xatti-harakatlar psixologiyasini bilish juda muhim ahamiyat kasb etadi. Binobarin, psixologik bilimlar natijasida ichki ishlar organlarining fuqarolarni va jamiyatni terrorchilik, qo'poruvchilik xurujidan, barcha shakldagi ekstremizm, uyushgan jinoyatchilikning turli ko'rinishlaridan ishonchli himoya qilishni ta'minlaydi.

Tayanch tushunchalar: olomon, omma, tajovuzkor, qutqarilayotgan, manfaatparast, ekstatik, to'satdan yuzaga kelgan olomon, ekspressiv olomon, konvensial olomon, harakatdagi olomon, profayling, mish-mish.

Mavzuni o'zlashtirish uchun savollar

1. Psixologik nuqtai nazardan olomon deganda nimani tushunasiz?
2. Olomonda ruhlantiruvchi ta'sir nimani anglatadi?
3. Olomon psixologiyasi bo'yicha U.Mak-Dugallning qarashlarini tahlil qiling?
4. Tabiatiga ko'ra olomon turlarini izohlab bering.
5. Sodir bo'lgan voqea va hodisaga qarab olomon turlari farqlarini tushuntiring.
6. Olomoni harakatga keltiruvchi psixologik mexanizmlar haqida nimalarni bilasiz?
7. Olomon tarkibida mutaassib shaxslarni aniqlashda profayling metodining mohiyati nimada?
8. Olomon tarkibida mutaassib shaxslarni aniqlashda profayling metodining ahamiyatini yoritib bering.
9. Olomoni boshqarishning psixologik usullari haqida fikr yuriting.
10. Ommaviy tadbirlarning asosiy turlarini izohlang.

Bilimlarni mustahkamlash uchun test savollari

1. Fikrlovchi shaxsning yo'qolib ketishi va odamlarning his va fikrlari bir aniq yo'nalishga kirishi qaysi fenomenni xarakterlaydigan bosh qirra hisoblanadi?

- A) Xalq
- B) Guruh
- C) Jamoa
- D) Olomon

2. Odam olomon tarkibida o'ziga xosligini yo'qotadi, psixik ustanovka shaklidagi har bir odamda turlicha rivojlangan sotsial ong, sotsial qadriyatlar, normalar va axloqiy cheklashlar o'chadi, degan fikrni kim bayon qilgan?

- A) T.Mitchell
- B) G.Lebon
- C) Nemov
- D) N.Obozov

3. Olomon o'z qahramonidan kuch ishlatishni talab qilgan paytda qaysi ambivalent hissiyotlar paydo bo'ladi?

- A) Mazoxizm va sadizm
- B) Negativizm va pozitivizm
- C) Optimizm va pessimizm
- D) To'g'ri javob yo'q

4. Olomon psixologiyasining eng hayron qolarli belgisi uning affektivligi, qahrg'azabining junbushga kelishi ekanligini kim ta'kidlagan?

- A) Ch.Kuli
- B) T.Mitchell
- C) Mak-Dugall
- D) G.Lebon

5. Olomon atamasi sotsial psixologiyaga qachon kirib kelgan?

- A) XIX asr oxiri – XX asr boshida
- B) XVI-XVII asrlarda
- C) XX asr o'rtalarida
- D) XVIII asr oxiri – XIX asr boslarida

6. O'z tabiatiga ko'ra olomon qanday turlarga bo'linadi?

- A) Harakatdagi va tajovuzkor
- B) Qutqarilayotgan va manfaatparast
- C) Ekstatik, fanatiklik, aqlsizlik
- D) Hamma javob to'g'ri

7. Olomoni harakatdagi, tajovuzkor, qutqarilayotgan, manfaatparast, ekstatik turlarga kim tasniflagan?

- A) Yu.A. Sherkovin
- B) Mak-Dugall
- C) G.Lebon
- D) To'g'ri javob yo'q

8. Sobiq ittifoq davrida yashagan qaysi psixologlar olomonning bir qator psixologik xususiyatlarini o'rgangan?

- A) Porshnev, Parigin
- B) Andreyeva, Nemov
- C) Sherkovin, Fedenko
- D) A va C javoblar

9. Olomon sodir bo'lgan voqea-hodisaga qarab qanday turlarga bo'lnadi?

- A) To'satdan yuzaga kelgan olomon, ekspressiv olomon
- B) Konvensial olomon, harakatdagi olomon
- C) Tajovuzkor olomon, fanatic olomon
- D) A va B javoblar

10. Umumiy tuyg'ularni birgalashib ifodalayotgan kishilar guruhi nima deb ataladi?

- A) To'satdan yuzaga kelgan olomon
- B) Ekspressiv olomon
- C) Konvensial olomon
- D) Harakatdagi olomon

IX BOB. GURUH SHAROITIDA ZAMONAVIY O‘QITISHNING PEDAGOGIK VA PSIXOLOGIK TEXNOLOGIYALARI

IX.1. Auditoriya bilan ishlashning sotsial psixologik shartlari

Ma’lumki, har qanday pedagogik jarayonning asosiy maqsadi – ta’lim oluvchida bilim, malaka va ko’nikmalar hosil qilishdir. Bu narsa ma’lumotlar almashinuvi orqali ro’y beradi. Pedagogik muloqot jarayonidagi ma’lumotlar almashinuvi asosan uch shaklda amalga oshiriladi:

- monolog;
- dialog;
- polilog.

Monolog – ma’ruzachi yoki o’qituvchining tinglovchilar yoki o’quvchi-talabalar qarshisiga chiqib nutq so’zlashi, darsni bayon etishidir. Ayni shu usul ta’lim-tarbiya jarayonidagi asosiy vosita ekanligi to’g’risida ongimizga o’rnashib qolgan tasavvur mavjud. Bu holatda gapiruvchi ma’lumotlarning asosiy tayanch manbai hisoblanadi va faqat undagina faollik talab qilinadi. Monolog egasi o’zi mustaqil tarzda ma’lumot mazmunini tinglovchilarga yetkazish va o’z mavqeini ta’kidlash imkoniga ega bo’ladi. Lekin auditoriya, ya’ni tinglovchilar unga nisbatan ancha passiv mavqeda bo’ladilar va bu narsa ma’lumotning faqat kichik bir qisminigina idrok qilish va eslab qolishiga sabab bo’ladi. Shuning uchun ham o’qituvchi bu kamchilikning oldini olish uchun auditoriyani faollashtirishning boshqa yo’llarini qidirishga majbur bo’ladi.

Dialog – o’quv mavzusi yoki muammoni guruh sharoitida o’qituvchi bilan birgalikda va hamkorlikda muhokama qilish yo’lidir. Shuning uchun bu usul tinglovchilarni nafaqat faollashtiradi, balki auditoriyada ijodiy muhitning bo’lishi va fikrlar almashinuvidan har bir ishtirokchining manfaatdorligini ta’minlaydi. Ya’ni, tinglovchilar o’quv jarayonining ob’yektidan **uning subyektiga** aylanadilar.

Dialog jarayonida o’qituvchi bilan o’quvchilar o’rtasida fikrlar almashinuvi, bilimlarni o’zaro muhokama qila olish uchun real sharoit yaratiladi. Lekin dialogni tashkil etishdan avval o’qituvchi auditoriyaning u yoki bu xususda bilimlar va

tasavvurlarga ega bo'lishini inobatga olishi zarur, aks holda o'zaro muloqot samarasiz va mazmunsiz tortishuvga aylanib ketishi mumkin. Dialog jarayonida uni tashkil etgan shaxs auditoriyaning u yoki bu muammo yuzasidan bilimlarini diagnostika qilish va shunga mos tarzda o'z ishini tashkil etish imkoniyatiga ega bo'ladi. Aynan shu holat dialogning eng muhim psixologik ahamiyatidir.



Polilog – guruh ichidagi munozaradir. U tinglovchilar yoki o'quvchilarning faolligini yanada oshirish, ulardagi ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish maqsadida ishlatiladi. Polilog jarayonida guruh a'zolarining har biri muhokama qilinayotgan masala yuzasidan o'z fikrini bildirish imkoniyatiga ega bo'ladi, o'qituvchi esa ushbu jarayonning tashkilotchisi sifatida o'quvchilar yoki talabalar faoliyatiga bevosita aralashmaydi. Bu usul dars mavzusi ko'proq nazariy xarakterli bo'lib, yangi g'oyalardan ularning amaliy jihatlari keltirib chiqarilishi zarurati bo'lganda qo'l keladi. Lekin bu usul mashg'ulotlar yoki muloqot darslari endi boshlangan paytda o'tkazilishi maqsadga muvofiq emas, chunki polilog uchun o'qituvchi bilan hamkorlikda ishlash tajribasidan tashqari yoshlarga o'sha soha yuzasidan ma'lum bilimlar majmui hamda hamkorlikda ishlash tajribasi zarur. Dialog va polilog texnikasini yaxshi egallagan muallim munozara yoki bahsni samarali tashkil etishga layoqatli bo'ladi. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, munozarani samarali tashkil etish qobiliyati o'z-o'zidan shakllanmaydi, buning uchun o'qituvchi umuman munozara metodikalarining mohiyati va uni tashkil etish yo'llarini ilmiy-amaliy jihatdan bilishi kerak.

IX.2. Faol o'qitish metodlari va ularni tashkil etish

Faol o'qitish metodlariga eng avvalo bahs va munozara yo'li bilan bilim va malakalar hosil qilish tushuniladi. Bahsning samarali bo'lishi eng avvalo bahslashuvchilarning bir-birlariga nisbatan fazoviy joylashuvlariga bog'liq. Quyida keltirilgan rasmlarda tinglovchi va muzokarada qatnashuvchilarning fazoviy joylashuvlari va ularning psixologik mavqelarining mohiyati keltirilgan.



Har bir holat bahs qatnashuvchilarida o'ziga xos ruhiy tayyorgarlik va mas'uliyat hissini keltirib chiqaradi.

1-rasm. **Sinf sharoiti.** Bu – an’anaviy dars o‘tkazish shakli bo‘lib, tinglovchilar bir-birlarining yuzlarini ko‘rish imkoniyati cheklangan va doska oldidagi o‘qituvchiga va u bayon etayotgan mazmunga nisbatan tinglovchilarning mavqelari, mas’uliyati turlicha. Bu sharoitda bahs o‘tkazish mumkin emas. Chunki sinfdan oxirgi qatorda o‘tirgan bola bilan birinchi qatorda o‘tirganing darsga munosabati keskin farq qiladi. Tinglovchining psixologik mavqei – «Men» – o‘yindan tashqarida».



2-rasm. **«Men» – o‘yinda»** deb ataluvchi holat: tinglovchilar doira shaklidagi stol atrofida joylashadilar va o‘rtaga tashlangan mavzu yuzasidan erkin fikr almashish, hattoki, ayrim sotsial rollarga ham kirish imkoniyatiga ega bo‘ladi, hatto boshlovchi ham «qatorda» o‘tiradi. «Ishchanlik o‘yinlar» va boshqa rolli o‘yinlar ana shunday sharoitda o‘tkazilishi mumkin.

3-rasm. **«Men» – munozarada»** deb ataluvchi bu holat ayni bahs-munozaralar o‘tkazish uchun qulay, chunki unda shaxs o‘z fikrini dadil aytish uchun imkoniyatni his qiladi. Odatda bunday bahslar to‘rtburchak stol atrofida uyushtiriladi.



4-rasm. **«Men» – hamkorlikdaman»** degan bu holat kattaroq guruhlar tarkibida tashkil etiladi. Munozara a‘zolari to‘rt-besh kishidan bo‘lib alohida stollar atrofida o‘tirib, har bir guruh o‘z qarorini chiqaradi. «Munozara» klublari» faoliyati shu tarzda tashkil etiladi.

Demak, dars mobaynida o‘qituvchi mavzuning xarakteri va u shakllantirish lozim bo‘lgan bilim, malaka va fazilatlariga mos tarzda munozara sharoitini tanlashi va shunday keyingina mashg‘ulotni boshlashi kerak. Ko‘rinib turibdiki, an’anaviy sinfdan tashkil etiladigan mashg‘ulotlarning samaradorligi deyarli yo‘q, chunki ular oldingi qatorlarda o‘tirgan tinglovchilarning

faolligigagina yo'naltirilgan, qolganlar «o'yindan tashqari» holatda, bu narsa ularning dars mazmuniga munosabatlarida bevosita aks etadi.

Kichik, tor doiralardagi kompakt guruhlarda uyushtirilgan munozaralarning *erkin mavzuli, yo'naltirilgan va aniq ssenariyli disput* turlari mavjud bo'lib, bu tanlangan mavzuga va munozara guruhlarining muloqot tajribasiga bog'liqdir («disput» so'zining lug'aviy ma'nosi – «fikrlayapman», «tortishayapman», degan ma'noni bildiradi). Kichik guruhlardagi munozaralardagi asosiy narsa – guruh a'zolarining tanlangan mavzu xususiyatiga qarab, har birining o'z fikr mulohazalarini oxirigacha bayon etish imkoniyatlarining borligidir. Bunday guruhda boshlovchi ham qatorda o'tirib, mavzuning yechimi batamom hal bo'lmaguncha faol muloqotlarning ishtirokchisi bo'lishi mumkin. Lekin asosiy rol guruhning a'zolariga yuklanganligini va bevosita ajralib chiqqan norasmiy lider asosiy bahs yurituvchi bo'lishi mumkinligini unutmashligi zarur. Bunday gurunglar turli sharoitda ko'pincha bahs ishtirokchilari uchun tabiiy sharoitlarda (masalan, sinfda, talabalar auditoriyalarida, ish xonalarida va b.q.) o'tkazilsa, maqsadga muvofiq bo'ladi.

Agar bahlashuvchilar guruhi odatdagidan kattaroq hajmda (masalan, 30 kishigacha) bo'lsa, unda munozarani uyushtirishning o'ziga xos tomoni bor. Bu holda bahs guruhi shartli ravishda uchga bo'linadi. Birinchi guruh – **«fikrlarni jamlovchilar»** – **generatorlar** guruhi deyiladi; ikkinchisi – **«tanqidchilar»** va uchinchi guruh – **«fikrlarni tezlatuvchilar»** – **katalizatorlar»** deb ataladi.

Har bir ajralgan guruhning o'ziga xos funksiyalari bor: «generatorlar» o'rta tashlagan muammo yoki bahs mavzusi bo'yicha o'zlaridagi barcha fikrlarni o'rta xolis tashlaydilar. Guruh a'zolaridan biri – lider – ularni jamlab, fikrlar ikkiga bo'lingan taqdirda ham ularni umumlashtirib bayon etadi. So'ngra o'yinga «tanqidchilar» kirishadi. Ularning vazifasi – eshitgan fikrlariga tanqidiy munosabat bildirish, ya'ni tanqidiy nuqtai nazardan ular ichidagi «mag'zni» va «puchak» fikrlarni saralash. Shundan keyin vaziyatga qarab, yana so'z «generatorlar»ga yoki «katalizatorlar»ga berilishi mumkin. Bildirilgan fikr va takliflarda mabodo hisobga olinmay qolgan jihatlar yoki noo'rin fikr bo'lsa, yoki mohiyatan shu mavzuga aloqador bo'lgan, lekin ikkala tomon hisobga olmagan biror jihat aniqlansa, tomonlar

diqqatini aynan shunga qaratishi kerak. Soʻngra «tezlatuvchilar» bahsni davom ettirishga ruxsat berib, agar uni yakun qilish taqozo qilinsa, ikkala guruhning oʻyiniga xolis baho bergan holda munozarani toʻxtatishi mumkin. Ular koʻpincha ikkala guruh uchun xolis orbitolar – «hakamlar» rolini oʻynaydilar.

Maktabda bir sinf doirasida yoki talabalar guruhida axloqiy maʼnaviy mavzuda bahs uyushtirganda, yuqoridagi usulni qoʻllash imkoniyati boʻlsa, suhbatdoshlarning *uchburchak shaklidagi berk stol* atrofiga oʻtirishlari mumkin. Demak, bahslashuvchilarning joylashishlari ham bu oʻrinda maʼlum ahamiyat kasb etadi.

Katta guruhlarda bahs yoki munozara uyushtirilganda, boshlovchining roli ayniqsa kattadir. Chunki u har bir guruhdagi tortishuvlar va fikr almashinuvlarning boshida turmogʻi, kerak boʻlsa, ular faoliyatini maqsadga muvofiq tarzda yoʻnaltirib turmogʻi lozim. Kichik guruhdagidan farqli oʻlaroq, katta guruhlarda boshlovchi u yoki bu ichki guruhga yon bosmasligi yoki ularni oʻzining shaxsiy fikriga majburan ergashtirmasligi kerak. Aks holda, u oʻzining faoliyati bilan boshqalar tashabbusiga salbiy taʼsir koʻrsatishi va bahsning yoʻnalishini buzib qoʻyishi mumkin. Shuning uchun katta guruhlarda uyushtiriladigan munozaraning mavzusi oldindan tanlangan va unga boshlovchi maʼlum maʼnoda tayyor boʻlishi shart.

IX.3. Darsda munozara, breynshtorming va treninglar oʻtkazish texnologiyasi

Munozaralar yuritishning yana bir shakli borki, uning nomini rus tilida «mozgovaya ataka», inglizchasiga «brain storming» deb ataladi. Bizning tilimizda bu tushunchaning aniq analogik tarjimai yoʻq, lekin uni «miyaga hujum» yoki «fikrlar toʻqnashuvi», «fikrlar jangi maydoni» deb atash mumkin. Metodning psixologik mohiyati shundaki, oddiy munozarada bahslashuvchilar koʻproq ongli, asosli fikrlarni bayon etishga harakat qiladilar. Bunda esa bahslashuvchilarga miyaga qanday fikr quyilib kelsa, uni tanqidsiz va asoslamay erkin, «tilga nima kelsa», lekin navbatma-navbat aytish imkoniyati beriladi. Bu narsa koʻproq muammo ancha notanish, savol murakkab yoki noaniq boʻlgan sharoitlarda qoʻl keladi. Yaʼni, bunda «erkin assotsiatsiyalar»ga imkon beriladi va oxir oqibat guruhning oʻzi maʼlum ratsional «magʻzni» ajratib oladi.

Bu usulni birinchi marta amerikalik olim **A.Osborn** 30-yillardayoq taklif etgan va bu usul yordamida yirik loyihalarni rejalashtirish va oldindan uning natijalarini bashorat qilishda ma'lum yutuqlarni qo'lga kiritgan edi. Lekin keyinchalik mutaxassislar uni faqat nostandart, o'ziga xos yechimi bo'lgan vazifalarni muhokama qilgandagina qo'llash mumkin, degan fikrni bildira boshladilar. Biroq to'g'ri tashkil etilgan breyshtormingning amaliy afzalliklari ko'p. Faqat bunda quyidagi qoidalarga rioya qilish kerak:

1. Jumlar juda qisqa bo'lishi kerak, ularning asoslanishi shart emas.
2. Har qanday jumla yoki fikr tanqid qilinishi mumkin emas, ya'ni fikrlar tanqiddan xolidir.
3. Mantiqiy fikrlardan ko'ra, fantastik yoki qo'qqisdan, tasodifan miyada paydo bo'lgan fikr muhimroq.
4. Fikr yoki bildirilgan qisqa mulohaza qayd etiladi.
5. Bildirilgan fikr yoki g'oyalar u yoki bu ishtirokchiliki, deb ajratilmaydi, ya'ni ular – muallifsizdir.
6. Fikr yoki yaxshi g'oyalarni tanlash alohida «tanqidchilar» yoki guruhning norasmiy liderlari tomonidan amalga oshiriladi.

Yuqoridagi ta'kidlangan guruh katta bo'lgan sharoitda bahs uyushtirishda ham generator, ya'ni fikrlarni birlamchi jamlovchilarga ushbu usulda ishlashga imkon berish tajribada yaxshi natija beradi. Chunki o'tkazilgan tekshiruvlar va ko'plab sinov mashg'ulotlarining ko'rsatishicha, aynan shu guruhda breyshtorming usulining qo'llanilishi turli-tuman va qarama-qarshi fikrlarning bayon etilishiga sharoit yaratadi. Aks holda muhim muammolar bo'yicha munozarani boshlash va unda fikrlar rang-barangligiga erishish juda qiyin bo'ladi. Bu usul ayniqsa, kattalar auditoriyasida juda yaxshi samara beradi.

Bahsda ishtirok etish va undan manfaatdorlik hissi har bir ishtirokchida shakllanishi shart va bunda boshlovchi – o'qituvchining roli katta. Amaliy mashg'ulotlarni bahs-munozara shaklida o'tkazilishi bolalarga oldindan aytilishi va ularning tayyorgarlik ko'rishlari uchun savollar berilib qo'yilishi maqsadga muvofiqdir. Bahs ishtirokchilari hayajonlanmasliklari uchun mashg'ulot

boshlanishidan avval ularning o'zlarini erkin tutishlari uchun ayrim **yengillashtiruvchi mashqlar**, boshqacha qilib aytganda, **psixogimnastik mashqlar** o'tkazish tavsiya etiladi.

Masalan, ana shu maqsadda o'tkaziladigan psixogimnastik mashqlarga quyidagilarni kiritish mumkin:

1. O'qituvchi guruhni aylana shaklida turishlarini so'raydi va a'zolari navbatma-navbat o'rtaga chiqib, guruh bilan xohlagan tarzda, lekin samimiy salomlashishni so'raydi. Keyin guruhdan kimning salomi ko'proq yoqqanini so'raydi.

2. Guruh a'zolari o'qituvchi atrofida yarim aylana shaklida turishadi. Navbat bilan guruh a'zolari o'rtaga chiqib, xohlagan a'zo bilan so'zsiz, lekin ochiq yuz bilan mimika vositasida salomlashish va biror fikrni bildirishi so'raladi.

3. Hamma doira shaklida o'tiradi va o'qituvchi olib kelgan koptok navbat bilan muloqot qatnashchilariga otiladi, faqat kimga otilsa, o'sha odamning kuchli, yaxshi bir sifati aytilib, so'ng irg'itiladi. O'qituvchi koptokning albatta har bir kishiga tegishini nazorat qiladi.

Bu kabi mashqlar munozara qatnashchilari o'rtasida o'zaro tanglikning bo'lmasligi va o'z fikrini bayon etayotganda o'qituvchidan tortinmasligi uchun o'ziga xos trening hisoblanadi.

O'qituvchi munozarani boshlar ekan, ishtirokchilar ongiga quyidagilarni yetkaza olishi kerak:

a) mashg'ulot har bir ishtirokchiga albatta foydali bo'ladi va ular bir-birlariga yordam berish uchun kelganlar;

b) munozara o'zaro muloqotning bir shakli bo'lib, har bir ishtirokchi bir-biriga ochiq va samimiy munosabatda bo'lsin;

v) munozara ishtirokchilarning o'zaro tajribalarini almashinishlari uchun qulay sharoitdir;

g) fikr bayon etishda kerak bo'lsa tavakkal qilaylik, lekin indamaslik shiorimiz bo'lmasin;

d) munozara paytida ko'p yozish shart emas;

ye) agar biror narsa tushunarli bo'lmasa, uni so'rashdan tortinmang;

j) bilgan bilimlarimizni bir-birimizdan ayamaymiz, chunki boshqalar ham bundan manfaatdor bo'lsinlar, «yashiringan bilim – bilim emas»ligini unutmaylik!

IX.4. Bahs turlari. Yozma bahs o'tkazish usullari

Agar mashg'ulotlar bir-birlarini yaxshi tanimaydigan boshlang'ich guruhlarda boshlangan bo'lsa, «tanishish» mashqlarini o'tkazish, albatta ishni kichik guruhlardan boshlash lozim. Bunda **erkin yo'naltirilmagan bahs** shaklini qo'llash o'rinliroq. Bunda o'qituvchi ishtirokchilarga bir-birlarini yaxshi tanib olsalar, birgalikda harakat qilsalar, umumiy ish uchun manfaatli bo'lgan natijalarga erishish mumkinligini tushuntirishi lozim.

Agar ishtirokchilar biror *yangi ma'lumotlarga ega bo'lish*, murakkabroq masala yuzasidan umumiy nuqtai nazarga ega bo'lish va mantiqiy xulosalarga erishishni maqsad qilgan bo'lsalar, unda dars avvalida o'qituvchi yoki oldindan tayyorgarlik ko'rgan guruh a'zosi ma'ruza qilishi, ma'ruza yuzasidan keyin bahs uyushtirilishi, dars oxirida imkon bo'lsa, o'qituvchi o'zi tayyorlagan tarqatma materiallarini har bir a'zoga berishi kerak. Faollashtiruvchi usullar materiallar qo'lga berilgach, ishga solinadi.

Agar darsning yoki amaliy mashg'ulotning maqsadi tinglovchilardagi *aniq qobiliyatlarni rivojlantirish*, malakalarni oshirish va yangi tajribadan foydalanish bo'lsa, unda bahsning predmeti avvalo tajriba almashinuvga qaratilishi, bunda ayrim mashqlar ham bajarilishi, ularning natijalari tahlil qilinishi, rolli o'yinlarni bajarishgacha olib borilishi kerak. Bunda o'qituvchining roli ancha mas'uliyatli bo'lib, u mashg'ulotgacha konkret yo'riqnomalarni o'quvchilarga berishi va guruh ishini muntazam kuzatib, nazorat qilib turadi.

Agar munozara darslarining maqsadi – ishtirokchilarning *yangi, mustaqil fikrlarga kelishi*, ularni shaxsiy tajriba va vaziyatlarga bog'lab aytib berishlariga olib kelish bo'lsa, unda o'qituvchi «Men» – munozaradaman» holatida guruhli bahsni kichik guruhlarda tashkil etishi, ularda alohida holatlar va vaziyatlarning tahliliga barchaning diqqatini qaratishi, ishtirokchilarni turli rollarni tasavvur qilishga majbur qila olishi va oldindan tayyorlab qo'yilgan savolnomalarni dars oxirida tarqatib,

shakllangan yangi g'oyani ajratib olishi kerak. Demak, bu shakldagi ish har bir ishtirokchidan puxta tayyorgarlikni va aniq ko'nikmalarni talab qiladi.

Bahs shaklida mashg'ulot o'tkazganda, qabul qilinadigan qarorlarning ahamiyati katta. Qarorlarning samarali bo'lishi uchun quyidagilarni yodda tutish kerak:

- mashg'ulot boshlanishidan oldin o'qituvchi tahlil qilinishi lozim bo'lgan muammoni belgilaydi va unga qay tarzda munosabat bildirilishi lozimligini tushuntiradi;

- qisqa bo'lsa-da, bu muammoning oldingi darslarga bog'liqligi, uyga berilgan vazifa, muhokama qilinadigan masalaga oid muhim faktlar esga tushiriladi;

- bahs qatnashchilari kichik guruhchalarga (4-5 kishi) bo'linib, mashg'ulot oxirida fikrlar umumlashtirilishi uchun qog'ozlar taxt qilib qo'yiladi;

- guruhda ishlash mobaynida bildirilgan fikrlarning afzal va kamchilik tomonlari haqidagi o'z mulohazalarini og'zaki yoki yozma tarzda qarorlar shaklida bayon etadilar;

- ish yakunida guruhning vakillari o'z guruhining ishi to'g'risida gapirib, ularni boshqalarniki bilan qiyoslaydi. Zarurat bo'lsa, o'qituvchi har bir guruhning qarorlarini o'zaro qiyoslab, savollarga javob beradi, noaniqroq qarorlarga o'z munosabatini bildiradi.

Yozma bahsni o'tkazish usuli. Pedagogik amaliyotda bahsning mohiyati ko'pincha faqat og'zaki dialoglar va tortishuvlar tarzida tasavvur qilinadi. Lekin og'zaki bahslarning yanada samarali va ta'sirchan bo'lishi uchun yozma bahs shakli ham qo'llaniladi. Bu usul o'quvchilarning berilgan mavzu sohasidagi bilimlarini yanada chuqurlashtirish, munozara madaniyatini oshirish va har bir fikrni asoslash qobiliyatini rivojlantiradi. O'qituvchi esa o'quvchi yoki talabalarning bilimlarini asosli baholash va bilimdonlikni to'la ma'noda tahlil qilish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu usul ayniqsa, milliy g'oya va milliy mafkurani shakllantiruvchi fanlar – ijtimoiy-gumanitar fanlar yuzasidan o'tkazilsa yanada samarali bo'ladi.

O‘quvchilar oldindan mavzu bilan tanishtiriladilar, uyga berilgan topshiriqlar orasida qay biri yozma tarzda o‘tkazilishi ma’lum qilinadi. Yozma bahs o‘tkaziladigan kuni o‘qituvchi uni quyidagi tarzda amalga oshiradi:

1. O‘qituvchi guruhni ikkiga bo‘ladi va ularni alohida qatorlarga o‘tqazadi. Har bir guruh mavzu bo‘yicha qaysi nuqtai nazarni himoya qilishini ma’lum qiladi. Masalan, birinchi guruh bolalarning aqliy darajalarini muntazam o‘lchab turish va shu orqali ta’lim muassasalariga jalb etishni himoya qilsa, ikkinchi guruh – bu fikrni asosli tarzda inkor qiladi.

2. Shundan so‘ng o‘qituvchi qarama-qarshi guruh a’zolarini juftlaydi va ularga nomeri yozilgan varaqlarni tarqatadi. Har bir ishtirokchiga biror fikrni yozma asoslashga 5 daqiqadan beriladi. Yozma dalillar ravon tushunarli tilda, asosli tarzda yozilishi kerak.

3. Yozilgan varaqchalar qarama-qarshi sheriklarga beriladi. Ular o‘z «raqiblari» fikriga qarshi fikrni 8-10 daqiqa mobaynida o‘ylab, yozishlari kerak bo‘ladi va narigi tomondagi sherigiga beradi.

4. Yozma dalillar almashinuvining bunday tartibi 2-3 marta takrorlanadi, har safar har bir o‘quvchi sherigining dalil-isbotini diqqat bilan o‘rganib chiqib, javob qaytaradi. Oxirgi raunda o‘quvchilarning o‘zlariga yakunlash imkoni beriladi va yozma ishlar yig‘ib olinadi.

5. O‘qituvchi yozma baholarni yakunlashda tomonlarga «Qarshi tomonning eng yaxshi dalil-isboti qaysilar bo‘ldi?» deb so‘raydi va o‘quvchilar bilan oldindan kelishgan xolda ular bilimlarini yakka-yakka yoki guruhliy baholaydi.

Tayanch tushunchalar: monolog, dialog, polilog, munozara, aqliy hujum, og‘zaki, yozma, “sinf sharoiti”, “men o‘yinda”, “men munozarada”, “men hamkorlikdaman”.

Mavzuni o‘zlashtirish uchun savollar

1. Auditoriya bilan ishlashning sotsial psixologik shartlari haqida gapiring.
2. Faol o‘qitish metodlarining ahamiyatini yoriting.
3. Tinglovchi va muzokarada qatnashuvchilarning fazoviy joylashuvlari va ularning psixologik mavqelarining mohiyatini tushuntirib bering.

4. Kichik, tor doiralardagi kompakt guruhlarda munozaralar qanday tarzda uyushtiriladi?

5. Darsda munozara, breynstorming va treninglar o'tkazish texnologiyasi haqida fikr yuriting.

6. Aqliy hujum usulining mohiyati va o'tkazish tartibini tushuntirib bering.

7. Yozma bahs o'tkazish usullari haqida nimalarni bilasiz?

8. Bahs ishtirokchilari hayajonlanmasliklari uchun mashg'ulot boshlanishidan oldin qanday mashg'ulotlar o'tkazish maqsadga muvofiq?

Bilimlarni mustahkamlash uchun test savollari

1. Pedagogik muloqot jarayonidagi ma'lumotlar almashinuvi asosan necha shaklda amalga oshiriladi?

- A) 4
- B) 3
- C) 5
- D) 7

2. Ma'ruzachi yoki o'qituvchining tinglovchilar yoki o'quvchi-talabalar qarshisiga chiqib nutq so'zlashi, darsni bayon etishi bu – ...?

- A) Monolog
- B) Dialog
- C) Polilog
- D) Interfaol

3. O'quv mavzusi yoki muammoni guruh sharoitida o'qituvchi bilan birgalikda va hamkorlikda muhokama qilish yo'li bu – ...?

- A) Monolog
- B) Dialog
- C) Polilog
- D) Interfaol

4. Guruh ichidagi munozara bu – ... ?

- A) Monolog
- B) Dialog

C) Polilog

D) Interfaol

5. Bu – an’anaviy dars o‘tkazish shakli bo‘lib, tinglovchilar bir-birlarining yuzlarini ko‘rish imkoniyati cheklangan va doska oldidagi o‘qituvchiga va u bayon etayotgan mazmunga nisbatan tinglovchilarning mavqelari, mas’uliyati turlicha.

A) «Sinf sharoiti»

B) «Men» – o‘yinda»

C) «Men» – munozarada»

D) «Men» – hamkorlikdaman»

6. Tinglovchilar doira shaklidagi stol atrofida joylashadilar va o‘rtaga tashlangan mavzu yuzasidan erkin fikr almashish, hattoki, ayrim sotsial rollarga ham kirish imkoniyatiga ega bo‘ladi, hatto boshlovchi ham «qatorda» o‘tiradi.

A) «Sinf sharoiti»

B) «Men» – o‘yinda»

C) «Men» – munozarada»

D) «Men» – hamkorlikdaman»

7. ... deb ataluvchi bu holat ayni bahs-munozaralar o‘tkazish uchun qulay, chunki unda shaxs o‘z fikrini dadil aytish uchun imkoniyatni his qiladi. Odatda bunday bahslar to‘rtburchak stol atrofida uyushtiriladi.

A) «Sinf sharoiti»

B) «Men» – o‘yinda»

C) «Men» – munozarada»

D) «Men» – hamkorlikdaman»

8. ... degan bu holat kattaroq guruhlar tarkibida tashkil etiladi. Munozara a‘zolari to‘rt-besh kishidan bo‘lib alohida stollar atrofida o‘tirib, har bir guruh o‘z qarorini chiqaradi.

A) «Sinf sharoiti»

B) «Men» – o‘yinda»

C) «Men» – munozarada»

D) «Men» – hamkorlikdaman»

X BOB. SHAXS SOTSIALIZATSIYASI

X.1. Sotsiallashev tushunchasi



**Franklin Genri
Giddings
(1855–1931)**

Bugungi kunda jamiyatimizda olib borilayotgan siyosatning asosiy maqsadlaridan biri – barkamol avlodni tarbiyalashdir. Barkamol avlod tarbiyasi uchun mas’ul bo‘lgan kishilar sifatida psixolog mutaxassislariga bugungi mavzu juda dolzarbdir.

«**Sotsiallashev**» atamasini birinchi bo‘lib amerikalik sotsiolog F.G.Giddings insonlarga nisbatan qo‘llagan. U o‘zining «Ijtimoiylashuv nazariyasi» (1897) kitobida «Sotsiallashev individ tabiati yoki xarakterining rivojlanishi, insonni sotsial hayotga tayyorlashdir», degan fikrni bildiradi.

Har birimizning jamiyatdagi o‘rnimiz, uning qachon va qanday sharoitlarda paydo bo‘lgani, jamiyatga qo‘shilib yashashimizning psixologik mexanizmlari jarayoni psixologiyada *sotsiallashev* yoki *sotsializatsiya* deb yuritiladi. Ijtimoiylashuvga oid bir qancha ta’riflar mavjud bo‘lib, quyida ulardan bir qanchasining izohi beriladi.

Sotsiallashev (ba’zi adabiyotlarda sotsializatsiya deb berilgan) tushunchasi sotsial-psixologik, sotsiologik, pedagogik kategoriyalardan biri bo‘lib, bu atama shaxsning uni o‘rab turgan tashqi sotsial muhit ta’siri ostida jamiyatdagi mavjud tajribalarni o‘zlashtirishga moyilligi yoki o‘zlashtirganlik darajasini ifodalovchi jarayondir. Bu tushunchaning umumiy ma’nosi ostida individ tug‘ilib, uni o‘rab turgan birlamchi va ikkilamchi muhit ta’sirida ulg‘ayishi, undan so‘ng jamiyatga qo‘shilishi, o‘rgangan barcha tajribalarini atrof-muhitdagilar bilan hamkorlik qilish jarayonida qo‘llashi va kimlargadir shu tajribalarni uzatishda vosita bo‘lishi jarayoni tushuniladi.

Sotsiallashev inson tomonidan sotsial tajribani egallash, hayot va faoliyat jarayonida uni faol tarzda qo‘llash jarayonidir.

Sodda til bilan aytganda, sotsiallasuv har bir shaxsning jamiyatga qo‘shilishi, uning me‘yorlari, talablari, kutishlari va ta‘sirini qabul qilgan holda, har bir harakati va muomalasida uni ko‘rsatishi va kerak bo‘lsa, shu sotsial tajribasini o‘z navbatida o‘zgalarga o‘rgata olish jarayonidir.

Sotsiallasuv so‘ziga berilgan ta‘riflardan eng keng tarqalgani (lot. Socialis – sotsial, jamoaviy) individning jamiyatga kirib borib, undagi hayot uchun zarur bo‘ladigan malaka, rollar, me‘yorlar va qadriyatlarni o‘zlashtirishidir. Sotsiallasuv jarayonida insonlarda jamiyatdagi muloqotning ishtirokchisi bo‘lishi uchun kerak bo‘ladigan sotsial sifatlar, bilimlar, ko‘nikmalar shakllanib boradi.

Hozirgi zamon psixologiyasida sotsiallasuv terminining yana ikkita sinonimi keng qo‘llaniladi: ya‘ni bular «shaxs shakllanishi» va «tarbiya» jarayonidir. Sotsiallasuv «individning jamiyatga kirib borishi», «sotsial ta‘sirlarni o‘zlashtirish» hamda «sotsial aloqa jarayonida ulardan foydalanish» kabi tushunchalar orqali ham ifodalanadi.

Sotsiallasuv – bu bizning jamiyatga qo‘shilib yashashimiz va shu jamiyatda mavjud bo‘lgan sotsial tajribalarni o‘zlashtirishimizdan iborat bo‘lgan jarayondir. Bu jarayon uch bosqichdan iborat holda kechadi:

Individ sotsial tajribani

- ✓ *qabul qilishi*, singdirishi;
- ✓ o‘z hayoti, faoliyati, munosabati jarayonida *qo‘llashi*;
- ✓ o‘zgalarga *uzatishi*, o‘z ta‘sirini o‘tkaza olish jarayonidir

Sotsiallasuv ikki tomonlama jarayondir, bir tomondan individning jamiyatga kirib borib, undagi malakalarni o‘zlashtirish jarayoni bo‘lsa, ikkinchi tomondan, inson faolligi hamda jamiyatdagi faol ishtiroki orqali sotsial aloqalarni o‘rnatishdir.

Sotsiallasuv g‘oyasini psixologiya sohasiga kiritgan hamda bu muammoni sotsial psixologik bilimlarni rivojlantirish uchun muammo sifatida olib kirgan olimlar sotsiallasuvning aynan shu ikki tomoniga katta e‘tibor qaratishgan.

Sotsiallasuv jarayonining birinchi tomoni – sotsial malakalarni o‘zlashtirish – bu jamiyatni insonga ta‘sir etuvchi tavsifi, ikkinchi tomoni esa – inson faolligi – insonning jamiyatga o‘zining faoliyati orqali ta‘sir etishidir. Bunda inson faolligi

pozitsiyasi – sotsial aloqalarga har qanday ta'sir ma'lum bir qaror qabul qilish va keyinchalik shu qarorni bajarish uchun ma'lum bir faoliyat strategiyasini ishlab chiqish orqali tushuntiriladi. Sotsiallasuv jarayoni shu keltirilgan tushuntirishlar orqali shaxs shakllanish jarayoniga qarshi chiqmaydi, lekin, bu muammoga turli tomondan yondashishni talab qiladi.

G.M.Andreyevaning fikriga ko'ra, «Yosh psixologiyasi uchun bu muammo «shaxs» mavzusiga taalluqli bo'lsa, sotsial psixologiya uchun «shaxsning jamiyatga ta'siri» tomondan qiziqroq hisoblanadi».

Shu o'rinda sotsiallasuv jarayoniga ta'sir etuvchi omillarni ko'rsatib o'tishni lozim topdik. Bular: Biologik kontekst va Madaniy kontekst.

Biologik kontekst. Insonlarga ko'zni yumib-ochish, ushlab, so'rish kabi genetik reflekslar xos bo'lsa-da, ularning genida o'zini tutishning qiyin modellari programmashtirilmagan bo'ladi. Ular kiyinish, ovqatlanish, uy-joy qilish kabi ko'nikmalarni o'rganishlari, yashash uchun kerakli ko'nikma, malakalarni sekin-astalik bilan o'zlashtirishlari kerak bo'ladi. Hayotining dastlabki yilida bola butkul kattalarning diqqat-e'tibori ostida bo'ladi va asta-sekin boshqa jonzotlarga xos bo'lmagan, ular o'zlashtira olishi qiyin bo'ladigan ko'nikmalarni o'zlashtirib olishadi (masalan, gapirish).

Madaniy kontekst. Har bir jamiyat boshqalardan ustun bo'lgan ma'lum bir shaxs sifatlarini qadrlaydi va bolalar sotsiallasuv jarayonida bu sifatlarini o'zlashtirib olishadi. Insondagi aynan qaysi sifatlar ko'proq qadrlansa, sotsiallasuv usullari shunga bog'liq bo'ladi, ular turli madaniyatlarda turlicha bo'ladi. Masalan, Amerikada o'ziga ishonish, o'zini boshqara olish va agressivlik kabilar qadrlansa, Hindistonda uning aksi, passivlik va mistitsizm qadrlanadi. Shuning uchun amerikaliklar buyuk sportsmenlar, astronomlarga hurmat bilan qarashadi. Hindlar esa, zo'ravonlikka qarshi harakat qiladigan dindorlar va siyosat arboblari (masalan, Maxatma Gandi)ga hurmat bilan qarashadi. Bu madaniy qadriyatlar ijtimoiy me'yorlar asosida yuzaga keladi. Tarkibida bir xillik mavjud bo'lmaganligi tufayli, sotsiallasuv ikki tomonlama jarayondir. Biologik omillar hamda madaniy omillarning, shuningdek, ijtimoiylashayotgan hamda ijtimoiylashmoqchi bo'lgan

odamlar o'rtasida bir-biriga ta'sir etish jarayoni ro'y beradi.

Shaxsning sotsiallasuvi uning bilishga bo'lgan ob'yektiv ehtiyoji jarayonida paydo bo'ladi. Biroq bu bilan uzviy ravishda shaxsda boshqa bir ob'yektiv ehtiyoj – o'ziga xoslikning namoyon bo'lishi ham shakllanadi. Shaxs uni yuzaga chiqarish uchun turli usul va vositalarni qidira boshlaydi va buning natijasida uning individuallasuvi ro'y beradi. Shaxsning faqat o'zigagina tegishli bo'lgan ijtimoiy ahamiyatga ega xislatlari individual tarzda namoyon bo'ladi, uning ijtimoiy xulq-atvori esa takrorlanmas jihatlarga ega bo'ladi.

Shaxsning ijtimoiy rivojlanishi o'zaro bog'liq bo'lgan ikki **yo'nalishda** olib boriladi: moslashuv (ijtimoiy madaniy tajriba, madaniyatni o'zlashtirish) va individuallasuv (mustaqillik, nisbatan o'ziga xoslikka ega bo'lish). Shunday qilib, sotsiallasuv tushunchasi zamonaviy fanda inson shaxsining moslashuvi va individuallasuvi jarayonlarini o'zaro bog'laydi. Insonning aniq bir jamiyat sharoitlariga moslashuvi yoki undan ajralib chiqishi (individuallasuvi) sotsiallasuv jarayonining mazmunini tashkil qiladi. Moslashish sub'yekt va ijtimoiy muhitning o'zaro faol yaqinlashuvi jarayoni va natijasidir.

X.2. Taraqqiyot davrlarida shaxs sotsiallasuvi

Shaxs, uning dunyoni bilishi, o'zini va atrofidagi insoniy munosabatlarni bilishi, tushunishi va o'zaro munosabatlar jarayonida o'zidagi takrorlanmas individuallilikni namoyon qilishi hamda ushbu jarayonlarning yoshga va jinsga bog'liq ayrim jihatlarni tahlil qilish bizga umumiy ravishda shaxs – jamiyatda yashaydigan sotsial mavjudotdir, degan xulosani qaytarishga imkon beradi. Ya'ni, u tug'ilgan onidan boshlab o'ziga o'xshash insonlar qurshovida bo'ladi va uning butun ruhiy potentsiali ana shu sotsial muhitda namoyon bo'ladi.

Chunki agar insonning ontogenetik taraqqiyoti tarixiga e'tibor beradigan bo'lsak, hali gapirmay turib, odam bolasi o'ziga o'xshash mavjudotlar davrasiga tushadi va keyingina sotsial muloqotning barcha ko'rinishlarining faol ob'yekti va sub'yektiga aylanadi. Shu nuqtai nazardan, har birimizning jamiyatdagi o'rnimiz, uning qachon va qanday sharoitlarda paydo bo'lgani, jamiyatga qo'shilib

yashashimizning psixologik mexanizmlari fanning muhim vazifalaridan biridir. Bu jarayon psixologiyada *sotsiallashev yoki sotsializatsiya* deb yuritiladi.

Sotsiallashev eng avvalo odamlar o'rtasidagi muloqot va hamkorlikda turli faoliyatni amalga oshirish jarayonini nazarda tutadi. Tashqaridan shaxsga ko'rsatilayotgan ta'sir oddiy, mexanik tarzda o'zlashtirilmay, u har bir shaxsning ichki ruhiyati, dunyoni aks ettirish xususiyatlari nuqtai nazaridan sub'yektiv tarzda idrok etiladi. Shuning uchun ham bir xil sotsial muhit va bir xil ta'sirlar odamlar tomonidan turlicha harakatlarni keltirib chiqaradi. Masalan, 10-15 ta o'quvchidan iborat akademik litsey o'quvchilarini olaylik. Ularning bilimni, ilmni idrok qilishlari, ulardan ota-onalarining kutishlari, o'qituvchilarning berayotgan darslari va unda yetkazilayotgan ma'lumotlar, manbalar va boshqa qator omillar bir xilday. Lekin baribir ana shu 15 o'quvchining har biri shu ta'sirlarni o'zicha, o'ziga xos tarzda qabul qiladi va bu ularning ishdagi yutuqlari, o'quv ko'rsatgichlari va iqtidorida aks etadi. Bu o'sha biz yuqorida ta'kidlagan sotsiallashev va individualizatsiya jarayonlarining o'zaro bog'liq va o'zaro qarama-qarshi jarayonlar ekanligidan darak beradi.

Sotsiallashev jarayonlarining ro'y beradigan shart-sharoitlarini *sotsial institutlar* deb ataymiz. Bunday institutlarga oiladan boshlab, mahalla, rasmiy davlat muassasalari (bog'cha, maktab, maxsus ta'lim o'choqlari, oliygohlar, mehnat jamoalari) hamda norasmiy uyushmalar, nodavlat tashkilotlari kiradi.

Bu institutlar orasida bizning sharoitimizda *oila va mahallaning* roli o'ziga xosdir. Insondagi dastlabki sotsial tajriba va sotsial xulq elementlari aynan oilada, *oilaviy munosabatlar* tizimida shakllanadi. Shuning uchun ham xalqimizda «**Qush uyasida ko'rganini qiladi**» degan maqol bor. Ya'ni, shaxs sifatlarining dastlabki qoliplari oilada olinadi va bu qolip jamiyatdagi boshqa guruhlar ta'sirida sayqal topib, takomillashib boradi. Bizning o'zbekchilik sharoitimizda oila bilan bir qatorda **mahalla** ham muhim tarbiyalovchi-sotsiallashtiruvchi rol o'ynaydi. Shuning uchun bo'lsa kerak, ba'zan odamning qaysi mahalladan ekanligini surishtirib, keyin xulosa chiqarishadi, ya'ni mahalla bilan mahallaning ham farqi bo'lib, bu farq odamlar psixologiyasida o'z aksini topadi.

Masalan, bitta mahalladan yaxshi kelin chiqsa, aynan shu mahalladan qiz qidirib qolishadi. Ya'ni, shu mahalladagi sotsial muhit qizlarning iboli, aqli, sarishtali bo'lib yetishishlariga ko'maklashgan. Masalan, ayrim mahallalarda sahar turib ko'cha – eshiklarni supurish odatga aylangan va barcha oilalar shu udumni buzmaydilar. Shunga o'xshash normalar tizimi har bir ko'cha-mahallaning bir-biridan farqi, afzallik va kamchilik tomonlarini belgilaydi, oxirgilar esa shu mahallada katta bo'layotgan yoshlar sotsiallashtirishida bevosita ta'sirini ko'rsatadi.

Yana bir muhim sotsiallashtirish o'choqlariga *maktab va boshqa ta'lim maskanlari* kiradi. Aynan shu yerda sotsiallashtirish va tarbiya jarayonlari maxsus tarzda uyg'unlashtiriladi. Bizning sotsial tasavvurlarimiz shundayki, maktabni biz ta'lim oladigan, bola bilimlar tizimini o'zlashtiradigan maskan sifatida qabul qilamiz. Lekin aslida bu yer sotsiallashtirish tarbiyaviy vositalarda yuz beradigan maskandir. Bu yerda ataylab tashkil etilgan, oxirgi yillarda joriy etilgan «Ma'naviyat darslari», «Etika va psixologiya» kabi tarbiyalovchi fanlar nazarda tutilmayapti. Gap har bir darsning, umuman maktabdagi shart-sharoitlar, umumiy muhitning tarbiyalovchi roli haqida.

Masalan, dars paytida o'qituvchi butun diqqati bilan yangi darsni tushuntirish bilan ovora deylik. Uning nazarida faqat dars, mavzuning mazmuni va undan ko'zlangan maqsad asosiydir. Lekin, aslida ana shu jarayondagi o'qituvchining o'zini qanday tutayotganligi, kiyim-boshi, mavzuga sub'yektiv munosabati va qolaversa, butun sinfdagi o'quvchilarga munosabati hamma narsani belgilovchi, sotsial tajriba uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan omildir.

Shu nuqtai nazardan o'quvchilar didi, kutishlari va talablariga javob bergan o'qituvchi bolalar tomonidan tan olinadi, aks holda esa o'qituvchining ta'siri faqat salbiy rezonans beradi. Xuddi shunday har bir sinfdagi shakllangan muhit ham katta rol o'ynaydi. Ba'zi sinflarda o'zaro hamkorlik, o'rtoqchilik munosabatlari yaxshi yo'lga qo'yilgan, guruhda ijobiy munozaralar va bahslar uchun qulay sharoit bor. Bu muhit tabiiy o'z a'zolari sotsial xulqini faqat ijobiy tomonga yo'naltirib turadi.

Yana bir muhim sotsiallashtirish muhiti – bu mehnat jamoalaridir. Bu muhitning ahamiyati va o'ziga xosligi shundaki, bu yerga shaxs odatda ancha aqli pishib qolgan,

ma'lum tajribaga ega bo'lgan, hayot haqidagi tasavvurlari shakllangan paytda keladi. Qolaversa, egallangan mutaxassislik, orttirilgan mehnat malakalari va bilimlar ham juda muhim bo'lib, shu muhitdagi sotsial normalar xarakteriga ta'sir qiladi. Lekin baribir shaxsning kimlar bilan, qanday o'zaro munosabatlar muhiti ta'sirida ekanligi uning yetuklik davridagi sotsiallasuvining muhim mezonlaridandir.

Shuning uchun ishga kirishdagi asosiy motivlardan biri – o'sha jamoaning qanday ekanligi, bu yerdagi o'zaro munosabatlar, rahbarning kimligi va uning jamoaga munosabati bo'lib, ko'pincha oylik-maosh masalasi ana shulardan keyin o'rganiladi. Shuning uchun mehnat jamoalarida yaxshi, sog'lom ma'naviy muhit, adolat va samimiyatga asoslangan munosabatlar har bir inson taqdirida katta rol o'ynaydi.

Katta yoshdagi sotsiallasuvning o'ziga xosligi shundaki, unda individualizatsiya jarayoni aniqroq, sezilarliroq kechadi. Chunki katta odam nafaqat tashqi ta'sirlarni o'zlashtiradi, balki o'zidagi iqtidor, malakalari bilan boshqalarga ham tarbiyaviy ta'sir, shaxsiy o'rnatish ko'rsatish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Shu nuqtai nazaridan, qarilikning sotsial mohiyati shundaki, ota-bobolarimiz, onaxonlarimiz asosan o'zlaridagi mavjud sotsial tajribani boshqalarga (farzandlar, nabiralar, mahalladagi yoshlar va hokazo) uzatish bilan shug'ullanadilar va bu narsa ayniqsa, Sharq xalqlarida juda e'zozlanadi. Shu sababli ham mustaqil yurtimizda qariyalar e'zozlanadi, mahallaning boshqaruv roli kun sayin oshirilmoqda, oila tarbiyaning bosh o'chog'i sifatida davlat himoyasida bo'lib kelmoqda. Bu mustaqil davlat yoshlarida yangicha tafakkur va ongning shakllanishiga, yurtga sadoqat, vatanparvarlikning rivojiga o'z hissasini qo'shadi.

X.3. Sotsiallasuv jarayonida shaxs yo'nalishining shakllanishi

Sotsiallasuvning institutlaridan tashqari uning oqibati masalasi ham psixologiyada muhim amaliy ahamiyatga ega. Shaxs sotsiallasuvining eng asosiy mahsuli – bu uning hayotda o'z o'rnini topib, jamiyatga manfaat keltiruvchi faoliyatlarda ishtirok etishidir. Shu nuqtai nazardan olib qaralganda, shaxsning **yo'nalganligi** masalasiga ham fanda katta e'tibor beriladi. *Sotsiallasuv jarayonida*

shaxs faoliyatini yo'naltirib turadigan va real vaziyatlarga nisbatan turg'un, barqaror motivlar majmuiga ega bo'lishlik shaxsning yo'nalganligi deb ataladi.

Yo'nalganlikning eng muhim tarkibiy qismlarini quyidagilar tashkil etadi:

Mas'uliyat. Bu sotsiallasuv jarayonida shaxsning yetukligini belgilovchi muhim ko'rsatgichlardan sanaladi. Oxirgi yillarda psixologiyada *nazorat lokusi nazariyasi (teoriya lokusa kontrolya)* keng tarqaldiki, unga ko'ra, har bir insonda ikki tipli mas'uliyat kuzatiladi. Birinchi tipli mas'uliyat shundayki, shaxs o'zining hayotida ro'y berayotgan barcha xodisalarning sababchisi, mas'uli sifatida faqat o'zini tan oladi. («Men o'zim barcha narsalarga mas'ulman. Mening hayotim va yutuqlarim faqat o'zimga bog'liq, shuning uchun o'zim uchun ham, oilam uchun ham o'zim javob beraman»). Mas'uliyatlilikning ikkinchi turi undan farqli, barcha ro'y bergan va beradigan voqea, hodisalarning sababchisi tashqi omillar, boshqa odamlar (ota-ona, o'qituvchilar, hamkasblar, boshliqlar, tanishlar va boshqalar).



Julian B. Rotter
(1916–2014)

Xorij mamlakatlarda o'tkazilgan tadqiqotlarning ko'rsatishicha, ikkinchi turli mas'uliyat ko'proq o'smirlarga xos bo'lib, ulardan 84% mas'uliyatni faqat boshqalarga yuklashga moyil ekanlar. Bu ma'lum ma'noda yoshlar o'rtasida mas'uliyatsizlikning avj olganligidandir. Shuning uchun ham «nazorat lokusi» tushunchasini fanga kiritgan amerikalik olim J.B.Rotterning fikricha, mas'uliyatni o'z bo'yniga olishga o'rgatilgan bolalarda havotirlik, neyrotizm, konformizm holatlari kam uchrarkan.

Ular hayotga tayyor, faol, mustaqil fikr yurituvchilardir. Ularda o'z-o'zini hurmat hissi ham yuqori bo'lib, bu boshqalar bilan ham hisoblashib yashashga sira halaqit bermaydi. Shuning uchun sotsiallasuvning muhim bosqichi kechadigan ta'lim muassasalarida yoshlarga ko'proq tashabbus ko'rsatish, mustaqil fikrlash va erkinlikni his qilishga sharoit yaratish kerak va bu hozirgi kunda Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev siyosatining asosini tashkil etadi.

Maqsadlar va ideallar. Sotsiallasuvning mas'uliyat hissiga bog'liq yo'nalishlaridan yana biri shaxsda shakllanadigan maqsadlar va ideallardir. Ular

shaxsni kelajakni bashorat qilish, ertangi kunini tasavvur qilish va uzoq va yaqinga mo'ljallangan rejalarni amalga oshirishga tayyorligini ta'minlaydi. Maqsad va rejasiz inson – ma'naviyatsiz pessimistdir. Bu maqsadlar doimo o'zining anglanganligi va shaxs real imkoniyatlariga bog'liqligi bilan xarakterlanadi.

Ularning shakllanishi va ongda o'rnashishida ma'lum ma'noda ideallar ham rol o'ynaydi. Ideallar – shaxsning hozirgi real imkoniyatlari chegarasidan tashqaridagi orzu-umidlari, ular ongda bor, lekin har doim ham amalga oshmaydi. Chunki ularning paydo bo'lishiga sabab bevosita tashqi muhit bo'lib, o'sha ideallar ob'yekti bilan shaxs imkoniyatlari o'rtasida tafovut bo'lishi mumkin. Masalan, o'smirning ideali otasi, u otasiday mashhur va el suygan yozuvchi bo'lmoqchi. Bu orzuga yaqin kelajakda erishib bo'lmaydi, lekin aynan ana shunday ideallar odamga maqsadlar qo'yib, unga erishish yo'lidagi qiyinchiliklarni yengishga irodani safarbar qilishga yordam beradi.

Qiziqishlar va dunyoqarash. Qiziqishlar ham anglangan motivlardan bo'lib, ular shaxsni atrofida ro'y berayotgan barcha hodisalar, olamlar, ularning o'zaro munosabatlari, yangiliklar borasida faktlar to'plash, ularni o'rganishga imkon beruvchi omildir. Qiziqishlar mazmunan keng yoki tor, maqsad jihatidan professional, bevosita yoki bilvosita bo'lishi, vaqt tomondan barqaror, doimiy yoki vaqtinchalik bo'lishi mumkin. Qiziqishlarning eng muhim tomoni shundaki, ular shaxs dunyoqarashi va e'tiqodini shakllantirishga asos bo'ladi. Chunki *e'tiqod* shaxsning shunday ongli yo'nalishiki, unga o'z qarashlari, prinsiplari va dunyoqarashiga mos tarzda yashashga imkon beradi. Xalq doimo e'tiqodli insonlarni hurmat qiladi. E'tiqodning predmeti turlicha bo'lishi mumkin – Vatanga e'tiqod, dinga, fanga, kasbga, axloqiy normalarga, oilaga, go'zallikka va shunga o'xshash.

E'tiqod va qiziqishlar har birimizdagi dunyoqarashni shakllantiradi. ***Dunyoqarash*** – tartibga solingan, yaxlit ongli tizimga aylantirilgan bilim, tasavvurlar va g'oyalar majmui bo'lib, u shaxsni ma'lum bir qolipda, o'z shaxsiy qiyofasiga ega tarzda jamiyatda munosib o'rin egallashga chorlaydi. Mustaqillik davrida shakllanayotgan yangicha dunyoqarash yoshlarda Vatanga sadoqatni, milliy qadriyatlar, an'analarni e'zozlashni, o'z yaqinlariga mehribon va tanlagan yo'liga –

kasbi, maslagi va e'tiqodiga sodiqlikni nazarda tutadi. Yangicha fikrlash va yangicha tafakkur aynan mustaqillik mafkurasi ruhida tarbiya topib, sayqal topgan milliy ong, dunyoqarash va e'tiqoddir.

Tayanch tushunchalar: sotsiallasuv, shakllanish, tarbiya, ijtimoiy tajriba, o'zlashtirish, qo'llash, uzatish, yo'nalganlik, mas'uliyat, maqsad, ideal, qiziqishlar, e'tiqod, dunyoqarash,

Mavzuni o'zlashtirish uchun savollar

1. Sotsiallasuv tushunchasi mohiyatini yoritib bering.
2. Sotsiallasuvga berilgan ta'riflarni izohlang.
3. Taraqqiyot davrida shaxs sotsiallasuvini tushuntiring.
4. Sotsial institutlarning sotsiallasuvdagi ahamiyatini tushuntirib bering.
5. Shaxsning yo'nalganligi deganda nima nazarda tutiladi?
6. Mas'uliyatning ikki tipini tushuntiring.
7. Maqsad va ideal o'rtasidagi bog'liqlikni tushuntiring.
8. Qiziqish va dunyoqarashning sotsiallasuvdagi ahamiyatini izohlang.

Bilimlarni mustahkamlash uchun test savollari

1. Sotsiallasuv atamasini birinchi bo'lib qo'llagan olimni toping.

- A) E.Fromm
- B) F.G.Giddings
- C) A.Antonov
- D) G.Andreyeva

2. «Ijtimoiylashuv nazariyasi» kitobi kim tomonidan yozilgan?

- A) F.G.Giddings
- B) E.Fromm
- C) A.Antonov
- D) G.Andreyeva

3. F.G.Giddings «Ijtimoiylashuv nazariyasi» kitobini nechanchi yilda chop ettirgan?

- A) 1867 yil
- B) 1897 yil
- C) 1877 yil
- D) 1888 yil

4. Har birimizning jamiyatdagi o‘rnimiz, uning qachon va qanday sharoitlarda paydo bo‘lgani, jamiyatga qo‘shilib yashashimizning psixologik mexanizmlari jarayoni psixologiyada

- A) sotsiialashuv deb ataladi
- B) refleksiya deb ataladi
- C) adaptatsiya deb ataladi
- D) identifikatsiya deb ataladi

5. Individ sotsial tajribani necha bosqichda o‘zlashtiradi?

- A) 2
- B) 3
- C) 5
- D) 4

6. «Yosh psixologiyasi uchun bu muammo «shaxs» mavzusiga taalluqli bo‘lsa, sotsial psixologiya uchun «shaxsning jamiyatga ta'siri» tomondan qiziqroq hisoblanadi». Ushbu fikr kimga tegishli?

- A) G.M.Andreyeva
- B) E.Fromm
- C) A.Antonov
- D) J.Rotter

7. Sotsiialashuv jarayonlarining ro‘y beradigan shart-sharoitlari nima deb ataladi?

- A) sotsial institutlar
- B) ta’lim maskanlari
- C) oila va mahalla

D) mehnat jamoalari

8. Sotsiallasuv jarayonida shaxs faoliyatini yo‘naltirib turadigan va real vaziyatlarga nisbatan turg‘un, barqaror motivlar majmuiga ega bo‘lishlik shaxsning deb ataladi?

A) Yo‘nalganligi

B) Mas‘uliyati

C) Qiziqishlari

D) Dunyoqarashi

9. “Nazorat lokusi” nazariyasi tushunchasi fanga kim tomonidan kiritilgan?

A) J.Rotter

B) F.G.Giddings

C) E.Fromm

D) A.Antonov

10. anglangan motivlardan bo‘lib, ular shaxsni atrofida ro‘y berayotgan barcha hodisalar, olamlar, ularning o‘zaro munosabatlari, yangiliklar borasida faktlar to‘plash, ularni o‘rganishga imkon beruvchi omildir.

A) Qiziqishlar

B) Dunyoqarash

C) Maqsadlar

D) E‘tiqod

XI BOB. SOTSIAL USTANOVKA

XI.1. Sotsial ustanovka tushunchasi

Psixologiya fanida shaxsning xulq-atvori va faoliyatga qaratilgan anglanilmagan mayllari orasidagi bog‘liqlik muayyan darajada tadqiq etilgani ustanovka borasidagi muammolarga tegishlidir. **Ustanovka inglizcha «Set» so‘zidan olingan bo‘lib**, ko‘rsatma berish, anglanilmagan mayllar, yo‘l-yo‘riq ko‘rsatish ma’nolarida qo‘llanib kelinadi. Ustanovkalar dunyoni bilishning samarali usulidir. Bizda biror-bir voqea-hodisa yoki shaxsga nisbatan ma’lum bir munosabat mavjud bo‘lsa, bu munosabat bizning his-tuyg‘ularimiz va harakatlarimizda ifodalanishi bizning ustanovkalarimiz bilan bog‘liqdir.

Masalan, bizda biror-bir millat yoki xalqqa tegishli bo‘lgan ma’lumotlar asosida ularni dangasa, tajovuzkor degan tasavvur mavjud bo‘lsa, o‘sha xalqning istalgan vakilini ko‘rganimizda unga nisbatan bizda salbiy his-tuyg‘u paydo bo‘ladi va bu harakatlarimizda ham aks etadi. Ba’zi jamoa, guruh va oilalarda ustanovkaga asoslanish, ishonish ba’zi noxush oqibatlarga olib keladi.

Demak, ustanovka – insonning o‘ziga bog‘liq bo‘lmagan holda his-tuyg‘ularini namoyon qilishi yoki o‘zi bilmagan holda harakat qilishidir, desak bo‘ladimi? Bu savolga ustanovkalar haqidagi ilmiy ma’lumotlarni bilish asosida javob berishga harakat qilamiz.

Bir qarashda «ustanovka» va «sotsial ustanovka» tushunchasi bir-biriga juda yaqin va o‘xshash. Ayniqsa, shaxs, faoliyat, yo‘nalish, tayyorgarlik, munosabat tushunchalari ikkala tushuncha uchun ham birday ahamiyat kasb etadi, qolaversa, ularni bir-biridan ajratgan holda ta’riflash ham juda mushkul.

Lekin fanda aniqlik va har bir sohaning ilmiy yo‘nalishi nuqtai nazaridan, shuningdek, ustanovka muammosining umumiy psixologiyadagi va sotsial psixologiyada tutgan o‘rni va o‘ziga xos vazifalarini belgilash maqsadida «ustanovka» va «sotsial ustanovka» tushunchalari shartli ravishda qabul qilingan. Balki, bu ustanovka muammosini yanada chuqurroq, yanada mukammalroq o‘rganishga xizmat qiladi.

Ustanovka shaxsning o‘zi anglab yetmagan muayyan ruhiy holati yoki maylidir. Bunday holatda shaxs biron-bir ehtiyojni qondirish mumkin bo‘lgan ma’lum faoliyatga nisbatan ruhan tayyor turadi. Avtoritar tafakkur, milliy stereotip, etnik rasm-rusumlar ham ustanovkaga misoldir. Ba’zi hollarda shaxs uchun anglanilmagan ustanovka o‘z pozitsiyasini aniq namoyish qilishda e’tiqod sifatida gavdalanadi, anglanilmagan omillar tariqasida aks etadi.

Ustanovka – insonning o‘zi bilmagan holda yon-atrofidagi insonlar va voqelikni baholashi va ularga nisbatan munosabat bildirishidir.

Ustanovka – bu faoliyatga mustaqil tayyorlikdir.

Ustanovka – insonning ichki o‘ziga xos tuyg‘ularini namoyon etishga ruhan tayyorlik holatidir.

Ustanovka uzoq vaqt davomida shakllanadi va u insonning qadr-qimmatini bilan uzviy bog‘liqdir. «Moyillik», «yo‘nalganlik», «tayyorlik» kabi mazmuni anglatuvchi, bir-biriga o‘xshovchi «ustanovka» va «sotsial ustanovka» tushunchalarini bir-biridan farqlash lozimligi ko‘pchilik olimlar tomonidan qayd etilgan.

“USTANOVKA” VA “SOTSIAL USTANOVKA”	
<p>Umumiy psixologiyada ustanovka tushunchasi ostida sub’yektning ma’lum bir faoliyatga nisbatan tayyorligi tushuniladi. Va bu ikki xil omilga bog‘liqligi ta’kidlanadi: birinchisi, subyektning ehtiyojlari bo’lsa, ikkinchisi obyektiv vaziyatga mos kelishdir.</p>	<p>Sotsial psixologiyada esa, shaxsning asosiy sotsial-psixologik tavsiflaridan biri uning sotsial ustanovkalari hisoblanadi. Sotsial ustanovka (ingl. Social attitude) – insonning boshqa kishilarga, sotsial guruhlariga, tashkilotlarga, jamiyatda yuz beradigan jarayonlarga, voqea-hodisalarga bo‘lgan barqaror munosabatidir.</p>

Sof psixologik ma’noda yangicha tafakkur va dunyoqarashni shakllantiruvchi va o‘zgartiruvchi sotsial psixologik mexanizm – bu sotsial ustanovkalardir.

Bu – shaxsning atrof muhitida sodir bo‘layotgan sotsial hodisalarni, ob‘yektlarni, sotsial guruhlarni ma’lum tarzda idrok etish, qabul qilish va ular bilan munosabatlar o‘rnatishga ruhiy ichki hozirlik sifatida odamdagi dunyoqarashni ham o‘zgartirishga aloqador kategoriyadir.

XI.2. Sotsial ustanovkalarni o‘rganishdagi uch bosqich

Sotsial psixologiyada sotsial ustanovkalarning o‘rganilishi uch bosqichli jarayonni boshidan kechirgan. Birinchi bosqich – XX asrning boshlariga tegishli bo‘lib, bu davrda fanga sotsial ustanovka tushunchasi kiritildi hamda olimlar sotsial ustanovkalarning mazmunini tushunish uchun nazariy va eksperimental tadqiqotlarni boshlab yuborishdi.

Bir-biriga ma’nodosh bolgan ustanovka va attityud, bir vaqtning o‘zida ham bir xil, ham boshqa-boshqa xil ma’no va tushunchalarni anglatishi olimlarni bir qancha chalkashliklarga olib kelgan edi.



Znanetskiy
Florian Vitold
(1882-1958)

Lekin amerikalik sotsiologlar U.Tomas va F.Znanetskiylarning «Polshalik dehqon Yevropa va Amerikada» deb nomlangan taniqli asari nashr (1918-1920-yillar) qilingandan boshlab, attityud kategoriyasiga sotsial psixologiyaning asosiy komponenti va shaxsning tavsifi



Tomas Uilyam
Ayzek
(1863-1947)

sifatida qaray boshlandi.

Asarda Amerikaga muhojir bo‘lib borgan polshalik dehqonlarning psixologiyasi va xulq-atvoridagi o‘zgarishlar jamiyatda yuz berayotgan voqea-hodisalarga nisbatan ularning munosabatiga bog‘liq ekanligiga oid mulohazalar berilgan edi. Aynan mana shunday munosabatlar sotsial ustanovkalar deb nomlandi. 1935-yilga kelib faqat Amerika adabiyotlarining o‘zidagina sotsial ustanovkalarning 20 ga yaqin ta’riflari vujudga kelgan edi.

Sotsial ustanovkalarni o'rganishga yo'naltirilgan tadqiqotlar, ilmiy izlanishlar Birinchi Jahon urushi yillarida ham jadallik bilan rivojlandi. Chunki, «**psixologik urush**», ya'ni dushman tomonidagilarga psixologik ta'sir ko'rsatish uchun olib boriladigan targ'ibot va tashviqot ishlari aynan sotsial ustanovka va uni o'zgartirish bilan bog'liq edi.

Bunda dushmanga nisbatan qarama-qarshi tomondan ko'rsatilayotgan psixologik ta'sirlar dushmanning sotsial ustanovkalarini boshqacha yo'nalishda shakllantirish, takomillashtirish va o'zgartirishga qaratilgan edi.

Demak, urush jarayonida insonning sotsial ustanovkalaridan raqiblarni yengish maqsadida psixologik qurol sifatida foydalanilgan.

Hozirgi kunda ham terroristik guruh a'zolari o'zlarining qabih rejalarini amalga oshirish yo'lida yoshlarning *ongini* zaharlashda ularning sotsial ustanovkalaridan foydalanayotganligini hisobga olsak, yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda ham bu muammoning chuqur o'rganilishi lozimligi ayon bo'ladi.

Sotsial ustanovkaning o'rganilishida ikkinchi bosqich 1939-1950-yillarni o'z ichiga oladi.

Ikkinchi Jahon urushi boshlarida va u tugagandan so'ng ham sotsial ustanovkalarni o'rganish borasidagi tadqiqotlar deyarli o'tkazilmagan. Faqat 1950-yillarning oxirlaridan boshlab bu ishlar yana rivojlanib ketgan.

Sotsial ustanovkaning o'rganilishida uchinchi bosqich 1960-yildan hozirgacha davom etib kelmoqda. Hozirgi kunga kelib, sotsial psixologiyaning ko'pgina amaliy (masalan, reklama bilan bog'liq) sohalari insonning sotsial ustanovkalarini o'rganish bilan qiziqmoqdalar. Sotsial ustanovkalar to'g'risidagi ilmiy bilimlarning bunday qo'llanishi tadqiqotning uchinchi bosqichini tashkil etmoqda.

D.N.Uznadze ham ustanovka va sotsial ustanovka (attityud)ni bir-biridan ajratish lozimligini ta'kidlaydi.

Ustanovka umumpsixologik jihatdan qaralib, ongning ma'lum bir reaksiyaga bo'lgan tayyorligi, ongsiz fenomen deb ta'kidlanadi.



**Uznadze
Dmitriy Nikolayevich
(1987-1950)**

Sotsial ustanovka esa, shaxs tomonidan sotsial ob'yektlarning mazmun-mohiyatini psixologik boshdan kechirishni bildiradi.

Shulardan kelib chiqib, D.N.Uznadze ustanovkaga quyidagicha ta'rif beradi:

Ustanovka – kishining tevarak-atrofdagi odamlarga yoki obyektlarga qanday munosabatda bo'lish, ularni ma'lum darajada idrok qilish, sezish, baho berish va ularga nisbatan qandaydir harakat qilishga tayyorgarligini anglatadigan holatidir.

Sotsial ustanovkalar esa o'ziga xos mazmun kasb etadi va uning ma'nosi – yangicha tafakkur va dunyoqarashni shakllantiruvchi va o'zgartiruvchi sotsial psixologik mexanizmdir. Demak, **sotsial ustanovka** – shaxsning atrof-muhitida sodir bo'layotgan sotsial hodisalarni, obyektlarni, sotsial guruhlarni ma'lum tarzda idrok etish, qabul qilish, ular bilan munosabatlar o'rnatishga yo'naltirilgan ruhiy ichki hozirlikdir

XI.3. Attityud tushunchasining mohiyati va attityudning vazifalari

Keyinchalik G'arb va AQSH olimlari tomonidan sotsial ustanovka tushunchasi «Attitude» - «attityud» so'zi bilan ifodalanib, sotsial psixologiya va sotsiologiya fanlarining ilmiy kategoriyasi sifatida kiritilgan. 1935-yilda G.Ollport «Ehtimol attityud tushunchasi, hozirgi zamon Amerika sotsial psixologiyasi uchun eng zarur va xarakterli tushunchadir», deb ta'kidlagan edi.

«Attitude» atamasi o'zbek tiliga tarjima qilinganda «yaroqlilik» yoki «moslik» degan ma'noni bildiradi. «Attitude» so'ziga yana bir ta'rif quyidagicha: «individ tomonidan sotsial ob'yektning qimmatini, mazmun-mohiyatini, ma'nosini psixologik his qilish»dir. «Attitude» ko'pchilik tadqiqotchilar tomonidan quyidagicha tushunilgan:

- ✓ ongning ma'lum bir holati;
- ✓ reaksiyaga tayyorlikni aks ettiruvchi holat;
- ✓ inson tomonidan maxsus tashkil etilgan holat;

- ✓ avvalgi tajribaga asoslanuvchi holat;
- ✓ xulq-atvorga dinamik ta'sir ko'rsatuvchi holat.

U.Tomas, F.Znanetskiy, G.Ollport, M.Smit, D.Kats va boshqalar attityudni shaxsning guruh a'zosi sifatidagi xulq-atvori mexanizmlarini o'rganuvchi ob'yekt sifatida qaraganlar. Demak, sotsial psixologiyada birinchi bo'lib «attityud» tushunchasi «individning sotsial maqsadi va mohiyatiga nisbatan psixologik tayyorgarligi sifatida yoki ayrim sotsial sifatlarni anglashga nisbatan namoyon bo'luvchi individning ongli holati» sifatida talqin qilingan va bu talqin qator eksperimental tadqiqotlar asosida mustahkamlangan.

G.Ollport attityudga shaxsning harakatga tayyorgarlik jarayoni sifatida qarab, u xulq-atvorni keltirib chiqaruvchi yakunlangan manba ekanligini e'tirof etadi va bunday ta'rif, sotsial psixologiyada shaxsning yo'nalishini o'rganish uchun juda muhimdir.



Gordon Uillard Ollport
(1897-1967)




Emori Bogardus
(1882-1973)

Xuddi shunday mulohazani E.Bogardusning «Attityud – bu atrof-muhitdagi ayrim omillarga mos yoki qarama-qarshi harakat qilish an'anasidir», degan fikri bilan ham izohlash mumkin.

Attityudning aniq psixologik tuzilmasini asoslashga oid yangicha qarash I.Aytsen va M.Fishbaynlar tomonidan taklif qilingan «Komponentlilik» nazariyasi bilan bog'liqdir.

Ular murakkab ustanovka tushunchasini faqat affektiv baholash komponenti doirasida kognitiv, affektiv va konativ komponentlari bilan chegaralashni tavsiya etadilar va buni g'arb sotsial psixologiyasidagi ustanovka muammosining 4 jihati: harakat, maqsadli ob'yekt, bajarish konteksti jarayoni va bajarilish vaqti asosida talqin qilinishi bilan ham ifodalash mumkin.



XI.4. Ustanovkalarining to‘rt bosqichli tizimi

Rus olimi V.A.Yadov o‘zining dispozitsion konsepsiyasini yaratib, unda ustanovkalarni to‘rt bosqich va to‘rt tizimli sifatida tasavvur qilgan:

A) elementar ustanovkalar (set) – oddiy, elementar ehtiyojlar asosida ko‘pincha ongsiz tarzda hosil bo‘ladigan ustanovkalar. Ularni o‘zgartirish uchun moddiy shart-sharoitlarni va odamdagi ehtiyojlar tizimini o‘zgartirish kifoya. D.N.Uznadze fikricha, bunday ustanovkalar eng sodda vaziyatlarda, oilaviy muhitning oddiy shart-sharoitlarida shakllanadi.

B) sotsial ustanovkalar (attitud) – sotsial vaziyatlar ta‘sirida sotsial ob‘yektlarga nisbatan shakllanadigan ustanovkalar. Ularni o‘zgartirish uchun sotsial shart-sharoitlar va shaxsning ularga nisbatan baho va munosabatlari tizimini o‘zgartirish kerak.

Kichik guruhlarda kechadigan muloqot bilan bog‘liq shaxs ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan faoliyat kechinmalari kiritiladi. Bu yerda shaxs faoliyati bilan bog‘liq sotsial ob‘yekt tabiatiga nisbatan ma‘lum munosabatlarning tarkib topish jarayoni yotadi.

V) bazaviy sotsial ustanovkalar – ular shaxsning umumiy yo‘nalishini belgilaydi va ularni o‘zgartirish e‘tiqodlar va dunyoqarashlarni o‘zgartirish demakdir.

Sotsial ustanovka manbai sifatida sotsial faollikka nisbatan shaxsning umumiy qiziqishlar yo‘nalishini o‘z ichiga oladi. Bunda shaxs o‘z ehtiyojlarini qondirish bilan birga aniq faoliyat turiga nisbatan faollikni ham namoyon qilishi ko‘zga tashlanadi.

G) Qadriyatlar tizimi – ular avlodlararo muloqot jarayonining mahsuli sifatida jamiyatda qadr-qimmat topgan narsalarga nisbatan ustanovka. Masalan, sahif hadislar shunday qadriyatlardir, biz ularni tanqidsiz, muhokamalarsiz qabul qilamiz, chunki ular ham ilohiy, ham eng buyuk insonlar tomondan yaratilgan va avloddan avlodga o‘z qadrini yo‘qotmay kelayotgan qadriyatlardir.

Sotsial ustanovkalarni o‘zgartirishning eng sodda va qulay yo‘li – bu ayni vaziyatlar va ulardagi ta’sirlarni **qaytarishdir**. Bu qaytarish qayd qilingan obraz sifatida inson ongida uzoq muddatli xotirada saqlanadi va vaziyat paydo bo‘lganda, **ob’yektivlashadi**, ya’ni o‘z kuchini va mavjudligini ko‘rsatadi. Shuning uchun ham agar chet el tajribasiga murojaat qiladigan bo‘lsak, u yerda biror g‘oyani ongga singdirish uchun bir odam yoki biror guruh o‘z siyosiy, mafkuraviy yoki boshqa qarashlarini bir xil so‘zlar va iboralar, harakatlar bilan qaytaraveradi va shu yo‘l bilan ko‘pchilikning ma’qullashiga erishadi. Ayniqsa, saylov oldi tadbirlarida ana shu usul keng qo‘llaniladi. Shulardan kelib chiqib, sotsial ustanovkalarni o‘zgartirishning usullari va psixologik vositalari orqali ham dunyoqarashni o‘zgartirishga erishish mumkin.

Tayanch tushunchalar: ustanovka, sotsial ustanovka, “set”, “attityud”, «moyillik», «yo‘nalganlik», «komponentlilik», kognitiv, affektiv, konativ.

Mavzuni o‘zlashtirish uchun savollar

1. Ustanovka borasida olimlar qanday izlanishlarni olib borgan?
2. Ustanovka va sotsial ustanovkaning bir-biridan farqi haqida fikringizni bayon qiling.
3. Ustanovka tushunchasiga berilgan ta’rifni tushuntirib bering.

4. Sotsial ustanovka tushunchasini tahlil qiling.
5. Sotsial ustanovkalarni o'rganish necha bosqichni o'z ichiga oladi, ularni izohlang?
6. U.Tomas va F.Znanetskiylarning «Polshalik dehqon Yevropa va Amerikada» nomli asari mazmunini tushuntirib bering.
7. D.N.Uznadze ustanovka va sotsial ustanovka tushunchalariga qanday ta'rif bergan, ularni tushuntirib bering?
8. M.Smit attityudning uch komponentli strukturasi haqida qanday fikr bildirgan?
9. V.A.Yadov bo'yicha ustanovkalarning to'rt bosqichli tizimi haqida gapirib bering.
10. Sotsial ustanovkalarni o'zgartirishning yo'llari haqida fikrlaringizni bayon qiling.

Bilimlarni mustahkamlash uchun test savollari

1. Qaysi atamaning ma'nosi inglizcha "Set" so'zidan olingan bo'lib, ko'rsatma berish, anglanilmagan mayllar, yo'l-yo'riq ko'rsatish ma'nosida qo'llaniladi?

- A) Sotsial ustanovka
- B) Ustanovka
- C) Refleksiya
- D) Instruksiya

2. Qaysi fikr to'g'ri?

- A) Ustanovka – insonning o'zi bilmagan holda yon-atrofidagi insonlar va voqelikni baholashi va ularga nisbatan munosabat bildirishidir.
- B) Ustanovka – bu faoliyatga mustaqil tayyorlikdir.
- C) Ustanovka – insonning ichki o'ziga xos tuyg'ularini namoyon etishga ruhan tayyorlik holatidir.
- D) Barcha javob to'g'ri.

3. Sotsial psixologiyaning birinchi bosqichi – fanga sotsial ustanovka tushunchasi kiritilishi hamda olimlar sotsial ustanovkalarning mazmunini

tushunish uchun nazariy va eksperimental tadqiqotlarni boshlab yuborgan davr qachonga tegishli?

- A) XX asr o'rtalari
- B) XX asr boshlari
- C) XIX asr oxiri
- D) XIX asr boshlari

4. «Polshalik dehqon Yevropa va Amerikada» asari mualliflari kimlar?

- A) U.Tomas, F.Znanetskiy
- B) G.Ollport, E.Bogardus
- C) D.N.Uznadze, M.Smit
- D) G.Ollport, F.Znanetskiy

5. Qaysi yilga kelib faqat Amerika adabiyotlarining o'zidagina sotsial ustanovkalarining 20 ga yaqin ta'riflari vujudga kelgan edi?

- A) 1945
- B) 1934
- C) 1984
- D) 1935

6. Sotsial ustanovkaning o'rganilishida ikkinchi bosqich qaysi yillarni o'z ichiga oladi?

- A) 1940-1950
- B) 1950-1955
- C) 1935-1955
- D) 1939-1950

7. Kim «Ehtimol attityud tushunchasi, hozirgi zamon Amerika sotsial psixologiyasi uchun eng zarur va xarakterli tushunchadir», deb ta'kidlagan?

- A) D.Uznadze
- B) U.Tomas
- C) G.Ollport
- D) F.Znanetskiy

8. Inglizchadan o`zbek tiliga yaroqlilik, moslik deb tarjima qilinuvchi atamani toping.

- A) Adaptatsiya
- B) Set
- C) Attityud
- D) Komponent

9. «Komponentlilik» nazariyasi qaysi olimlar tomonidan taklif etilgan?

- A) U.Tomas, F.Znanetskiy
- B) G.Ollport, E.Bogardus
- C) I.Aytsen, M.Fishbayn
- D) G.Ollport, F.Znanetskiy

10. «Attityud – bu atrof-muhitdagi ayrim omillarga mos yoki qarama-qarshi harakat qilish an’anasidir» degan fikr kimga tegishli?

- A) E.Bogardus
- B) I.Aytsen
- C) M. Fishbayn
- D) U.Tomas

XII BOB. SOTSIAL PSIXOLOGIYADA BOSHQARUV MUAMMOSI

XII.1. Boshqaruv psixologiyasining sotsial psixologik jihatlari

Oxirgi yillarda inson omiliga e'tiborning ortib borishi munosabati bilan boshqaruv psixologiyasi masalalariga ham qiziqish kuchaydi. Shu asosda psixologiyaning maxsus bo'limi boshqarish psixologiyasi paydo bo'ldi. Boshqaruv psixologiyasi psixologiyaning shunday tarmog'iki, u boshqaruv faoliyati bilan bog'liq bo'lgan muammolarni, shaxsni va shaxslar guruhi tomonidan boshqa guruhlar faoliyatini samarali tashkil etish va birgalikdagi faoliyatni amalga oshirishning psixologik mexanizmlarini o'rganadi.

Sotsial psixologiya boshqaruv masalalariga e'tiborini qaratganda, eng avvalo, ushbu faoliyatning samaradorligini, u orqali rahbarning ta'sir ko'lamini o'rganadi. Masala ochiq tarzda quyidagicha qo'yiladi: boshqaruvchi yoki rahbar o'z faoliyatida qanday omillardan va qay darajada omilkorona foydalanmoqda, uning «ta'sir kuchi» tom ma'noda sotsialmi yoki iqtisodiy? Lo'nda qilib aytganda, bu rahbarning obro' topish yo'llarini qay tarzda namoyon etayotganligi va qaysi omillardan ko'proq foydalanishini aniqlashni taqozo etadi.

Masalan, hayotda shunday rahbar borki, u bilan ishlashning o'zi jamoaga zavq bag'ishlaydi, unig insoniyligi, saviyasi, xalq ichidagi obro'si uning moddiy rag'batlantirish imkoniyatlariga bog'liq emas. Boshqa bir rahbarning aytgani-aytgan, degani-degan, chunki u har bir xodimga, har bir yutug'i uchun faqat moddiy rag'batlantirish usullaridan foydalanadi. Kimga qay biri ma'qulligiga qarab, ba'zan xodimning ishga, burchga va mas'uliyatga munosabatini bilsa bo'ladi.

Shunday qilib, boshqaruv jarayonining o'zida ikki mihim jabhani farqlash mumkin:

1. Ijtimoiy jabha – bu boshqaruvda asosan ma'murchilik yo'lini nazarda tutadi. Rahbar faqat ma'muriyat a'zosi, uning yetakchisi sifatida idrok etiladi. Bunday rahbar tashkilot yoki muassasada boshqaruv apparati bo'lishi shart bo'lganligi bois mavjud bo'lib, uning xodimlar bilan o'zaro muloqoti ahamiyatga ega emas. Xodimlar bunday sharoitda «falon yerda ishlayman» degan iborani ko'proq ishlatishadi;

2. Psixologik jabha – bu xodimlar tomonidan rahbarning yetakchiligi, ish-faoliyat mobaynida orttirgan obro‘si, nufuzi orqasidan ularga ta’sir ko‘rsata olish qobiliyatini nazarda tutadi. Xodimlar o‘zaro «men falonchi rahbar bilan ishlayman» iborasini mamnuniyat bilan ta’kidlashadi¹.

XII.2. Guruhlarda rahbarlik va liderlik

Psixologik adabiyotlarda «rahbar», «lider» – «yetakchi», «boshliq» kabi atamalar deyarli sinonim sifatida ishlatiladi. Aslida psixologik nuqtai nazardan, bu tushunchalarda muayyan farqlar va umumiylik bor. Umumiylik shundaki, har biri kimningdir kimlar ustidan hukmronligini, ustun sifatlarga ega ekanligini ifodalaydi. Farqi shuki, «lider» – «yetakchi» shaxsning guruhga munosabatini ifodalab, uning a’zolariga ta’sir o‘tkazuvchi va maqsadga yetaklovchiga nisbatan ishlatiladi. Yetakchilik guruh tarkibini, undagi munosabatlar tizimini tahlil etish orqali aniqlanadigan shaxslar holatidir.

Lekin liderga xos bo‘lgan fazilatni ifodalovchi yana qator jihatlar borki, ularni munosabatlar tizimi doirasidagina tahlil etolmaymiz. Bunday talqinda liderga xos bo‘lgan asosiy jihatlardan yana biri – shaxsning vaziyatga muvofiq ravishda harakat qilish qobiliyatini hisobga olish zarurati tug‘iladi. Biron-bir muammoli vaziyatda paydo bo‘lgan qiyinchilikni bartaraf etishdagi tashabbus, topqirlik, mohirlik liderga xos fazilatlardir. Muammoni yechish bilan bog‘liq qiyin vaziyatda lider boshqalarga nisbatan o‘zining ilg‘orligi, peshqadamligi bilan ajralib turadi.

«Rahbar» esa ko‘proq shaxsning u boshchilik qilayotgan jamoadagi faoliyatga aloqadorligini, uning rasmiy mavqeini bildiradi. Shuning uchun ham har doim ham lider bilan rahbar bir shaxs bo‘la olmaydi. Rahbarlar bir-birlaridan nimasi bilan farq qiladi, degan savol o‘rinli. Ular asosan odamlar bilan ishlash, ularga ta’sir ko‘rsatish va ishni tashkil etish mahoratiga ko‘ra farqlanadilar. Shunga bog‘liq ravishda fanda boshqaruvning bir necha uslublarini farqlab, o‘rganishadi.

«Lider» va «rahbar» tushunchalari o‘rtasidagi farqlar haqida B.D.Parigin shunday yozadi:

¹ В.Каримова. Ижтимоий психология. – Тошкент: Фан ва технология, 2012. – Б. 117-118

➤ lider asosan guruhdagi shaxslararo munosabatlarni boshqarsa, rahbar – shu guruhdagi rasmiy munosabatlarni boshqaradi;

➤ liderlik kichik guruhlargagina xos bo‘lgan hodisa bo‘lsa, rahbarlikning haq-huquqlari katta guruhlar doirasida ham sodir bo‘lishi, amalga oshirilishi mumkin;

➤ agar liderlik stixiyali, betartib jarayon bo‘lsa, rahbarlik maqsadga qaratilgan, jamiyatda ishlab chiqilgan normalar, tartiblar asosida saylovlar oqibatida sodir bo‘ladigan hodisadir;

➤ liderlik rahbarlikka nisbatan vaqtinchalik hodisa bo‘lib, guruh a‘zolarining kutishlari, ularning kayfiyatlari, faoliyat yo‘nalishiga qarab, uzoqroq muddatda yoki qisqa muddatda ro‘y beradi;

➤ rahbarning liderdan farqi yana shundaki, u liderda yo‘q bo‘lgan jazolash va rag‘batlantirish tizimiga ega bo‘lib, shu asosda o‘z xodimlariga ta‘sirini o‘tkazishi mumkin;

➤ lider guruhda u yoki bu qarorlar, ko‘rsatmalar, tashabbuslarni o‘z ixtiyoricha, bevosita chiqarishi mumkin, rahbarda esa bu yo‘nalishda ko‘plab rasmiy ko‘rsatmalar, rejalar, normalar, buyruqlar mavjudki, ular doirasidan chiqib ketishi qiyin;

➤ liderning faoliyati faqat kichik guruhlar doirasida amalga oshirilsa, rahbar shu guruhdagi, kengroq sotsial doiradagi, jamiyatdagi vakili bo‘lganligi uchun, uning vakolatlari ham keng, faoliyat imkoniyatlari ham ortiqdir.

Liderlikni tushuntirishga harakat qilgan bir qancha nazariyalar mavjud bo‘lib, ularga xarizmatik nazariya, vaziyatga bog‘liqlik nazariyasi, sintetik nazariyalari kiradi. Quyida ularning qisqacha mazmuni bilan tanishib chiqamiz.

Birinchi **“liderlik sifatleri nazariyasi”**dir yoki **xarizmatik nazariya**. Uning mohiyati shuki, hamma ham lider bo‘la olmaydi, ayrim shaxslarda shunday sifatlar yig‘indisi tug‘ma mavjud bo‘lib, ular uning guruhda lider bo‘lishini ta‘minlaydi. Masalan, 1940 yilda amerikalik K.Berd 79 sifatdan iborat bo‘lgan liderlik qirralari ro‘yxatini tuzdi. Bu ro‘yxatda jumladan tashabbuskorlik, muloqotga kirisha olish, yumor hissi, o‘ziga ishonch, tez va aniq qarorlar qabul qila olish, tashkilotchilik kabi sifatlar bor edi. Lekin bu nazariyaning xatoligi shunda ediki, birinchidan, u

yuqoridagi sifatlar qanday qilib namoyon bo‘ladi-yu, qanday shakllanishini tushuntirib bera olmadi, ikkinchidan, so‘roqlar mobaynida birorta sifat ham mutlaq ko‘p marta qayd etilmadi.


Ikkinchi nazariya **liderlikning vaziyatga bog‘liqligi nazariyasidir**. Bu yerdagi asosiy g‘oya – lider vaziyatning mahsuli degan g‘oyadir. Har bir odamda liderlik sifatlari bor, lekin ayrim vaziyatlar ayrim shaxslarning o‘zlarini ko‘rsatishlari, lider bo‘lishlari uchun qulay hisoblanadi.

Yuqoridagi ikki nazariyani tanqid qilish natijasida paydo bo‘lgan uchinchi nazariya liderlikning **sintetik** nazariyasidir. Bu nazariya liderni guruhliy munosabatlarning bevosita mahsuli deb qaraydi, liderning ro‘yobga chiqishida guruhning birlamchi rolini ilgari suradi.

Psixolog A.N.Leontyevning faoliyat konsepsiyasiga tayangan holda, liderlikni faoliyat mahsuli, guruhning ushbu faoliyatga munosabati va guruhda qabul qilingan normalar va sotsial kutishlarga kim ko‘proq javob berishiga qarab liderni aniqlash mumkin. Ijtimoiy kutishlar nazariyasi hozirda ko‘pchilik tomonidan ma‘qul yondashishlardan biri deb qabul qilinmoqda.

XII.3. Liderlik uslublari haqida tushuncha

Har bir lider yoki boshliq o‘zicha individual va qaytarilmasdir. Buning boisi har bir boshliq o‘z ish faoliyatini, boshqaruv faoliyatini o‘ziga xos tarzda tashkil etishidadir. Sotsial psixologiyada boshqaruv sohasida batafsil o‘rganilgan muammolardan biri turli boshqaruv uslublaridir. Bu sohada nemis olimlari G.Gibsh, M.Forverg, rus olimlari V.D.Parigin, L.N.Umanskiy, M.Yu.Jukov va boshqalarning ishlari ayniqsa diqqatga sazovordir. Barcha ilmiy tadqiqotlarni umumlashtirgan holda sotsial psixologiyada qabul qilingan uch asosiy boshqarish uslublariga xarakteristika berib chiqamiz.



2-rasm. Boshqaruv jarayonida an'anaviy uslublarning ko'rinishi

Avtoritar rahbar barcha ko'rsatmalarini ishchanlik ruhida, aniq ravshan, keskin ohangda xodimlarga yetkazadi. Muloqot jarayonida ham xodimlarga nisbatan do'q-po'pisa, keskin ta'qiqlash kabi qat'iy ohanglardan foydalanadi. Uning asosiy maqsadlaridan biri qanday yo'l bilan bo'lsada, o'z hukmini o'tkazish. Uning nutqi ham aniq va ravon doimo jiddiy tusda bo'ladi. Biror ish yuzasidan xodimlarni maqtash yoki ularga jazo berish, tanqid qilish sof sub'yektiv bo'lib, bu narsa boshliqning kayfiyatiga va o'sha shaxslarga nisbatan shaxsiy munosabatiga bog'liq. Jamoa a'zolarining tilak istaklari, ularning fikrlari va maslahatlari juda ham kam hollardagina inobatga olinadi. Aksariyat hollarda bunday istaklar yoki ko'rsatmalar to'g'ridan to'g'ri do'q po'pisa, kamsitish yoki ma'naviy jazolash yo'li bilan cheklanadi yoki qoniqtirilmaydi. Bunday rahbar o'z ish uslublari, kelajak rejalari, biror aniq ishni, operatsiyani qanday amalga oshirmoqchiligini odatda, jamoadan sir tutadi, uning fikricha, bu uning obro'iga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Guruhdagi sotsial fazoviy munosabatlardagi o'rni jihatdan, u «JAMOADAN CHETDA», avtonom.

Avtoritar rahbarda har bir jamoa a'zolarining qobiliyatlari, ishga munosabatlari, mavqelariga ko'ra tutgan o'rinlari haqida tasavvurlar borki, shunga

ko'ra u har bir xodimning ish harakatlarini maksimal tarzda dasturlashtirib qo'ygan, unda har qanday cheklashlar uning ochiq g'azabini keltiradi va buning uchun unda jazolashning turli uslublari mavjud. Ya'ni bunday jamoalarda hokimiyat markazlashtirilgan, jamoa rahbari ushbu markazning yakka hokimi shuning uchun ham bu yerda «mening odamlarim», «mening ishim», «mening fikrim bo'yicha» qabilidagi iboralar tez-tez ishlatiladi. Bunday rahbarlarda ishiga nisbatan shunday fidoiylilik borki, ular o'zlarini shu ishsiz tasavvur qila olmaydilar, ya'ni ish uning «butun vujudini qamrab olgan». Shu sabab bo'lsa kerak, bunday rahbar har bir odamda uning kundalik ish faoliyatini, uning natijalarini juda yaxshi biladi. Lekin, aslida uni ishning mazmunidan ko'ra, uning o'sha yerdagi yetakchilik roli, boshliqligi ko'proq qiziqtiradi va o'ziga o'sha sifatlariga qarab baho beradi. Bu sifat, tabiiyki, ishning sifatiga ham ta'sir qilgani uchun jamoa oldiga qo'yilgan barcha topshiriqlar bajarilmay qolmaydi («temir rahbar»).

Bunday jamoalarda tanqid ishi juda sust, chunki u o'zini ham, boshqalarni ham, tanqid qilishlariga yo'l qo'ymaydi. Tanqid qilishga, uning fikricha, faqat boshliq haqli. Yig'ilishlarda so'zni o'zi boshlab, tashabbusni oxirigacha boshqalarga bermaydi, odamlarning takliflari, ularning hissiyotlari e'tiborga olinmaydi. G.Gibsh va M.Forverglarning tahlil qilishlaricha, avtoritar lider bosh bo'lgan ishlarning samaradorligi ancha yuqori bo'lib, ishlab chiqarish ko'rsatkichlari ham yuqori bo'lar ekan. Lekin jamoadagi ruhiy ma'naviy muhit og'ir, tang bo'lib, bu narsa odamlarning jamoadan to'la qoniqmasliklariga olib keladi. Bunday rahbarlar boshchilik qilgan mehnat jamoalarida ishlaydigan odamlar o'z kasblari, ish joylarini osonlikcha almashtirishlari mumkin.

Demokratik rahbar, aksincha, bo'ysunuvchilarga mustaqillik erk berish tarafdori. Ishda topshiriqlar berganda ishchilarning shaxsiy qobiliyatlarini hisobga olgan holda taqsimlaydi. Bunda u xodimlarning shaxsiy moyilliklarini, xohish va istaklarini ham hisobga oladi. Buyruq yoki topshiriqlar odatda, taklif ma'nosida beriladi. Nutqi oddiy, doimo osoyishta, sokin, unda o'rtoqlarcha do'stona munosabat sezilib turadi. Biror kishini maqtash, uning lavozimini oshirish yoki ishdagi kamchilikka ko'ra ishiga baho berish doimo jamoa a'zolarining fikri bilan kelishilgan

holda amalga oshiriladi. Tanqid, ko‘pincha taklif, istak shaklida, qilingan ishlarning mazmuniga baho berish holda egasiga, «aybdorga» yetkaziladi. Har bir yangi ish jamoa maslahatisiz boshlanmaydi. Shuning uchun ham uning fazoviy sotsial holati «JAMOA ICHIDA».

Jamoada tanqid va o‘z-o‘zini tanqid shunday yo‘lga qo‘yilganki, uning oqibatida hech kim aziyat chekmaydi. Chunki ko‘proq boshliq emas, balki jamoaning boshqa faollari norasmiy liderlar tanqid qiladilar. Boshliq yo‘l qo‘ygan xato kamchiliklarni jamoatchilik oldida bo‘yniga olishdan qo‘rqmaydi. Chunki, undagi mas‘uliyat hissi nafaqat yuqori boshqaruv tashkilotlarning a‘zolari bilan muloqot paytida, balki xodimlar bilan muloqotda ham sezilib turadi va qo‘yilgan topshiriqlar yuzasidan mas‘uliyatni boshqalarga ham bo‘lib berishni yaxshi ko‘radi. Boshliqning xodimlaridan siri yo‘q, shuning uchun ham majlislarda ko‘proq u emas, balki barcha xodimlar gapiradilar, oxirgi qaror chiqarish va so‘zlarni yakunlash, umumlashtirish huquqidan u to‘liq foydalanadi.

Gibsh va Forverglarning analizlariga ko‘ra, bunday boshliq rahbarlik qilgan jamoalarda ma‘naviy ruhiy muhit juda yaxshi, ishchilar jamoadan, ishdan qoniqish hosil qilganlar, ishdan ketish hollari kam ekan-u, lekin ishlab chiqarish zo‘rg‘a norma holatida bo‘lar ekan.

Liberal (loqayd) uslubda ishlaydigan rahbarning kayfiyatini, ishga munosabatini, ishdan mamnun yoki mamnun emasligini bilish qiyin. Unda ta‘qiqlash, po‘pisa bo‘lmaydi, uning o‘rniga ko‘pincha ishning oxirgi oqibati bilan tanishish bilan cheklanadi, xolos. Jamoada hamkorlik yo‘q, boshliq jamoaning muammolari, ishning baland pasti bilan qiziqmaydiganday, go‘yoki boshqa «koinotda» yurganga o‘xshaydi. Aniq ko‘rsatmalar bermaydi, uning o‘rniga norasmiy liderlar yoki o‘ziga yaqin kishilar orqali qilinishi lozim bo‘lgan topshiriqlar bajaruvchilarga yetkaziladi. Uning asosiy vazifasi, uning nazarida xodimlar uchun ish sharoitini yaratish, ishdagi kamchiliklarni bartaraf etish, kerakli mahsulot, xomashyo kabilarni topib kelish, majlislarda qatnashishi va hokazolardan iborat.

Xodimlar bilan muloqotda bo‘lishga to‘g‘ri kelganda u doimo xushmuomali bo‘lib, odob, axloq normalarini buzmaslikka harakat qiladi, lekin hech qachon ular

bilan tortishmaydi. Majlislarda agar biror muammo munozarani keltirib chiqarsa, u bevosita jarayonga aralashmay, oxirgi soʻzni oʻziga qoldiradi. Shunday qilib, xodimlarga fikrlash va xatti-harakatlar erkinligi berib qoʻyilgan. Oʻsha erkin harakatlar yuzasidan boshliqning fikri soʻralgan taqdirda ham, undan aniq gap chiqmaydi. Chunki u xodimlarni yaxshi bilmaydi, qolaversa ularni xafa qilib qoʻyishdan qoʻrqadi. Uning fazoviy psixologik holati «GURUH TASHQARISIDA».

Olimlar fikricha, bunday rahbar ishni olib borgan jamoalarda barcha koʻrsatkichlar doimo orqada, sifat ham yoʻq. Liberal rahbar ishda anarxiyani qilib qoʻyib, koʻp turmay, boshqa yerdan ish qidirishga harakat qiladi.

Tashkilot boshqaruvidagi yana bir uslub – partisipativlik (lotincha «participate» – ishtirok, sherikchilik maʼnosini bildiradi) deb atalib, unda rahbarning tashkilot maqsadiga erishish yoʻlida xodimlar bilan gorizontaal yoʻnalishdagi munosabatlarni rivojlantirishi tushuniladi. Mutaxassislar aynan partisipativlikni eng samarali uslublar qatorida koʻradilar. Bu uslub rahbarning quyidagicha xulqida koʻrinadi:

1. Rahbarning xodimlari bilan muntazam fikr almashuvi;
2. Rahbar va xodim munosabatidagi ochiqlik va samimiylik;
3. Xodimlarning tashkiliy qarorlar qabul qilishga jalb etilganligi;
4. Rahbar oʻz burch va huquqlarining maʼlum qismini xodim zimmasiga oʻtkazishi;
5. Tashkilot vazifalarini rejalashtirish va amalga oshirishda xodimlarni jalb etish;
6. Mustaqil qaror qabul qila olish huquqiga ega boʻlgan maxsus guruhlar tuzish (masalan, «Sifat nazorat guruhi»).

Shunday qilib, partisipativlik uslubi jamoadagi hamkorlik darajasi yuqoriligi bilan ajralib turadi va xodimning tashkilot manfaati yoʻlidagi jonbozligini taʼminlovchi asosiy uslublardan biri hisoblanadi.

«Part» – «firqa», «boʻlaklar»ni gorizontaal munosabatlarda muvofiqlashtirish maʼnosini ham bildiradi.

Yuqorida baho berilgan boshqarish uslublari ko‘proq liderlikka emas, balki rahbarlikka taalluqli, lekin ilmiy adabiyotlarda bu ikkala ibora ko‘pincha sinonimday ishlatiladi. Aslida eng yaxshi rahbar o‘zida barcha liderlik sifatlarini ham mujassamlashtirgan bo‘ladi. Chunki, sof sotsial psixologik ma‘nodagi liderning turlari turli sharoitlarda o‘zida ko‘proq namoyon etadigan shaxsiy sifatlariga ko‘ra tabaqalanadi. Masalan, lider tashkilotchi, yana lider tashabbuskor, lider erudit, jamoa hissiy emotsional holatini boshqaruvchi lider, lider bilag‘on va hokazo. Yaxshi rahbar ana shu lider sifatlarini bilgan holda ularni o‘zida tarbiyalashi va jamoasidagi liderlar bilan hamkorlikda ishlay olishi kerak.

Oxirgi yillarda Moskva va boshqa yirik ilmiy markazlarda o‘tkazilgan tadqiqotlar natijasida shunday xulosaga kelindiki, aslida hayotda sof demokrat yoki sof avtoritar rahbarni uchratish qiyin, lekin uchragan paytda ham ular bir jamoani uzoq muddat boshqara olmasligi ma‘lum bo‘ldi. Shuning uchun ham ular vaziyatga bog‘liq, vaziyat, konkret jamoa, unda qabul qilingan xatti-harakatlar normalari, shaxslararo munosabatlar tipi liderning ham, rahbarning ham ish taktikasi va uslubini belgilaydi, degan g‘oya qabul qilinmoqda. Lekin bu rahbarlik uslublarning psixologik mazmun va mohiyatini bilishning amaliy ahamiyati shundaki, har bir uslubda o‘ziga xos ijobiy tomon bor, mohir rahbar o‘zini o‘zi tarbiyalari ekan, o‘shalarning eng ma‘quli ayniqsa o‘zi rahbarlik qilayotgan jamoaga moslarini tarbiyalashi maqsadga muvofiqdir.

XII.4. Rahbarlik sifatleri

Yuqorida aytib o‘tilganidek, rahbarda tug‘ma qobiliyat bo‘ladi deb ham aytib bo‘lmaydi, ikkinchi tomondan, rahbar vaziyatga qarab stixiyali tarzda tarbiyalanib ketaveradi, deb ham bo‘lmaydi. Minglab shaxs sifatleri ichida ko‘plari rahbarlik uchun qulay va ma‘quldir. A.V.Petrovskiy ana shunday ijobiy sifatleri 1,5 mingini sanab chiqqan. Lekin ularning barchasini umumlashtiradigan, albatta bo‘lishi lozim bo‘lgan ayrim sifat qobiliyatlari borki, o‘shalar haqida qisqacha to‘xtalib o‘tmoq lozim.



3-rasm. Rahbarlik sifatlari

Avvalo, har qanday rahbarda **intellekt aql zakovatning** ma'lum normasi bo'lishi kerak. Bu norma yaxshi rahbar uchun o'rtadan yuqori bo'lmog'i maqsadga muvofiqdir, chunki geniy darajasidagi intellektga ega bo'lgan rahbar bilan ishlash xodimlar uchun qator noqulayliklarni keltirib chiqarishni, bunday aql zakovat qolganlarning ijobiy rivojlanishiga psixologik to'siq bo'lishini amaliyot va hayot ko'rsatadi. Rahbardagi o'rtadan yuqori intellektni qoplab ketadigan yana boshqa muhim sifatlari borki, ular boshqarish ishining samarasiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Masalan, rahbarning mustaqil fikrlilik, topqirlik, tashabbuskorlik sifatlari. Chunki, ayrim hollarda xato qilsa ham, rahbar original fikrlar aytib, yo'l-yo'riqlar ko'rsata olishi, har bir aytilgan fikr, qilingan ishga mustaqil baho bera olishi zarur. Chunki, mustaqillik shaxs qiyofasini belgilovchi muhim psixologik xususiyatdir.

Rahbarda mustaqillik bo'lsa, unda o'ziga ishonch ham bo'ladi, bu esa o'z navbatida rahbardagi sub'yektiv talablar darajasining yuqori bo'lishiga olib keladi. Ko'pincha, rahbarning boshqalarga talabchanligi haqida gapiriladi, lekin yaxshi rahbar avvalo o'z o'ziga nisbatan talabchan bo'lishi kerak. Buyruq yoki topshiriqlar, odatda, taklif ma'nosida baholash va shu asosida boshqalarga nisbatan munosabatlar tizimini ishlab chiqishi muhim bir omildir.

Har qanday rahbar uchun universal, kerak bo'lgan hislatlardan yana biri tom ma'noda «ziyoli» bo'lish yoki, boshqacha qilib aytganda, madaniyatli bo'lishidir. Boshliq o'zidagi madaniyatini avvalo muomalada, odamlar bilan bo'ladigan kundalik muloqotlarda namoyon etmog'i lozim. Muomala madaniyati bu o'rinli, aniq, qisqa, samimiy gapirish san'ati va ikkinchi tomondan, suhbatdoshni tinglash qobiliyatidir. Chunki boshliq, bilan bo'ysunuvchilar o'rtasida kelib chiqadigan shaxsiy ziddiyatlarning asosida tinglay olmaslik, yoki gapni to'g'ri yo'sinda gapira olmaslik yotadi. O'zganing o'rniga tura olish, uning his-kechinmalariga sherik bo'lish, empatiya hissining borligi, dialoglarda sabr-toqatlilik va boshqalar muloqot madaniyatining muhim tomonlaridir.

Jamoa faoliyatini, o'z faoliyatini rejalashtirish qobiliyati rahbar uchun muhim bo'lgan talablardan biridir. Chunki rejalashtirish asosida o'z-o'zini boshqara olish va boshqalarni tashqi faoliyatini maqsadga muvofiq tarzda boshqara olishni ta'minlovchi muhim psixologik xususiyat yotadi. Rejalashtirish bu o'ziga xos kelajakni ko'ra olish qobiliyati, kelajak obrazi bo'lib, bu narsa shaxsning qanchalik kamol topganligi va maqsadga intiluvchanligining muhim belgisidir. Bu juda murakkab psixologik jarayon bo'lib, u shaxsning o'z diqqatini qanchalik ongli tarzda boshqarishi, uni faqat muhim narsalarga qarata olish, vaqtdan tez foydalana olish, ortiqcha ishlardan o'zini tiyish, qo'l ostidagilarga, imkoni boricha, ularning qobiliyatlariga qarab ish buyura olish va nihoyat, buyurgan ishni o'z vaqtida nazorat qilib, so'rab olish imkoniyati bilan bog'liq.

O'z ishini puxta rejalashtirish qobiliyatiga ega bo'lgan rahbar realistik tafakkurga ega bo'lmog'i, ya'ni har qanday sharoitlarda ham o'sha muammo yoki ishga taalluqli barcha alternativ variantlardan eng to'g'risi va maqsadga muvofiq'ini tanlay oladigan, ishni to'g'ri tashkil eta bilgan, ya'ni eng kam kuch va vaqt sarflab ishni uddalay olgan, noaniq yoki tasodifiy vaziyatlarda ham ish taktikasini to'g'ri yo'lga yo'naltira oladigan odam bo'lishi kerak. Bundan tashqari, yaxshi rahbar uchun oldida turgan ishning har bir alohida detallarigacha tasavvur qilib, uni amalga oshirishning barcha bosqichlari va vositalarining oldindan ko'ra bilish qobiliyati ham

zarur. Shunday taqdiridagina u ishga dadil kirishini, o'zgalarni o'z ortidan egashtirishi va ishlab chiqarishda yuksak ko'rsatkichlarga erishishi mumkin.

Yuqorida aytib o'tilgan rahbarlik sifatlari ichida eng muhimi, tabiiyki, psixologik mahoratni talab qiladigan odamlar bilan ishlash mahoratidir. Jamoa a'zolari bilan samarali ishlash uchun esa boshliq ularning psixologiyasi va guruh psixologiyasini yaxshi bilishi zarur, chunki «o'zgalar psixologiyasini bilish ular ustidan hukmronlikning yagona yo'lidir», deb yozishgan edi ingliz olimlari. Sotsial psixologiyaning bu borada ham yaxshi vositasi sotsial psixologik trening uslubi borki, uning yordamida odamlar bilan ishlovchilar jamoani boshqarishning turli usullariga muvaffaqiyatli tarzda tayyorlanmoqdalar.

Jamoa yetakchisi. Odatda, yetakchilik haqida gapirilganda, u yoki bu shaxsning alohida, boshqalarda bo'lmagan o'ziga xos xususiyatlari nazarda tutiladi. Kishi o'zida «**yetakchilik**» sifatlarini shakllantirib, «sardor»ga aylanishi mumkin. Bu sifatlar nimalardan iborat? Deylik, bir odam sport zaliga kelib, trenerdan kuchli bo'lish uchun nima qilishi kerakligini so'raydi. Trener shtanga ko'tarishni maslahat beradi. Shamolday tez yugurishni istaganlarga esa «Yugur!» deydi. Aniq yo'nalish berilgandan so'nggina g'alabaga intilish, iroda, qat'iyat, muntazam va ilmiy asoslangan mashg'ulotlar haqida gapiriladi.

Begona davraga kelib qo'shilgan odam u yerda kim xo'jayinligini darhol payqaydi. Uning buni qanday ilg'aganligini sharhlash mushkul. Nima bo'lganda ham, intuitsiya va davradagilar allaqachon ko'nikib qolgan tashqi belgilar kishiga pand bermaydi. Demak, yetakchini quyidagi belgilariga ko'ra ajratib olish mumkin:

1) yetakchi qaror qabul qiladi – biror harakatning turli variantlarini ko'rib chiqadi, hatto mutaxassislar bilan maslahatlashadi, ammo so'nggi qarorni faqat o'zi qabul qiladi.

2) yetakchi vazifa topshiradi – albatta og'zaki buyruq yoki yozma murojaat sifatida emas. Hamisha xushmuomalalik bilan, iltimos yoki maslahat ohangida. Muhimi – o'zini atrofdagilar nima qilishi kerakligini yaxshi biladiganday tutishda.

3) yetakchi tortinmay «menimcha», «o'ylaymanki», «nazarimda» deya oladi. U kechayotgan voqea-hodisalar boshqa kuchlar ta'sirida sodir bo'layotganligini

bildirmaydi. Xuddi armiyadagiday: oddiy askar buyruqni generaldan emas, o'z boshlig'idan eshitadi. Boshliq hech qachon «bu generalning buyrug'i» demaydi, chunki bunday hisobot uning askar oldidagi obro'sini tushiradi.

4) yetakchi ish tartibini o'zi belgilaydi: qachon, qancha va aynan nima ustida ishlashni o'zi hal qiladi. Bu yetakchi boshqalardan kam ishlaydi, degani emas. Jamoa xodimlar intilishini ularning ish kuniga qarab belgilash mumkin. Biror xodim hammadan keyin qolib kechgacha ishlasa, quvonishga shoshilmaslik darkor. Bu – xodim ish kunini, hatto cho'zayotgan bo'lsa ham, o'zi belgilayotganligini, demak, hozirgi ahvolidan ko'ra yuksakroq amallarni ko'zlayotganligini bildiradi. Bu esa rahbar uchun xavfli belgi.

5) yetakchi savol beradi. Hatto zamonaviy qarashlarga umuman rioya etmaydigan kishilar ham axborotga egalik – **hukmronlik** ekanligini yaxshi bilishadi. Savolga javob berayotgan odam so'rayotgan kishiga tobe maqomida turadi. Bekorga «Bu yerda savolni **men** beraman!» iborasi munosabatlar notengligining yorqin namunasi bo'lib qolmagan.

6) yetakchi o'zi kerak deb hisoblagancha sukut saqlaydi. U bemalol atrofdagilar uning javobini kutayotganligini o'ylamasdan uzoq jim qolishi yoki aksincha, gapirayotgan odamni keskin savol, javob, ibora yoki qo'l harakati bilan to'xtatib qo'yishi mumkin.

7) yetakchi ko'p joy egallaydi. Bu yetakchi yalpayib o'tiradi, degani emas. Shunchaki, u o'z hududini chegaralamaydi, o'ziga qanday qulay bo'lsa, shunday harakat qiladi: istagan joyida yuradi, narsa va odamlar joyini o'zgartiradi (nazokat bilan o'tib ketishi uchun ozgina surilishlarini so'raydi). U atrofdagilarga nimalarga e'tibor qaratishlari lozimligini bildiruvchi qo'l harakatlari bilan atrofida vizual maydon hosil qiladi. Hammadan baland yoki past ovozda gapirishi bilan esa tovush maydonini yaratadi.

8) yetakchi maqsad ko'zlaydi. U shunchaki ketayotgan ish haqida gapirmaydi, balki atrofdagilarga qaysi maqsad sari intilayotganini eslatib turadi. Bu bilan u asosiy maqsadni hamisha yodda tutishi va hamsuhbatlariga hamkorlikdagi harakatlari besamar emasligini, bu aniq natijaga intilish ekanligini bildiradi.

9) yetakchi mas'ul bo'ladi. Oddiy xodim osongina «Menga nima? Kichkina odam bo'lsam! Qo'limdan nima ham kelardi?» deb ayta oladi. Yetakchi – hech qachon! Hatto o'zi yo'qligida yuz bergan hodisaga ham o'zini javobgar sezaveradi.

10) yetakchi baho beradi. U maqtaydi yoki tanbeh beradi. Yetakchi o'zini «baho qo'yishga» haqli hisoblaydi. Va atrofdagilar ham uning bu huquqini tan olishadi.

Albatta, bu belgilar yetakchilik fenomenini mukammal tasvirlay olmaydi. Ammo ular yordamida jamoangizda kim nimaga qodiru nimaga intilishini bilib olish mumkin. Aynan sizni maqtaydigan yoki qoralaydigan, savollar bilan bezovta qiladigan, atrofida mavjud bo'sh joyni ovozi va harakatlari bilan egallab oladigan, kelajak haqida – amalga oshmas, kulgili tuyulsa-da – o'y suradigan, javobgarlikni «**men aybdorman**» deb darhol zimmasiga oladigan xodimni ko'rganda tushunasiz. Bu odam – yetakchi. Va beixtiyor u taklif etgan ssenariy bo'yicha ish tuta boshlaysiz. «Shohni a'yonlari yaratadi» deyishadi aktyorlar. Ya'ni bir personaj qirol bo'lishi uchun qolganlar o'zini unga tobe qilib tutishadi. Aks holda sahnadagi aktyorlarni «bittasi mansabparastlik xastaligiga chalingan telbalar to'dasi», deb qabul qilish mumkin.

Tayanch tushunchalar: Ijtimoiy jabha, Psixologik jabha, «rahbar», «lider» – «yetakchi», «boshliq», xarizmatik nazariya, vaziyatga bog'liqlik nazariyasi, sintetik nazariya, avtoritar, demokratik, liberal, partisipativlik.

Mavzuni o'zlashtirish uchun savollar

1. Boshqaruv psixologiyasining sotsial psixologik jihatlarini tushuntiring.
2. Boshqaruv jarayonining o'zida ikki mihim jabhani farqlash mumkin, ular qanday jabhalar?
3. Psixologik nuqtai nazardan, rahbar va lider tushunchalarida qanday farqlar va umumiylik bor?
4. «Lider» va «rahbar» tushunchalari o'rtasidagi farqlar haqida B.D.Pariginning qarashlarini aytib bering.
5. Liderlikka oid nazariyalarni tahlil qiling va fikrlaringizni bayon qiling.
6. Qanday liderlik uslublarini bilasiz, ularni izohlang?

7. Boshqaruv jarayonida rahbarda qanday sifatlar bo‘lishi talab etiladi?
8. Jamoa yetakchisi haqida fikrlaringizni bayon etib bering.

Bilimlarni mustahkamlash uchun test savollari

1. Boshqaruvda asosan ma'murchilik yo'lini nazarda tutadigan jabha qaysi?

- A) Jamoaviy
- B) Ijtimoiy
- C) Psixik
- D) Psixologik

2. Qaysi atama shaxsning guruhga munosabatini ifodalab, uning a'zolariga ta'sir o'tkazuvchi va maqsadga yetaklovchiga nisbatan ishlatiladi?

- A) Rahbar
- B) Boshliq
- C) Lider
- D) Boshlovchi

3. Lider asosan guruhdagi shaxslararo munosabatlarni boshqarsa...

- A) rahbar – shu guruhdagi rasmiy munosabatlarni boshqaradi
- B) rahbarlik – kichik guruhlargagina xos bo‘lgan hodisa
- C) rahbarlik – stixiyali, betartib jarayon
- D) rahbar – shu guruhdagi ijtimoiy munosabatlarni boshqaradi

4. Kim agar liderlik stixiyali, betartib jarayon bo'lsa, rahbarlik maqsadga qaratilgan, jamiyatda ishlab chiqilgan normalar, tartiblar asosida saylovlar oqibatida sodir bo'ladigan hodisa ekanligini aytgan?

- A) B.D. Parigin
- B) K.Berd
- C) U. Tomas
- D) G.Andreyeva

5. Ikki nazariyani tanqid qilish natijasida paydo bo'lgan uchinchi nazariya liderlikning qaysi nazariyasi sanaladi?

- A) Vaziyatga bog'liqlik

B) Xarizmatik

C) Sintetik

D) Liderlik sifatlari nazariyasi

6. Qaysi olim 79 sifatdan iborat bo'lgan liderlik qirralari ro'yxatini tuzgan?

A) K.Berd

B) B.D.Parigin

C) U.Tomas

D) Z.Freyd

7. Kimning konsepsiyasiga ko'ra liderlikni faoliyat mahsuli, guruhning ushbu faoliyatga munosabati va guruhda qabul qilingan normalar va ijtimoiy kutishlarga kim ko'proq javob berishiga qarab liderni aniqlash mumkin?

A) B.D. Parigin

B) A.N.Leontyev

C) K.Berd

D) G.Andreyeva

8. Guruhdagi sotsial fazoviy munosabatlardagi o'rni jihatdan, u «jamoadan chetda», avtonom. Ushbu ta'rif qaysi boshqaruv uslubiga xos?

A) Avtoritar

B) Demokratik

C) Liberal

D) Partisipativlik

9. Avtoritar lider bosh bo'lgan ishlarning samaradorligi ancha yuqori bo'lib, ishlab chiqarish ko'rsatkichlari ham yuqori bo'lishi haqidagi fikr kimlarga tegishli?

A) G.Gibsh va M.Forverg

B) K.Berd va A.N.Leontyev

C) M.Forverg va K.Berd

D) B.D. Parigin va M.Yu.Jukov

10. Liberal uslubning ikkinchi nomini toping.

A) E'tiborli

- B) Ozod
- C) Mehnatkash
- D) Loqayd

XIII BOB. SOTSIAL PSIXOLOGIYANING TADBIQIY SOHALARI

XIII.1. Sotsial psixologiyaning tadbiqiy va amaliy sohalari

Hozirgi zamon ilm-fanining qadri va ahamiyati uning nechogʻli amaliyotga kirib borib, tadbiqiy salohiyati ortib borishi bilan baholanadi. Psixologiyaning oxirgi yillardagi taraqqiyoti ham aynan ana shu mezon talablariga javob berishi bilan xarakterlanadi.

Amaliy hamda tadbiqiy psixologiya sohaslarining oʻziga xos jihatlari avvalo shundan iboratki, ular jamiyatning bevosita bugungi kundagi talablari va buyurtmalariga koʻra ish yuritadi. Jamiyatimizda esa psixologik bilimlarni bevosita amaliyotga tadbiq etishga ehtiyoj katta. Birgina Oʻzbekistonda kadrlar tayyorlashning milliy dasturini oladigan boʻlsak, uning bajarilishi va muvaffaqiyatli amalga oshirilishi uchun psixologiyaning aralashuvi zarur.

Joylarda tashkil etilgan Tashhis markazlarida faoliyat koʻrsatayotgan mutaxassislar oʻquvchilardagi rivojlanish koʻrsatkichlari, aqliy oʻsish omillari va iqtidoriga qarab taʼlim-tarbiyani tashkil etishlari uchun qator diagnostik tadbirlarni oʻtkazishlari zarurki, bu tadbirlar oxir-oqibat aniq samara berishi lozim.

Taʼkidlash zarurki, tadbiqiy psixologiyadagi «samara»ni oʻlchash mezonlari bilan nazariy psixologiyadagi samara tushunchalari biroz farq qiladi. Yaʼni, bu yerda bevosita buyurtmaning bajarilishi sifatiga buyurtmachining oʻzi baho beradi.

Shuning uchun ham amaliy psixologiyaning alohida tarmogʻi boʻlmish sotsial psixologiya bilimlarga amaldagi ehtiyojni uch asosiy sabab bilan tushuntirishi mumkin:

a) kichik korxonalar yoki yirik firmalardan tortib, toki hukumat darajasidagi idoralar ham oʻz faoliyati samaradorligini oshirish uchun tobora insonlar faoliyati va ulardagi rezervlardan omilkorona foydalanishning psixologik manbalarini qidirish lozimligini tushunib yetmoqdalar;

b) professional psixologlarning oʻzi ham oʻz ishlaridan keladigan obroʻ-eʼtiborning amaliy sohaslarida ishlay olish qobiliyatlariga bogʻliq ekanligini tushunib yetmoqdalar;

v) amaliyotda ishlayotgan boshqa soha vakillari ham agar psixologik tayyorgarlikdan o'tgan bo'lsalar, ishni tashkil qilishga o'quvlari yaxshiroq va ishlari unumliroq bo'lishini tushunib yetmoqdalar. Shuning uchun ham ko'plab yangi turdagi markaz va firmalar, qo'shma korxonalarda amaliyotchi psixologlar ishlamoqdalar.

XIII.2. Sotsial psixologiyaning asosiy sohalari

Sanoat va ishlab chiqarish sohasi. Sanoat va mahsulotlar ishlab chiqarish sohasida tadbqiqiy ishlar birinchi navbatda konkret tashkilotda kadrlar zahirasini to'g'ri va oqilona tashkillashdan tortib, xodimlar ish sharoitlari va mehnat unumdorligiga ta'sir etuvchi omillar kompleksini ilmiy ravishda o'rganib, hayotda natija olishga qaratilgan harakatlar majmuidir. Hozirgi bozor munosabatlari sharoitida ushbu yo'nalishdagi tadbqiqiy ishlarning ikki sohasini ajratish mumkin:

- marketing xizmatlari
- xodimlar (personal) bilan ishlash.

Birinchi eng zamonaviy va muhim ish bo'lib, bu yerda psixologning vazifasi «Nimani?» va «Kim?» harid qilib olishga ehtiyoji borligini o'rganishga ko'maklashishdir. Chunki, talab bilan ehtiyoj bevosita shaxsga va uning psixologik munosabatlari tizimiga aloqador kategoriyalar bo'lib, bozor va raqobat sharoitida korxonalar yoki tashkilotlarning samarali ishlab ketishi eng avvalo xaridorgir tovar mahsulotlarni ajratib, ularning odamlar talab-ehtiyojiga qanchalik mosligini aniq tahlil qilishdan boshlanadi.

Marketing munosabatlari aslida odamlar o'rtasidagi sof psixologik munosabatlar bo'lib, uning negizida odamlar o'rtasidagi jonli muloqot, ta'b va did tarbiyasi yotadi.

Shuning uchun biz bugun odamlarda to'g'ri marketing tafakkurini shakllantirish vositalarini qidirishimiz va talab-taklif munosabatlarini real ishlab chiqarish imkoniyatlari bilan muvofiqlashtirishda inson psixologiyasi xususiyatlarini inobatga olib ishlashga o'rganishimiz kerak. Masalan, shunday «Case Study»ni

olaylik: Psixologiyani qanday qilib sotish mumkin? (ya'ni, Psixologik ma'lumotlar va bilimlarni)

Biz aniq va to'g'ri javoblar olishimiz kerak bo'lgan savollar quyidagilar bo'ladi:

Nima sotiladi? - Test natijalari

Nima uchun? - nima qilib bo'lsa ham, pul ishlash, o'z imkoniyatlarini tekshirish, shaxsiy ish ochish;

Kim? - firma yoki konkret kishilar;

Nima? - xilma-xil testlar batareyasi;

Kimga? - turli kasb egalari, o'quvchilarga, xodimlarga;

Qayerda? Qachon? - zarurat bo'lgan har qanday joyda;

Qanday qilib? - minimal vaqt sarflab, tez va soz;

Qancha? - test o'tkazuvchilarning soni va imkoniyatiga qarab;

Kim bilan? - shu firma xodimlari bilan

Demak, marketing xizmatida javob berilishi zarur bo'lgan savollardan ko'rinib turibdiki, har bir savolga beriladigan javobning orqasida konkret odamlar, ularning qobiliyatlari, manfaatlari va ish unumi yotadi. Shuning uchun bu sohada psixologik xizmat zarur.

Ikkinchi soha – kadrlar va ular bilan bevosita ishlash sohasi. Bu kadrlarni ishga jalb etishda bilish zarur bo'lgan qobiliyatlar va shaxsiy fazilatlaridan tortib, ularni to'g'ri yo'naltirish, o'z joyiga qo'yish, tashkilot doirasida guruhlarni shakllantirish, xodimlarga ma'lumotlarni o'z vaqtida yetkazish bilan bog'liq kadrlar siyosatini olib borishga aloqador xizmatdir. Psixolog bu o'rinda asosan maslahatchi – konsultant va ekspert sifatida rol o'ynaydi.

Siyosat sohasidagi psixologiya. Har bir davr o'z kishilari ongida beixtiyor siyosiy ongni shakllantiradi va odamlar uning tamoyillariga bo'ysunadilar. Siyosat borasidagi psixologik masalalarga psixolog aralashuvining zarurati har doim bo'lmasa-da, ayrim paytlarda – yirik islohotlar boshlanishi arafasida, saylov oldi kompaniyalarda, yangi siyosiy liderlarning xalq tomonidan qabul qilinishi jarayonlari, ko'pchilik auditoriyaga zarur ma'lumotlarni yetkazish, sotsial

ustanovkalarni o'zgartirish, siyosiy arboblarning imidjini omma ongiga singdirish paytlarida psixologik ta'sir vositalaridan o'rinli foydalanish, maslahatlar berish va ayrim guruhlar e'tiqodiga ta'sir etishda kerak bo'ladi.

Siyosiy sohada ishlayotgan psixolog ishining o'ziga xos jihatlari bo'lib, unga quyidagilar kiradi:

a) siyosatda psixolog aralashuvi ko'pchilik ommaga bevosita aloqador bo'lmaydi;

b) zarurat tug'ilganda, psixolog shunday tez va ishonchli o'lchaydigan metodikalarni ishlatadiki, ularning natijalari sir saqlanib, o'sha buyurtmachi – siyosatchining talabiga ko'ra izlanishlar olib boriladi;

v) psixolog har bir siyosatchi uchun shunday ishonchli shaxs bo'lishi lozimki, undan odamlarning kayfiyatlari, reaksiyalari, his-kechinmalari xususida aniq ma'lumotlar so'raladi;

g) o'ziga xos qiyinchilik shundan iboratki, jamoatchilik psixolog qiyofasida ko'pincha liderning bevosita «odamini» ko'rishga moyil bo'lib, liderning o'zi ham ba'zan o'ta professional psixologdan hadiksirab qolishi mumkin.

Shuning uchun yuqorida ta'kidlaganimizdek, zarur paytlarda siyosiy arboblarning psixolog xizmatiga murojaat qilishlari va undan asosan biror jiddiy sotsial projeklarni qabul qilish jarayonida yordam berishini so'rash mumkin.

Buning uchun psixologdan jamoatchilik fikrini psixologik tahlil qilib berish va shu asosda fuqarolarning ustanovkalari va kayfiyatlariga ijobiy ta'sir ko'rsatuvchi omillarni birgalikda ajratish vazifasini hal qilishlari mumkin.

Saylov oldi kompaniyalarda esa, psixologning asosiy vazifasi odamlarning kayfiyatini o'rgangan holda da'vogar imidjini shakllantirishga, odamlarga yoqtirishga sabab bo'ladigan shaxsiy fazilatlar algoritmini tuzish, omma oldiga chiqishga psixologik tayyorlash, raqiblarning bahslashish madaniyati va etikasi borasida psixologik yo'l-yo'riq va usullar borasida ma'lumotlar almashinish kerak bo'ladi.

Oila va nikoh borasidagi tadbqiq ishlar. O'zbekistonda endi shakllanayotgan, lekin nazariy nuqtai nazardan ma'lum an'analarga ega bo'lgan sohadir. 1998 yilning «Oila yili» deb e'lon qilinishi joylarda psixologik xizmat o'choqlarining paydo

bo'lishiga va u yerlarda psixologik xizmatdan foydalanishni anglashga turtki bo'ldi. Shuning uchun Respublikamizda oila muammolarini maxsus tadqiq etadigan ilmiy-amaliy «Oila» markazi ham tashkil etilganki, bu markazda turli sohaga aloqador mutaxassislar oilani shaxs sotsiallashtirishning asosiy maskanlaridan biri sifatida o'rganib kelmoqdalar.

Oila va unga bog'liq muammolarni ilmiy o'rganishda ushbu yo'nalishlarda ishlar olib borilmoqda: oila qurish motivlari, oilada ota-ona va farzand orasidagi munosabatlar, oilada er va xotin orasidagi munosabatlar, oilalarning etnik belgilariga ko'ra psixologik xususiyatlari, oilada ajralish va uning shaxs psixologiyasiga ta'siri, oilaning to'liq va noto'liq turlari, ularning shaxs o'z-o'zini baholashiga ta'siri, oila haqidagi turli yoshdagi shaxslarning tasavvurlari, oila mustahkamligiga ta'sir etuvchi omillar. Oila bilan bog'liq muammolar doimo shaxsni tashvishlantirgani bois psixolog bu yerlarda yoshlardagi oila va nikoh borasidagi tasavvurlarning to'g'ri shakllanishidan tortib, toki muammoli, hattoki, ajrim bo'lgan oila a'zolariga psixologik maslahatlar berish, «ishonch telefonlari» orqali maslahatlar uyushtirishni o'z zimmasiga oladi.

Maorif sohasidagi amaliy ishlar. Boshqa sohalarga nisbatan anchagina yaxshi tajribaga ega. Ayniqsa, O'zbekistonda kadrlar tayyorlashning Milliy dasturi qabul qilingandan so'ng tashkil qilingan yangi tipdagi ta'lim muassasalari – akademik litseylar va kasb-hunar kollejlariga bir nechtadan psixologlar shtati kiritilgan va ular aynan tadbqiqiy muammolar – bolaning o'quv jarayoniga psixologik jihatdan tayyorligini diagnostika qilishdan tortib, professional va kasb mahoratini rivojlantirishgacha bo'lgan barcha muammolarni hal qilishga «aralashadi». Shuning uchun respublikamizda shaxsni bolalik, o'smirlik, o'spirinlik davrlarida o'qish faoliyatiga, kasbiy faoliyatga yo'naltira olishni diagnostika qilish markazlari tashkil etilgan. Bu o'z navbatida har bir shaxsning o'z tug'ma va orttirilgan qobiliyatlarini to'g'ri yo'naltira olishi va namoyon eta olishiga imkon beradi.

Huquqbuzarlikning oldini olish. Bu soha va unga aloqador muammolar har doim ham psixolog aralashuvini talab qilib kelgan. Chunki jinoyatchi yoki huquqbuzar shaxsi o'z-o'zidan shakllanib qolmaydi, uni shakllantiruvchi omillar,

motivlar va bolani qayta tarbiyalash va rehabilitatsiya masalalari sotsial psixologik jarayonlar mohiyatini bilish va ularga faol ta'sir ko'rsatish talab qiladi. Shuning uchun ham mamlakatimizda yoshlar o'rtasida huquqiy ma'rifat va huquqiy madaniyatni shakllantirishga juda katta e'tibor qaratilgan va bu ishda amaliyotchi xodim – psixologning o'rnini va roli katta bo'ladi.

Yuqorida e'tirof etilgan psixologiyaning tadbqiqiy sohalari uchun umumiy narsa shuki, bu sohalarda ishlaganlar avvalo yaxshi psixodiagnost, ya'ni psixologiya metodlarini o'z o'rnida samarali ishlatishni bilishi va yaxshigina psixoterapevt va psixokorrektor – ya'ni, aniqlangan muammo yoki «kasallikni» tuzatuvchi mohir professional bo'lishi kerakligini taqozo etadi.

Tayanch tushunchalar: tadbqiqiy, amaliy, soha, sanoat, ishlab chiqarish, marketing, xodim, siyosat, oila va nikoh, maorif, huquqbuzarlik.

Mavzuni o'zlashtirish uchun savollar

1. Sotsial psixologiyaning tadbqiqiy va amaliy sohalari deganda nimani tushundingiz?
2. Sanoat va ishlab chiqarish sohasi sotsial psixologiyaning ahamiyati nimada?
3. Siyosat sohasidagi psixologiyaning asosiy vazifalari nimalardan iborat?
4. Oila va nikoh borasidagi tadbqiqiy ishlar bo'yicha bugungi kunda qanday ishlar amalga oshirilmoqda?
5. Maorif sohasidagi amaliy ishlar nimani nazarda tutadi?
6. Ta'lim sohasida amaliy psixologiyaning vazifalari haqida gapirib bering.
7. Huquqbuzarlikning oldini olishda sotsial psixologiyaning ahamiyatini izohlab bering.
8. Sotsial psixologiyaning tadbqiqiy sohalari uchun umumiy narsa nimalarda namoyon bo'ladi?

Bilimlarni mustahkamlash uchun test savollari

1. Qaysi sohada tatbiqiy ishlar birinchi navbatda konkret tashkilotda kadrlar zahirasi to'g'ri va oqilona tashkillashdan tortib, xodimlar ish sharoitlari va mehnat unumdorligiga ta'sir etuvchi omillar kompleksini ilmiy ravishda o'rganib, hayotda natija olishga qaratilgan harakatlar majmuidir?

- A) Oziq-ovqat
- B) Sanoat va ishlab chiqarish
- C) Ma'orif
- D) Siyosat

2. Qaysi yo'nalishda psixologning vazifasi «Nimani?» va «Kim?» xarid qilib olishga ehtiyoji borligini o'rganishga ko'maklashish sanaladi?

- A) Menejerlik
- B) Marketing
- C) Personal
- D) Shaxsiy

3. Nimaga ta'rif berilmoqda: Bu kadrlarni ishga jalb etishda bilish zarur bo'lgan qobiliyatlar va shaxsiy fazilatlardan tortib, ularni to'g'ri yo'naltirish, o'z joyiga qo'yish, tashkilot doirasida guruhlarini shakllantirish, xodimlarga ma'lumotlarni o'z vaqtida yetkazish bilan bog'liq kadrlar siyosatini olib borishga aloqador xizmatdir.

- A) Marketing
- B) Personal
- C) Sotsial psixologiya
- D) Kadrlar bilan ishlash

4. Qaysi sohada zarurat tug'ilganda, psixolog shunday tez va ishonchli o'lchaydigan metodikalarni ishlatadiki, ularning natijalari sir saqlanib, o'sha buyurtmachining talabiga ko'ra izlanishlar olib boriladi?

- A) Ishlab chiqarish
- B) Iqtisodiy
- C) Ta'lim-tarbiya

D) Siyosiy

5. Qanday jarayonda psixologning asosiy vazifasi odamlarning kayfiyatini o'rgangan holda da'vogar imijini shakllantirishga, odamlarga yoqtirishga sabab bo'ladigan shaxsiy fazilatlar algoritmini tuzish, omma oldiga chiqishga psixologik tayyorlash, raqiblarning bahslashish madaniyati va etikasi borasida psixologik yo'l-yo'riq va usullar borasida ma'lumotlar almashinish kerak bo'ladi?

A) Bozor munosabatlarda

B) Majlislarda

C) Saylovoldi kampaniyalarda

D) Maorif sohasida

6. Qachon O'zbekistonda "Oila yili" deb e'lon qilingan?

A) 2000-yil

B) 2001-yil

C) 1998-yil

D) 1999-yil

7. Psixologning qaysi sohadagi faoliyati har bir shaxsning o'z tug'ma va orttirilgan qobiliyatlarini to'g'ri yo'naltira olishi va namoyon eta olishiga imkon beradi?

A) Huquq-tartibot

B) Maorif

C) Oila

D) Siyosiy

8. ... – psixologiya metodlarini o'z o'rnida samarali ishlatishni bilish.

A) Psixodiagnostika

B) Psixoterapiya

C) Psixiatriya

D) To'g'ri javob yo'q

XIV BOB. KURS DASTURI MAZMUNI

Sotsial psixologiya fan sifatida

Sotsial psixologiya metodini tushunish umumiy psixologiya va sosiologiya predmetini tushunishiga bog‘liqligi. Psixologik va sotsiologik adabiyotlarda sotsial psixologiya predmetini birdek tushunishning yo‘qligi. Sotsial psixologiya predmetiga nisbatan mavjud uch nuqtai nazar.

Sotsial psixologiyaning boshqa fanlar, psixologiyaning boshqa turkumlari bilan munosabati. Sotsial psixologiya predmeti tushunchasi. Tarixni tanqidiy analiz qilish va chet sotsial psixologiyasidagi nazariyalarning, oqimlarning mohiyati.

Sotsial psixologik qarashlarning rivojlanish tarixi

Sotsial falsafiy va sotsiologik ta’limotlarda sotsial-psixologik g‘oyalarni rivojlantirishi. Sotsial psixologiyaning mustaqil fan bo‘lib ajralib chiqishida sotsial, ilmiy va ideologik nazariyalarni yaratish bo‘yicha birinchi harakatlar.

“Xalqlar psixologiyasi” uning tarixiy sabablari va vazifalari, Lasarus, Shteyntal tomonidan uni programmasining shakllanishi. «Xalqlar psixologiyasi»ga Vundtning maxsus yondashuvi. Omma va olomon psixologiyasi. Tard ishlarida uch manbani va ishlarida uch tugallanishni “Sotsial xatti-harakat instinkti” nazariyasi (Mak-Dugall). Sotsial psixologiyaning chet eldagi hozirgi vaqtda mavjud bo‘lgan asosiy nazariy konsepsiyasi. Yevropa sotsial psixologiyasida katta guruhlar va ommaning sotsial jarayonlarini tahlil qilishga qiziqishning uyg‘onishi.

Sotsial psixologiya metodologiyasi va metodlari

Ilmiy bilim rivojlanishining zamonaviy bosqichida metodologik muammolar ahamiyatining o‘sishi. Ilmiy tadqiqot metodologiyasi tushunchasi. Sotsial psixologiyada talablar. Sotsial-psixologik tadqiqotning ikki asosiy tipi. Eksperimentli va korrelyatsion. Ma’lumotlarning ishonchligini va sharti masalasini ochish xususiyati.

Sotsial psixologik tadqiqotning asosiy metodlari. Kuzatish metodi. suhbat metodi. Hujjatlarni tahlil qilish metodi. Proyektiv metodlar. Sotsial-psixologik tadqiqotlarda to‘g‘ri va noto‘g‘ri metodlarning munosabati.

Sotsial psixologiyada “test” qo‘llashning sharoitlari. Sotsial psixologiyada eksperimentlarning asosiy tiplari. Sotsial psixologiyada o‘lchash muammosi.

Sotsial psixologiyaning asosiy yo‘nalishlari

Psixoanaliz. Bixeviorizm. Sotsiometriya, guruhli dinamika maktabi. Kognitivizm. Interaksionizm. Insonparvarlik psixologiyasi. Tranzakt tahlil. Ekzistensial psixologiya.

Sotsial psixologiyada shaxs muammosi

Individual ong rivojlanishida sotsial munosabatlarni hal qiluvchi roli. “Sotsial rol” tushunchasi. Sotsial rol – sotsial faoliyatni ijtimoiy zaruriy turi – sotsial munosabatlar sistemasidagi shaxsni o‘rni bilan belgilab berilgan shaxs xatti-harakatining usuli. Sotsial rolni bajarishning turli usullarini “shaxsiy” bo‘lish imkoniyati.

Shaxslararo munosabatlarning ijtimoiy munosabatlar sistemasida vujudga kelishi, uning namoyon bo‘lish shartlari.

Sotsial psixologiyada shaxs muammosi. “Men” konsepsiyasi, “Men” obrazi, ijtimoiy tafakkur, ijtimoiy ong.

Shaxslararo munosabatlarning ijtimoiy munosabatlar sistemasida vujudga kelishi, uning namoyon bo‘lish shartlari.

Muloqot sotsial va shaxslararo munosabatlarning ifodasi sifatida

Muloqotning kommunikativ tomoni: muomala – informatsiya almashish. Kommunikativ vaziyatni ifodalashda sotsial psixologiyaning tushunchalar apparati. Kommunikativ turlari.

Verbal kommunikatsiya. Kommunikativ xususiyatlaridagi ahamiyati. Noverbal kommunikatsiyaning asosiy turlari

Noverbal kommunikatsiyaning har bir turini eksperimental tadqiq qilishdagi asosiy yo'nalishlar.

Muloqotning interaktiv tomoni: muloqotning harakatlar bilan almashishi.

Sotsial psixologiyada odamlarning bir-biriga ta'siri muammosi. Chet el sotsial psixologiyasida o'zaro ta'sir aktining anatomiyasi muammosini o'rganish. Didaktik ta'sir nazariyasi: "simvolik interaksionizm"da o'zaro ta'sir muammosini hal qilish.

O'zaro ta'sir jarayonining komponentlari. O'zaro ta'sir turlari. Sotsial psixologiyada kooperatsiya va konflikt. O'zaro ta'sirning eksperimental sxemasi.

Muomalaning perseptiv tomoni: o'zaro idrok etish.

Sotsial psixologiyada perseptiv jarayonlarni analiz qilish xususiyati. Shaxslararo idrokni sotsial-perseptiv jarayonlar tizimidagi o'rni. Shaxslararo idrokning muomala jarayonidagi o'rni. O'zaro idrok va muomaladagi sheriklarni bilish, ular o'rtasidagi o'zaro bir-birini tushunish asosi.

Shaxslararo idrokni eksperimental tadqiq qilishning asosiy yo'nalishlari. Idrokning mexanizmlari va effektlari. Stereotipizatsiya jarayonining mazmuni va ahamiyati. Boshqa odam xatti-harakati sabablarini «tahlil qilish» kauzal atribusiyaning asosidir. Atribusiya jarayon strukturasi. Atribusiyaning tur va shakllari.

Sotsial psixologiyada guruhlar muammosi

Sotsial psixologiyada guruhlar muammosini qo'yish uchun guruhlarini sotsial analiz qilish ahamiyati.

Sotsial psixologiyada guruhlarini tadqiq qilish uchun faoliyat prinsipi metodologik ahamiyati. Guruh funksiyalari. Guruh parametrlari. Guruh strukturasi.

Kichik guruhlar psixologiyasi. XX asr sotsial psixologiyasida kichik guruhlar bo'lgan qiziqishlarning sabablari. Sotsial hayotda kichik guruhlar ahamiyati oshishining ob'yektiv sharoitlari. Kichik guruh tushunchasi. Kichik guruhlar klassifikatsiyasi: birlamchi va ikkilamchi guruhlar, rasmiy va norasmiy, a'zoli va referent guruhlar. Guruh va tashkilot. Tashkilot psixologiyasi.

Kichik guruh tuzilishi. Individning guruhdagi o'rnini. Kichik guruhlar strukturasi va dinamik aspektlari. Guruhlarning rivojlanish muammosi. Guruhiy aktivlikni vositalashning faoliyatli prinsipi mazmuni.

Kichik guruhlar dinamikasining asosiy jarayonlari. Kichik guruhdagi jarayonlarning umumiy xarakteristikasi. Kichik guruhlarning shakllanish mexanizmi. Kichik guruhlarda liderlik va rahbarlik. Sotsial psixologiyada lider tushunchasi.

Olomon psixologiyasi

Ommaviy sotsial jarayonlar va harakatlar psixologiyasi. Sotsial fikr va sotsial kayfiyat – ommaviy sotsial jarayonlarning muhim xarakteristikasi. Katta sotsial guruhlar psixologiyasining emotsional tomonini sotsial fikr va sotsial kayfiyat shakllanishidagi ahamiyati.

Sotsial fikr va sotsial kayfiyat va stixiyali ta'sirlarga ongli ta'sirning munosabati. Sotsial psixologiyada "sotsial ongsizlik" muammosi.

Sotsial fikr va sotsial kayfiyatni hozirgi sharoitda o'rganishni ahamiyati.

Guruh sharoitida zamonaviy o'qitishning pedagogik va psixologik texnologiyalari

Auditoriya bilan ishlashning sotsial psixologik shartlari. Faol o'qitish metodlari va ularni tashkil etish. Darsda munozara, breynshtorming va treninglar o'tkazish texnologiyasi. Bahs turlari. Yozma bahs o'tkazish usullari. Erkin yo'naltirilmagan bahs. Aniq qobiliyatlarni rivojlantirish.

Shaxs sotsializatsiyasi

Sotsiallashtirish omillari. Sotsiallashtirishning sotsial-psixologik aspektlari. Sotsiallashtirish jarayonini tadqiq etishda sotsial psixologiya va genetik psixologiyaning o'zaro ta'siri. Sotsiallashtirishning sotsial-psixologik va sotsiologik aspektlari. Sotsial rol. Status va rol.

Individ sotsiallashtirishining asosiy bosqichlari. Sotsiallashtirish mexanizmlari va institutlari. Shaxsni sotsial-psixologik xatti-harakatini sotsializatsiya va determinatsiyasida rasmiy va norasmiy tashkilotlarning roli.

Sotsial ustanovka

Sotsial ustanovka tushunchasi. Sotsial ustanovkalarni o'rganishda Uznadze maktabi tadqiqotlarining ahamiyati. Psixologiyada sotsial ustanovkalarni o'rganishga bo'lgan turli yondashuvlar. Sotsial ustanovka strukturasi. Sotsial ustanovkalar emotsional kognitiv va xatti-harakat komponentlari. Sotsial ustanovkalar o'zgarishi muammosi va uning nazariy va amaliy ahamiyati.

Sotsial psixologiyada boshqaruv muammosi

Liderlikni o'rganishning nazariy va amaliy ahamiyati. Guruhiy qaror qabul qilish. Guruhiy fikr shakllanishi va guruhda qaror qabul qilishga ta'sir ko'rsatuvchi asosiy omillar. Guruhiy kelishmovchiliklar va qaror qabul qilish mexanizmi. Kichik guruhning faoliyat samarasi. Guruh faoliyati samarasiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar.

Shaxs va o'zaro ta'sir muammosi. Shaxsning birgalikdagi harakatlarga tayyorgarligi. Sotsial-psixologik trening shaxsni sotsial-psixologik xarakteristikasini rivojlantirish usuli.

Sotsial psixologiyaning tatbiqiy sohalari

Sotsial psixologiyaning tadbiqiy va amaliy sohalari. Sotsial psixologiyaning asosiy sohalari. Sanoat va ishlab chiqarish sohasi. Siyosat sohasidagi psixologiya. Oila va nikoh borasidagi tadbiqiy ishlar. Maorif sohasidagi amaliy ishlar. Huquqbuzarlikning oldini olish.

GLOSSARIY

ADAPTATSIYA – shaxsning o‘z ichki xususiyatlarini o‘zi yashayotgan muhitni xususiyatlaridan kelib chiqqan holda o‘zgartirishi.

ADEKVAT – holatlarga mos munosabat bildira olish

AGRESSIYA – boshqa tirik jonzotga u buni istamagan vaziyatda haqorat yoki ziyon yetkazishni maqsad qilib qo‘ygan fe‘l-atvorning har qanday shakli.

ALTRUIZM – hech qanday manfaatni kutmagan holda boshqalarga yordam berish.

ANKETA – metodlardan biri bo‘lib, respondent to‘g‘risida aniq ko‘zlangan ma‘lumotlarni yig‘ish maqsadida qo‘llaniladi.

ATTITYUD – (o‘zbekcha «yaroqlilik», «moslik») individ tomonidan sotsial ob‘yektning qimmatini, mazmun-mohiyatini, ma‘nosini psixologik his qilish yoki bo‘lmasa ma‘lum bir sotsial qimmatlikka nisbatan individdagi ong holatini bildiradi.

AUTOAGRESSIV XULQ-ATVOR – agressivlikning bir shakli bo‘lib, unda agressiya shaxsning o‘ziga qarshi yo‘naltirilgan bo‘ladi.

AVTORITAR – sotsial munosabatlarni o‘rnatish va tashkil etishda rahbar shaxsining faqat o‘z fikri va qarashlariga suyanishi va amal qilishi.

BOSHQARUV – shaxs va jamiyat munosabatlarida sotsial, individual munosabatlarni o‘rnatishga qaratilgan jarayon.

DEMOKRATIK – sotsial munosabatlarni o‘rnatish va tashkil etishda rahbar shaxsining jamoa fikri va qarashlarini ham inobatga olishi.

DEPRESSIYA – tushkunlik kayfiyati.

DIALOG – ikki va undan ortiq kishilarning o‘zaro og‘zaki gaplashishi.

DIALOGIK NUTQ – nutq turlaridan bo‘lib, bunda so‘zlovchilar barobar teng, birgalikda faollik ko‘rsatadi.

DISKRIMINATSIYA – umumiy tushunchada tan olmaslikni maqsad qilgan yoki tenghuquqlilik hamda uni himoya qilishni rad etgan, tenghuquqiylik tamoyili va insoniylik qadr-qimmatini kamsituvchi har qanday ajratish, tahqirlash yoki cheklash.

DOMINANT SHAXS – boshqalar bilan muomala va munosabat o‘rnatishda

o'z fikrini o'tkazish xislatining yorqin namoyon bo'lishi.

DUNYOQARASH – odamning tevarak-atrofdagi oamga va unda o'zining tutgan o'rniga qarashlaridan kelibchiqqan tizim. Uning falsafiy, siyosiy, ilmiy, diniy, aqliy va estetik qarashlari yig'indisi.

EGOTSENTRIZM – men, markaz ma'nosida individualizm va egoizmning eng tuban turi.

EGOTSENTRIZM (lot. «Ego» – men va «centrum» – doira markazi) – insonning o'z fikr-o'ylari, manfaatlari doirasida qotib qolganligi, buning oqibatida atrof-muhitga va odamlarga oid bilimlarini hamda o'zgalarga munosabatini o'zgartira olmasligi.

EKSTROVERT SHAXS – shaxsning har qanday sharoit va holatlarida o'z ichida kechayotgan fikrlarini bayon etish ehtiyojining yuqoriligi.

EMPATIYA – boshqa odamlarning psixik holatini tushunish qobiliyati.

EMPATIYA NAZARIYASI – altruistik xulqdagi kishining o'zi ham anglamagan holda boshqalar uchun qayg'urish va g'amxo'rlik qilishga moyilligi.

FAOLIYAT – insongagina xos, ong bilan boshqariladigan ehtiyojlar tufayli paydo bo'ladigan va tashqi olam bilan kishining o'z-o'zini bilishga, uni qayta qurishga yo'naltirilgan faolliigi.

FAOLLIK – tirik materiyaning umumiy xususiyati, tevarak muhit bilan o'zaro ta'sirda bo'lishida namoyon bo'ladi.

FRUSTRATSIYA – bu maqsadga erishishga to'sqinlik qiluvchi barcha narsalardir.

GEDONIZM – shaxs va uning xulq-atvor motivlarida birgina istak – nimadandir lazzatlanish, qoniqish olish va o'zidagi ichki ruhiy iztiroblardan xoli bo'lishga intilish ustuvorligi.

GURUH – odamlarning birgalikdagi faoliyat mazmuni yoki muloqotda bo'lish характери kabi qator belgilariga asoslangan sotsial jamoa.

HARAKAT – maqsadga muvofiq yo'naltirilib, ongli ravishda amalga oshiriladigan harakatlar yig'indisi. H. Ongli faoliyatning tarkibiy qismlari va motivlaridan biridir.

IDENTIFIKATSIYA – individ tomonidan ongli va ongsiz ravishda boshqalarning xulq-atvorini, qadriyatlarini va sotsial me'yorlarini o'zida qayta tiklashi (o'ziniki qilib o'zlashtirish).

IJTIMOIV ME'YOR NAZARIYASI – kishining sotsial rol va sotsial me'yorlarni yaxshi o'zlashtirganlari uchungina altruistik xulqni namoyon qilishi.

IJTIMOIV «MEN» – irqiy, diniy, jinsiy, kasbiy va h.k. mansublikni, shuningdek, ma'lum davraga mansub «biz» bor va unga kirmaydigan «ular» bor degan tushunchani ham bildiradi.

IJTIMOIV MALAKALARNI O'ZLASHTIRISH – jamiyatning insonga ta'sir etishi, sotsial tajribani qabul qilish va o'zlashtirish.

IJTIMOIV ME'YOR – insonlar o'rtasidagi munosabatlarni boshqaruvchi harakatlar qoidasi.

IJTIMOIV ME'YOR – shaxs hayotida shunday kategoriyaki, u jamiyatning o'z a'zolari xulq-atvoriga nisbatan ishlab chiqqan va ko'pchilik tomonidan e'tibor etilgan harakatlar talablari hamda tartib va qadriyatlarining himoyachisidir.

IJTIMOIV NAZORAT – sotsial munosabatlarning jonli pardasini saqlaydi va o'zida jamoat tartibini saqlashning o'ziga xos mexanizmi.

IJTIMOIV SANKSIYA – jamiyat uchun ahamiyatga ega vaziyatda shaxsning xatti-harakatlariga sotsial guruh yoki jamoatchilikning munosabati.

IJTIMOIVLASHUV – bizning jamiyatga qo'shilib yashashimiz va shu jamiyatda mavjud bo'lgan sotsial tajribalarni o'zlashtirishimizdan iborat bo'lgan jarayon.

ILMIY TAHMIN – tekshirish va tadqiqot olib borish maqsadida ilgari kutilishi mumkin bo'lgan holatning bashorat qilinishi.

INDIVIDUALLIK – individning boshqalardan farqlanadigan sotsial xususiyatlari va psixikasining o'ziga xosligi, qaytarilmasligi.

INTERAKTIV – shaxslararo munosabatlarda bir-biriga ta'sir etishga qaratilgan tomoni bo'lib, bunda shaxsning sotsial mavqei, roli muhim omil sifatida kuzatiladi.

INTROVERT – shaxsning har qanday sharoit va holatlarida o‘z ichida kechayotgan fikrlarini bayon etish ehtiyojining nihoyatda pastligi.

ISHONISH – individ tomonidan ongli va ongsiz holatda u bilan muloqotga kirgan insonlarning fikrlari, his-tuyg‘ulari, dunyoqarashlarini o‘zida qayta tiklash (o‘ziniki qilib o‘zlashtirish).

JAMOA – maqsadlari jamiyat maqsadiga mos keladigan umumiy faoliyat bilan birlashgan odamlar guruhi.

JAMOANING NEGIZI – umumiy fikr, maqsad va ishlab chiqarishga taalluqli qarorlarni shakllantiruvchi jamoa a‘zolari.

KASB – faoliyat shakllari birlashmasi bo‘lib, mazmun, vositalar, tashkilotlar, mehnat natijalari hamda mehnat sub‘yektini tayyorlashga qo‘yiladigan talablar majmui.

KICHIK GURUH – a‘zolari birgalikdagi faoliyat bilan shug‘ullanuvchi va bevosita shaxslararo munosabatda bo‘luvchi kishilar guruhi.

KO‘NIKMA – odamning ma‘lum ishni bajarishga tayyorligida ko‘rinadigan qobiliyati. K. mahoratning asosini tashkil etadi.

KOMMUNIKATIV – shaxslararo munosabatlarda ma‘lumot, axborot, g‘oyalar almashinuvi jarayoni.

KONTENT-ANALIZ – tekshirilayotgan matnda so‘z, ibora, abzatslarni ma‘no-mohiyatini takrorlanish darajasiga qarab tahlil etish usuli.

KUZATISH – sinaluvchini aniq maqsad, faoliyat, vaqt, guruh bilan bog‘liq ravishda tekshirish, o‘rganish, ma‘lumotlar to‘plash metodi.

LIBERAL – sotsial munosabatlarni o‘rnatish va tashkil etishda rahbar shaxsining befarqlik munosabatlarini namoyon etishi.

LIDERLIK – jamoa orasida turli vaziyatlar ta‘sirida yuzaga keladigan rahbarlik, lekin bu rahbarda rasmiy vakolat tizimi mavjud emas.

LONGITYUD TADQIQOT – sinaluvchini uzoq muddat va doimiy ravishda o‘rgansh.

MALAKA – mashq qilish jarayonida ish harakatlar bajarilishining avtomatlashgan usullari.

MEHNAT – inson ehtiyojini qondirish asosida tashqi olamni o‘zgartirishga qaratilgan maqsadli faoliyat.

METOD – bilishning nazariy va amaliy o‘zlashtirish usullari yig‘indisi.

METODOLOGIYA – tadqiqot, tekshirish usuli bo‘lib, bilishning nazariy va amaliy o‘zlashtirish usullari yig‘indisidir.

MOBIL SHAXS – shaxsning bir faoliyat turidan boshqasiga o‘tish va moslashish imkoniyatining yuqori darajada kuzatilishi.

MONOLOG – ma‘ruzachi tomonidan nutq so‘zlanishi, ma‘ruzachi aktiv, tinglovchi passiv bo‘lgan jarayon.

MONOLOGIK NUTQ – bir odamning o‘z fikrlarini og‘zaki yoki yozma ravishda ifodalash nutqi.

MOTIV – ma‘lum ehtiyojlarni qondirish bilan bog‘liq faoliyatga undovchi sabab.

MOTIVASIYA – odamni faol faoliyatga undovchi sabablar majmui.

MULOQOT – ikki yoki undan ortiq odamlarning o‘zaro bir-biriga ta‘sir etishi.

MUTAXASSISLIK – faoliyatning aniq shakli bo‘lib, mehnat egasining kasbiy tayyorligi, mehnat vositalari, mehnat jarayoni va maqsadining maxsus xususiyatlari bilan belgilanadi.

NEGATIVIZM – individning har qanday sharoitida ham guruh fikriga qarshi turishi va o‘zicha mustaqil fikr, mavqeni namoyon qilishi.

NIZO BOSQICHLARI – uch bosqichda, ya‘ni nizo oldi, nizo va nizodan keyingi bosqichlar.

NIZO TURLARI – nizolarning kimlar orasida yuzaga kelishiga ko‘ra farqlari: shaxslararo, guruhlararo, shaxsiy, etnik, milliy; namoyon bo‘lish xususiyatiga ko‘ra: ochiq, yopiq, uzoq muddatli, qisqa; mavqe yoki darajaga ko‘ra: vertikal va gorizontal; yo‘nalishiga ko‘ra: destruktiv va konstruktiv.

NIZOLAR – o‘zaro ta‘sir ko‘rsatayotgan kishilarning qarama-qarshi turishi, bunda fikrlar, pozitsiyalar, qarashlar teskariligi kuzatiladi.

NOIJTIMOIY (TEXNIK) ME‘YOR – me‘yorlar inson va tashqi dunyo, tabiat, texnika vositalari o‘rtasidagi munosabatni nazorat qiladi.

NORASMIY – odamlarning birgalikdagi muloqot va faoliyatlarida ular orasidagi munosabatlarning o‘zaro ishonch, bir xil qarash va maqsadlarning ko‘zda tutilishi.

NOVERBAL – nutqsiz ifodalangan harakat, mimika, holatlarning boshqa shaxsga yo‘naltirilishi.

O‘QISH – shaxsning bilim va faoliyat usullarini egallashga hamda uni mustahkam esda saqlab qolish jarayoni.

O‘YIN – faoliyat turlaridan biri bo‘lib, bolalarning kattalar faoliyatini, ish harakatlarini aks ettirishda ifodalanadigan va atrofni bilishga qaratilgan faoliyatdir.

OILA – turmush qurish, qarindosh-urug‘chilik asosidagi kichik guruh.

PERSEPTIV – shaxslararo munosabatlarda biror vaziyatni, holatni tushunish, his etishga qaratilgan tomoni.

PERSEPTIV TOMON – shaxslararo munosabatlarda tushunish, his etish, idrok etishga qaratilgan jarayon.

PERSONAL IDENTIVLIK – o‘z shaxsiy sifatlari haqidagi tasavvurlar.

PILOTAJ TADQIQOT – tadqiqotning muammoli izlovchi turi, asosiy tadqiqotgacha o‘tkaziladigan va soddalashtirilgan shakli.

POLILOG – guruh ichidagi munozara bo‘lib, barcha ishtirokchilar faollashuvi kuzatiladi.

RAHBARLIK – boshqaruvda rasman vakolatlarning shaxsga berilganligi.

RASMIY – odamlarning birgalikdagi faoliyatlarida, sotsial rollar taqsimotida mavqe, martabaning inobatga olinishi

REAL – birgalikdagi faoliyat jarayonida bevosita muloqot amalga oshishi imkoniyati.

REFERENT GURUH – shaxsning har tomonlama ishongan, o‘ziga yaqin tutgan guruhi.

REFLEKSIYA – o‘zgalarga qarab, go‘yoki oynada o‘zini ko‘rganday tasavvur qilish jarayoni.

RIGID SHAXS – shaxsning bir faoliyat turidan boshqasiga o‘tish va moslashish imkoniyatining past darajada kuzatilishi.

ROL – shaxsning aniq hayotiy vaziyatlardagi huquq va burchlaridan iborat harakatlari majmuini bildiradi.

ROLLARDAGI NIZOLAR – ma’lum bir rolni egallab turgan shaxsdan uning atrofidagi ma’lum bir guruh kutayotgan kutuvlarni amalga oshirilishi jarayonida sodir bo’ladigan to’qnashuv.

SANOAT PSIXOLOGIYASI – sanoat va ishlab chiqarishda turli yuzaga keladigan muammo va holatlarni psixologik va sotsial omillarini tahlil qilib olishga qaratilgan xizmatlari turi.

SHAKLLANGANLIK – odamlarning nima uchun jamoalarda ishlashi, odamlar ichida bo’lishi bilan bog’liq psixologik jarayon.

SHAKLLAR – bevosita va bivosita tur bo’lib, yuzma-yuz yoki vosita orqali amalga oshishi ko’zda tutiladi.

SHARTLI – odamlarning turli belgi, faoliyat shakllariga ko’ra biror guruhga taalluqli deb qarash.

SHAXS – sotsial munosabatlarga kiruvchi va ongli faoliyat bilan shug’ullanuvchi betakror odam.

SHAXS SOTSIALLASHUVI – inson tomonidan sotsial tajribani egallash va hayot-faoliyat jarayonida uni faol tarzda o’zlashtirish jarayonidir.

SHAXSLARARO MUNOSABAT – muloqot jarayonidagi o’zaro ta’sir etish natijasida ro’y beradigan sotsial-psixologik hodisalar.

SIMPATIYA – bir kishida boshqasiga nisbatan kuzatiladigan moyillik va yoqimlilik hislarining ichki namoyon bo’lishi.

SO’ROV – asosiy metodlardan biri bo’lib, nutq muloqoti yordamida bevosita yoki bivosita ma’lumot olinadi.

SOTSIAL PSIXOLOGIK EKSPERIMENT – asosiy metodlardan biri bo’lib, o’zgaruvchan mustaqil turli holat va jarayonlarning boshqa nomustaqil holat va jarayonlarga ta’sir etishdagi aniq ma’lumotlariga tayanadi.

SOTSIAL PSIXOLOGIK EKSPERIMENT – asosiy metodlardan biri bo’lib, o’zgaruvchan mustaqil turli holat va jarayonlarning boshqa nomustaqil holat va jarayonlarga ta’sir etishdagi aniq ma’lumotlariga tayanadi.

SOTSIAL PSIXOLOGIYA – psixologiya fanining o‘ziga xos maxsus tarmog‘i bo‘lib, unda psixik va jamiyat taraqqiyoti qonunlari o‘rganiladi.

SOTSIAL TASAVVURLAR – shaxsga jamiyat orqali ta’sir etgan narsa va hodisalarning yaqqol obrazi.

SOTSIAL USTANOVKA (sotsial attitude – ingl.) – insonning boshqa kishilar, sotsial guruhlar, tashkilotlar, jamiyatda yuz berayotgan jarayonlarga va hodisalarga bo‘lgan barqaror munosabati.

SOTSIALLASHUV – inson tomonidan sotsial tajribani egallash va hayot-faoliyat jarayonida uni faol tarzda o‘zlashtirish jarayoni.

SOTSIOLOGIYA – jamiyatda yuz beradigan turli voqea-hodisalarni va o‘zaro munosabatlarni o‘rganishga qaratilgan fan.

STIGMA – yunon tilidan olingan bo‘lib, stigma – «belgi», «dog‘» ma’nolarini ifodalaydi. Shaxslaro munosabatlar tizimida uchraydigan shaxsga tegishli yana bir xulq-atvor turidir.

SUBLIMATSIYA – hayotning yuksak sohasida jinsiy mayl energiyasi mehnat faoliyatiga, aqliy va ijodiy faoliyatga qaratilishi va sarf etilishi.

TAQLID QILISH – individ tomonidan ongli va ongsiz ravishda boshqalarning xatti-harakati, yurish-turishi, gapirishini o‘zida qayta tiklash (o‘ziniki qilib o‘zlashtirish).

TEST – sinaluvchini tekshirish jarayonida maxsus qo‘llaniladigan metodlardan biri bo‘lib, bu metod orqali aniq bir psixologik xususiyat aniqlanadi.

TOBE SHAXS – muloqot va boshqa jarayonlarda shaxsda ko‘nikuvchanlik, boshqa kishilarga bog‘liqlik, fikriga bo‘ysunish xususiyatlarining tarkib topishi.

TOLERANTLIK – kengfe’llik ma’nosida «tolerantia» so‘zidan olingan bo‘lib, o‘zgalarning xulq-atvori, e’tiqodlari va qadriyatlarini erkin qabul qilish imkonini beruvchi ruhiy tayyorgarlik; o‘zgalarning turmush tarzi, xulq-atvori, odatlari, his-tuyg‘ularini bildiradi.

TRENING – mashq qilmoq, guruhlarda muloqotning samarali tashkil etish usuli bo‘lib, shaxsning muloqotga o‘rgatish va obro‘li bo‘lishini rivojlantirish maqsadida o‘tkaziladi.

USTANOVKA – (ruscha ustanovka so‘zidan olingan bo‘lib, yo‘nalish, yo‘naltirish ma’nosini anglatadi) shaxsning tevarak-atrofdagi odamlar yoki ob’yektlarga qanday munosabatda bo‘lish, ularni ma’lum darajada idrok qilish, sezish, ularga baho berish va qandaydir harakat qilishga tayyorligini anglatadigan holati.

UYUSHGANLIK – guruh a’zolarining bir-birlarini yaxshi bilishlari, bir-birlarining dunyoqarashlari, hayotiy prinsiplari, qadriyatlarini anglashlari.

VERBAL – og‘zaki ifodalangan nutq.

YO’NALISH – shaxsning xatti-harakati va faoliyatini aniq sharoitlardan qat’iy nazar ma’lum yo‘lga yo‘naltiruvchi barqaror motivlar yig‘indisi.

«**INDIVIDUAL «MEN»** – tarkibiga ko‘ra, sotsial malakalar natijasida yuzaga keladigan sotsial tarkib.

«**MEN»** – obrazi shaxsning o‘z-o‘ziga nisbatan baholar tizimi asosida shakllanuvchi tasavvurlar yig‘indisi.

«**MEN» KONSEPSIYASI** – sotsial fikrlarimizni tashkil etuvchi va xulq-atvorimizni boshqaruvchi tizim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

Rahbariy adabiyotlar:

1. Karimov I.A. “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch.” – Toshkent: “Ma’naviyat”. 2008. – 176 b.
2. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag‘ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo‘shma majlisidagi nutq. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2016. – 56 b.
3. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. Mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma’ruza, 2017 yil 14 yanvar. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017. – 104 b.

Asosiy adabiyotlar:

4. Андреева Г. М. Социальная психология. – Москва, 2008.
5. Майерс Д. Социальная психология, 2010. – 1314 с.
6. Myers D. Social psychology. McGraw-Hill education 2012.
7. Почебут Л.Г., Мейжис И.А. Социальная психология. – СПб, 2010. – 521 с.
8. Полукаров В.Л., Петрушин В.И. Психология менеджмента. – Москва, 2013
9. G‘oziyev E.G‘. Ijtimoiy psixologiya. – Toshkent, 2010.
10. G‘oziyev E.G‘. Sotsial psixologiya. – Toshkent., 2012. – 316 b.
11. G‘oziyev E.G‘. Menejment psixologiyasi. – Toshkent., 2001.
12. Ismoilova N., Abdullayeva D. Ijtimoiy psixologiya: o‘quv qo‘llanma. – Toshkent, 2013. – 168 b.
13. Karimova V. Ijtimoiy psixologiya. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2012, – 172 bet.
14. Maxmudov M. Boshqaruv psixologiyasi. – Toshkent: 2006. – 170 b.

15. Sirliyev B.N. va boshqalar. Mutaassib shaxsning psixologik xususiyatlari. O'quv qo'llanma. – Toshkent, 2015. – 75 b.

Qo'shimcha adabayotlar:

16. Ле Бон Гюстав. Психология народов и масс. – Москва, 2000.

17. Крыско Г.М. Социальная психология. – Москва, 2010.

18. Парыгин В.Д. Основы социально-психологической теории. – Москва, 2001.

19. Петровский А.В. Социальная психология. – Москва, 2003.

20. Социальная психология: Краткий очерк /Под общ. ред. Г.П.Предвечного и Ю.А.Шерковина. – Москва, 1995.

21. Симонов П.В. Что такое эмоции? – Москва, 1966.

22. Ahrorov V.Yu. Menejment va marketing psixologiyasi. – Samarqand, 2019. – 120 b.

23. Davletshin M.G., Shoumarov J.B. O'zbek oilasining etnopsixologik muammolari: Respublika ilmiy-amaliy anjumani ma'ruzalari qisqacha bayoni. – Toshkent, 1993

24. Karimova V. Ijtimoiy psixologiya asoslari. – Toshkent, 1994 yil

25. Karimova V. Ijtimoiy psixologiya va ijtimoiy amaliyot. – Toshkent, 1999 yil.

26. Sog'inov N.A, Habibullayev F.A. Oilani o'rganish psixodiagnostika metodikalari. – Toshkent, 1996 yil.

MUNDARIJA

KIRISH	3
I BOB. SOTSIAL PSIXOLOGIYA FAN SIFATIDA	
I.1. Sotsial psixologiya fanining predmeti va vazifalari.....	5
I.2. Sotsial psixologiyaning hozirgi kundagi mavqei.....	8
II BOB. SOTSIAL PSIXOLOGIK QARASHLARNING RIVOJLANISH TARIXI	
II.1. Antik davr mutafakkirlari ishlarida sotsial psixologik ta'limotlarning rivojlanishi.....	13
II.2. Sotsial psixologiyaning uch nazariy manbai.....	15
II.3. Sotsial psixologiyaning Rossiyada rivojlanishi.....	20
II.4. O'zbekistonda sotsial psixologik tadqiqotlarning o'rni va istiqbollari.....	21
III BOB. SOTSIAL PSIXOLOGIYA METODOLOGIYASI VA METODLARI	
III.1. Sotsial psixologik tadqiqotlar metodologiyasi tushunchasi.....	26
III.2. Sotsial psixologiyning asosiy metodlari. Kuzatish metodi.....	29
III.3. Hujjatlarni o'rganish metodi.....	31
III.4. Anketa metodi.....	32
III.5. Sotsial psixologik testlar.....	34
III.6. Sotsial psixologik eksperiment.....	36
III.7. Proyektiv metodlar.....	37
IV BOB. SOTSIAL PSIXOLOGIYANING ASOSIY YO'NALISHLARI	
IV.1. Sotsial psixologiyaning eksperimental fan sifatida rivojlanishi.....	41
IV.2. Sotsial psixologiyada bixeviorizm.....	42
IV.3. Sotsial psixologiyada psixoanaliz.....	43
IV.4. Sotsial psixologiyada kognitivizm.....	44
IV.5. Sotsial psixologiyada interaksionizm.....	45
IV.6. Sotsial psixologiyada sotsiometriya.....	45

IV.7. Sotsial psixologiyada transakt tahlil.....	46
IV.8. Sotsial psixologiyada ekzistentsial psixologiya.....	48
V BOB. SOTSIAL PSIXOLOGIYADA SHAXS MUAMMOSI	
V.1. Shaxs – sotsial ta’sirlar mahsuli sifatida.....	54
V.2. Sotsial normalar, sanksiyalar va shaxs.....	57
V.3. Sotsial rol tushunchasi va ko‘rinishlari.....	59
V.4. Sotsial rolning shaxs shakllanishiga ta’siri.....	61
V.5. Sotsial ta’sirlarning shaxs tomonidan anglanishi.....	63
V.6. Shaxsning «Men» obrazi.....	65
V.7. «Men» – obrazi va o‘zini-o‘zi baholash.....	68
VI BOB. MULOQOT SOTSIAL VA SHAXSLARARO MUNOSABATLAR- NING IFODASI SIFATIDA	
VI.1. Insoniy munosabatlar psixologiyasi.....	77
VI.2. Shaxslararo muomalaning shaxs taraqqiyotidagi o‘rni.....	79
VI.3. Insoniy muomala va muloqotning psixologik vositalari.....	82
VI.4. Muloqot va uni o‘rganish muammolari.....	83
VI.5. Muloqotning psixologik tizimi.....	87
VI.6. Muloqotning kommunikativ tomoni.....	89
VI.7. Muloqotning interarktiv tomoni.....	91
VI.8. Muloqotning perseptiv tomoni.....	93
VII BOB. SOTSIAL PSIXOLOGIYADA GURUHLAR MUAMMOSI	
VII.1. Sotsial guruhlar psixologiyasi.....	103
VII.2. Guruh funksiyalari.....	104
VII.3. Guruh parametrlari va strukturasi.....	106
VII.4. Kichik guruhlar psixologiyasi muammosi.....	108
VII.5. Kichik guruhlar klassifikatsiyasi.....	110
VII.6. Kichik guruhlardagi dinamik jarayonlar.....	112
VII.7. Guruh o‘lchamlari va uning tizimi	114
VII.8. Jamoalarda psixologik o‘zaro moslik.....	115
VII.9. Guruhdagi psixologik muhit va uni o‘rganish.....	117

VII.10. Katta guruhlar psixologiyasi.....	119
VII.11. Etnik guruhlar psixologiyasi.....	121
VIII BOB. OLOMON PSIXOLOGIYASI	
VIII.1. Olomonning umumiy tavsifi. Uning ruhiy birdamlik qonuni.....	130
VIII.2. «Olomon» tushunchasi va uning turlari.....	132
VIII.3. Olomoni harakatga keltiruvchi psixologik mexanizmlar.....	136
VIII.4. Olomon tarkibida mutaassib shaxslarni aniqlashda profayling metodining ahamiyati.....	150
VII.5. Olomoni boshqarishning psixologik usullari.....	157
IX BOB. GURUH SHAROITIDA ZAMONAVIY O‘QITISHNING PEDAGOGIK VA PSIXOLOGIK TEXNOLOGIYALARI	
IX.1. Auditoriya bilan ishlashning sotsial psixologik shartlari.....	166
IX.2. Faol o‘qitish metodlari va ularni tashkil etish.....	167
IX.3. Darsda munozara, breynshtorming va treninglar o‘tkazish texnologiyasi...	170
IX.4. Bahs turlari. Yozma bahs o‘tkazish usullari.....	173
X BOB. SHAXS SOTSIALIZATSIYASI	
X.1. Sotsiallasuv tushunchasi.....	178
X.2. Taraqqiyot davrlarida shaxs sotsiallasuvi.....	181
X.3. Sotsiallasuv jarayonida shaxs yo‘nalishining shakllanishi.....	184
XI BOB. SOTSIAL USTANOVKA	
XI.1. Sotsial ustanovka tushunchasi.....	190
XI.2. Sotsial ustanovkalarini o‘rganishdagi uch bosqich.....	192
XI.3. Attityud tushunchasining mohiyati va attityudning vazifalari.....	194
XI.4. Ustanovkalarining to‘rt bosqichli tizimi.....	196
XII BOB. SOTSIAL PSIXOLOGIYADA BOSHQARUV MUAMMOSI	
XII.1. Boshqaruv psixologiyasining sotsial psixologik jihatlari.....	201
XII.2. Guruhlarda rahbarlik va liderlik.....	202
XII.3. Liderlik uslublari haqida tushuncha.....	204
XII.4. Rahbarlik sifatleri.....	209
XIII BOB. SOTSIAL PSIXOLOGIYANING TADBIIQIY SOHALARI	

XIII.1. Sotsial psixologiyaning tadbqiqiy va amaliy sohalari.....	218
XIII.2. Sotsial psixologiyaning asosiy sohalari.....	219
XIV BOB. KURS DASTURI MAZMUNI.....	226
GLOSSARIY.....	231
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.....	240

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI

V.Yu.Ahrorov

SOTSIAL PSIXOLOGIYA

Muharrir:

Tex.muharrir:

Musavvir:

Kompyuterda sahifalovchi:

Samarqand – 2020 yil